

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

AXBOROT TEXNOLOGIYALARI KAFEDRASI



KOMP'YUTER GRAFIKASI

fanidan o'quv – metodik majmua

Bilim sohasi: 100000 – Gumanitar soha

Ta'lim sohasi: 110000 – Pedagogika

Ta'lim yo`nalishi: 5112100 – Mehnat ta'limi

Guliston – 2019

Ushbu o‘quv uslubiy majmua O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan 2017 yil 24 avgustda tasdiqlangan o‘quv rejasi va 2016 yil 25 avgustda BD-5112100-2.02 bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan 2016 yil 25 avgustda tasdiqlangan “Kompyuter grafikasi” namunaviy fan dasturiga muvofiq ishlab chiqildi.

Tuzuvchi:

Islikov S.X.

– Gul.DU, “Axborot texnologiyalari” kafedrası o‘qituvchisi.

Taqrizchi:

Abduraximov D.B.

- Gul.DU, “Axborot texnologiyalari” kafedrası dotsenti, p.f.n.

Fanning o‘quv uslubiy majmuasi “Axborot texnologiyalari” kafedrasining 2018-yil 27 - avgustdagi _____ - son yig‘ilishida muhokamadan o‘tgan va fakultet kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri: _____ **p.f.n. Abduraximov D.B.**

Fanning o‘quv uslubiy majmuasi “Fizika-matematika” fakultet kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (2018 yil ___ - avgustdagi ___-sonli bayonnoma).

Fakultet kengashi raisi: _____ dots. Toshtemirov D.E.

Guliston davlat universitetining 2018 yil ___ - avgustdagi ___-sonli ilmiy uslubiy kengashida muhokama qilinib tasdiqlandi.

Mundarija

1	Kirish	4
2	Nazariy materiallar (ma'ruzalar kursi).....	5
3	Amaliy ishlarini bajarish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar.....	125
4	Adabiyotlar	299
5	Glossariy	301
6	Test savollari.....	303

КИРИШ

“Kompyuter grafikasi” fanini o‘qitishdan maqsad - o‘qituvchining kasbiy sohasida egallashi lozim bo‘lgan bilimlar va amalda qo‘llash uchun ko‘nikma va makalalarni shakllantirish va rivojlantirishdan iborat. Unda har bir kasb egasining faoliyati kerak bo‘lgan tayanch nazariy va amaliy ma‘lumotlarni o‘z ichiga oladi. Mazkur ishchi dastur bakalavriat yo‘nalishi: 5112100 – *Mehnat* yo‘nalishida o‘qiladigan “Kompyuter grafikasi” o‘quv fani bo‘yicha tuzilgan bo‘lib, bo‘lajak fan o‘qituvchisi egallashi kerak bo‘lgan qo‘yidagi bilimlar va ko‘nikmalar majmuini o‘z ichiga oladi: kompyuter grafikasi haqida tushuncha. Kompyuter grafikasi turlari: vektorli, rastri, fraktal. Grafik axborotlar bilan ishlash texnologiyasi. Grafik axborotlarni kiritishning maxsus vositalari. Grafik axborotlarni kiritish, tahrirlash va chiqarishning dasturiy vositalari: CorelDraw, Photoshop, 3DS-MAX. Tasvirlarga ishlov berish; Grafik ma‘lumotlarni aks ettirish, Adobe Photoshop grafik muharriri yordamida Web-sahifada grafik ma‘lumotlar aks ettirish. Ranglar palitrasi. Animatsiya va bannerlarni aks ettirish va ularga qo‘yiladigan talablar. Adobe Flash muhitida interfaol animatsiyalar yaratish. Ma‘lumotlarni aks ettirishda ularning o‘lchamlarini optimallashtirish; 3DS-MAX dasturi boshqaruv elementlari bilan ishlash. Obyektlar ustida bajariladigan operatsiyalar va buyruqlar. Turli obyektlar va jarayonlarni modellashtirish. Yoritgichlar va kameralarni o‘rnatish va ular bilan ishlash. Materiallar va ular bilan ishlash. Teksturani kartalar va ular bilan ishlash. Animatsiya hosil qilish. Vizuallashtirish va maxsus effektlar. 3DS MAXda klaviaturaning qo‘llanilishi.

MA'RUZA

MASHG'ULOTLARI

Mavzu № 1 Kompyuter grafikasi haqida tushuncha.

Reja:

1. "Kompyuter grafikasi"ning axborotlashgan jamiyatdagi ahamiyati, roli va o'rni.
2. "Kompyuter grafikasi"ning "Informatika" sohasidagi boshqa fanlar bilan o'zaro aloqasi.
3. "Kompyuter grafikasi" kursining predmeti, mazmuni va vazifalari.

"Kompyuter grafikasi"ning axborotlashgan jamiyatdagi ahamiyati, roli va o'rni. Fan va texnika taraqqiyoti jamiyatimizni axborotlashgan jamiyatga aylantirdi. Bu jamiyatda faoliyat ko'rsatuvchilarning aksariyat qismi axborotlarni ishlab chiqarish, saqlash, qayta ishlash va amalga oshirish bilan banddirlar. Bunday ishlarni zamonaviy kompyuterlarsiz amalga oshirish qiyin. Ulardagi ma'lumotlarni qayta ishlashni mashina grafikasi yordamida amalga oshirish foydalanuvchiga katta qulayliklar tug'diradi. Mashina grafikasi deganda obyektlarning hajm modellarini yaratish, saqlash, ishlov berish va EHMLar yordamida ularni namoyish etish tushuniladi. Kompyuter grafikasi yangi axborotlashgan texnologiyalar orasida to'xtovsiz rivojlanib borayotgan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Bunday rivojlanish texnika sohasida ham (grafika stansiyalari), dasturiy vositalar sohasida ham ko'zga tashlanmoqda. Ular videofilm kadrlari bilan sifat bo'yicha taqqoslashga loyiq hajmli harakatlanuvchi tasvirlarni yaratishga imkon beradi. Bu dasturiy mahsulotlar reklamalar ishlab chiqaruvchi vositalar hisoblanib, san'at va multimediya texnologiyasi sohalarida qo'Uaniladi. Bundan tashqari namoyish grafikasiga, geometrik modellashtirishga, grafik interfeyslarni loyihalashga, animatsiya (harakatlanuvchi tasvirlar)ga va ko'zga ko'rinuvchi (vizual) harakatni qurishga katta e'tibor berilmoqda. Kompyuter grafikasi ilm va fanning barcha sohalarida, ayniqsa iqtisodiy ko'rsatkichlarni tahlil qilishda muvaffaqiyatli qo'llanilishi mumkin. Kompyuter grafikasi dunyo fanida yangi fundamental fan hisoblanib, o'tgan asrning 60-yillarida paydo bo'ldi va ishlab chiqarishning barcha sohalarida kadrlar tayyorlab berishda o'ziga xos ahamiyatga egadir.

Maxsus dasturlar yordamida xuddi bir varaq oq qog'ozga qalam yoki ruchka bilan har xil rasmlarni solish singari kompyuter ekranida sichqoncha yordamida rasm chizish, ya'ni tasvir yasash, tuzatish va uini harakatlantirish imkoni yaratildi. Bu dasturlar rasm chizish programmalari yoki grafik muharrirlar hisoblanib, ular yordamida rasmning elementlari boshqarib boriladi. Kompyuter grafikasining juda tez rivojlanib borishi va undagi texnikaviy, dasturiy vositalarining yangilanib borishi ushbu kursni hamisha takomillashtirishni, bu sohadagi yangi yo'nalishlarni tinmay

o'rganib borishni taqozo etadi. Oxirgi yillarda bu sohada juda katta o'zgarishlar (siljishlar) yuz berdi, ya'ni 16 mln dan ortiq rang va rang turlarini o'zida aks ettira oladigan displeylar, grafik axborotlarni (paper part) kirituvchi moslama — skanerlar, grafik ish stansiyalari, dasturiy vositalar sohasida esa haqiqiy kompyuter dunyosini kashf qila oladigan amaliy dasturlar vujudga keldi.

"Kompyuter grafikasi" ning informatika sohasidagi boshqa fanlar bilan o'zaro aloqasi.

"Kompyuter grafikasi" kursining predmeti, mazmuni va vazifalari

"Kompyuter grafikasi" informatika sohasida o'rganiladigan ko'pgina fanlar o'quv rejalarining ajralmas qismi bo'lib hisoblanadi. Hozirgi vaqtda kompyuter grafikasi quyidagi:

- "Informatika va axborot texnologiyalari"
- "Informatika va dasturlash"
- "Interaktiv dizayn"
- "Iqtisodiyotda axborotlashgan tizimlar va texnologiyalar"
- "Internet asoslari va E-mail (elektron pochta)"
- "Kompyuter tarmoqlari" va boshqa kurslarning predmeti, mazmuni va tarkibiy qismi hisoblanadi.

Berilgan ma'lumotlarni tahlil qilishda, olingan natijalarni ko'rgazmali tarzda ko'rsatish va taqdimot (prezentasiya) uchun materiallar tayyorlashda, tasvirlarni qayta ishlashda, yangi murakkab kompozitsiyalar yaratishda zamonaviy kompyuter grafikasi keng qo'llaniladi. Yuqoridagi sohalar bo'yicha bilim olish va uni amaliyotga tatbiq qilishda "Kompyuter grafikasi" fani qo'l keladi.

Kursning vazifalari quyidalardan iborat:

- o'quvchilarda hozirgi zamon kompyuter grafikasi bo'yicha nazariy va amaliy bilim ko'nikmasini paydo qilish;
- o'quvchilarning hozirgi zamon kompyuter grafikasi vositalarini va ularning ishlatilishini o'zlashtirishiga erishish;
- kompyuter grafikasining texnologik tuzilishini va har xil taqdimot materiallarini tayyorlash va namoyish etishni o'rganish;
- kompyuter grafikasi rivojining o'rni va hozirgi zamon holatini bilish;
- hozirgi zamon kompyuter grafikasidan o'zining o'quv sohasi va professional faoliyatida foydalanishni bilish;
- kompyuter grafikasining texnikaviy vositalari va zamonaviy programmalardan foydalanishni bilish.

Zamonaviy ShK asosida elektron grafiklar qurishning asosiy elementlari va usullari

Elektron grafikni tuzish va uni tushunish uchun grafika elementlari ma'nosi va ularni turli holatlarda qo'shishni o'rganish muhim hisoblanadi.

Grafik yordamida ifodalanadigan voqeliklarni to'g'ri tushunish uchun uni tashkil etuvchi hamma elementlarining to'plami (shkala, sarlavhalar va boshqalar) mavjud bo'lishi lozim.

Tasvirlashning grafik usuli yoki grafik til — bu fikrni ifodalashning fazoviy tasvirlash yoki shartli ravishda tekislikda aks ettirish usullarining to'plamidir.

Grafik tasvirlashning namunalari — geometrik figuralar, turli xaritalar, iqtisodiy analiz diagrammalari, korxonalarining tashkiliy- strukturaviy sxemalari va boshqalar bo'lishi mumkin.

Aqliy tasavur va qiymatlar to'plamini ifodalovchi chizmalarni tuzish jarayoni grafiklashtirish deyiladi, uning natijasi esa — grafika deyiladi. Grafik shartli ravishda voqelikni yoki qandaydir jarayonni tasvirlaydi. Grafikada qo'llaniladigan hamma belgilar g'oyalarbelgisi bo'lib, uning o'zi yaxlit holatda g'oyalar to'plamini ifodalaydi.

Grafika ikki elementga bo'linadi: grafik qiyofa va eksplikatsiya.

Grafik qiyofa — chizmalar to'plami bo'lib, ular o'zaro bog'lanishlari bilan birgalikda tushuniladi.

Eksplikatsiya — grafik obraz mohiyatini ochib beruvchi shartli belgilar to'plami. Grafik obraz — simvol, geometrik shakl ko'rinishida bo'lishi mumkin. Shartli belgilar yordamida ifodalangan grafik obraz ma'nosi uning geometrik shakliga bog'liq emas, sharoitga bog'liq holda tushuniladigan obrazlar simvolli obrazlarga taalluqlidir. Shartli belgilar qandaydir tushunchalar (simvollar) bilan puxta bog'langan bo'lishi, aniq bir sohadagi belgilar to'plami esa maxsus simvollar bilan ifodalanishi mumkin. ...
•.«;»**.* .|.«- , >m., rj;;^ r ! 9 Simvol ko'rinishdagi ikki o'lchovli grafik obrazlar grafikani tashkil etadi.

Geometrik ma'noga ega bo'lgan va shu shaklda biror funksiya yoki tengsizlikni ifodalovchi obraz geometrik grafika deyiladi.

Masalan, iqtisodiy inflatsiya o'sishini ko'rsatuvchi egri chiziq funksiya ko'rinishida emas, balki iqtisodiy masala sifatida qiziqarlidir.

Grafik obraz butun son ko'rinishida ifodalanishi mumkin. Grafika eksplikatsiyasi uch qismga bo'linadi: geometrik, ideografik va xususiylashgan.

Ideografik eksplikatsiya — shartli belgilar figurali, chiziqli, fonli va boshqalar (agar bu belgilar standartlashtirilmagan bo'lsa) ma'nosini tushuntiradi, bu shartli belgilar grafika elementlariga aniq bir ma'no bag'ishlaydi.

Geometrik eksplikatsiya — koordinata o'qlari, shkalalar, masshtablar. Ular yordamida geometrik qiyofalar geometrik xususiyat-larga ega bo'ladi, chunki bu vositalar yordamida geometrik yuzalar xossalaridan foydalaniladi.

Xususiylashgan eksplikatsiya — sarlavhalar, tushuntirishlar (sonlar va belgilar) bo'lishi mumkin. Tushuntirishlar grafikaning ushbu bilimlar doirasida qanday joy egallaganligini ko'rsatadi va til nuqtayi nazaridan grafikaning eng zaruriy elementi hisoblanadi, chunki usiz grafika hech qanday ma'no kasb etmaydi.

Eksplikatsiyadan tashqari grafikada qo'shimcha ma'lumotlar ham bo'lishi mumkin: raqamli ma'lumotlar, takrorlanuvchi qiymatlar va hokazo. Grafikani qandaydir belgisiga ko'ra guruhlash esa butun bir axborot to'plami to'g'risida hukm chiqarishga asos bo'ladi.

Berilgan axborotlarni xronologik ketma-ketligi buzilgan taqdirda, grafikaning yaxlitlik taassuroti buziladi.

Shunday qilib grafika — bu maxsus, fikran yaxlit xayoliy g'oyalarning (ansamblarning) ikki o'lchovli (yoki uch o'lchovli) tasvirda ifodalangan grafik qiyofasi va uning eksplikatsiyasidir.

Shartli belgilar grafik qurishning texnologik asosini tashkil etishi tufayli grafikada ishlatiladigan shartli belgilarni ko'rib chiqamiz.

Shartli belgilar — bular shunday chizmalarki, ular berilgan sifat ko'rsatkichlarini shartli belgilarda ifodalaydi. Bir xil tushunchalarni belgilashda — bir xil shartli belgilardan, turli tushunchalarni belgilashda turli belgilardan foydalaniladi. Natijada, to'liq, shu bilan birga darajalangan qiyofalar vujudga keladi:

- figurali (harflar, raqamlar, ochiq va yopiq figuralar sxematik va kartina ko'rinishidagi tasvirlar);
- chiziqlar (nisbatlarni belgilash, aloqa chiziqlari, geometrik o'lchovlarni ko'rsatish, yo'nalishi, ko'rinishi va boshqalar);
- fon belgilari — maydon va yuzalarni rang bilan yoki shtrixlar bilan (ularning xususiyatlarini ko'rsatish uchun) qoplash.

Shartli belgilar chizma yuzasida ma'lum bir tartibda joylashtiriladi. Masshtabsiz grafiklarda belgilar erkin montaj, zonali va jadval to'ri ko'rinishida beriladi. Bu yerda grafikani yorqinlashtiruvchi vosita sifatida rangdan foydalaniladi.

Zonali to'r — berilgan maydonni bo'laklarga bo'lib, har bir bo'lakka maxsus qiymatni birlashtirib qo'yish. Har bir zona gorizontal yoki vertikal polosa shaklida bo'lib, o'z sarlavhasiga ega bo'ladi.

Jadvalli to'r — bu o'zaro kesishuvchi zonalarining kombinatsiyasidan iborat.

Grafiklar tuzishda, ya'ni uning texnologik asoslarini qurishda grafik muharrirda chiqariladigan chizmalar sonini ham nazarda tutish kerak. Bu yerda qo'yiladigan asosiy talab — grafik muharrir tomonidan ko'rsatiladigan kompleksning eng asosiy qism detallari va soyasi birinchi navbatda, ikkinchi navbatda ikkinchi darajali detallar, uchinchi navbatda yordamchi detallar ko'rsatiladi va hokazo.

Grafikning yuklamasini kamaytirish quyidagi usullar bilan amalga oshiriladi:

1. Ketma-ket detallashtirish usuli (bitta grafik o'rniga, dast-labkiga o'xshash grafiklar seriyasini chizish);
2. Ulanish usuli (umumiy tizimga birlashtirilgan va bir necha turli nuqtalardan olingan tasvir);
3. Asosiy kontur usuli (umumiy konturga ega bo'lgan grafiklar seriyasini tuzish va har bir grafikka o'z xarakteriga mos keluvchi chizmalar chizish);
4. Oddiy solishtirish usuli (bir-biriga bog'liq bo'lmagan, biroq bir xil qoidalar asosida tuzilgan grafiklarni to'plash).

Mavzu № 2 Kompyuter grafikasida ranglarning sxemalari.

Reja:

1. Elektron rang palitrasi.
2. CIE Lab rang moduli.

3. RGB rang moduli.
4. HSB rang moduli.
5. CMYK rang moduli.

Rang palitrasi

Elektron rang palitrasi kompyuter grafikasida qo'llanilishi bo'yicha rassom palitrasiga o'xshash, ya'ni u o'zida ko'p ranglarni saqlaydi.

Elektron palitra tarkibi bir rangni o'zida saqlaydigan yacheykalardan iborat. Palitra aniq bir rang modelini qo'llaydi. Uning ranglari esa bu modul asosida yaratilgan ranglardan iborat bo'ladi.

Internet tarmog'i uchun yaratilayotgan tasvirlarda xavfsiz palitalardan foydalaniladi. Chunki yaratilayotgan grafik ma'lumot minimal hajmda va tarmoqdagi qurilmalarda tasvir o'z aslini yo'qotmasligi zarur. Shuning uchun xavfsiz palitra 216 rangni o'zida saqlaydi.

Rangni inson, miyasida yorug'lik oqimini tahlil qilish natijasida anglaydi.

Yorug'lik oqimi 3 spektral ranglar (Q, Y, K — qizil, yashil, ko'k) kombinatsiyalarining tarqalishidan hosil bo'ladi.

Kompyuter grafikasida rang ma'lumot tushunarligini oshirish uchun vositadir.

Rangni boshqarish sistemalari. Kompyuter grafikasining elementlarini yaratish va qayta ishlashda grafik ma'lumotlarning har xil qurilmalarda asl holatda bo'lishligi talab etiladi. Kompyuter grafikasining qayta ishlash pog'onalarida ranglarning mos tushishini rangni boshqarish sistemalari nazorat qiladi. Bunday tizimlardan biri *CMS (Color Management System)*dir.

Profil. Har bir qurilma o'zining ichki imkoniyatlariga qarab o'z usulida rang chiqaradi. Turli xil qurilmalarda ranglarning mosligini ta'minlash uchun ular o'zining profiliga ega bo'lishi kerak.

Kalibrovka. Har xil platforma, qurilma va dasturlarda rangni bir xilda boshqarish sistemasi mavjud emas. Lekin bu turdagi sistemalarga *CMS* yaqin hisoblanadi. Ilk bor *Solerunc* nomi ostida *CMS* ni *Apple* firmasi operatsion sistemaga kiritdi. U *Macintosh* kompyuterlari sferasida nashrga tayyorlash, nashr qilish va poligrafiyada muvaffaqiyatli xizmat qildi. Windows 95G'98 operatsion sistemalarida *Kodak* firmasining *Color Matchung Module* nomi ostida *CMS* tizimlari ishlatiladi.

Kompyuter grafikasida rangli ruxsat etish tushunchasi qabul qilingan (rang chuqurligi). Monitor ekranida uni hosil qilish uchun rangli informatsiyani kodlashtirish usulidan foydalaniladi. Oq-qora tasvirni aks ettirish uchun ikki bit razryad yetarli. Sakkiz razryadli kodlashtirish 256 turdagi ranglar jilosini aks ettirishga imkoniyat beradi. Ikki bayt (16 bit) 65536 turdagi ranglar jilosini ifodalaydi (bunday rejim — *High Color*). Yigirma to'rt razryadli kodlashtirish usulida 16 777 216 ta rangni ifodalash mumkin.

Amaliy nuqtayi nazardan monitoring rangli ruxsat etish tushunchasi rangli qamrab olishni anglatadi. Bu o'z navbatida chiqarish qurilma (monitor, printer va hokazo)larida ranglar diapazonini hosil qilishni belgilaydi. Rangli modul deb additiv va subtraktiv metodlar yordamida ishlangan ranglar jilosi tarkibiy komponentlarining bo'linish usullariga aytiladi. Kompyuter grafikasida asosan *RGB*, *HSB* va *CMYK* rang modullari qo'llaniladi. Rangli modullar uch o'lchovli koordinatalar sistemasida

joylashadi va ranglar fazosini tashkil qilib, Grossman qonunlariga binoan rangni uch o'lovchi fazodagi nuqta sifatida ifodalashi mumkin.

Grossmanning birinchi qonuni. Chizikli bog'liq bo'lmagan har qanday rangni uchta tashkil etuvchi orqali bir qiymatli ifodalash mumkin. Chizikli bog'liq bo'lmaslik — bu ixtiyoriy uch rangdan ikkitasini qo'shish orqali uchinchisini hosil qilish imkoniyati mavjud emas.


Grossmanning ikkinchi qonuni. Agar ranglar uzluksiz o'zgarsa, ranglar aralashmasining nurlanishi ham uzluksiz o'zgaradi. Hech qanday rang yo'qki, unga yaqin bo'lgan rangni tanlash imkoniyati mavjud bo'lmasa.

Grossmanning uchinchi qonuni. Ranglar aralashmasining nurlanishi ularning rangiga bog'liq, biroq uning spektr tarkibiga bog'liq emas.

Rang modullari

CIE Lab rang moduli. 1920-yilda *CIE Lab* {Communication Internationale de l'Eclairage — xalqaro komissiya, *L,a,b* — bu sistemada koordinata o'qlarining ifodalanishi) rang fazoviy moduli ishlab chiqildi. Sistema apparatga bog'liq bo'lmaganligi uchun ko'p hollarda qurilmalar orasida ma'lumotni o'tkazish uchun qo'llaniladi. *CIE Lab* modulida ixtiyoriy rang quyidagicha aniqlanadi; yorug'lik (L) va uning xromatik komponentlari: a — parametri yashil rangdan qizil ranggacha o'zgarish diapazonini, b — parametri ko'k rangdan sariq ranggacha o'zgarish diapazonini tashkil qiladi. *CIE Lab* modulida ranglarni qamrab olish imkoniyati texnik qurilmalar (monitor, printer) imkoniyatlaridan yuqori bo'lganligi sababli tasvirni chiqarishdan oldin uni o'zgartirishga to'g'ri keladi. Bu modul rangli fotokimyoviy va poligrafik jarayonlarni bir-biriga bog'lash uchun ishlab chiqilgan. Hozirgi kunda bu modul *Adobe Photoshop* dasturida standart sifatida qabul qilindan.

RGB rang moduli. *RGB* (*Red, Green, Blue* — qizil, yashil, ko'k) rang moduli tasvirni ekranda tahrir qilish nuqtayi na-zaridan kelib chiqqan holda juda qulay va u bir-biriga bog'liq bo'lmagan uchta qiymatdan foydalanadi. Buni uch o'lovchi koordinata sistemasi ko'rinishida ifodalash mumkin. Har bir koordinatalar o'qida 0 dan 255 gacha diapazondagi bitta rang joylashtiriladi. Natijada rangli kub hosil bo'ladi va uning ichida *RGB* modulning barcha ranglari joylashadi. Bu kubning hajmini hisoblash natijasida *RGB* modulning ranglar soni 16 777 216 ta bo'lishi mumkinligini aniqlaymiz, ularni 24 razryadli ranglar platasi yordamida monitorda aks ettirish mumkin. *RGB* ranglar majmuasi bilan ishlangan barcha tasvirlarni xohlagan formatda diskka yozish mumkin. *RGB* ranglar majmuasidagi ayrim ranglar tabiatda uchramaydi. *RGB* rang moduli additiv bo'lib, har qanday rang uch asosiy (qizil, yashil va ko'k) ranglarning turli miqdorlari birikmasidan hosil qilinadi. Bu esa kompyuter grafikasini hosil qilish va qayta ishlashda asos bo'lib, elektron aks ettirish (monitor, televizor) uchun xizmat qiladi. Agar asosiy rangning bir komponentini ikkinchisiga qo'shsak, nurlanishlar yig'indisining yorug'ligi ortadi. *RGB* ranglar majmuasida oq rang uchala ranglarning maksimal aralashmasidan hosil qilinadi, qora rang esa buning aksi o'laroq minimal aralashmasidan hosil qilinadi.



Asosiy ranglaming joylashuvi

Ushbu rang moduli apparat-qurilmalar uchun mo'ljallangan bo'lib, rangli monitorlarda, televizorlarda keng ishlatiladi. Bunda asosiy ranglar qizil, yashil, ko'k ranglar bo'lib, qolganlari shularning qo'shilishidan hosil qilinadi.

HSB rang moduli. *HSB* rang moduli insonning ranglarni maksimal qabul qilish xususiyatini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan. U rassom A.N.Mansellning ranglar aylanasi asosida yaratilgan. Rang uch komponent yordamida ifodalanadi: turi (Hue) — yorug'lik to'lqini uzunligi; to'yintirilganligi (Saturation) — yorug'lik to'lqini chastotasi yoki intensivligi; yoritilganligi (Brigfitness) — yorug'lik to'lqini soni yoki rangning to'q yoki ochligi. Yorug'lik to'lqinining amplitudasi bu yerda ishtirok etmaydi. Umumiy holda *HSB* modulining ixtiyoriy rangi oq va qora bo'yoqlardan aniq foizda qo'shilgan spektral rangdan hosil qilinadi. Bu modul uch o'lchamli koordinatalar sistemasida quyidagicha joylashadi — birinchi o'q konus asosi aylanasi chizig'i, ikkinchi o'q konus diametri bo'lib aylana-ning ixtiyoriy nuqtasini uning markazi bilan tutashtiradi, uchinchi o'q konus balandligi. Bundan foydalanib moduldagi ranglar sonini hisoblash mumkin. Konus asosi bo'lgan aylanani 359 ta sektorga spektral ranglar bo'yicha bo'lamiz, har bir sektor 100 darajali yorug'lik to'lqini chastotasi, 100 darajali yorug'lik to'lqinini saqlaydi. Konus sirtining yuzasini hisoblash formulasidan bitta sektorda 5000 rang hosil bo'ladi, agar uni sektorlar soni 359 ga ko'paytirsak, *HSB* rangli modulidagi 1795 000 ta ranglar soni kelib chiqadi. Rangning qiymati aylana markazidan yo'nalgan vektor sifatida qabul qilinadi. Markazdagi nuqta oq rangga, aylana chegarasining nuqtalari esa spektral ranglarga mos keladi. Vektorning yo'nalishi graduslarda berilib ranglar farqini ko'rsatadi. Vektorning uzunligi ranglar to'qligini ko'rsatadi. Bunda boshlang'ich nuqta qora rangga to'g'ri keladi. *HSB* rang moduli qamrovi barcha mavjud ranglarning qiymatini o'z tarkibiga oladi. Rang yorug'ligining pasayishi uning qorayishini bildiradi. Rangga qancha ko'p miqdorda qora bo'yoq qo'shilgan bo'lsa uning yorug'ligi shuncha past bo'ladi. Rang yorug'ligi hosil qilish spektral rangga aniq foizdagi qora bo'yoqni qo'shish bilan xarakterlanadi.

CMYK rang moduli. *CMYK* rang moduli subtraktiv modulga tegishli bo'lib, u nashrni chop etishga tayyorlashda qo'llaniladi. *CMYK* rang komponentlari sifatida, asosan oq rangdan ayirish natijasida hosil bo'lgan quyidagi ranglar xizmat qiladi:

— havorang (cyan) = oq — qizil = yashil
+ ko‘k; — to‘q qizil {magenta} = oq —
yashil = qizil + ko‘k; — sariq (yellow) =
oq — ko‘k = qizil + yashil.

Bu metod original tasvirni chop etishda ranglarning tabiiy qabul qilinishiga mos keladi. Havorang, to‘q qizil va sariq ranglar qo‘shimcha hisoblanadi, chunki ular asosiy ranglarni to‘ldiradi. Amalda qo‘shimcha ranglarni bir-biriga qo‘shgan bilan qora rangni bermaydi. Shuning uchun rangli modulga yana bir komponent — qora rang kiritilgan. Natijada rangli modul abbreviaturasida to‘rtinchi harf paydo bo‘ldi: *CMYK* (*Cyan, Magenta, Yellow, Black*). Kompyuter tasvirini poligrafik uskunada chop etish uchun ranglarni *CMYK* moduli komponentlariga mos keluvchi tarkiblarga ajratish kerak. Bu jarayon ranglarni ajratish deyiladi. Oqibatda har bir komponentning original to‘rtta tasviri hosil qilinadi.

Mavzu № 3 Kompyuter grafikasi fayllar formatlari. Grafik axborotlar bilan ishlash texnologiyasi.

Reja:

1. Kompyuter grafikasidan foydalanishning asosiy qoidalari va qo‘llash sohalari.
2. Grafik formatlar.
3. Zamonaviy ShK asosida elektron grafiklar qurishning asosiy elementlari va usullari.
4. Elektron grafiklar qurishning texnologik asoslari. Kompyuter grafikasining turlari, uning turkumlari va har xil ko‘rinishlari.
5. Kompyuter grafikasining texnik-dasturiy va informatsion asoslari hamda uning turkumlari.

Kompyuter grafikasidan foydalanishning asosiy qoidalari va qo‘llash sohalari. Kompyuter grafikasi qo‘llaniladigan asosiy sohalarni ko‘rsatib o‘tamiz:

- Grafiklarni chizish;
- Kartografiya-geografik, tabiiy yoki iqtisodiy hodisalarni o‘zaro chegaradosh mamlakatlar, viloyatlar, o‘lkalarining aniq xaritasini tasvirlash;
- Chizmachilik va konstruktorlik ishlarini avtomatlashtirish;
- Modellashtirish va multiplikatsiya;
- Turli texnologik jarayonlarni boshqarish – hayotiy masalalarni interaktiv rejimda namoyish etish. Texnologik jarayonni eng kerakli nuqtalariga o‘rnatilgan dastlabki axborot manbai bo‘lgan o‘lchagichlardan kelayotgan axborotlar qiymatini vizual idrok qilish;
- Kantcelyariya ishlarini avtomatlashtirish va chop etishni elektron usuli;
- Reklama va san`at - qandaydir fikrni ifodalash va estetik yoqimli tasvirlar orqali jamoani diqqatini tortish.

Grafik formatlarda ixchamlash.

Web-sahifalar yaratishda turli xildagi illyustratsiyalar ishlatib turiladi. Ularga quyidagilar kiradi: logotip, tugma, banner, harakatlanuvchi tasvir, fototasvir, diagramma va grafiklar.

Odatda grafik fayllar katta o'lchamga ega bo'ladi. Masalan, BMP, TIFF yoki PCX formatlaridagi grafik fayllar samarasiz kodlanadi va tasvirni to'g'ri etkazishga kerakli o'lchamdan ham katta o'lchamga ega bo'lishi mumkin.

Foydalanuvchilarning katta qismi tarmoqqa modemlar orqali ulanadi. Foydalanuvchi modemlarining provayderlar bilan ulanish tezligi 56 Kbit/sek dan oshmasligini hisobga olgan holda, bunday grafik fayllardan foydalanish maqsadga muvoffiq emas, chunki sahifalar yuklanish vaqti cho'zilib ketadi.

Bunday holatda sahifalarni tarmoqda nashr qilishga tayyorlashda asosiy maqsad - illyustratsiyalar hajmini maksimal darajada kamaytirishdir, chunki grafik fayllar hajmi sahifaning umumiy hajmini belgilaydi, bu esa o'z navbatida uning yuklanish tezligiga ta'sir qiladi.

Tarmoqdagi grafikaning yuklanish vaqtini qisqartirish uchun grafik fayllarni siquvchi juda ko'p sonli texnologiyalar ishlab chiqilgan. Grafik ma'lumotlarni siquvchi texnologiyalar ikki xilga bo'linadi: tasvir sifatining yo'qolishiga olib keladigan va tasvir sifatini saqlab qoluvchi. Ixchamlash texnologiyasining birinchi tipi bu jarayon vaqtida grafik fayllarning ba'zi ma'lumotlarini yo'qotadi, bu bilan u tasvir sifatiga zarar etkazadi; ikkinchi xilda esa tasvir sifatiga ta'sir ko'rsatmagan holda grafik fayllarni siqadi. Format va grafik fayllarni ixchamlash texnologiyasini to'g'ri tanlab, boshlang'ich tasvir sifatini buzmaganda 10-50 martagacha kichraytirish mumkin, ya'ni, siqilgan va siqilmagan tasvirlar orasidagi farqni inson ko'zi bilan aniqlab bo'lmaydi.

Hozirgi kunda tarmoqlarda ikki asosiy grafik format qo'llanadi: GIF va JPEG (yoki JPG). Bu grafik formatlarda illyustratsiyalangan sahifalarni barcha keng tarqalgan brauzerlar tushunadi va to'g'ri tasvirlaydi. Bu formatlarning har biri o'z ustunliklari va kamchiliklariga ega, bu ularning qo'llanish sohasini aniqlaydi, ular orasidagi farqni tushunish o'z navbatida sayt sahifalarini grafik bezash ishlarini osonlashtiradi.

Grafik formatlar.

GIF (Graphics Interchange Format) grafik formati - tarmoqdagi eng keng tarqalgan grafik format, u tarmoqda birinchi bo'lib paydo bo'lgan. Tarmoqdagi rangli tasvirlar va fonlarning ko'p qismi GIF formati fayllaridir.

GIF tasvirni ixchamlashga imkon beradi, tasvirlarning rang palitrasi 256, yoki undan kamroq rangni saqlaydi. Bu ixchamlash jarayoni sifatga ta'sir qilmaydi, ya'ni, ixchamlashdan keyin olingan tasvir boshlang'ichi kabi bo'ladi. Agar tasvir 256 dan ortiq rangga ega bo'lsa, ularning soni chegaralangan qiymatgacha qisqartiriladi. Shuni aytib o'tish kerakki, ranglar sonini qisqartirish bosqichida tasvir sifatiga zarar yetkazilishi mumkin.

GIF da boshlang'ich tasvirni ixchamlashda faylning o'lchamini faqatgina palitradagi ranglar sonini 2 dan 256 gacha chegaralagan holda kichraytirish mumkin. Shunday qilib, GIF chegaralangan sonli ranglardan tarkib topgan grafik fayllarni ixchamlashda qo'llanilsa, juda yaxshi natijalarga erishiladi. Bu grafik format tarmoqda

logotip, matn, diagramma, grafik va chizmalarning tasvirini taqdim qilishda juda katta imkoniyatga ega.

GIF formatining ikki varianti mavjud: GIF87a va GIF89a. U ishlab chiqaruvchilar Lempel, Ziv, Welch familiyalarining birinchi harflari bilan nomlangan LWZ ixchamlash usulini qoʻllaydi.

GIF89a formati GIF87a formati standartiga toʻgʻri keladi. Bundan tashqari, rangning tiniqligi (transparency), satrlararo yuklanish (interlaced) va animatsiya kabi yangi imkoniyatlar bilan toʻldirilgan.

Rangning tiniqligi orqali har qanday fonga qoʻyib boʻladigan ixtiyoriy tasvirlar yaratish mumkin. GIF89a da oddiy animatsiyaning qoʻllanilishi tasvirlar ketma-ketligini berilgan vaqt oraligʻida siklik qaytarishi mumkin.

JPEG (Joint Photographic Experts Group) grafik formati (qisqartirilgan holda JPG) koʻp rangli tasvir fayllarini tarmoqda ishlatish uchun moʻljallangan boʻlib, foydalanish darajasi boʻyicha ikkinchi oʻrinda turuvchi grafik format hisoblanadi.

JPEG rang palitrasi 16 777 216 (True Color)tagacha boʻlgan rangni saqlaydigan tasvirlarni ixchamlash imkoniyatini beradi. Bunday ixchamlash tasvirning sifati yoʻqolishi (lossy compression) hisobidan sodir boʻladi.

JPEGda boshlangʻich tasvirni ixchamlashda “ixchamlash darajasi”ni juda keng chegaralarda boshqarish mumkin. Bu formatda “ixchamlash darajasi” tasvir sifatining yomonlashuviga olib kelishini yodda tutish kerak, ixchamlash darajasi qancha yuqori boʻlsa tasvirning koʻrinishi boshlangʻich tasvirga nisbatan shuncha koʻp yomonlashadi. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, JPEG juda koʻp ranglarni, mayda rangli detallarni saqlovchi fototasvirlarning sifatli grafik fayllarni ixchamlash uchun mos keladi. Bu format koʻp hollarda tarmoqda sifatli fototasvir va illyustratsiyalarni taqdim qilish uchun qulay hisoblanadi. Afsuski, JPEG ranglarning tiniqligini qoʻllamaydi, bu esa uning qoʻllanish sohasini kamaytiradi.

Tarmoqda keng tarqalgan bu ikkala grafik fayllar formati oʻzining rivojlanishini davom ettirmoqda, yaʼni grafikaning yuklash jarayonini osonlashtirish maqsadida yuklanish tugashiga qadar past ruxsatda boshlangʻich tasvir variantlarini koʻrsatish imkoniyatini beruvchi texnologiyalar ishlab chiqilgan.

JPEG da bunday maqsadlarga erishish uchun bosqichma-bosqich algoritm oʻrnatilgan (progressive JPEG). Bu algoritmgaga asosan dastlab past sifatli tasvir, keyin esa uning ustiga toʻliq asosiy tasvir yuklanadi.

PNG grafik format Web – sahifalarda tasvir va grafiklarni joylashtirish uchun maxsus yaratilgan ixchamlash formati boʻlib Deflate ixchamlash algoritmidan foydalanadi. Bu format GIF va JPEG formatlarining afzallik tomonlarini oʻzida mujassamlashtirgan.

TIF grafik format Aldus kompaniyasi tomonidan PhotoStyler dasturi uchun ishlab chiqilgan boʻlib “tegni tasviraydigan fayl” maʼnosini anglatadi. Bu grafik format yetarlicha murakkab boʻlsa ham uning strukturasi maʼlumotlarni yozishning qulayligi va tasvirni kengaytirishda katta imkoniyat mavjud. Tasvirning raqamli maʼlumotlarni ifodalovchi barcha axborotlar boshqa koʻpgina format fayllari singari uning boshlangʻich qismida emas, balki maxsus bloklarda, tasvir parametrlarining ichki belgilashlarida saqlanadi.

Unda 45 dan ortiq turli teglar mavjud bo'lib ularning qo'llanilishi ko'pgina qo'shimcha funktsiyalarni tashkil etish imkoniyatini beradi.

PCX grafik format Zsoft firmasi tomonidan ishlab chiqilgan va Paintbrush, hamda PhotoFinish dasturlarida qo'llaniladi. Bu grafik faylning tuzilishi sodda va ranglar palitra hajmi bo'yicha chegaralangan bo'lishiga qaramasdan yaqin vaqtgacha ommabop sanalib kelingan.

BMP grafik formati Windows operatsion tizimi uchun Microsoft firmasi tomonidan ishlab chiqarilgan. U favqulotda sodda strukturani ifodalaydi va uncha katta bo'lmagan piktogrammatasvirlarning namoyish etilishini izohlash uchun xizmat qiladi. U grafik interfeyslarda keng qo'llaniladi.

GIF va JPEG grafik formatlari bilan ishlashda quyidagilarni yodda tutish muhimdir

- Natijalanuvchi GIF-fayl o'lchami palitradagi ranglar soniga bog'liq. Palitradagi ranglar qancha kam bo'lsa, ixchamlash darajasini shuncha katta berish mumkin va yakuniy fayl o'lchami ham shuncha kichik bo'ladi.

- Natijalanuvchi JPEG-fayl o'lchami tasvirning mayda detallar bilan to'ldirilganiga bog'liq bo'ladi. Ular qancha ko'p bo'lsa, ixchamlash darajasini shuncha katta berish mumkin, va yakuniy fayl o'lchami ham shuncha kichik bo'ladi.

- Hech qachon JPEGda tasvirning oraliq variantlarini saqlamang, nusxalarni boshqa formatlarda saqlang. Biror bir o'zgartirish kiritish kerak bo'lsa, o'sha nusxalarni ishlating.

- Hech qachon tasvirni GIF dan JPEGga va aksincha, o'tkazmang. Bunday harakatlarda to'g'ri ixchamlash imkoniyati kamayadi, tasvirning va rang berishning yomonlashuvi yuz beradi.

- Chekli sondagi ranglardan foydalanilgan, biroq bir xil rangli sohalarning kattaligi va bir rangdan ikkinchisiga o'tishda chegaralarning aniqligini saqlovchi tasvirlarni GIF texnologiyasi orqali ixchamlash (1-rasm) JPEG dagiga (2-rasm) qaraganda yaxshiroq bo'ladi va natijadagi fayllar esa kichik o'lchamda bo'ladi. Agar bunday tasvirlar JPEG da siqilsa, ranglar xira bo'ladi va natijadagi fayl o'lchami kattaroq bo'ladi.

- Ko'p sonli mayda detallardan tashkil topgan fototasvirlar va plutonli tasvirlarni JPEG texnologiyasi orqali ixchamlash (3-rasm) GIF dagiga (4-rasm) qaraganda yaxshiroq va natijadagi fayllar esa kichik o'lchamda bo'ladi. Agar bunday tasvirlar GIF da siqilsa, ranglar xira bo'ladi va natijadagi fayl o'lchami kattaroq bo'ladi.

Grafik fayllarni ixchamlashni osonlashtirish uchun maxsus ilovalar mavjud bo'lib, ular sifatni yo'qotmagan holda grafik fayllar hajmini kichraytirish imkonini beradi.

Zamonaviy ShK asosida elektron grafiklar qurishning asosiy elementlari va usullari

Elektron grafikni tuzish va uni tushunish uchun grafika elementlari ma'nosi va ularni turli holatlarda qo'shishni o'rganish muhim hisoblanadi.

Grafik yordamida ifodalanadigan voqeliklarni to'g'ri tushunish uchun uni tashkil etuvchi hamma elementlarining to'plami (shkala, sarlavhalar va boshqalar) mavjud bo'lishi lozim.

Tasvirlashning grafik usuli yoki grafik til — bu fikrni ifodalashning fazoviy tasvirlash yoki shartli ravishda tekislikda aks ettirish usullarining to‘plamidir.

Grafik tasvirlashning namunalari — geometrik figuralar, turli xaritalar, iqtisodiy analiz diagrammalari, korxonalarining tashkiliy- strukturaviy sxemalari va boshqalar bo‘lishi mumkin.

Aqliy tasavur va qiymatlar to‘plamini ifodalovchi chizmalarni tuzish jarayoni grafiklashtirish deyiladi, uning natijasi esa — grafika deyiladi. Grafik shartli ravishda voqelikni yoki qandaydir jarayonni tasvirlaydi. Grafikada qo‘llaniladigan hamma belgilar g‘oyalarbelgisi bo‘lib, uning o‘zi yaxlit holatda g‘oyalar to‘plamini ifodalaydi.

Grafika ikki elementga bo‘linadi: grafik qiyofa va eksplikatsiya.

Grafik qiyofa — chizmalar to‘plami bo‘lib, ular o‘zaro bog‘lanishlari bilan birgalikda tushuniladi.

Eksplikatsiya — grafik obraz mohiyatini ochib beruvchi shartli belgilar to‘plami. Grafik obraz — simvol, geometrik shakl ko‘rinishida bo‘lishi mumkin. Shartli belgilar yordamida ifodalangan grafik obraz ma‘nosi uning geometrik shakliga bog‘liq emas, sharoitga bog‘liq holda tushuniladigan obrazlar simvulli obrazlarga taalluqlidir. Shartli belgilar qandaydir tushunchalar (simvollar) bilan puxta bog‘langan bo‘lishi, aniq bir sohadagi belgilar to‘plami esa maxsus simvollar bilan ifodalanishi mumkin. ...
.•.<<»**.* .!.<<- , >m., rj;;^ r ! 9 Simvol ko‘rinishdagi ikki o‘lchovli grafik obrazlar grafikani tashkil etadi.

Geometrik ma'noga ega bo‘lgan va shu shaklda biror funksiya yoki tengsizlikni ifodalovchi obraz geometrik grafika deyiladi.

Masalan, iqtisodiy inflatsiya o‘rishini ko‘rsatuvchi egri chiziq funksiya ko‘rinishda emas, balki iqtisodiy masala sifatida qiziqarlidir.

Grafik obraz butun son ko‘rinishida ifodalanishi mumkin. Grafika eksplikatsiyasi uch qismga bo‘linadi: geometrik, ideografik va xususiyashgan.

Ideografik eksplikatsiya — shartli belgilar figurali, chiziqli, fonli va boshqalar (agar bu belgilar standartlashtirilmagan bo‘lsa) ma‘nosini tushuntiradi, bu shartli belgilar grafika elementlariga aniq bir ma‘no bag‘ishlaydi.

Geometrik eksplikatsiya — koordinata o‘qlari, shkalalar, masshtablar. Ular yordamida geometrik qiyofalar geometrik xususiyat-larga ega bo‘ladi, chunki bu vositalar yordamida geometrik yuzalar xossalardan foydalaniladi.

Xususiylashgan eksplikatsiya — sarlavhalar, tushuntirishlar (sonlar va belgilar) bo‘lishi mumkin. Tushuntirishlar grafikaning ushbu bilimlar doirasida qanday joy egallaganligini ko‘rsatadi va til nuqtayi nazaridan grafikaning eng zaruriy elementi hisoblanadi, chunki usiz grafika hech qanday ma‘no kasb etmaydi.

Eksplikatsiyadan tashqari grafikada qo‘shimcha ma'lumotlar ham bo‘lishi mumkin: raqamli ma'lumotlar, takrorlanuvchi qiymatlar va hokazo. Grafikani qandaydir belgisiga ko‘ra guruhlash esa butun bir axborot to‘plami to‘g‘risida hukm chiqarishga asos bo‘ladi.

Berilgan axborotlarni xronologik ketma-ketligi buzilgan taqdirda, grafikaning yaxlitlik taassuroti buziladi.

Shunday qilib grafika — bu maxsus, fikran yaxlit xayoliy g'oyalarning (ansambllarning) ikki o'lchovli (yoki uch o'lchovli) tasvirda ifodalangan grafik qiyofasi va uning eksplikatsiyasidir.

Shartli belgilar grafik qurishning texnologik asosini tashkil etishi tufayli grafikada ishlatiladigan shartli belgilarni ko'rib chiqamiz.

Shartli belgilar — bular shunday chizmalarki, ular berilgan sifat ko'rsatkichlarini shartli belgilarda ifodalaydi. Bir xil tushunchalarni belgilashda — bir xil shartli belgilardan, turli tushunchalarni belgilashda turli belgilardan foydalaniladi. Natijada, to'liq, shu bilan birga darajalangan qiyofalar vujudga keladi: • figurali (harflar, raqamlar, ochiq va yopiq figuralar sxematik va kartina ko'rinishidagi tasvirlar);

- chiziqlar (nisbatlarni belgilash, aloqa chiziqlari, geometrik o'lchovlarni ko'rsatish, yo'nalishi, ko'rinishi va boshqalar);

- fon belgilari — maydon va yuzalarni rang bilan yoki shtrixlar bilan (ularning xususiyatlarini ko'rsatish uchun) qoplash.

Shartli belgilar chizma yuzasida ma'lum bir tartibda joylashtiriladi. Masshtabsiz grafiklarda belgilar erkin montaj, zonali va jadval to'ri ko'rinishida beriladi. Bu yerda grafikani yorqinlashtiruvchi vosita sifatida rangdan foydalaniladi.

Zonali to'r — berilgan maydonni bo'laklarga bo'lib, har bir bo'lakka maxsus qiymatni biriktirib qo'yish. Har bir zona gorizontali yoki vertikal polosa shaklida bo'lib, o'z sarlavhasiga ega bo'ladi.

Jadvalli to'r — bu o'zaro kesishuvchi zonalarning kombinatsiyasidan iborat.

Grafiklar tuzishda, ya'ni uning texnologik asoslarini qurishda grafik muharrirda chiqariladigan chizmalar sonini ham nazarda tutish kerak. Bu yerda qo'yiladigan asosiy talab — grafik muharrir tomonidan ko'rsatiladigan kompleksning eng asosiy qism detallari va soyasi birinchi navbatda, ikkinchi navbatda ikkinchi darajali detallar, uchinchi navbatda yordamchi detallar ko'rsatiladi va hokazo.

Grafikning yuklamasini kamaytirish quyidagi usullar bilan amalga oshiriladi:

1. Ketma-ket detallashtirish usuli (bitta grafik o'rniga, dast-labkiga o'xshash grafiklar seriyasini chizish);

2. Ulanish usuli (umumiy tizimga birlashtirilgan va bir necha turli nuqталardan olingan tasvir);

3. Asosiy kontur usuli (umumiy konturga ega bo'lgan grafiklar seriyasini tuzish va har bir grafikka o'z xarakteriga mos keluvchi chizmalar chizish);

4. Oddiy solishtirish usuli (bir-biriga bog'liq bo'lmagan, biroq bir xil qoidalar asosida tuzilgan grafiklarni to'plash).

Elektron grafiklar qurishning texnologik asoslari. Elektron grafik tasvirlar qurishning zamonaviy usullari

Grafikaning texnologik asoslarini qurishda uning ko'rkamligini ham nazarda tutish zarur.

Grafikaning ko'rkamligini oshiruvchi va uning yuklanish tezligini kamaytiruvchi vositalardan biri bu rang berish usulidir. Lekin rang grafikada aralash-quralashlikni keltirib chiqarmasligi kerak. Masalan, alohida regionlarda aholining zichligini yoki kasallik tarqalishi grafikasini ifodalash, go'yoki bu regionlar

orasida uzviy bog‘liqlikni ifodalagandek taassurot qoldiradi. Bunday holda ifodalanayotgan qiymatiga qarab bir xil rangni to‘q yoki och holatini ishlatish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Amaliy dasturlar paketlarining (ADP) keng tarqalishi shu bilan asoslanadiki, tasvirni kommunikatsiya texnologiya vositasi sifatida qabul qilish inson uchun tabiiyroq bo‘lib, bu usulda ham yetarli aniqlikka erishish mumkin.

Mashina grafikasini passiv va interaktiv bo‘ektlarga ajratish mumkin. Bundan 20 yillar avval ulug‘ olimlar, san‘at ustalari, sportchilar, multiplikatsion filmlar qahramonlari (masalan, bo‘ri, quyon rasmlari), Albert Eynshteyn rasmlarini alfavit-raqamli zarbli chop etish qurilmalaridan chiqarish keng tarqalgan edi. Bunda rasm ma‘lum nuqtalarga bir xil belgilarni qog‘oz sathiga tushirish orqali, rang tafovuti esa ba‘zi joylarga shu belgilarni bir necha marta urib (to‘q rang), ba‘zi joylarda bir marta tushirib (och rang) hosil qilinardi. Tasvirni bunday usulda hosil qilish passiv mashina grafikasiga tegishlidir.

Interaktiv mashina grafikasi (IMG)da tasvirning holati, uning shakli, mazmuni, o‘lchamlari va rangi monitor ekranida interaktiv qurilmalar yordamida dinamik ravishda uzluksiz o‘zgartirilib, boshqarib turiladi.

Zamonaviy shaxsiy kompyuterlarda hosil qilinadigan grafikalarining barchasi amaliy jihatdan qaraganda interaktivdir.

Passiv mashina grafikasiga planshetli va barabanli grafik quruvchi qurilmalar, shuningdek printer, kino va videokameralar yor-damida hosil qilinadigan tasvirlar kiradi.

Bu qurilmalar yordamida hosil qilinadigan tasvirga bevosita ta‘sir qilib bo‘lmaydi. Monitor qurilmasida tasvir hosil qilish jarayonini sichqoncha, klaviatura, skaner qurilmalari yordamida istagancha boshqarish mumkin.

Yuqorida ko‘rib o‘tilgan hamma tasvir hosil qilish usullarining umumiy jihati shundaki, ularda tasvir raqamli protsessor yordamida hosil qilinadi.

Grafik tasvir hosil qilishning zamonaviy usullari bilan yaxshiroq tanishish maqsadida kompyuter grafikasining uch turi — rastrli (nuqtali yoki piksellli), vektorli (obyektli), fraktal hosil qilinishini ko‘rib chiqamiz. Bu uch turning asosiy farqi ekran yuzasida yorug‘lik nuri haraktlanishining turlichaligidadir. Learning to‘la farqi keyingi mavzularda chuqurroq ko‘rib o‘tiladi.

Kompyuter grafikasining turlari, uning turkumlari va har xil ko‘rinishlari

Kompyuter grafikasi uch turga bo‘linadi: rastrli grafika, vektorli grafika va fraktal grafika. Ular bir-biridan monitor ekranida tasvirlanishi va qog‘ozda bosib chiqarilishi bilan farqlanadi.

Rastrli grafika. Rastrli grafikada tasvir nuqtalar (qog‘ozda), piksellar (nuqtalar ekranda shunday deb ataladi) yordamida hosil qilinadi. Tabiiyki, nuqtalar soni qancha ko‘p bo‘lsa (ular zich qilib joylashtirilsa), unga asoslangan rasm, shakl, grafik va hokazolar shuncha aniq ko‘rinib turadi. Shu munosabat bilan ekranning ruxsat etish qobiliyati tushunchasi kiritilgan bo‘lib, unda gorizontal va vertikal yo‘nalishlardagi nuqtalar soni muhim ahamiyatga ega va u ekranning ruxsat etish imkoniyati deyiladi.

Odatda, bunday ko'rsatkich 640 x 480, 800 x 600, 1024 x 768 yoki bulardan yuqori piksellarda beriladi. Tasvir o'lchovi ruxsat etish qobiliyati bilan bog'liqdir. Bu parametr dpi (dots per inch — nuqtalar soni zichligi) bilan o'lchanadi. Ekran diagonali 15 duymli (1 duym 2,54 sm) monitorda tasvir o'lchovi 28x21 sm ni tashkil qiladi. Buni hisobga olsak, 800 x 600 pikselni monitor ekranining tasvirlash qobiliyati 72 dpi ga teng bo'ladi. Demak, kompyuter xotirasidagi rangli tasvir ko'p joy olishini tushunish qiyin emas, Misol uchun 10x15 sm li rasm taxminan 1000 x 1500 piksellardan iborat bo'ladi.

Agar har bir rangli nuqtani tasvirlash uchun 3 bayt xotira ishlatilishini hisobga olsak, bitta o'rtacha kattalikdagi rasmning o'zi xotirada taxminan 4 mln bayt joyni egallaydi. Bunday ma'lumot, xususan, Internet sahifalarini yaratishda e'tiborga olinishi zarur. Shuning uchun ham hozirgi kunda yaxshi multimedia dasturlarini, videoroliklarni yaratish uchun operativ xotirasi 128 Mbaytdan kam bo'lmagan va, mos ravishda, tezligi katta bo'lgan kompyuterlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Demak, rastrli grafika bilan ishlash uchun yuqori unumli kompyuter talab qilinadi.

Rastrli grafikaning kamchiligi sifatida shuni aytish mumkinki, tasvirni mashtablashtirish (kattalashtirish, kichiklashtirish) jarayoni natijasida nuqtalar o'lchovi kattalashishi bilan tasvir aniqligi yomonlashishi mumkin va hatto, tasvir tanib bo'lmaydigan darajada o'zgarishi mumkin.

Rastrli grafika elektron (multimedia) va matbaa nashrlarida keng qo'llaniladi. Nashrlarda turli illustratsiyalarni yaratishda, odatda, skaner orqali olingan raqamli foto yoki videokamera (hozirda bunday fotoapparat va videokameralar keng tarqalgan) yoki rassom, loyihachi tomonidan tayyorlangan tasvirlardan foydalaniladi. Shuning uchun ham rastrli grafikada tahrir qiluvchi dastur vositalaridan keng foydalaniladi. Bu dasturlar, odatda, tasvirlarning aniqroq ko'rinishda bo'lishini ta'minlaydi.

Vektorli grafika. Vektorli grafikada tasvining asosiy elementi sifatida chiziq qaraladi. Chiziq sifatida to'g'ri chiziq yoki egri chiziq olinishi mumkin. Rastrli grafikada bunday chiziqlar nuqtalar (piksellar) yordamida yaratilsa, vektorli grafikada esa tasvirlarni yaratishda nuqtaga nisbatan umumiyroq bo'lgan chiziqlardan foydalaniladi va shuning hisobiga tasvirlar aniqroq ko'rinishga ega bo'ladi.

Vektorli grafikaning afzallik tomoni tasvirining xotirada kamroq joy olishidir, chunki bu holda xotirada joy chiziq o'lchoviga bog'liq bo'lmagan ravishda bo'ladi. Buning sababi xotirada chiziqning o'zi emas balki uni ifodalovchi formula yoki parametrlar saqlarashidir. Vektorli grafikaning ixtiyoriy tasviri chiziqlardan tashkil topadi va oddiy chiziqlardan murakkablari hosil qilinadi. Ko'pincha vektorli grafikani obyektga mo'ljallangan grafika deyish mumkin. Chunki bunda, masalan, uchburchak hosil qilish uchun 3 ta chiziq (kesma)dan foydalanilsa, piramida hosil qilish uchun uni uchburchakdan foydalanibgina hosil qilish mumkin. Vektorli grafikani hisoblanadigan grafika deb ham atash mumkin, chunki tasvirni (obyektni) ekranga chiqarishdan avval uning koordinatalari hisoblanadi va mos nuqtalar hosil qilinadi.

Vektorli grafikaning matematik asosini geometrik figuralarning xossalarini o'rganish tashkil etadi. Ma'lumki, nuqta tekislikda 2 ta (x, y) koordinatasi bilan, to'g'ri chiziq kanonik ko'rinishida $y = kx + b$ (bunda k va b ixtiyoriy sonlar)da, kesma esa mos

ravishda 15 boshlang'ich va oxirgi nuqtasini berish bilan tasvirlanadi. Egri chiziqlar ham mos ravishda o'z tenglamalariga ega.

Vektorli grafika asosan illustratsiyalar yaratish uchun yo'naltirilgandir. Vektorli grafika reklama agentliklarida, loyihalash byurolarida, nashriyotlarda va boshqa joylarda keng qo'llaniladi. Vektorli grafika bilan ishlaydigan dasturlarga misol sifatida *Adobe Illustrator 7.0, Macromedia Freehand 8.0 va Corel Draw 5.0* larni keltirish mumkin.

Fraktal grafika ham hisoblanuvchi grafika bo'lib, uning vektor grafikadan farqi shundaki, bunda hech qanday obyektlar kompyuter xotirasida saqlanmaydi. Chunki tasvirlar tenglamalar yoki ularning tizimlarida hosil qilinadi. Shuning uchun ham xotirada tenglamalargina saqlanadi. Tenglamalarga oid parametrlar o'zgartirilishi natijasida turli tasvirlar hosil qilinadi.

Fraktal grafika matematik hisoblashlar asosida tasvirlarni avtomatik yaratish uchun qo'llaniladi. Shuning uchun ham uning asosi sifatida rasm, shakl, tasvir hosil qilishning dasturlash usuli tanlangan.

Bu grafika, odatda, turli jarayonlarni modellashtirish, tahlil qilish, turli qiziqtiruvchi dasturlar yaratishda keng qo'llaniladi.

Kompyuter grafikasining quyidagi turkumlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- tijoratga oid;
- namoyishlarga oid;
- injenerlikka oid;
- ilmiy;
- ko'rgazmaviy;
- animatsion;

Tijoratga oid grafika elektron jadvallarda yoki berilganlar bazasidagi axborotlarni aks ettirish uchun xizmat qiladi. Bu axborotlar ShKEHM monitor ekranida grafik, gistogramma, diagramma va xohlagan boshqa ko'rinishlarda aks ettirilishi mumkin. Bunda grafiklar matn izohlari va ma'lum joylarda shartli belgili izohlar bilan ta'minlanadi.

Tijorat grafikasiga tegishli bo'lgan amaliy dasturlar paketi tasvirni ekranda tezda va qulay ifodalashga qaratilgan, chunki tijoratchining asosiy maqsadi axborotlarni qayta ishlash jarayonidagi o'zgarishlarni tezda muhokama qilib, tegishli qarorlar qabul qilishdan iboratdir. Tasavurni yanada oshirish uchun ushbu paketlarda tasvirni turli xildagi grafika shaklida tasvirlash imkoniyati kiritilgan. Bu esa, o'z navbatida, barcha turdagi tasvirlarni ekranda birgalikda ko'rib, tahlil qilish imkoniyatini oshiradi. Bu paketlarning eng ahamiyatli tomoni shundaki, ular tasvirlarni turli xil shaklda berishdan tashqari aks ettirilgan grafikalarini tahlil qilish imkoniyatini ham beradi. Shu sababli bu paketlarga turli xil matematik tahlil usullari, jumladan statistik tahlil, ehtimollar nazariyasi, iqtisodiy jarayonlar bashorati kabi usullar kiritilganki, ular berilgan axborot to'plamini tahlil qilish imkonini beradi.

Namoyish qilish grafikasi — matn, sxema, eskiz kabi hujjatlarning mashinaviy tasvirini hosil qilib uni namoyish etishga tayyorlash uchun xizmat qiladi. Bu yerda eng asosiy vazifa — yuqori sifatli va chiroyli ko'rinishdagi tasvirlar hosil qilishdan iborat.

Bu turdagi grafikaning eng afzal tomoni shundaki, undagi tasvirlar to'plami va ko'rinishini tezda o'zgartirish mumkin.

Injenerlik grafikasi — bunday grafika chizmachilik, loyihalash va konstruktorlik ishlarini avtomatlashtirishda keng qo'llaniladi. Injenerlik grafikasi analiz, sintez, modellashtirish, chizmachilik, boshqarish va shu kabi loyihalash ishlarini avtomatlashtirishning hamma bosqichlarini o'z ichiga oladi.

Ilmiy grafika — ilmiy izlanishlar uchun xizmat qiladi va geografik, fizik, biologik va boshqa jarayonlarni tadqiq qilishda qo'llaniladi. Ilmiy grafikaning eng asosiy maqsadi ilmiy izlanishlarda hosil bo'ladigan axborotlarni vizuallashtirish — ko'zga ko'rinarli shaklda ifodalashdir. Ayniqsa bu yo'nalish atom energiyasi manbalarini tadqiq qilishda, kosmonavtika, samolyotsozlikda, geografiya va okeanologiyada — xullas qamrovi katta bo'lgan, tez kechadigan jarayonlarni o'rganishda keng qo'llaniladi. Shuningdek, ilmiy izlanishlar natijalarini kerakli shaklda diagrammalar, xaritalar, jadvallar va turli matematik formulalar shaklida tasvirlashda ishlatilishi mumkin.

Ko'rgazmaviy grafika — namoyish va tijorat grafikalarining rivoji bo'lib, shu ikkala grafika imkoniyatlarining yig'indisini tashkil etadi. Bu grafika ayrim grafikalarini slaydlar ketma-ketligidan iborat slaydfilm qilib yaratib, so'ngra uni ma'lum vaqt ichida ekranda ketma-ket ko'rgazma shaklida slaydning ekrandagi tasviri ovoz va visual effektlar qo'shib olib borilishi mumkin. Bundan tashqari, tayyor grafikni tahrir qilish imkoniyati ham mavjud.

Animatsion grafikada — rang bilan ishlashdagi muvaffaqiyatlar muhandislik grafikasidagi uch o'chovli obyektlarni modellashtirishdagi yutuqlar bilan (masalan reklama e'lonlari va teleko'rsatuvdagi bir tasvirning ichiga ikkinchisini kiritish) qo'shib uyg'unlashtirilgan.

Mashina grafikasi — bu kompyuter yordamida obyekt shakllari, uning modelini yaratish va saqlash uchun xizmat qiluvchi kompyuter grafiksining bir bo'limi. Kompyuterda turli grafik tasvirlarni hosil qilish mumkin, biroq ular bir-biridan farqlanadi, chunki hozirgi zamon kompyuterlari o'tgan asrning 90-yillaridagi tizimlarga nisbatan shakllarni aniq tasvirlash imkoniyatiga va maxsus dasturlar bilan kengaytiriladigan tizimlarga ega. Interfaol grafika — bu mashina grafikasi sanaladi.

Interfaol grafika — kompyuter grafikasining eng asosiy bo'limlaridan biri bo'lib, unda foydalanuvchi tasvirni dinamik boshqarish imkoniga ega bo'ladi, ya'ni tasvirning shakli, o'lchamlari va monitor yuzasidagi ranglarini o'zaro ta'sir qiluvchi moslama (klaviatura yoki sichqon) yordamida boshqaradi.

Kompyuter grafikasida aniq va mavhum obektlar tasvirini yaratish va bu tasvirlarni ikki ko'rinishda kuzutish mumkin:

- kuzatuvchi qo'zg'almas bo'lib, oldidagi obektni xohlaganicha aylantirib kuzatishi mumkin — bu panorama effekti;
- obekt qo'zg'almas bo'lib, kuzatuvchi uning atrofida aylanib tomosha qilishi mumkin — bu kamera effekti.

Interfaol grafika yaratilgandan keyin u televideniya va fotografiyada tasvirni yaratish va tayyorlashdagi eng asosiy texnik moslamalardan biri bo'lib qoldi. Uning yutuqlaridan biri sintezlangan abstrakt obyektlarni, tasvirlarni EHM yordamida hosil

qilishdir. Inson mashina grafikasidan foydalanish vaqtida juda ko‘p zerikarli va har xil mayda ishlardan (juda ko‘p miqdorda matnli varaqalar va sonli materiallarni ko‘rib chiqishdan) qutildi.

Statik tasvirlar informatsiyalarni yetkazib berishda yaxshi bo‘lishiga qaramay ko‘p holatlarda dinamik o‘zgaruvchi tasvirlar ulardan ustun turadi. Hayotda asosan jarayon vaqtida o‘zgarib turuvchi tasvirlar—dinamik o‘zgaruvchan tasvirlar (tovush tezligidan tez uchar samolyot qanotining egilishi yoki inson qiyofasining hayoti mobaynida o‘zgarib turishi). Dinamik tasvirlar qo‘zg‘almay turgan tomoshabinga obyektlarning siljishi va harakatlanishini ko‘rishga yordam beradi. Bunda obyekt qismlarni boshqa 18 obyektga yaqinlashtirish yoki uzoqlashtirish va obyekt detallarini kattalashtirib yoki kichraytirib ko‘rish mumkin.

Kompyuter grafikasining texnik-dasturiy va informatsion asoslari hamda uning turkumlari

Umumiy holda grafikadagi tasvirlar ikki xil ko‘rinishda: ikki o‘lchovli yoki uch o‘lchovli shaklda bo‘ladi. Ikki o‘lchovli grafikaning dasturiy ta‘minoti (x, y) koordinata sistemasida yuza tasvirini hosil qilish imkoniyatini beradi. Bu 2D ko‘rinishidagi tasvirdir.

Uch o‘lchovli grafikaning dasturiy ta‘minoti tekis ekranda (x, y, z) (3D) koordinatalari sistemasida tasvirlarni hosil qilish imkoniyatini beradi.

4D grafigi vaqt sistemasidagi uch o‘lchovli tasvirdir. Shuningdek 2,5D turidagi tasvir ham mavjuddir. Bu 2D ko‘rinishli tasvir bo‘lib, 3D tasvirining ba‘zi xususiyatlari bilan to‘ldirilgan (masalan, ustunli diagrammada har bir ustun yo‘g‘onligi ham ko‘rinib turadi).

Grafik vositalarning asosiy (dasturiy, texnik, informatsion) xususiyatlarining kompyuter grafikasining har bir sinfiga tegishli bo‘lgan xossalarini ma‘lum bazaviy funksiyalar to‘plamini ajratib olishga mo‘ljallangan dasturiy ta‘minotlarining alohida belgilari bilan tanishib chiqamiz.

Tijorat grafikasi dasturiy ta‘minotining bazaviy funksiyalar to‘plamiga quyidagilar kiradi:

- ikki yoki uch o‘lchovli berilgan sonlar massivi;
- har bir koordinata o‘qidagi matn belgilari;
- aks ettiriladigan axborot uchun umumiy bo‘lgan matn izohi;
- o‘lchov birligining nomi va shakli.

Ko‘pchilik integrallashgan (yig‘ma) amaliy dasturlar paketlari grafik vositalarning ushbu sinf funksiyalarini o‘z ichiga olgan.

Berilgan ikki o‘lchovli koordinatalar sohasida x va y o‘qlari bilan bog‘langan holda yoki uch o‘lchovli x, y, z fazoviy koordinatalarda beriladi.

2D turidagi grafiklarning xillari:

aylanma diagramma —

Pie; chiziqli grafik —

Line; ustunli

gistogramma — *Bar*;

ustunli bo‘lakli gistogramma —
Stacred Bar, *min* va *max* qiymatli
diagramma — *HI-LO*; zonali
diagramma — *Area*; x va y li
diagramma — x-y.

2D turidagi bunday grafiklarni jadval protcessorlarining eng sodda variantlarida ham hosil qilish mumkin: SC3, SC4, MS Excel, LOTUS 1G‘2G‘3, FW-1G‘2G‘3 va hokazo.

3D turidagi grafika amaliy dasturlar paketining eng oxirgi versiyalarida amalga oshirilgan. (masala, SC5.6; FW-4; FaxGraph, Statgraphics - 3.5; QuattroPro 4.0 va xokazo).

Mukamallashtirilgan grafik imkoniyatlarga ega bo‘lgan dasturiy vositalar nafaqat ekranda berilganlarni aks ettirish usulini tanlashga, shuningdek tasvirning ekrandagi elementlar o‘lchamlarini, holatini o‘zgartiradi, bir joydan ikkinchi joyga ko‘chiradi va shunga o‘xshash ishlarni ham bajaradi.

Ammo bu qo‘shimcha imkoniyatlar, foydalanuvchiga ma‘lum qiyinchiliklar tug‘diradi hamda grafika tuzish vaqtini uzaytirib yuboradi.

Ko‘rgazmaviy grafika amaliy dasturlar paketini ko‘pincha grafik tahrirchi bilan almashtiradilar. Aslida grafik tahrirchi shu sinfga oid amaliy dasturlar paketining bir bo‘lagi, xolos.

Masalan, Story board Plus amaliy dasturlar paketida grafik tahrirchi - Picture Maker, undan tashqari scenariy tahrirchisi - Story Editor, tayyor slayd-filmlarni qo‘yishga mo‘ljallangan tahrirchi - Story teller va amaliy dasturlar paketidan kerakli bo‘laklarni ko‘chiruvchi dastur Pictory Taker ham mavjud.

Ushbu sinfga mansub bo‘lgan dasturiy vositalar qatoriga 2D grafikasida ishlay oladigan dasturlarni ham kiritish mumkin. Ular hosil qilgan tasvir va matnlardan slayd-filmlar yaratishga va uni turli-tuman effektlardan foydalangan holda namoyish qilishga imkoniyat yaratadi: diagonal bo‘yicha, ekranning markaziy nuqtasidan uning chetlariga yo‘nalgan holda, bir - birini qoplovchi ikki to‘siq shaklida va boshqacha effektlar bilan namoyish eta oladi.

Bu sinfga oid bo‘lgan dasturlar vositasida quyidagi ishlar amalga oshirilishi zarur:

- shrift tanlash;
- rangning jilolarini tanlash; □ chiziq qalinligini tanlash;
- ilgari hosil qilingan va grafika kutubxonasidagi tasvirlarga murojaat hamda ularni tanlash;
- hosil qilingan tasvirni saqlash va uni kutubxonaga joylashtirish;
- tasvirga matnni joylashtirish;
- tasvirni qirqish, ulash va o‘chirish;
- tasvirlarni slayd rejimida maxsus effektlar bilan birgalikda tomosha qilish;
- tasvirlarni sharhlash vositalari;
- ish grafikasi vositalarining mavjudligi.

Ushbu sinfga tegishli bo‘lgan keng tarqalgan amaliy dasturlar paketi quyidagilar:

Adobe Photoshop, Adobe Illustrator, PC Paint Brush, PC Storybord, PC Storybord Plus, Dr.Hallo Fantavision, Buku, Bgraf, Bukount.

Yuqorida keltirilgan amaliy dasturlar paketlarning eng keyingi versiyalari, masalan, Corel Draw

8.0 va 10.0 lar 3D grafikasi bilan ishlaydi, ularda “rasm chizish asboblari” kengaytirilgan: retush vositalari, maxsus filtrlar, fon uchun tayyor tasvirlar kutubxonasi va hokazolar mavjud. Bu dasturlarning ko‘pchiligi multiplikatsiya vositalarini ham o‘z ichiga oladi va imkoniyatlari bo‘yicha animatsion grafika sinfiga o‘tib ketadi.

Injenerlik grafikasini ikki asosiy funksiyasi mavjuddir:

- ob`ektni konstruksiyalash;
- ob`ekt yordamida turli xil harakatlar hosil qilish.

Bunday bo‘linish ikki va uch o‘lchamli koordinatali sistema kontsepsiyasiga olib keladi.

Injenerlik grafikasida ilk bor haqiqiy ob`ektlarini uch o‘lchovli koordinatada modellashtirish imkoniyati tug‘ildi. Injenerlik grafikasi tasvirlarni avvalo o‘zaro tutashtirilgan karkas shaklidagi rasmlardan boshlab zamonaviy murakkab ob`ektlarni ekranda turli ranglarda va turli ko‘rinishdagi tasvirlarini olishgacha bo‘lgan rivojlanish bosqichini bosib o‘tdi.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, ko‘rgazma grafika tijorat va namoyish grafikasining yig‘indisidan iborat. Shunday qilib ko‘rgazma grafigi tijorat va namoyish grafikalarini bazaviy funksiyalari to‘plamidan iborat va u quyidagi uch xil masalani echishga imkon beradi:

- grafika va diagrammalar bilan ishlash;
- tasvirlarni taxrirlash va saqlab qo‘yish;
- kurgazma materiallarini rejalashtirish va tayyorlash.

Bunday sinfdagi dasturiy ta`minotiga quyidagilarni kiritish mumkin:

HarvardGraphies, FreelancePlus, Hollywood, Microsoft Power Point for Windows va xokazo. Animatsion grafika quyidagi masalalarni hal etadi:

- karkasli 3D ob`ektini modellashtiradi va konstruksiyalaydi, uni murakkablashtirilgan holda har xil sharoitda ishlatib ko‘radi;
- yaratilgan karkasli ob`ektning yuzasini qoplash uchun kutubxonadan tayyor materialni olish yoki uni o‘zi yaratish (teksturani) imkoniyatini tug‘diradi;
- ilgari yaratilgan modellarni fazoda joylashtirish, boshqacha aytganda, yaratilgan ob`ektlar uchun sahna, ish joyini hosil qilish;
- ob`ektlarni matnlar bilan bog‘lab chiqish;
- yoritish xarakterini aniqlash, yorug‘lik manbalarini joy-joyiga qo‘yish, kamerani sahnaga joylashtirish;
- kadrlar ketma-ketligini aniqlash va kadrdan kadrda siljishini ta`minlash;
- yakka kadrni yoki bir necha kadrlarning ranglar jilosini, yorug‘ligini, soyalarini, qarash burchagini, ob`ektlarning o‘zaro joylashishini va kadrdan kadrda o‘zgarishi – renderingi (rendering)ni nazarda tutgan holda namoyish etish;
- yakka tasvirni yoki olingan kadrlar ketma-ketligini ekranga film sifatida namoyish etish.

3D animatsion grafikasi amaliy dastur paketlaridan tashqari (3D Studio Topas va boshqalar) 2D amaliy dastur paketlari ham mavjud (Flash 5, Limena, Animator PRO). Bular tasvir hosil qilish uchun mo'ljallangan tasvirning dastlabki va oxirgi kadrlarini hosil qiladi, qolgan oraliq kadrlar esa avtomatik ravishda hosil qilinadi.

Mavzu № 4 CorelDraw Graphics Suite X5 dasturiy paketi komponentlari.

Reja:

1. CorelDraw grafik dasturida hujjatlar oynasi bilan ishlash.
2. Hujjatli oynani kontekstli menyu yordamida yaratilgan tasvir masshtabi hosil qilish.
3. Chizg'ichni joylashtirish va ulardan foydalanish.

CorelDraw grafik dasturida hujjatlar oynasi bilan ishlash.

CorelDRAW dasturida hujjatlarni xotiraga bir-nechta usul bilan saqlash mumkin. Menyuning Fayl (File) va Saqlash (Save) buyrug'i yordamida joriy hujjatni joriy jildga saqlaydi. Bu amal asboblar panelidagi maxsus tugma yordamida ham amalga oshiriladi.

Soxranit kak ... (Save As) buyrug'i esa joriy hujjatni boshqa nom va boshqa jildga va boshqacha formatda saqlash imkoniyatini beradi. Bu amalni bajarilganda va yangi hujjatni xotiraga saqlaganda ekranga Tasvirni saqlash (Save Drawing) ni beradi.

Versiya (Version) ro'yxatidan CorelDRAW dasturining avvalgi variantlaridan birini yoki yangi variantini tanlab hujjatni mos formatda xotiraga saqlaydi.

Faqat dasturning eski variantlarida hujjatlarni saqlaganda bir nechta parametrlar yo'qolib ketishini esta tutish lozim.




Thumbnail ro'yxatida xotiraga saqlashning bir-nechta variantlarini beradi:

- hujjatlarni o'lchamini bir qancha kichik qilib berish ham mumkin, faqat keyinchalik fayllarni qidirganda qiyinchilik tug'diradi. 1K (mono), 2K (mono),

4K (color), 8K (color) oq-qora yoki rangli tasvirlarni har xil sifatda xotiraga saqlasa bo‘ladi. Agarda hech biri tanlanmagan bo‘lsa, u holda maksimal sifatli tasvirli hujjat xotiraga saqlanadi.

- Selected only (Faqat tanlangan obyektlar) tanlanganda yangi faylga ajratilgan obyektlar saqlanadi, shu bilan birga boshqa faylga obyektning alohida qismini ham saqlash mumkin.
- ICC profile (ICC profilini joylashtirish) hujjatdagi ranglarni boshqarish. Dastur faqat SRT CDR, TIFF, JPEG, PICT va EPS formatli fayllar bilan ishlaganda ishlaydi.
- No white spaces, special characters (Bosh joy va maxsus belgilarsiz) belgisi hujjatni xotiraga saqlaganda bo‘sh joy tagini chizish bilan, maxsus belgilarni Web standartidagi belgilar bilan almashtiradi.
- Embed Fonts using TrueDoc (Shriftlarni TrueDocdan foydalanib yozish) hujjatda TrueDoc texnologiyasini foydalangani haqida malumot beriladi.
- Keywords (kalit so‘zlar) i Notes (Tuchunsha berish) hujjatlarni tez topish uchun ularga tuchintirish so‘zlari yoziladi.
- Advanced tugmasi... (Quchimcha) ekranga Save (saqlash) dialog oynasini va Options (parametrlar), parametrlari o‘rnatilgan bo‘ladi.
- Save presentation exchange (Boshqa redaktorlar formatlida saqlash) CMX formatda ishlaydigan boshqa redaktorlarda faylni ochich. Buni ishga tushirganda faylning o‘lchami katta bo‘ladi.




- Use current thumbnail (Ispolzovat suhestvuyuhuyu miniatyuru) birinchi saqlaganda rastrlangan hujjatni miniatyura yordamida saqlashni t‘aminlayda. Bu faylni saqlashga mo‘ljanlangan vaqtni m‘alum miqdorida kamaytiradi, ammo xatolikka olib kelishi mumkin, agarda hujjat ko‘p qayta ishlangan bo‘lsa.

- File optimization maydonida (faylni optimallashtirish) ikki xil turdagi fayllarni saqlaydi, rastr tasvirli (Use bitmap compression) va vektor tasvirli (flajok Use graphic object compression) faylning o'lchamini kichik qiladi.
- Textures maydoni (Teksturno'e zalivki) va Blends and extrudes («Poshagovo'y perexod» i «Ekstrudirovaniye») tarkibiga qaraganda bir xil:
 - Save ... with the file (fayl bilan saqlash) fayl o'lchami katta bo'ladi faqat hujjat o'qilganda tez vaqtda ochiladi;
 - Rebuild ... when opening the file (Postroit ... pri otkro'tii fayla) — yuqaridagiga teskari faylni o'qishda ko'p vaqt talab etadi, o'lchami katta bo'ladi.

Hujjatli oynani kontekstli menyu yordamida yaratilgan tasvir mashtabi hosil qilish.


Vektor grafikasi muharrirlarida ekranda (ishchi maydonda) qanday tasvirlar bo'lsa bosmadan shu ko'rinishda chiqariladi. Ekrandagi ishchi oynada tayyor bo'lgan tasvirlarni ko'rish uchun menyuning Ko'rish (View) dan foydalaniladi. Dasturda besh xilda ko'rinishda ko'rish mumkin.: Oddiy konturli (Simple Wireframe), Konturli (Wireframe), Chernovoy (Draft), Normal (Normal), Yaxsh (Enhanced). Agarda hech biri tanlanmasa u holda normal (Normal) holatini kompyuter uzi tanlaydi.



Ekranni
mashtablash

Ekrandagi tayyor bo'lgan rasmlarni katta va kichik hollarda ko'rish funksiyalari mavjud. Uning uchun asboblardagi (Toolbox) Mashtab (Zoom) tanlanib kattalashtirish yoki kichiklashtirish parametri ko'rsatiladi.

Standart asboblardagi panelida mashtablash parametrlari berilgan va ular quyidagilar: Ajarilgan obyektlar (To Selected), hamma obyektlar (To Fit), Sahifa (To Page), Sahifa eni bo'yicha (To Width), Sahifa boyi bo'yicha (To Height), 10%, 25%, 50%, 75%, 100%, 200%, 400% ga mashtablashga bo'ladi.



Ekrandagi tasvirlar kattalashtirilganda hujjatdagi ko'rinmaydigan ob'ektlar bilan ishlashga to'g'ri kelib qoladi u holda shu ob'ektlarni siljitishga to'g'ri keladi. Buning uchun quyidagi ikkita imkoniyatlardan foydalanilsa bo'ladi:

1. vertikal va gorizontal siljitgishlardan.
2. Maxsus asbob Panoramadan (Pan). Bu holda ekrandagi kursor qo'l shaklini oladi va obyektни xohlagan tomonga siljitish mumkin.


Chizg'ichni joylashtirish va ulardan foydalanish.

Chizg'ich ekranda ko'rinib turadi agarda u yoq bo'lsa menuning Ko'rish (View) tanlanib Chizgich (Rulers) buyrug'i ishga tushirish kerak bo'ladi, ikkinchi marta bu amal bajarilsa ekrandan chizgish olib tashlanadi.


Chizgichni ekranning hoqlagan joyoga qo'yish mumkin. Bu uchun <Shift> tugmasi bilan birgalikda sichqoncha bilan olib hoqlagan joyga qoysa bu'ladi. Agarda <Shift> tugmasi bilan birgalikda chizgishga ikki marta sichqoncha bilan chertilsa avvalgi holiga qaytariladi.

Agarda <Shift> tugmasisiz ikki marta chertilsa u holda chizgishning (Rulers) Parametrlari (Options) ekranda nomayon bo'ladi.

CorelDRAW dasturidagi chizgish har xil ulchob birliklarida beriladi O'lchov birliklari (Units) qoyidagilar iborat:



- inches (dyumlar), 1 (ingliz) dyumi 24,5 mm teng;
- millimeters (millimetrlar);
- picas; points (pikalar), 1 pika 12 punktga teng;
- points (punktlar), 1 punkt 1G'72 engiz dyumiga teng (24,5 mm);
- pixels (pixellar), nisbiy ulchov birlik (absolyut qiymatga ega emas);
- ciceros; didots (tsitsero), 1 tsitsero 12 punktga teng;
- didots (Dido punktlari), 1 Dido punkti 1G'72 farang dyumiga teng (27,06 mm);
- feet (futlar), 1 fut 304,8 mm ga teng;
- yards (yardlar), 1 yard 914,4 mm ga teng;
- miles (milar), 1 mil 1609 m ga teng;
- centimeters (santimetrlar);
- meters (metrlar);



kilometers (kilometrlar).


hujjatning umumiy ish maydoni 45 x 45 metrga teng. Bu esa dasturdan ko'rgazmalar va katta hajmli ob'ektlar bilan ishlaganda juda qo'l keladi

Sahifalarning parametrlari

Ekrandagi hujjatning sahifa formati to'g'riturburchak shaklidagi ko'rinishda bo'ladi. Agarda sahifa formatini o'zgartirmoqchi bo'lsangiz Svoystva (Property Bar) foydalansa bo'ladi.

Agarda Kitob (Portrait) tanlansangiz hujjatning bo'yi buyicha ko'rinishda, Albom (Landscape)ni tanlasangiz hujjatning eni buyicha ko'rinishda sahifalaydi.

Yuqoridagi sahifalashning o'lchamlarni bosmadan chiqariladigan paytdagi bilan chalkashtirmaslik kerak.



Agar tayor bo'lgan hujjatni bosmadan chiqarmoqchi bo'lsangiz menuning Ko'rish (View) tanlanib bosmaga chiqishi kerak bo'lgan maydon tanlanadi (Printable Area), va ekranda shtrix chiziqlar bilan bosmaga chiqadigan maydon chegaralangan bo'ladi.

Mavzu № 5 CorelDraw dasturning ishchi muhiti.


Reja:

1. Coreldraw 15 dasturining ishchi muhiti.
2. CorelDraw grafik muxarriri [interfeysi](#).

Coreldraw 15 muharririning ishchi oynasi elementlari.

Kodlashtirishning vektorli usulida geometrik shakllar, egri va to'g'ri chiziqlar, aylana, kvadrat, ellips, qism tasvirlar kompyuter xotirasida matematik formula kabi

geometrik abstraksiyalar ko‘rinishda saqlanadi. Masalan, aylana shaklini kodlashtirish uchun, u alohida piksellar ko‘rinishida bo‘lishi shart emas. Uning radiusi, markaziy nuqta koordinatalari va rangining xotirada saqlanishi yetarli bo‘ladi. To‘rtburchak uchun esa uning tomonlari uzunligi, joylashuv o‘rni va rangini xotirada saqlash lozim. Matematik formulalar yordamida turli xildagi shakllarni izohlash mumkin. Murakkab shakllarni chizishda bir nechta oddiy shakllardan foydalaniladi. Masalan, burchaklari yoysimon bo‘lgan to‘rtburchak shaklni qora rangda bo‘yaymiz, unga uchta oqdagi to‘rtburchak va birta qora rangdagi to‘rtburchak shaklni qo‘shib uch dyumli disketa rasmini hosil qilish mumkin.



Bir necha qismdan iborat vektor tasvir.

Vektor formatdagi barcha ko‘rinishlar bir necha qismlardan iborat bo‘lib, ularni bir-biriga bog‘liqsiz holda o‘zgartirish mumkin. Ushbu qismlar ob`ekt deb nomlanib, bir necha ob`ektlar yordamida yangi ob`ekt yaratiladi. Buning natijasida ob`ektlar yanada murakkab ko‘rinishga ega bo‘lish holati kuzatiladi. Har bir ob`ektda ularning kattaligi, egriligi va joylashuv o‘rnining qiymatlari orqali beriladi. Shu sababli, tasvir ko‘rinishlarini oddiy matematik amallar yordamida o‘zgartirish imkoniyati yaratiladi. Vektorli grafikani qo‘llaganda, ob`ekt hajmining juda ham kichik yoki aksincha, juda ham katta kenglikda bo‘lishi inobatga olinmaydi. Ikki holda ham rasm bilan ishlash bir xil kechadi. Xohlagan paytda tasvir sifatini o‘zgartirmay turib, uni kattalashtirish yoki kichraytirish imkoniyati mavjud. Vektorli usulda kodlashtirishning muhim ahamiyati grafik faylning hajmi rastrli grafiklar fayllari hajmiga nisbatan sezilarli darajada kichikligidir. Biroq, vektorli grafikaning kamchilik tomonlari ham mavjud. Birinchidan, hosil qilinayotgan tasvirning shartlilik, ya`ni tasvirlar formulalar yordamida qurilgan egri chiziqlardan iborat bo‘lganligi sababli, haqiqiy tasvirni hosil qilish juda mushkuldir.


Shuning uchun vektorli grafikani tasvirlarni kodlashtirishda qo‘llab bo‘lmaydi. Agar tasvirni izohlash lozim bo‘lsa, olingan fayl hajmi rastrli grafika fayli hajmiga nisbatan ancha katta bo‘ladi. Vektorli grafika fayllarini qurishga bag‘ishlangan dasturiy vosita sifatida juda keng tarqalgan CorelDRAW dasturini keltiramiz.

CorelDRAW 15 dasturining ishchi oynasi boshqa grafik muharrirlar oynasiga o‘xshashdir. CorelDRAW dasturi ishga tushirilganda ekranda dasturning boshlang‘ich muloqot oynasi hosil bo‘ladi. Bu rejimni oldindan bekor qilish ham mumkin. Buning uchun Show this Welcome Screen at startup (Ishga tushganda oynani ko‘rsatish) satridan bayroqchani olib tashlash orqali amalga oshiriladi.

Dastlab dastur ishini sozlab chiqish amalarini ko‘rib o‘tamiz. Agar ishchi oyna to‘liq ekranni egallamagan bo‘lsa, dastur sarlavhasida yoyish tugmasini bosing. Natijada ishchi oyna to‘liq ekranda hosil bo‘lib CorelDRAW 15 dasturi bilan ishlash yanada qulaylashadi.

Yaratilayotgan tasvir aniq ko‘rinishi, boshqariluvchi elementlar ekranda joylanishi uchun ekranning ruxsat etilgan kattaligini 1024x768 nuqtalarda, eng yaxshisi 1280x1024 ni qo‘llanilishi tavsiya etiladi.

CorelDRAW 15 vektor grafikasi muharririning ishchi oynasidagi asosiy elementlari bilan tanishib chiqamiz. Windows muhitida ishlovchi boshqa dasturlar kabi oynaning yuqori qismida oyna sarlavhasi va menyusi joylashgan. CorelDRAW 15 dasturida o'z interfeysini o'zgartirish imkoniyatlari kengaytirilgan.



Dasturning ishchi oynasi

Dastur oynasining markazida varaq rasmi joylashgan, u ishchi soha deb yuritiladi. Ishchi sohada va undan tashqarida tasvir chizish imkoniyati mavjud, biroq chop qilinayotganda faqat ishchi sohada chizilgan tasvir chiqariladi. Ranglarni boshqarish uchun oynaning o'ng qismida joylashgan ranglar majmuasidan foydalaniladi. Holat satrida esa muharrir bilan ishlashni engillashtiruvchi turli xildagi ma'lumotlar hosil bo'ladi. Tasvir chizishda qo'llaniladigan asosiy vositalar uskunalar panelida joylashgan. Unda joylashgan tugmalar muharrirda bajariluvchi amallarni tez bajarilishini ta'minlaydi. Xususan, Property Bar (Xususiyatlar paneli) alohida ajralib turadi. Undagi tugmalar bajarayotgan amallaringizga bog'liq holda paydo bo'ladi yoki ko'rinmaydi. Xohlagan paytda joriy holatga mos bo'lgan tugmaning xususiyatlarini uskunalar panelida topishingiz va ishchi oynaning xohlagan tomonida joylashtirish mumkin. Shu bilan birga menyu satrining ham o'rnini o'zgartirish imkoniyati mavjud. Uskunalar panelining bo'sh qismida sichqonchani o'ng tugmasini bosib, natijada yordamchi menyu (kontekst) paydo bo'ladi. Yordamchi oynadagi o'rnatilgan bayroqcha orqali uskunalar panelida qaysi bo'limlar joylashtirilganligini ko'rsatadi.




Yordamchi menyu

Foydalanuvchi panelida joylashgan turli xildagi uskunalardan foydalanishi mumkin. Panelidagi uskunalarni birma-bir sichqoncha orqali tanlab, uning Property Bar

(Xususiyat paneli)ga e'tibor bering, ularning ko'rinishi har bir uskunaga mos ravishda o'zgaradi. Shu bilan birga holat satridagi ma'lumotlar ko'rinishi ham o'zgaradi. Muharrir sozlangandan so'ng tasvir bilan ishlashingiz va turli xildagi vektor ob'ektlar yaratishingiz mumkin.

Yangi hujjatni yaratish uchun menuning Fayl (File) va Yangi hujjat buyrug'i (New) yoki instrumentlar panelidagi maxsus tugma bosiladi. Hujjatni ochish uchun, menuning Fayl (File) va Ochish (Open) buyruqlari yoki instrumentlar panelidagi maxsus tugmalar yordamida amalga oshiriladi.

CorelDRAW dasturida bir vaqtning uzida bir nechta hujjatlar bilan ishlash imkoniyatlari bor, shu bilan birga kerak bo'lmagan hujjatlarni yopib qo'ysa ham bo'ladi. Bu esa menuning Fayl Yopish(Close) buyrug'i erdamida amalga oshiriladi.



CorelDraw grafik muxarriri interfeysi.

CorelDraw vektorli grafikaning Windows amaliyot tizimida ishlaydigan taxrirllovchi dasturlaridan biridir. Uning yordamida turli grafik ko'rinishlarni loyixalash, foto, matn, tasvirlar ustida, ayniqsa badiiy ko'rinishdagi kompozitsiyalarni taxrirlash bilan bogliq amallarni bajarish mumkin. CorelDraw muxarririni ishga tushirish uchun CorelDraw ning belgisiga borib sichqonchani yoki Enter tugmasini bosish kerak.



CorelDRAW muxarririni yuklash.

- Ko‘rinish (Prosmotr, View)
- Kompanovka (Layout)
- Boshqaruv (Upravleniya, Arrange)
- Effektlar (Effects)
- Nuqtaviy tasvir (Toch.izob, Vitmaps)
- Matn (Text)
- Servis (Tools)
- Oyna (Okno, Windows)
- Yordam (Pomox, Ne1r)

Bu komandalarning har biri funksional jihatdan yaqin bo‘lgan amallarni bajaradi, masalan: matn tafsiiyanomasi matn bilan ishlaydigan komandalardan iborat, effekt tafsiiyanomasi nuqtaviy va vektorli grafikani yaratadigan komandalar to‘plamidan iborat.

Xossalar qatori (Property Var).

Xossalar qatoridagi (Property Var) maydonlar va tugmalar to‘plami ishlatilayotgan asbob yoki belgilangan ob‘ekt turiga bog‘liq xolda



ko‘rinishga ega bo‘ladi, masalan, matn blokka olinganda xossalar qatorida matn parametrlari aks etadi.


SOREL DRAW ob‘ektlar belgilanmagan xolatda xossalar qatorida (Property Var) xujjatning umumiy parametrlari beriladi, masalan: varaqning formati, joylashuvi va boshqalar.

Xolat qatori (Status Var).

Ishchi ekranning pastki qismida xolat qatori (Status Var) joylashgan bo‘lib turli xil xizmat ma‘lumotlarini aks ettiradi: parametrlar, obvodka va ranglar, harf parametrlari ajratilgan ob‘ektlar xakida ma‘lumot va faol uskunalar haqida ma‘lumot. Bu qatorning, ko‘rinishi holati va tarkibini o‘zgartirish mumkin.

Dastur ishga tushirilgandan keyin ekranda dastur oynasi nomayen bo‘ladi, bu oyna foydalanuvchi interfeysi (user interface) yoki ishchi joyi (workspace) deb ataladi. Interfeys foydalanuvchi va komputer orasidagi mulaqotni o‘rnatadi, ishlash uchun kerak bo‘lgan barcha sharoitni yaratadi.

Shuni nazarda tutish kerakki, interfeys foydalanuvshi tomonidan uzgartilgan bo‘lib o‘z ko‘rinishidan o‘zgacha bo‘lishi ham mumkin.



Foydalanuvchi interfeysi quyidagilardan tashkil topadi: sarlavha, bosh menu, hujjarlarni ko‘rish ushun ishchi oynalar, tasvirlarni redaktorlash ushun bir nechta panellar yigindisidan.


Oynaning markazidagi katta bo‘sh joy *ish joyi* deb nomlanib har bir hujjat uchun yangi ochiladi.

Bosh menu

Ekranning yuqorigi qismida bosh menu buyruqlari (menu bar) joylashgan bo‘lib u quyidagilardan

tashkil topadi:

- **Fail (File)** **Rastrli tasvirlar(Bitmaps)**
- **Muharirlash (Edit)** **Matn (Text)**
- **Ko‘rish (View)** **Servis (Tools)**
- **Kompanovkalash (Layout)** **Oyna (Window)**
- **Boshqarish (Arrange)** **Yordam (Help)**
- **Effektlar (Effects)**




Har bir guruh bir–biriga yaqin amallarni bajaruvchi buyruqlar yigindisi, masalan, Menu Matn (Text) matnlar ustida amallar bajaradigan buyruqlar, Menu Effektlar (Effects) – vektorli va rastrli grafikalar uchun har xil effektlar qilish va muharrirlashda foydalaniladigan buyruqlardan tashkil topgan.

Shu bilan birga qo‘shimcha menu (Context-sensitive menyu)da kiritilgan bu menyu vazifasi joriy bo‘lgan instrumentning ob`ektlari haqida malumot beradi.


Mavzu № 6 CorelDraw dasturining o‘ziga xos xususiyatlari va uning imkoniyatlari. Reja:

1. Xossalar paneli.
2. Ranglar palitrasi.
3. Instrumentlar qatori.
4. Konteksli menyu va dokerlar.
5. CorelDraw grafik dasturida hujjatlar oynasi bilan ishlash.
6. Chizg‘ishni joylashtirish va ulardan foydalanish.
7. CorelDraw dasturida hujjatlarni xotiraga saqlashning bir nechta usullari.

Xossalar asboblari qatoridagi (Property Bar) maydonlar va tugmalar to‘plami, ishlatilayotgan asbob yoki belgilangan ob‘ekt turiga bog‘liq holda



Ekrandagi ishchi oynaning pastgi qismida holat satri (Status Bar) joylashgan, bu qatarda obyekt haqida ma’lumotlar beriladi, yoki quyidagi parametrlar: ob’ektning rangi, parametrlar, shrift turi, tanlangan obyekt haqida ma’lumot va joriy asboblari haqida ma’lumotlar. Holat satrining ko‘rinishi va tuzilishini o‘zgartirish ham mumkin.



Ko‘rinishga ega bo‘ladi, masalan, matn blokka olinganda xossalar qatorida matn parametrlari aks etadi. COREL DRAW Ob‘ektlar belgilanmagan holatda xossalar qatorida (Property Bar) hujjatning umumiy parametrlari beriladi, masalan: varaqning formati, joylashuvi va boshqalar.

Xolat qatori (Status Var)

Ishchi ekranning pastki qismida xolat qatori (Status Var) joylashgan bo‘lib turli xil



xizmat

ma’lumotlarini aks ettiradi: parametrlar, ob’ektning rangi va shrift parametrlari ajratilgan ob‘ektlar haqida ma’lumot va aktiv asboblari haqida ma’lumot. Bu qatorning, ko‘rinishi holati va tarkibini o‘zgartirish mumkin.

Vositalar satrlari

Menyu satri tagida asboblari satri (Toolbars) joylashgan. Asboblari satri ekranning xohlagan joyida va har xil ko‘rinishda joylashtirish mumkin.

Ekkranga kerakli oynalarni joriy qilish uchun menuning Oyna (Window) yordamida amalga oshiriladi va ular ustida quyidagi amallar bajariladi: Asboblari (Toolbars) satriga sichqonchani o‘ng tononi bilan chertib muloqat oynasini paydo etamiz va Parametrlari (Options), Rostlash dan kerakli bo‘lgan asboblari tanlanadi.

Svoystva (Property Bar) vositalari satri



Svoystva (Property Bar) asboblari satridagi maydonlar va tugmalar yig'indisi foydalanilayotgan asboblari yoki tanlangan obyektga bogliq bo'ladi, masalan, asboblari satridagi matn bloki tanlanganda matnning parametrlari ko'rsatiladi.

Svoystva (Property Bar) satridagi asboblardan birontasi tanlanmagan holda hujjatning umumiy parametrlari ko'rsatiladi, masalan, sahifa formati, uning orientatsiyasi va h. ko'rsatadi.



Asboblari paneli (Toolbox)

Asboblari paneli ishchi oynaning chap tomoniga joylashtirilgan bo'ladi. Asboblari panelida grafik obyekt ustida quydagi amallar bajariladi – obyektlarni yaratish, obyektlarni ajratish, muharrirlash va ko'chirish asboblari joylashtirilgan.

Asboblari bilan ishlash paytida kursor tanlangan obyektga qarab formasini o'zgartiradi. Shu bilan birga, asboblari panelidagi bazi bir asboblari guruhini «Suzuvchi» panel ko'rinishida yoki Flyout ko'rinishida sozlash mumkin.



Rang palitrasi

Elektron rang palitrasi kompyuter grafikasida qo'llanilishi bo'yicha rassom palitrasiga o'xshash, ya'ni u o'zida ko'p ranglarni saqlaydi. Elektron palitra tarkibi bir rangni o'zida saqlaydigan yacheykalardan iborat. Palitra aniq bir rang modulmi qo'llaydi. Uning ranglari esa bu modul asosida yaratilgan ranglardan iborat bo'ladi.

Internet tarmog'i uchun yaratilayotgan tasvirlarda xavfsiz palitalardan foydalaniladi. Chunki yaratilayotgan grafik ma'lumot minimal hajmda va tarmoqdagi qurilmalarda tasvir o'z aslini yo'qotmasligi zarur. Shuning uchun xavfsiz palitra 216 rangni o'zida saqlaydi.

Rangni inson, miyasida yorug'lik oqimini tahlil qilish natijasida anglaydi. Yorug'lik oqimi 3 spektral ranglar (Q, Y, K — qizil, yashil, ko'k) kombinatsiyalarining tarqalishidan hosil bo'ladi.

Kompyuter grafikasida rang ma'lumot tushunarligini oshirish uchun vositadir. Rangni boshqarish sistemalari. Kompyuter grafikasining elementlarini yaratish va qayta ishlashda grafik ma'lumotlarning har xil qurilmalarda asl holatda bo'lishligi

talab etiladi. Kompyuter grafikasining qayta ishlash pog'onalarida ranglarning mos tushishini rangni boshqarish sistemalari nazorat qiladi. Bunday tizimlardan biri CMS (Color Management System)dir.

Profil. Har bir qurilma o'zining ichki imkoniyatlariga qarab o'z usulida rang chiqaradi. Turli xil qurilmalarda ranglarning mosligini ta'minlash uchun ular o'zining profiliga ega bo'lishi kerak.

Kalibrovka. Har xil platforma, qurilma va dasturlarda rangni bir xilda boshqarish sistemasi mavjud emas. Lekin bu turdagi sistemalariga CMS yaqin hisoblanadi. Ilk bor Solerunc nomi ostida CMS ni Apple firmasi operatsion sistemaga kiritdi. U Macintosh kompyuterlari sferasida nashrga tayyorlash, nashr qilish va poligrafiyada muvaffaqiyatli xizmat qildi. Windows 95/98 operatsion sistemalarida Kodak firmasining Color Matching Module nomi ostida CMS tizimlari ishlatiladi. Kompyuter grafikasida rangli ruxsat etish tushunchasi qabul qilingan (rang chuqurligi). Monitor ekranida uni hosil qilish uchun rangli informatsiyani kodlashtirish usulidan foydalaniladi. Oq-qora tasvirni aks ettirish uchun ikki bit razryad yetarli. Sakkiz razryadli kodlashtirish 256 turdagi ranglar jilosini aks ettirishga imkoniyat beradi. Ikki bayt (16 bit) 65536 turdagi ranglar jilosini ifodalaydi (bunday rejim — High Color). Yigirma to'rt razryadli kodlashtirish usulida 16 777 216 ta rangni ifodalash mumkin.

Amaliy nuqtayi nazardan monitoring rangli ruxsat etish tushunchasi rangli qamrab olishni anglatadi. Bu o'z navbatida chiqarish qurilma (monitor, printer va hokazo)larida ranglar diapazonini hosil qilishni belgilaydi. Rangli modul deb additiv va subtraktiv metodlar yordamida ishlangan ranglar jilosi tarkibiy komponentlarining bo'linish usullariga aytiladi. Kompyuter grafikasida asosan RGB, HSB va CMYK rang modullari qo'llaniladi. Rangli modullar uch o'lchovli koordinatalar sistemasida joylashadi va ranglar fazosini tashkil qilib, Grossman qonunlariga binoan rangni uch o'lchovli fazodagi nuqta sifatida ifodalashi mumkin. Grossmanning birinchi qonuni. Chiziqli bog'liq bo'lmagan har qanday rangni uchta tashkil etuvchi orqali bir qiymatli ifodalash mumkin. Chiziqli bog'liq bo'lmaslik — bu ixtiyoriy uch rangdan ikkitasini qo'shish orqali uchinchisini hosil qilish imkoniyati mavjud emas. Grossmanning ikkinchi qonuni. Agar ranglar uzluksiz o'zgarsa, ranglar aralashmasining nurlanishi ham uzluksiz o'zgaradi. Hech qanday rang yo'qki, unga yaqin bo'lgan rangni tanlash imkoniyati mavjud bo'lmasa. Grossmanning uchinchi qonuni. Ranglar aralashmasining nurlanishi ularning rangiga bog'liq, biroq uning spektr tarkibiga bog'liq emas.


Docker tipidagi panel

Docker tipidagi panel mulohat oyna ko'rinishida bo'ladi. Bu panellar har doim ekranda mavjud bo'ladi va ishchi oyna yonida joylashadi. Ekranga kerakli bo'lgan panelni chaqirish uchun menuning Oyna (Window) va Docker (Dockers...) tipidagi panel buyrigi va ochilgan ruyxatdagi panellardan bittasi tanlanadi.

- Object Manager paneli (Dispetcher ob'ektiv) — obyektни parametrlarini tasvirleydi, obyekt erarhiya va qatlamlarini boshqaradi.
- View Manager paneli (Dispetcher vidov) — «tasvir ko'rinishlari» tasvirleydi va boshqaradi.


- Graphic and Text Styles paneli (Stili teksta i grafiki) — grafik va matnli stillarini yaratadi va o'zgartiradi.
- Color Styles paneli (Svetovo'e stili) — obyektlar bilan ishlashda ranglarni tanlaydi va ular ustida amallar bajaradi.
- Symbols and Special Characters paneli (Simvolo' i spetsialno'e znaki) - mavjud bo'lmagan belgilarni tasvirlashda foydalaniladi.
- Internet Bookmark Manager paneli (Dispetcher zakladok Internet) — gipermatnlarni boshqarish va yaratishda ishlatiladi.
- HTML Object Conflict paneli (Analizator konfliktov ob'ektov HTML) – Internetda nashr etishdan avval hujjatlarni to'g'riligi tekshiradi va noto'g'rilarini tuzatadi.
- Script and Preset Manager paneli (Dispetcher makrosov i gotovo'x obrazsov) — makrodasturlarni o'zlashda foydalaniladi.
- Object Data paneli (malumotlar jamgarmasi) — har bir obyektga jadvaldagi malumotlar berkitiladi, masalan, narhi, o'lchami va h.malumotlar
- Object Properties paneli (Svoystva ob'ektov) — hujjatdagi obyektning barcha parametrlarini haqida malumot beradi va uzgarish kiritadi.
- Link Manager paneli (Dispetcher svyazanno'x izobrajeniy) — hujjatda mavjud emas faqat u bilan bog'langan tasvirlarni boshqarish.
- Bitmap Color Mask paneli (Svetovaya maska tochechnogo izobrajeniya) – rastrli tasvirlar bilan ishlashda ranglar maskasini yaratish.
- Lens paneli (Linza) — linza turini tanlash va uning parametrlarini o'rnatish.
- Artistic Media paneli (Imitatsiya) — vektorli qalamning murakkab turlari bilan ishlash.
- Transformation paneli (Transformirovaniye) — obyektning siljitiishning har xil turlari bilan ishlash.
- Shaping paneli (Izmeneniye formo') — bir nechta obyektning uch hil ko'rinishda birlashtirish.
- Color (Svet) va Color Palette Browser (Svetovo'e palitro') panellari — ranglar bilan ishlash.
- Browse (Obzor) paneli — hujjatlarni boshqarish va ularni har hil ko'rinishlarda ko'rish.
- Cliparts (Vektorno'e izobrajeniya), Photos (Fotografii), 3Dmodels (Trexmerno'e modeli) panellari — dastur bilan birgalikda o'rnatilgan kompakt disklar bilan ishlash (CD-ROM).
- FTP Sites (Sayto' FTP) paneli — FTP saytlarini saqlash va katta massivli malumotlarni ko'chirish uchun ular bilan tez bog'lanish.

Agarda yuqorida ko'rsatilgan menuda qandaydir buyruq bo'lmasa u holda menuning (Menu) Parametrlar (Options) yordamida qo'shish mumkin.
Interfeysni saqlash va o'zgartirish



CorelDRAW dasturi interfeysini foydalanuvchi o'zi xohlaganday qilib rostdash va uni xotiraga saqlash imkoniyati bor.

Uning uchun quyidagi amallar bajariladi: Menuning (Tools) dan Optsii... (Options) buyruq tanlanadi va ochilgan dialog oynasidan Interfeys (Workspace)



tanlanadi Yangi... (New)

tugmasi ekranga Yangi interfiysni (New Workspace) chiqaradi. Yangi interfiysni (New Workspace)da interfeysning yangi parametrlarini kiritish uchun foydalaniladi; masalan, Nomi-maydonida yangi interfeys nomi (Name of new workspace). kiritiladi va yangi interfeysni joriy qilish uchun belgi (Set as current) qo'yiladi

CorelDraw grafik dasturida hujjatlar oynasi bilan ishlash.

CorelDRAW dasturida hujjatlarni xotiraga bir-nechta usul bilan saqlash mumkin. Menyuning Fayl (File) va Saqlash (Save) buyrug'i yordamida joriy hujjatni joriy jildga saqlaydi. Bu amal asboblar panelidagi maxsus tugma yordamida ham amalga oshiriladi.

Soxranit kak ... (Save As) buyrug'i esa joriy hujjatni boshqa nom va boshqa jildga va boshqacha formatda saqlash imkoniyatini beradi. Bu amalni bajarilganda va yangi hujjatni xotiraga saqlaganda ekranga Tasvirni saqlash (Save Drawing) ni beradi.


Versiya (Version) ro'yxatidan CorelDRAW dasturining avvalgi variantlaridan birini yoki yangi variantini tanlab hujjatni mos formatda xotiraga saqlaydi.

Faqat dasturning eski variantlarida hujjatlarni saqlaganda bir nechta parametrlar yo'qolib ketishini esda tutish lozim.



Thumbnail ro‘yxatida xotiraga saqlashning bir-nechta variantlarini beradi:

- hujjatlarni o‘lchamini bir qancha kichik qilib berish ham mumkin, faqat keyinchalik fayllarni qidirganda qiyinchilik tug‘diradi. 1K (mono), 2K (mono), 4K (color), 8K (color) oq-qora yoki rangli tasvirlarni har xil sifatda xotiraga saqlasa bo‘ladi. Agarda hech biri tanlanmagan bo‘lsa, u holda maksimal sifatli tasvirli hujjat xotiraga saqlanadi.
- Selected only (Faqat tanlangan obyektlar) tanlanganda yangi faylga ajratilgan obyektlar saqlanadi, shu bilan birga boshqa faylga obyektning alohida qismini ham saqlash mumkin.
- ICC profile (ICC profilini joylashtirish) hujjatdagi ranglarni boshqarish. Dastur faqat SRT CDR, TIFF, JPEG, PICT va EPS formatli fayllar bilan ishlaganda ishlaydi.
- No white spaces, special characters (Bosh joy va maxsus belgilarsiz) belgisi hujjatni xotiraga saqlaganda bo‘sh joy tagini chizish bilan, maxsus belgilarni Web standartidagi belgilar bilan almashtiradi.
- Embed Fonts using TrueDoc (Shriftlarni TrueDocdan foydalanib yozish) hujjatda TrueDoc texnologiyasini foydalangani haqida malumot beriladi.
- Keywords (kalit so‘zlar) i Notes (Tuchunsha berish) hujjatlarni tez topish uchun ularga tuchintirish so‘zlari yoziladi.
- Advanced tugmasi... (Quchimcha) ekranga Save (saqlash) dialog oynasini va Options (parametrlar), parametrlari o‘rnatilgan bo‘ladi.
- Save presentation exchange (Boshqa redaktorlar formatlida saqlash) CMX formatda ishlaydigan boshqa redaktorlarda faylni ochich. Buni ishga tushirganda faylning o‘lchami katta bo‘ladi.




- Use current thumbnail (Ispolzovat suhestvuyuhuyu miniatyuru) birinchi saqlaganda rastrlangan hujjatni miniatyura yordamida saqlashni t'aminlayda. Bu faylni saqlashga mo'ljlanlangan vaqtni m'alum miqdorida kamaytiradi, ammo xatolikka olib kelishi mumkin, agarda hujjat ko'p qayta ishlangan bo'lsa.
- File optimization maydonida (faylni optimallashtitish) ikki xil turdagi fayllarni saqlaydi, rastr tasvirli (Use bitmap compression) va vektor tasvirli (flajok Use graphic object compression) faylning o'lchamini kichik qiladi.
- Textures maydoni (Teksturno'e zalivki) va Blends and extrudes («Poshagovo'y perexod») i «Ekstrudirovaniye») tarkibiga qaraganda bir xil:
 - Save ... with the file (fayl bilan saqlash) fayl o'lchami katta bo'ladi faqat hujjat o'qilganda tez vaqtda ochiladi;
 - Rebuild ... when opening the file (Postroit ... pri otkro'tii fayla) — yuqaridagiga teskari faylni o'qishda ko'p vaqt talab etadi, o'lchami katta bo'ladi.

Hujjatli oynani kontekstli menyu yordamida yaratilgan tasvir masshtabi hosil qilish.

Vektor grafikasi muharrirlarida ekranda (ishchi maydonda) qanday tasvirlar bo'lsa bosmadan shu ko'rinishda chiqariladi. Ekrandagi ishchi oynada tayyor bo'lgan tasvirlarni ko'rish uchun menyuning Ko'rish (View) dan foydalaniladi. Dasturda besh xilda ko'rinishda ko'rish mumkin.: Oddiy konturli (Simple Wireframe), Konturli (Wireframe), Chernovoy (Draft), Normal (Normal), Yaxsh (Enhanced).

Agarda hech biri tanlanmasa u holda normal (Normal) holatini komputer uzi tanlaydi.

Ekranni masshtablash



Ekstrandagi tayyor boʻlgan rasmlarni katta va kichik hollarda koʻrish funktsiyalari mavjud. Uning uchun asboblar panelidagi (Toolbox) Mashtab (Zoom) tanlanib kattalashtirish yoki kichiklashtirish parametri koʻrsatiladi.

Standart asboblar panelida masshtablash parametrlari berilgan va ular quyidagilar: Ajratilgan obyektlar (To Selected), hamma obyektlar (To

Fit), Sahifa (To Page), Sahifa eni boyicha (To Width), Sahifa boyi boyicha (To Height), 10%, 25%, 50%, 75%, 100%, 200%, 400% ga masshtablashga boʻladi.

Ekstrandagi tasvirlar kattalashtirilganda hujjatdagi koʻrinmaydigan ob'ektlar bilan ishlashga toʻgʻri kelib qoladi u holda shu ob'ektlarni siljitishga toʻgʻri keladi. Buning uchun quyidagi ikkita imkoniyatlardan foydalanilsa boʻladi:

3. vertikal va gorizontaal siljitgishlardan.
4. Maxsus asbob Panoramadan (Pan). Bu holda ekstrandagi kursor qoʻl shaklini oladi va obyektни xohlagan tomonga siljitish mumkin.


Chizgʻichni joylashtirish va ulardan foydalanish.

Chizgʻich ekranda koʻrinib turadi agarda u yoq boʻlsa menuning Koʻrish (View) tanlanib Chizgich (Rulers) buyrugʻi ishga tushirish kerak boʻladi, ikkinchi marta bu amal bajarilsa ekrandan chizgish olib tashlanadi.


Chizgichni ekranning hoqlagan joyoga qoʻyish mumkin. Bu uchun <Shift> tugmasi bilan birgalikda sichqoncha bilan olib hoqlagan joyga qoysa buʻladi. Agarda <Shift> tugmasi bilan birgalikda chizgishga ikki marta sichqoncha bilan chertilsa avvalgi holiga qaytariladi.

Agarda <Shift> tugmasisiz ikki marta chertilsa u holda chizgishning (Rulers) Parametrlari (Options) ekranda nomayon boʻladi.

CorelDRAW dasturidagi chizgish har xil ulchob birliklarida beriladi Oʻlchov birliklari (Units) qoyidagilar iborat:



- inches (dyumlar), 1 (engliz) dyumi 24,5 mm teng;
- millimeters (millimetrlar);
- picas; points (pikalar), 1 pika 12 punktga teng;
- points (punktlar), 1 punkt 1G'72 engiz dyumiga teng (24,5 mm);
- pixels (pixellar), nisbiy ulchov birlik (absolyut qiymatga ega emas);
- ciceros; didots (tsitsero), 1 tsitsero 12 punktga teng;
- didots (Dido punktlari), 1 Dido punkti 1G'72 farang dyumiga teng (27,06 mm);
- feet (futlar), 1 fut 304,8 mm ga teng;
- yards (yardlar), 1 yard 914,4 mm ga teng;
- miles (milar), 1 mil 1609 m ga teng;
- centimeters (santimetrlar);
- meters (metrlar);



- kilometers (kilometrlar).


hujjatning umumiy ish maydoni 45 x 45 metrga teng. Bu esa dasturdan ko'rgazmalar va katta hajmli ob'ektlar bilan ishlaganda juda qo'l keladi

Sahifalarning parametrlari

Ekrandagi hujjatning sahifa formati to'g'riturburchak shaklidagi ko'rinishda bo'ladi. Agarda sahifa formatini o'zgartirmoqchi bo'lsangiz Svoystva (Property Bar) foydalansa bo'ladi.

Agarda Kitob (Portrait) tanlansangiz hujjatning bo'yi buyicha ko'rinishda, Albom (Landscape)ni tanlansangiz hujjatning eni buyicha ko'rinishda sahifalaydi.

Yuqoridagi sahifalashning o'lchamlarni bosmadan chiqariladigan paytdagi bilan chalkashtirmaslik kerak.



Agar tayor bo'lgan hujjatni bosmadan chiqarmoqchi bo'lsangiz menuning Ko'rish (View) tanlanib bosmaga chiqishi kerak bo'lgan maydon tanlanadi (Printable Area), va ekranda shtrix chiziqlar bilan bosmaga chiqadigan maydon chegaralangan bo'ladi.

Mavzu № 7 CorelDraw dasturida ranglar va qatlamlar. CorelDraw dasturida maxsus effektlar.

Reja:

1. Qatlam yaratuvchi instrumentlar haqida izohlar.
2. Yangi qatlam yaratish jarayonida nomlash va joriy ettish.
3. Yaratilgan qatlam ob'ektlarini bir-biridan ajratish usullari.
4. Instrumentlar yordamida yaratilgan qatlamlarni o'chirish va feksirlash.
5. CorelDraw dasturida maxsus effektlar yaratish yo'llari.
6. Polygon va Beze instrumentlari.

Qatlamlar bilan ishlash

	<p>Рука: Tasvirning ko‘zga tashlanmay turgan qismlarini ko‘rsatadi. Buning uchun ushbu asbob aktivlashtirilib tasvir ustida sichqonchaning chap tugmachasini bosgan qolda kerakli tomonga qarakatlantiriladi. Ayni jarayonni «Adobe Photoshop» programmasi darchasidagi "Navigator" yordamida qam amalga oshirish mumkin.</p>

	<p>Масштаб: Tasvirni kattalashtirish yoki kichraytirish uchun xizmat qiladi. Agar ushbu asbob bilan birgalikda "Alt tugmasi ishlatilsa, tasvir kichrayadi. Kursor ushbu asbob aktivlashtirilgandan so'ng o'z shaklini o'zgartiradi va lupa ko'rinishini oladi. Kursor tasvirning qaysi nuqtasida bosilsa «Adobe Photoshop» programmasi avtomatik tarzda o'sha nuqtani ekranga yaqinlashtiradi. Masshtab asbobini aktivlashtirib, Enter klavishi bosilsa, Опция масштабирования darchasi ochiladi. Bu darchada maxsus to'rtburchak ichiga belgi qo'yilsa tasvir o'lchamlari o'zgartirilganda tasvir darchasi ham mos tarzda o'zgaradi. Har safar tasvir o'lchamlarini kattalashtirish yoki</p>
	<p>kichraytirish uchun Masshtab asbobini aktivlashtirish zarur emas. Boshqa asbob bilan ishlash paytida Ctrl + Probel bosilsa ishlatilayotgan asbob vaqtinchalik Masshtab asbobi vazifasini bajaradi va tasvir kattalashadi. Ctrl + Probel o'rnida Alt+Probel qo'llanilsa, tasvir o'lchami kichrayadi. Shuningdek, tasvir o'lchamini ctrl + +(plyus) klavishalari yordamida kattalashtirish yoki Ctrl + - (minus) yordamida kichraytirish mumkin. «Adobe Photoshop» programmasi darchasi ostida Stroka sostoyaniya satrida tasvir o'lchamlari haqida axborot beruvchi maxsus darcha mavjud. Bu darchada tasvir o'lchamlari sonlarda ifodalangan. Ushbu sonlarni o'zgartirish orqali tasvirning aniq o'lchamlari kiritiladi.</p>
	<p>Основной цвет: Ushbu asbob ustida kursor ikki marta ketma-ket bosilganda «Adobe Photoshop» programmasining yangi darchasi (Выбор цвета) hosil bo'ladi. Bu darchada kerakli rang tanlanib, OK yoki "Enter" tugmasi bosiladi va tanlangan rangni "Karandash", "Kist", "Aerograf", "Gradiyent" kabi asboblari yordamida qo'llash mumkin.</p>
	<p>Цвет фона: Ushbu tugmacha ustida kursor ikki marta ketma-ket bosilganda «Adobe Photoshop» programmasining yangi darchasi (Color Picker) hosil bo'ladi. Bu darchada tasvir fonining rangi aniqlanadi. Tavsvir fonidagi rang "Lastochka" va "Gradiyent" asboblari uchun qo'llaniladi.</p>
	<p>Переключение цветов: Ushbu belgi ustida kursorni bosish bilan asosiy rang bilan tasvir foni ranglari o'rni almashtiriladi.</p>
	<p>Цвета по умолчанию: Bu belgi ustida kursorni bir marta bosish bilan asosiy rang qoraga va tasvir foni ranglari oqqa aylanadi.</p>
	<p>"Марширующие муравьи": Bu tugmacha yordamida «Adobe Photoshop» programmasida tez niqoblash holati bekor qilinadi. Ekranda belgilash chegaralari chumolilar harakatini eslatuvchi punktir chiziq yordamida aks ettiriladi. Bu «Adobe Photoshop» programmasida odatda standart holat deb ataladi.</p>

	Быстрая маска: Ushbu tugmacha ustida kursorni bir marta bosilishi bilan «Adobe Photoshop» programmasi tez niqoblash holatiga o'tadi va natijada tasvirdagi niqoblanmagan hudud qizil rang bilan bo'yaladi. Ushbu asbob tasvirdagi turli ob'ektlarni aniq niqoblashda ishlatiladi. "Kist" asbobi yordamida niqobga ishlov berish mumkin. Bunda qora rang bilan tasvir niqoblanadi, oq rang bilan tasvirdagi niqob o'chiriladi.
	Стандартное окно: Asbob aktivlashtirilganda tasvir standart holatda bo'ladi.
	Полный экран с меню: Bu holat tasvir kompyuter ekraniga sig'magan holda ishlatiladi. Ushbu asbob aktivlashtirilganda ekranda menyu satri hamda asboblarni paneli qoladi.
	Полный экран: Ekranda faqat tasvir va asboblarni paneli hamda menyu satri qora fonda qoladi.

Mavzu № 9 Adobe Photoshop dasturida ranglar va qatlamlar.

Reja:

1. «Adobe Photoshop» programmasida ranglar palitrasi
2. Holat satridan foydalanish.
3. Yangi tasvirni yaratish

«Adobe Photoshop» programmasi asboblarni panelida ranglar bilan ishlash uchun to'rtta asbob ajratilgan.

◆ **Основной цвет.** Ushbu asbobda qanday rang ko'rsatilgan bo'lsa "Ковш", "Линия", "Карандаш", "Кист", "Аэрограф" va shuningdek, Alt tugmasi bilan birgalikda qo'llanganda "Палетке" asboblari uchun o'sha rang asosiy hisoblanadi.


Основной цвет asbobidagi rang "Пипетка" ushbu asbob ustida kursorni ikki marta ketma-ket bosish orqali o'zgartiriladi.

◆ **Цвет фона** Ko'rsatilgan rang "Ластик" asbobi bilan ishlaganda qo'llaniladi. Цвет фона asbobidagi rang **Основной цвет** asbobida rangni o'zgartirish uchun qanday amal bajarilgan bo'lsa bunda ham quddi o'sha amalga rioya qilish lozim. Yoki "Пипетка" asbobi bilan Alt tugmasi birgalikda bosish orqali almashtirish mumkin.

◆ **Переключение цветов.** Kursorni ushbu tugmacha ustida bir marta bosish orqali asosiy rang va fon ranggi o'rin almashadi.

◆ **Стандартный цвет.** Kursorni ushbu tugmacha ustida bir marta bosish orqali asosiy rang va fon ranggi standart ranglar - qora va oq rangga almashtiradi.

Ranglarni tanlashda «Adobe Photoshop» programmasida Color darchasidan ham foydalanish mumkin.



RGB — moduli tasvirni ekranda taqirirlash nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda juda qulay va u 24 razryadli ranglar platasi yordamida deyarli barcha 16 million ranglarni monitorda aks ettiradi. RGB ranglar majmuasi bilan ishlangan barcha tasvirlarni xohlagan formatda diskka yozish mumkin. **RGB** — ranglar majmuasidagi ayrim ranglar umuman tabiatda uchramaydi.

SMYK-Tabiatda mavjud bo'lgan ranglar majmuasi. quyosh nurlari inson ko'zlari ajrata oladigan barcha ranglarni o'zida mujassamlashtirgan. Quyosh nurlari biror — bir jismga tushganda uning tasiri ostida inson ko'zlari jism shakli va rangini idrok etadi. Misol uchun binolarning o't o'chirish burchaklari osib qo'yilgan o't o'chirgichlar to'q ko'k va zangor ranglar bilan bo'yalgan bo'lishiga qaramay bizning ko'zimizga to'q qizil rangda ko'rinadi. Ranglarni bir — biriga qo'shilishi natijasi boshqa ranglar hosil qilinadi:

- S — havo rang,
- M - binafsha rang,
- Y -sariq rang,
- K- qora rang,

Bosma mashinalari va bosmaxonalarda tasvirlar yuqorida keltirilgan ranglarning kombinatsiyasidan foydalangan holda to'la tasvirni ifodalaydi.

RGB — ranglar majmuasida oq rang uchala ranglarning maksimal aralashmasidan hosil qilinadi. Qora rang esa buning aksi o'laroq olinadi.


CMYK — ranglar majmuasi bilan ishlaganda qora va oq ranglarni hosil qilish uchun buning aksini bajarish lozim. Ya'ni to'rt rangning minimal qo'shilishida oq rang hosil bo'ladi. Qora rang esa alohida kanalda mavjud.

RGB — ranglar majmui keng ko'lamdagi ranglarni taklif etadi. Lekin ularning ko'p qismi (ayniqsa yorqinlari) tasvirni chop etganda monitordagi bilan keskin farq qiladi. Shu bois ham ko'plab mutaxassislar tasvirni chop etishdan avval uni **CMYK**— sistemasiga o'tkazadilar. Ayrim mutaxassislar esa tasvir bilan **CMYK** — sistemasida ishlashni maslahat beradilar. Ammo bu tasvir bilan ishlash turli qiyinchiliklarni tug'diradi. Ana shunday qiyinchiliklardan biri kompyuter juda sekin ishlaydi. Bunga asosiy sabab

«Adobe Photoshop» programmasi **RGB** -sistemasiga sozlangan bo'lib, har bir komandani bajarib, uni **RGB** — sistemasidan **CMYK** — sistemasiga almashtirguncha kompyuter qo'shimcha vaqt talab qiladi. Bundan tashqari skaner va monitor **RGB**— sistemasida ishlashga mo'ljallangan. Ranglar bilan ishlovchi barcha uskunalari (rangli printerdan tashqari) **RGB** -sistemasida ishlaydi. Shuning uchun yaxshisi tasvirni chop etishdan avval **CMYK** — sistemasiga o'tkazib olish maqsadga muvofiq. Tasvir ustida

barcha amallarni poyoniga yetkazib, menyular satrida **Изображение** - Настройка tarkibidagi **SMUK** komandasini tanlang.

Adobe Photoshop dasturi ishga tushirilgandan keyin menyu satrida FAYL menyusi bandidan Создать buyrug‘i murojaat qilinganda sahifa hisoblagichi ekran yuzida paydo bo‘ladi. Bu quyidagicha ko‘rinishda bo‘ladi:



➤ **Piksel** – rastri (rangli chizilgan) ikki o‘lchovli grafikada tasvirni o‘lchash birligi. Tasvir tarkibidagi nuqtalar bo‘lib, nuqtalar birin-ketin o‘rnatilib butun tasvirni hosil qiladi.

➤ **Ruxsat etilgan qiymat**– bir birlik uzunlikda nuqtalar soni. Tasvirning asosiy parametrlaridan biri bo‘lib, qanchalik qiymat ko‘rsatgichi yuqori bo‘lsa, shunchalik tasvir sifati va fayl hajmi oshadi. Odatda, bir santimetrga 72 piksel qiymati o‘rtacha hisoblanadi, ammo haqiqatda sifatli natijaga erishish uchun, masalan poligrafiyada, qiymat sezilarli daraja yuqori bo‘lishi lozim.

➤ **Ranglar modellari.** RGB modeli. Rang modeli piksel rangi bilan aniqlanadi. Faqat RGB modelini ko‘rib o‘tamiz – chunki, hozirgi kunda eng ommabop va qulay bo‘lib, asosan rangni monitorga uzatish uchun mo‘ljallangan. Agar uni soddaroq izohlasak, har bir piksel uch xil rangdan tarkib topgan: Red, Green, Blue. Barcha qo‘llaniladigan ranglar majmuasi har bir kanal yorqinlik darajasiga ega bo‘lganligi sabab hosil qilinadi. Ular 0 dan 255.0 gacha mavjud bo‘lib– eng minimal yorqinlik Ushbu rangning pikselda bo‘lmasligi bilan izohlanadi, eng maksimali - 255. Ya‘ni R0G0B0 ko‘rinishda izohlangan piksel qora rangni, R255G255B255 – esa oppoq rangni bildiradi.

Xossalar paneli. Dasturdagi ochiluvchi panel, ya‘ni xossalar paneli foydalanuvchiga dastur bilan ishlash mobaynida qator qulayliklar yaratadi. Panel buyruqlari tanlangan uskunaga bog‘liq ravishda namoyon bo‘ladi.



Holat satridan foydalanish

Windows sistemasida ishlaganimizda **Window > Show Status Bar** (Окно > Показать строку состояния) tanlang, bu yordamida holat satri chiqariladi, yoki **Hide Status Bar** (Спрятать строку состояния) tanlang, bu esa holat astrini ko‘rinmas holga olib keladi.

Agarda **Document profile** (Профиль документа) aktivlashtirilgan bo‘lsa, u holda holat satrida hujjatning rang profillari berilgan bo‘ladi, agarda hujjat hech qanday profilga ega bo‘lmasa u holda «Untagged» so‘zi chiqariladi.

Scratch Sizes (Объем памяти) punkitini tanlashda holat satrida chap tomonda ochiq bo‘lgan hujjatlarning hajmi, o‘ng tomonda esa Photoshop dasturi uchun operativ hotiradan egallagan hajmi beriladi. Agarda birinchi son ikkinchisidan katta bo‘lsa u holda dastur vertual хотiradan foydalaniyadgan bo‘ladi. **Efficiency** (Эффективность) optsiasini tanlab, dasturni qancha vaqtdan berli operativ хотirada ishlaganini ko‘rsatadi. Agarda 100% dan kam bo‘lsa, u holda diskdagi vaqtincha joydan foydalanilgan.

Current Tool (Текущий инструмент) punktini tanlash natijasida joriy vaqtda ishlayotgan asbob haqida ma‘lumot beriladi.

Bularda tasqari, holat satri ustida sichqonchani ushlab turib, sahifani berilgan qog‘oz o‘lchamlarga mos kelishini tekshirib ko‘rasiz (markerlarni ham hisobga olgan holda).

Holat satirida quyidagi paramertlarni qiymatlari ko‘rsatiladi: **Document Size** (Размер документа)

Hujjat o‘lchami, **Document Profile** (Профиль документа) Hujjat profili, **Scratch Sizes** (Объем памяти) – operativ хотira hajmi, bu holda Photoshop dasturiga tegishlisi, **Efficiency** (Эффективность) Samoradorlik- foydalangan operativ хотira, **Timing** (Время) Vaqt va **Current Tool** (Текущий инструмент) –Joriy asbob nomi. Holat satrini kursor yordamida, tasvirni sahifada qanday ko‘rinishga ega bol’shini ko‘rish uchun sichqoncha tugmasi bosib ushlab turiladi. Agarda bu amalni Alt tugmasi bilan birgalikda bajarsak, u holda ekranda tasvirni hajmi, kanallar soni, rejimi va ajrataolishi(razreshenie) haqida ma‘lumot beriladi. Vaqttni noldan boshlab hisoblashi uchun **Timing** (Время) dan foydalaning.

Tasvirlar manbayi

Hoxlagan tasvirni yaratish, ochish, muharrirlash va ularni 12-ta Photoshop formatli turlarida хотiraga saqlash mumkin (rasm 4). Faqat shunga qaramasdan bir nechta formatlari ishlatiladi: TIFF, GIF, JPEG, EPS va Photoshop dasturining o‘zining formati.

Photoshop dasturi har xil formatlarda ishlay olish imkoniyatini hisobga olib, tasvirlarni hoxlagan manbaydan olish imkoniyati bor: skaner yordamida, grafik muharrirlardan, kompakt diskdan, fotorasmdan, vediotasvirlardan va boshqa opertsiyon dasturdan ham. Tasvirni Photoshop dasturining yordamida ham yaratsa bo‘ladi.

Fayl hajmi

Windowsda ishlaganda, tasvir faylining haqiqiy hajmini ko'rmqchi bo'lsangiz, Windows

Explorer yordamida bizlarga kerakli bo'lgan fayl joylashgan papkadan, **Size** (Размер) kolonkasidan ko'ramiz(rasm. 5). Yanada aniq sonlarda ko'rmqchi bo'lsangiz fayl piktogrammasini sichqonchani o'ng tomoni bosiladi va paydo bo'lgan menyudan

Properties (Свойства) ni tanlaymiz.

Holat satrining uchib chiqadigan menyusining qaysi opsiyasi tanlanganidan qattiq nazarda, Alt tugmasini holat satri ustiga olib borib bosib turib, tasvirni fayldagi hajmini, kanallar sonini, qanday rejimda ekanini va ajrata olishini ko'rsa bo'ladi.

Yangi tasvirni yaratish

1. **File** > New (Файл > Новый) tanlang yoki **Ctrl+N** tugmalar majmuasidan foydalaning.

2. **Name** (Имя) maydonidan qanday nomga ega bo'lishini kiritining - 5 rasm.

3. Menyudan **Width** (Ширина) va **Height** (Высота) maydonlari enidan o'lcham birliklarini kiriting.

4. **Width va Height** qiymatlarini bering.

5. **Resolution** (Разрешение) parametrining ajrataolosh qiymatini bering.

6. **Mode** (Режим) uchib chiqadigan menyusidan tasvirni rejimini tanlang. Keyinchalik tasvirni boshqa rejimga o'tkazsa ham bo'ladi (rejimlar haqida 2 bo'limda kengroq berilgan, «Tasvir rejimlari»). 7. **Contents** (Содержимое) o'tkazgichni **White** (Белый) ga yoki **Background Color** (Фоновый цвет)ga qo'ying. Fon rangini qanday tanlashga 10 bo'limda to'xtab o'tiladi, yoki **Transparent** (Прозрачный) opsiyasini belgilang, agarda fonni tasvir qatlamiga aylantirmoqchi bo'lsangiz

Droplets		Папка с файлами	28.06.2002 13:55
ImageReady Animations		Папка с файлами	28.06.2002 13:55
Banner	2 669 КБ	Adobe Photoshop I...	12.03.2002 12:28
Ducky	287 КБ	Рисунок TIF	06.04.2002 15:57
Dune	1 068 КБ	Рисунок TIF	06.04.2002 15:57
Eagle	1 614 КБ	Adobe Photoshop I...	12.12.2001 12:03
Flower	3 941 КБ	Adobe Photoshop I...	16.01.2002 11:53
Harvest	4 310 КБ	Adobe Photoshop I...	02.04.2002 21:11
Morning Glass	5 586 КБ	Adobe Photoshop I...	02.04.2002 21:11
Old Image	174 КБ	Рисунок JPEG	02.04.2002 21:11
Palm Tree (CMYK)	789 КБ	Рисунок TIF	06.04.2002 15:57
Pasta	1 323 КБ	Рисунок JPEG	02.04.2002 21:11
Peppers	218 КБ	Рисунок JPEG	02.04.2002 21:11
Piccolo site	2 299 КБ	Adobe Photoshop I...	02.04.2002 21:11

Rasm 5. Fayllar haqida ma'lumot beruvchi oyna



Rasm 6. Yangi nomsiz tasvirni oynasi

Bir yoki bir nechta qatlamga ega Photoshop formatlaridan bittasida, PDF yoki Advanced TIFF kengaytmali fayllarda saqlanadi. Agarda siz faylni boshqa quchimgacha eksport qilmoqchi bo'lsangiz, tasvirni qatlamlarini biriktirib nusxasini boshqa formatda saqlash kerak, sababi bir xil qo'shimchalar tiniq bo'lgan qatlamlarni qabul qiladi. (Qatlamlar haqida keyingi 7 va 14 bo'limlarda kengroq tuxtab o'tamiz.)

8. OK tugmasiga chwerting (yoki **Enter** tugmasi). Tasvirlash oynasi chiqariladi (rasm. 6). **Photoshop daturida tasvirlarni ochish**

Adobe Illustrator faylini ochish uchun, quyidagi ko'rsatmadan foydalaning, « EPS, PDF formatli fayllarni ochish yoki Illustrator da qanday qilib yangi tasvirni yaratish» yoki « fayllarni EPS, PDF formatlariga joylashtirish yoki Photoshop dasturidagi Illustrator yordamida fayllarni yaratish ».

1. Menyuning **File > Open** (Файл > Открыть), **File > Browse** (Файл > Просмотр) buyruqlarini tanlang yoki **Ctrl+O** tugmalar majmuasidan foydalaning.

2. Ochish kerak bo'lgan faylni tanlang (rasm.7). Agarda tasvir kichiklashtirilgan nusxada saqlangan bo'lsa, tasvirni ko'rish uchun **Show Preview** (Предварительный просмотр)ga sichqoncha bilan cherting. Agarda **File > Browse** yordamida ochgan bo'lsangiz hamma tasvirlar kichiklashtirilgan formatda berilgan bo'ladi, hoxlaganini sichqoncha yordamida tanlab ko'rsa bo'ladi (rasm 8).


Miniaturani yaratish bir bir qancha vaqtni olishi mumkin agarda katalogda tasvirlar soni ko'p bolsa u holda qiyinchilik tugdiradi.

Hamma formatli fayllarni ekranga chiqarish uchun **Files of type** (Типы файлов) uchib chiqadigan menyusidan **All Formats** (Все форматы) variantini tanlash kerak.


Tasvir ochilgandan keyin, uni Photoshop dasturidagi mavjud formatlarda saqlash mumkin.

Agarda siz ochmoqchi bo'lgan fayl nomi, fayllar ruyxatidan chiqmasa, bu format uchun Photoshop dasturida moduli mavjud emas deganni bildiradi. Uni o'rnatish kerak bo'ladi.


3. Fayl nomini ajrating va **Open** (Открыть) tugmasiga cherting yoki fayl nomini ikki marta sichqoncha bilan cherting.



Rasm 7. Faylni ochish



Rasm 8. Browse yordamida fayllarni ochish



Rasm 9. Windows Explorer dasturidagi Photoshop formatidagi fayl belgisi

Profillar mos kelmagan holda 2 bo‘limda berilgan yo‘riqnomadan foydalansa bo‘ladi.

Yana bir formatlar uchun yana bir muloqat oyna chiqariladi. Masalan, agarda EPS, Adobe Illustrator yoki PDF-fayllarni ochganda, tasvir hali vektor ko‘rinishidan rastr ko‘rinishiga o‘tkazilmagan bo‘lsa, u holda **Rasterize Generic Format** (Растрезация формата) oyna chiqariladi. Bu haqida «EPS, PDF formatli yoki Illustrator dastur fayllarini ochish» bo‘limida kengroq berilgan.

Bir xil formatlarni ochish uchun maxsus modullar kerak bo‘ladi, masalan Scitex Ctrl yoki PICT Resource. Bularga o‘tish **File > Import** (Файл > Импорт) menyudan buyrug‘ini tanlash orqali bo‘ladi.

Fayl ochilganda aniq formatni ko‘rsatish uchun, menyuning **File > Open As** (Файл > Открыть как) buyruqlarini bajaring va ochilgan menyudan kerakli format tanlanilib, keyin **Open** (Открыть) tugmasini bosing.


Joriy oynalar orasidan bir-biriga tez o'tish uchun «qaynoq» tugmalardan **Ctrl+Tab** foydalaning. Yaqinda yopilgan faylni ochish uchun menyuning **File > Open Recent** (Файл > Недавно открытые) buyruqlaridan foydalaning.

Mavzu: № 10 Adobe Photoshop dasturi uskunalari yordamida maxsus effektlar yaratish. Reja:

1. Photoshop dasturida <<Стили>> darchasi.
2. Photoshop dasturida <<История>> darchasi.
3. Adobe Photoshop dasturida instrumentlar yordamida <<Параметры наложение>> maxsus effektlar yaratish.

Styles palitrasi

Styles (Стили) palitrasi – avvalgi yaratilgan effektlar va ularning birikmalarini xotirada saqlashdan foydalaniladi. Bu amal avval faqat ImageReady dasturida mavjud edi, hozir esa, Photoshop dasturida ham ishlatiladi.



Стили darchasi.

«Adobe Photoshop» programmasida History darchasi bilan ishlash

«Adobe Photoshop» programmasi ishga tushirilganda ekranda **History** darchasi mavjud bo'lmasa **Окно** menyusida **Показать History** komandasini tanlang (9-rasm). History darchasida tasvirga kiritilgan so'nggi o'zgartirishlar haqidagi ma'lumotlar joylashadi. Tasvir ustida bajarilgan har bir muhim amallar History darchasida ro'yxatga olinadi. Xohlagan paytda yoqmagan amallarni History darchasi orqali rad etish mumkin. Buning uchun kursor bajarilgan so'nggi amaldan oldingi komanda ustida bosiladi yoki "Ctrl" + "Alt" + "7," klavishalari bosiladi. «Adobe Photoshop» programmasi bajarilgan so'nggi 20 amalni ro'yxatga oladi. yigirma birinchi amal bajarilganda «Adobe Photoshop» programmasi avvalgi amallarni o'chiradi.

Текст uchun maxsus effektlar (Специальные эффекты для текста)

Eng avvalo quyidagilarni eslab qoling. Agar siz tekstni rakasinimashtabini hajmini va tuzilishini o'zgartirish uchun uni taxrirlanadigan ko'rinishda bajarishingiz kerak va so'ngra tekstga maxsus effektlar qo'shish uchun rasm sifatiga keltirib so'ngra effektlarni qo'lashingiz mumkin. Klaviaturada "V" tugmasi orqali ishga tushiriluvchi **Move** (Siljitish) asbobi orqali tekstni transformatsiya qilish mumkin.

Show Bounding Box (Показать габаритную рамку) asbobiga bayroqchani o‘rnatish **Layers** (Слой) asbobi orqali kerakli qatlamni belgilang. Ekranda tekst qatlami aks etadi.

Yakka xolda kiritilgan jumla va so‘zlarni quyidagicha o‘zgartirish mumkin:


Layers (qatlam) oynasiga jumlaning kiriting va **Edit** (Правка) menyusidan **Free Transform**

(Произвольная трансформация) buyrug‘ini tanlang;


Sichqoncha bilan tekst oynasini kerakli shaklni olguncha surib boring bu vazifani boshqa asboblarda ham bajarish mumkin.

Shakli tagranglar. Kristallar.

Yangi tasvirni 400x400 piksel hajmda RGB rangli rejimda yaratamiz. So‘ngra Paint Bucket (to‘ldirish) uskunasi yordamida, qora rang bilan to‘ldiramiz. Lens Flare: Filter-Render-Lens Flare filtrini rasmda ko‘rsatilgan kabi sozlab qo‘llaymiz. Shunga e‘tibor beramizki, yaratilgan dog‘ tasvir markazida joylashgan bo‘lishi lozim. Endi Canvas Size: Image-Canvas Size buyrug‘i yordamida tasvir kattaligini ikki barobar kattalashtiramiz. Ushbu amalni sozlash rasmda ko‘rsatilgan.




Keyingi amal kichik dog‘ni yetarli darajada rangli dog‘ga aylantirish lozim. buning uchun Fresco: Filter-Artistic-Fresco filtri lozim bo‘ladi. Ushbu bosqichdagi amal rasmda ko‘rsatilgan.




Olingan natijadan ko‘rishimiz mumkinki yaratilgan dog‘ tasvir markazida joylashtirilishi shart edi, chunki aks holda uning kattaligi oshganda u to‘liq ekranga yetmagan bo‘lar edi.

Bajarilayotgan amalning eng asosiy bosqichi–kristallarni hosil qilishni ko‘rib o‘tamiz. Buning uchun Extrude: Filter-Stylize-Extrude filtrini qo‘llaymiz. Kerakli sozlash amallari rasmda keltirilgan.



Kristallar tayyor. Biroq ular barchasi rang-barang bo‘lib, umuman bir-biriga o‘xshamaydi. Ularni bir tonda ranglash lozim. Havorangni tanladik – chunki barcha sirli kristallar faqat havorangda bo‘ladi. Rang o‘rnatish uchun Hue/Saturation uskunasi Colorize rejimda qo‘llaymiz. Qo‘llanilgan sozlashlar rasmda ko‘rsatilgan. Kristallarni turli rangda va shaffoflikda yaratib ko‘rishimiz mumkin. Misol tayyor holga keltirildi.



Tabiiy xodisa ko‘rinishlarni hosil qilish. Tuman. Bunday ko‘rinishni yaratishdan oldin, unga mos keluvchi tasvirni tanlash lozim. Tabiat rasmi chizilgan tasvirni; unda daryo yoki dengiz rasmi mavjud bo‘lsin. Layer-New-Layer buyrug‘i bilan Yangi qavat yaratamiz. U o‘zgartiruvchi bo‘lib, ya‘ni tasvirning alohida qismlarini o‘zgartirmaydi, biroq uning umumiy ko‘rinishiga ta‘sir qiladi.


Asosiy ranglarni belgilangan kabi D tugmasi orqali o‘rnatamiz. Clouds (Bulutlar) filtrini Render (Yorug‘lik) to‘plamidan tanlaymiz. To‘liq tasvir bo‘yicha tarqalgan shaklsiz oq bulut ko‘rinishini. Ushbu amal bajarilgandan so‘ng tasvir yangi qavat ostida rasmda ko‘rsatilgan kabi ko‘rishga ega bo‘ladi.

Olingan natijani to‘g‘rilash uchun, joriy qavat uchun piksellarni o‘rnatish rejimini Normal dan Screen ko‘rsatgichga o‘zgartiramiz. Uning yordamida barcha qora bo‘shliqlar shaffof ko‘rinishda, oq qismlari esa o‘zgarimas qoladi. Agar tasvir juda ham oppoq bo‘lib qolsa, u holda qavatning shaffofsizligini 3040% ga kamaytiramiz.


Layers panelidagi Toza qog‘oz ko‘rinishli tugma yordamida yangi qavat hosil qilamiz. Tumanni aniq tasvirda ko‘rsatish uchun ba‘zi xususiyatlarini eslashga harakat qilish lozim bo‘ladi. Qanchalik uzoqdan ko‘rinsa, shunchalik qalin ko‘rinadi, Ushbu xususiyatni tasvir etishda gradiyent uskuna Anki yordam beradi. Bunda ranglar o‘zgarishi qora rangdan oq ranga o‘zgarishi lozim. Uskunalar panelida Gradient tugmasini tanlaymiz. Gradiyentning ochiq qismini tasvirga qarab joylashtirish kerak. Qavat parametrlarini rang surtish rejimini Screen da belgilab, qavatda shaffofsizlikni o‘rnatamiz.

Natijada tumanga o‘xshash ko‘rinish hosil bo‘ladi. Tasvirni yanada aniqlantirish uchun bir necha amallarni bajarish lozim bo‘ladi. Brush uskunani tanlab, uni Airbrush Capabilities ga o‘zgartiramiz, asosiy rang sifatida oq rangni tanlaymiz va bir necha nosimmetrik joylashgan chiziqlarni chizamiz.

Chizma asosi tuziladi. Biroq tuman shunchalik darajada aniq shakllarni hosil qilmaydi. Unga haqiqiy ko‘rinish quyidagicha bajariladi: chiziqlarning bir qismini tanlab, ularga Distort guruhidan Twirl filtrini tanlab o‘rnatamiz.



Soʻngra umumiy oquvchanlik koʻrinishini oʻrnatishga oʻtamiz. Uni Motion Blur filtr yordamida bajarishni tavsiya etamiz. Uning parametrini yuqoridan pastga qarab, chizish bosim kuchini oʻzingizga mos qilib oʻrnatamiz. Agar oʻrnatmalar yetarli talab darajada boʻlmasa, u holda oddiy oquvchanlik amalidan foydalanish mumkin. natijada oynadagi tasir rasmda koʻrsatilgandek oʻzgarishi lozim.



Photoshop dasturida instrumentlar yordamida maxsus effektlarni yaratishda <<Параметры наложения>> ishchi oynasining 12 ta buyruqlaridan tashkil topgan. Maxsus effekt buyruqlari:

- ◆ Тиснение – tasvirga bosma naqshlar tushirish;
- ◆ Контур – tasvir konturini sozlash;
- ◆ Текстура – tasvirga bezak berish;
- ◆ Обводка – tasvirni burkib chiqarish;
- ◆ Внутренняя тень –
- ◆ Внутреннее свечение – tasvirlarga ichki va tashqi soyalarga yorqinlik berish;
- ◆ Глянец – tasvirni sayqallash;
- ◆ Наложение цвета – tasvirga aniq koʻrsatilgan rang;
- ◆ Наложение градиента – tasvir chegarasini sozlash;
- ◆ Наложение узора – tasvir bezagiga nashq joylashtirish;

Внешнее свечение – tasvir ustki yorug‘ligi;
Тень – tasvirga soyalar berish.

Mavzu: № 11 Adobe Photoshop dasturining qo‘shimcha imkoniyatlari.

Reja:

1. Photoshop dasturida matn muharririning imkoniyatlari
2. Photoshop dasturi kontur oynasining qo‘llanilishi.

«Adobe Photoshop» programmasida matnlar bilan ishlash


«Adobe Photoshop» programmasi tasvirlar ustiga matnlarni kiritish uchun yana bir keng imkoniyatni ochib beradi. Tasvir ustiga matn kiritish uchun asboblardan panelida maxsus "Текст" asbobi mavjud. Bu asbob asosan tasvirga turli matnlarni kiritish uchun xizmat qiladi. "Текст" asbobi tarkibida "Текстмаска", "Вертикальный текст" kabi asboblardan yashiringan. Bu asboblardan aktivlashtirilib, tasvir ustida bir marta bosilishi bilan yangi "Текстовой инструмент" darchasi hosil bo‘ladi. Bu asboblardan faqat matnlarni tuzish uchun xizmat qiladi. Uning yordamida mavjud matnlarni taqirlashning iloji yo‘q.

Matnli ko‘rinishlar. Qor ko‘rinishni harflarda qo‘llash

Avvalambor yangi tasvir hosil qilamiz (Ctrl+N), taxminan 300x300 piksel hajmda bo‘lsin. Hajmi juda ham katta bo‘lishi shart emas – aks holda qor haqiqiy ko‘rinishda bo‘lmaydi (bunga o‘zingiz amin bo‘lasiz).

Tagrang ko‘rinishi sifatida qish fasli rasmini, yoki oddiy havorangni qo‘llash lozim.

So‘ngra, Type (Matn) uskuna yordamida matn yozing. Harflar rangi turli bo‘lishi mumkin, biroq, harflar Ko‘k rangga yaqin bo‘lganda ta’sirchan ko‘rinish bo‘ladi.



Endi esa qor ko‘rinishni yaratishni boshlaymiz, uchi ingichka bo‘lgan Brush (Mo‘yqalam) uskunasi tanlaymiz. So‘ngra, yozuvga yuqoridan qor tushgan o‘rinlarni oq rang bilan ko‘rsatamiz. Buning uchun uy tomiga tushgan qor ko‘rinishini ko‘z oldimizga keltirishimiz lozim. Rasmda o‘z e’tiborimizni jalb etib ham bajarishimiz mumkin, ammo chizish qobiliyati har bir inson ijodiga bog‘lik. Biroq, qor ko‘p bo‘lmasligi lozim.

Qor ko‘rinishi belgilangandan so‘ng, haqiqiy tasvir bilan ishlashni boshlaymiz.

Smudge (Barmoq) uskunasi bilan foydalanamiz. Uning imkoniyati juda keng va xilma-xildir. Ushbu uskuna bilan ishlash ko‘rinishi ko‘k rangni qog‘ozga barmoq bilan surtilayotganga o‘xshaydi, bu esa turli xil bo‘shliqlarni birlashtirish, o‘zaro oquvchanlikni hosil qilishda kerak bo‘ladi.

Demak, Smudge uskunani tanlab, qor ko‘rinishi chetlarini harflar ustida og‘iriligi bilan qotib qolgan holatini hosil qilamiz. Agar qotish holatini yarata olmasak, uskuna parametrini o‘zgartiramiz, ya‘ni bosimni oshiramiz (Pressure). Natija rasmda ko‘rsatilgan.


Keyigi bosqich hozirgi uskuna bilan amalga oshirilib bunda – qor oqimini hosil qilamiz. Ushbu ko‘rinishni qor erishni boshlaganda, ya‘ni eriyotgan qorning atrofida shakllar paydo bo‘lish holatidir. Ular juda oson yaratiladi: «barmoq» uskuna bilan qorni vertikal yo‘nalishda surtish lozim. E‘tiborli bo‘ling: chunki uskuna qo‘llanilayotganda dag‘al ko‘rinish berishi mumkin. Rasmdagi qor tushgan o‘rinlar aniq ko‘rinishda bo‘lmasa, muyqalam yordamida to‘g‘rilab chiqamiz.

Hozircha rasm ko‘rinishi qish fasliga unchalik ham o‘xshamaydi. Sabab shundaki qor – silliq emas, balki ko‘p mikrodagi qor parchalaridan iborat. Ushbu holatni ko‘rsatib berish lozim bo‘ladi. Masalani hal etishda– Add Noise (Notekislik qo‘shish) standart filtr: Filter-Noise-Add Noise qo‘llaniladi. Filtrni sozlash oynada ko‘rsatilgan.

So‘nggi amallar quyidagicha bajariladi. Blur (Oquvchanlik) filtr: Filter-Blur-Blurni bir necha marta takror qo‘llang va natija kutilgandek bo‘ladi. Filtrni qo‘llayotganda konturlarning qo‘shilishi, ya‘ni tasvirda konturlar oqib ketayotganga o‘xshaydi.

Mo‘yqalam uskuna yordamida va Brushes ranglar majmuasidan Airbrush va Noise parametrlarini o‘rnatilib, harflar tagida qor ko‘rinish hosil qilindi.



Bajarilayotgan amalni tugadi deb hisoblasak ham bo‘ladi, biroq Yana bir kichik elementni – yog‘ayotgan qorni qo‘shamiz. Buning uchun Brush uskunani tanlang va parametrlar oynasida Load Brushes buyrug‘i orqali Assorted mo‘yqalam to‘plamini yuklaymiz. Unda barcha standart mo‘yqalam ko‘rinishlar mavjud bo‘lib, ular orasida qor parchasi ham bor. Uni belgilab olib, qor parchalarini kerakli o‘rinlarda o‘rnatib chiqamiz. Natija rasmda ko‘rsatilgan.




Photoshop dasturida biror bir matn yozib olamiz:



Yaratilgan tasvirni kontur yoʻnalishiga oʻzgartirishlar kiritish uchun menyular bandining Oyna menyusidan Стиль Слои buyrugʻi orqali Слои (qatlam) oynasi chiqadi:



Параметры наложения () buyrugʻidan Стиль Слои orqali KONTUR bandiga murojaat qilinadi:



Контур elementlarini sozlash satri 11 xil shakllari mavjud:

- ◆ Линейный – bir uchi tugun shakli;
- ◆ Конус – konus shakli;
- ◆ Перевернутый конус – yon sirtli konus shakli;
- ◆ Глубокая выемка – chuqur joylashish shakli;
- ◆ Мелкая выемка – kichkina churuq shakli;
- ◆ По Гауссу –
- ◆ Полукруг – yarim doira shaklida joylashish shakli;
- ◆ Кольцо – aylana shakli;
- ◆ Двойное кольцо – ikki tomonlama aylana shakli;
- ◆ Волнистый уклон – toʻlqin yoʻnalishida qiyshatirish shakli;
- ◆ Скругленные ступени – pogʻonama-pogʻona chiqish shakli;

Пила 1 – qirra ko‘rinishidagi shakl;

Mavzu: № 12. 3DS-MAX dasturiga kirish.

Reja:

1. 3D Studio MAX dasturi haqida tushuncha
2. Foydalanuvchi interfeysi haqida ma'lumot
3. 3D MAX dasturida ob`ektlar tushunchalari
4. Yoritishni tashkil etish


3D Studio MAX uch o‘lchovli modellashtirish va ko‘rgazmali namoyish qilishning (vizualizasiya) yangicha bosqichi hisoblanadi. Bu dastur yordamida yuqori sifatli animasiya va uch o‘lchovli modellarni professional darajada yaratish mumkin. Bunda siz ikki o‘lchovli va uch o‘lchovli ob‘yektlarni qo‘llashingiz mumkin. Bu dastur yordamida yuqori sifatli multiplikasion filmlar, ma’lum fanlar bo‘yicha ko‘rgazmali dasturlar tuzish mumkin.

3D Studio MAX da ob‘yektlarni qurish maydoni (viewport)da yaratasiz. Buning uchun siz kerakli asbobni tanlab, kursorni qurish maydoniga keltirganingizda kursor shakli o‘zgaradi. Sichqoncha yordamida ob‘yektning o‘lchovlarini berasiz.

Yaratilgan ob‘yektlarda kino effektlar yaratish uchun maxsus kamera va yoritgich asboblarni qo‘llashingiz mumkin. Ob‘yekt sirti uchun turli material tanlashingiz mumkin, ya’ni unga masalan shaffof yoki g‘adir-budir sirt berishingiz mumkin bo‘ladi. Qurish maydonida yaratilgan ob‘yektlarni harakatlantirib, kichik animasiya hosil qilish mumkin. Buning uchun {Animasiya} tugmasini bosib, kadrlarni o‘zgartirgan holda ob‘yektни harakatlantirish bilan oxirgi kadrğa kelinadi. So‘ngra animasiya panelidan {Play} tugmasi bosiladi. Natijada kadrlar almashinib, animasiya hosil bo‘ladi. Bu yaratilgan animasiyani fayl ko‘rinishida komp’yuter xotirasida saqlash va istalgan video tasvirlarni o‘qiy oladigan dastur yordamida o‘qishimiz mumkin. Fayl *.avi kengaytmali formatda saqlanadi. Foydalanuvchi interfeysi haqida ma'lumot

Birinchi navbatda siz 3 Ds Max dasturini ishga tushirganda uning asosiy ekraniga ko‘zingiz tushishi mumkin. Agar siz yangi foydalanuvchi interfeysini bilmaydigan bo‘lsangiz, unda dastlab qurilmalarini ko‘rib chiqishingiz hamda ular bilan atroflicha tanishishingiz lozim.

Siz interfeysning dastur elementlardan tashkil topganligini, ya’ni, bir xil turdagi buyruqlarni guruhlanganligini ko‘ring va ishonch hosil qiling. Masalan, o‘z vaqtida ob‘yektlar holatini sozlash va boshqarishni amalga oshirish tugmachasi jamlanmasi yordamida animasiyani amalga oshirish jarayonini boshqarish vositasi. Dastur ekranini shartli tarzdi beshta asosiy elementlarga ajratish mumkin:




Main menu (Bosh menyu). Dastur ekranining yuqori qismida joylashgan va bu menyu 3Ds Max dasturiga asosiy buyruqlar bilan murojaat qilishni ta'minlaydi. Barcha buyruqlar menyusi toifalar bo'yicha birlashtirilgan. Dastur ishga tushirilganidan so'ng 3Ds Max grafik redaktorning ishchi oynasi ochiladi. Bosh menu quyidagi meny bandlaridan iboratdir File (Файл), Edit (Правка)-tahrirlash, Tools (Сервис), Group, Views, Create (Создать)-yaratish, Modifiers, Animation, Graph Editor, Rendering (Визуализация)-vizuallash, Customize, MAXScript, Help(Помощь)-yordam. □ Main Toolbar (Qurilmalar bosh paneli). Odatda u bosh menyu ostida joylashadi, ammo "suzuvchi" panel ko'rinishida aks ettirilishi yoki ekranning boshqa joyida joylashishi ham mumkin. Toifalar bo'yicha ajratilgan, to'plam bilan birga qurilmalar tarkibida joylashgan yoki yakka bo'lishi mumkin. Dastur amallari va qo'llanuvchi buyruqlar tezkor murojaatlar tugmachasidan tashkil topadi.

□ Viewports (proyeksiya ekrani) ekranning markazida joylashgan va uning katta qismini egallaydi. To'rtta ajratilgan ko'rinishda devor proyeksiyasi - yuqori Tor (yuqori), yonbosh Left (chap), to'g'risidan yonaltirilgan Front (ro'parasidan) va kelajakda rivojlanishni ko'zda tutadigan Perspective (istiqbolli).

□ Command Panel (buyruqlar paneli). Odatda ekran proyeksiyasining o'ng tomonida joylashgan. Bu panel oltita to'plamdan tashkil topgan va devor ob'ektlarini modifikatsiyalash va tashkil etish bo'yicha amallarning bajarilishini ta'minlaydi. Har bir to'plam ob'ektlarni sozlovchi sivatkadan tashkil topgan.

□ Lower Interface Bar (Interfeysning quyi qatori) Dastur oynasining quyi qismida joylashgan. Turli maydon va tugmachalardan tashkil topgan, uning tarkibiga maydonning aks etish holati va ma'lumotnoma (spravochnik) kiradi, shu bilan birga animatsiyalarni qayta tiklash va boshqaruv oynasi proyeksiyasi uchun tugmalar to'plami ham mavjud.




3Ds Max dasturi oynasi

Dastlab, ishni 3Ds Max dasturini atroflicha o'rganib chiqishdan boshlasak, avval dastur yordamida ob'yekt ko'rinishda asosiy maqbul ishlarni amalga oshirish: sodda primitivlarini tuzish, ob'yektlarni belgilash, ularning bir-biriga o'zaro tekislash, proyeksiya oynasidagi aks etish holati va joylashishi, ularni o'zgartirish, ma'lum masshtabga keltirish, o'zgartirish va aylantirish mumkin.

Bu oddiy amallar 3Ds Max dasturining keyingi asosiy faoliyatiga xizmat qiladi.

Haqiqiy hayotda juda ko'p ob'yektlar o'zida oddiy uch o'lchovli qo'llanmalar amallarini o'zida aks ettirgan. Masalan, stol parallelepipeddan tashkil topgan, stol lampasi esa – silindr va yarim shakldan, avtomobil balloni esa – boshqa yuqoridagilarga o'xshamagan shakllardan tashkil topgan. Katta va kichik darajadagi barcha ko'rgazmalarda amalda uch o'lchovli virtual joylashuv shartlari qo'llanilib kelinmoqda. 3 Ds Max dasturi standart ob'yektlari o'zida “qurilish materiallar”ini tashkil etgani uchun ular yordamida turli ko'rinishlar tashkil etishga ko'maklashadi.



3D MAX dasturida ob`ektlar tushunchalari

Geometrik ob`ektlar. Geometrik ob`ektlarni ko'rishda juda kuchli va keng tarqalgan 3D paket Discreet kompaniyasi 3D Studio Max dasturini tanlab uning misolida ob`ektlarning asosiy turlari va modellashtirish texnologiyasini ko'rib o'tamiz. Bu dastur yordamida geometrik ob`ektlarning quyidagi turlari qurilishi mumkin.


Splayn chiziqlar (Spline Curves) - boshqa sirt yoki shakllarni ko'rishda ishlatiladigan va shu tartibda qurilgan (Beze yoki Nurbs) chiziqlar. Ularni harakat troyektoriyalarini ifodalash uchun ham ishlatish mumkin.




Chiziq, muloqot chiziqlari.

Masalan, Beze chiziqlari uchun, xususiyl holda, boshlang'ich shakl va chiziqlar to'plami aniqlangan bo'lib (masalan, tekst, aylana, ellips) ular keyinchalik aniq shakllar ko'rishda ishlatilishi mumkin.

Poligonal ob'ektlar (polugonal objects) - bular o'zgarib turuvchi parametrlar bilan ifodalanuvchi (masalan uzunlik, radius) poligonal boshlang'ich shakllar (polygonal primitives) yoki polugonal turlardir (polugonal meshes). Poligonal turlar juft-jufti bilan uchlarni tutashtiruvchi qirralar sifatida aniqlanadi. Boshlang'ich shakllar (primitiv) ni ishlatish dizaynerga (dasturga ham) ob'ekt shaklini o'zgartirishni ancha osonlashtiradi. Shunda 3D - boshlang'ich (primitiv) shakllarni (masalan sfera yoki silindr) namoyish etishda, ularning shakli qirralar yordamida berilgan aniqlikda almashtiriladi. Poligonal d ob'ekt sirti tekis yoqlardan iborat bo'lgani uchun, ularga namoyish silliqqligini berishda turli silliqqlash algoritmlari foydalaniladi. Bu texnologiya asosan 3D o'yinlarni va virtual borliqni yaratishda keng qo'llanadi.



Poligonal ob'ektlar.




Beze sirti.

Beze sirtlari (Bezier patches) - bu Beze cho'qqilarining joylashishi bilan silliq sirtlardir. Bu cho'qqilar sirtga urinma vektorlar (tangent) uchlarida joylashgan qo'shimcha boshqaruvchi nuqtalar (control points) yordamida sirtning egriligini aniqlaydi.

Bu sirtlar hisoblash tizimi uchun ma'lum qiyinchiliklarni tug'dirishiga qaramay, ular yordamida murakkab egri chizikli ob'ektlarni modellashtirish mumkin.

NURBS sirtlar - bir jinsli bo'lmagan egri chizikli sirtlarni modellashtirishda ishlatiladigan eng universal va samarali vositadir. Bunday sirtlar maxsus to'rt o'lchovli bir jinsli fazoda ifodalanadi. Unda har bir boshqaruvi cho'qqi, uchta X, Y, Z koordinatadan tashqari qo'shimcha vazn (weight) tavsifiga ham ega. Cho'qqining o'rni va nisbiy vaznini o'zgartirish orqali ob'ekt shaklini aniq boshqarish mumkin.




NURBS sirti.

Murakkab ob'ektlar (compound objects) - oldindan tayyorlab qo'yilgan ikki yoki undan ko'p shakllardan tuziladi. Qanday jism qurilishiga qarab oldindan tuzilgan shakllar chiziq yoki sirt bo'lishi mumkin.

Dinamik ob'ektlar (dynamic objects) - ularga qo'yilgan tashqi kuchlar ta'sirida harakatga keluvchi ob'ektlar: prujina va amortizatorlar. Ular ob'ekt harakati dinamikasini modellashtirishda ishlatiladi. Boshqa dasturlarda geometrik ob'ektlarni qurish va muharrirlashning shunga o'xshash yoki ulardan farq qiluvchi usullari qo'llaniladi.

Nogeometrik ob'ektlar. Misol sifatida 3D Studio Max dasturini ko'rishni davom ettiramiz. Quyidagi ob'ekt turlarini qarash e'tiborga loyiq.

Yoritish manbai (light objects) tashqi va ichki yoritishni ifodalashda ishlatiladi. Turli algoritmlar yorug'lik tarqatuvchi turli manbalarni yaratadi: bir nuqtadan barcha tomonga tarqaluvchi nur; projektordagi chiquvchi fokuslangan yorug'lik; yo'naltirilgan manbadan chiquvchi yo'naltirilgan nur. Bunda manbalardan chiquvchi nur turli rangda bo'lishi, ma'lum masofadan keyin pasayishi shuningdek ob'ektlarning soyalarini hosil qilishi mumkin.




Yoritishni tashkil etish

Kameralar (cameras) - kadr tekisligida ob'ekt aksini to'liq nazorat qilish imkonini beradi. Uning eng asosiy tavsifi, ko'rish maydonini aniqlovchi kamera

ob`ektivining foks masofasidir. Bu ikki parametr o`zaro bog`liq va mos ravishda gradus va millimetrlarda o`lchanadi. Yana bir muhim tavsif bu qirqim tekisligidir. U sahna qismining ko`rinish masofasini aniqlaydi.

Fazoni bukuvchilar (space warps) ob`ektlarga tashqi kuchlar ta`sirini ifodalaydi, bu - ma`lum ob`ektlarga ta`sir ko`rsatuvchi kuchlar maydoni deformatsiyasi, yoki ob`ekt bo`laklarini sochib yuboruvchi zarbdor to`lqinlarni keltirish mumkin.



Tana a`zolariga ajratildi

Materiallar sirtning namoyishi xususiyatlarini, ya`ni sirtning sahna yoritilganligi bilan munosabatini aniqlaydi.

Sirtlarning quyidagi xususiyatlari materiallarning yorug`lik bilan munosabatini aniqlaydi:

- rang (color);
- shaffoflik (transparency);
- silliqlik (shiness)
- nurning sinish koeffisienti (refractive index)

Rang va shaffoflik nur sochilishni aniqlaydi. Sinish koeffisienti va silliqlik yordaraida sirtan shu`lalar va nurli oynaviy qaynatish aniqlanadi.

Material rangini tanlashda quyidagilarni hisobga olish kerak:

- Materialni aniq rangini aniqlash.
- Rangning to`qlik darajasi.
- Rangning yoru`g`lik darajasi.

Namoyish paytida fotorealistik sifatni olish uchun material xususiyatlarini juda aniq berish kerak. Shu maqsadda grafik dasturlarda turli fikr xususiyatli materiallar andoza (shablon) lari ishlatiladi. Andozalardan foydalanish dizayner ishini keskin osonlashtiradi. Sirt yuzasiga har xil bezaklarni (uzor) tushirish uchun dasturlarda teksturali xaritalar (dekorativ bezak — maps) ishlatiladi. (Masalan devorga terilgan g`isht, timsoh terisidan tayyorlangan buyum) . Oldindan tayyorlangan teksturalar har xil turdagi fayllarda (HMP, TIF, JPG, EPS,..) saqlanishi yoki ularni tez qurish qoidalari ko`rinishida saqlanishi mumkin.

Mavzu: № 13. 3DS-MAX dasturida

modellashtrish. Reja:

1. 3D Studio Max dasturida ob`yektlar yaratish
2. Materialni ishlatish

3. Yorug'lik manbalarini yaratish

3D Studio Max dasturida ob'yektlar yaratish

Ob'yekt toifalari. 3 Ds max dasturi yordamida ob'yektni bir necha toifalarga ajratish mumkin:

- Geometry (Geometriya)
- Shapes (Shakllar)
- Lights (Yorug'lik manbai)
- Camers (Kameralar)
- Helpers (Yordamchi ob'yektlar)
- Space Wars (deformasiya hajmlari)
- Systems (qo'shimcha qurilmalar)

3D-MAX dasturi orqali standart sodda geometrik shakllarni ixtiyoriysini qurish mumkin. Biz quyida misol tariqasida parallelepipedning panjarali (karkasli) qurilishini ko'rib o'tamiz.


Buning uchun Create (yaratish) buyruqlar panelidagi Geometry (geometriya) ob'ektiga kiramiz, natijada ob'ektga ta'lluqli tugmalari ro'yxatidan Extended Primitives (sozlangan sodda shakllar) tanlanadi va Object Type (ob'ekt turi) Compound Objects - article Systems Patch Grids MURBS Surfaces Dynamics Objects ro'yxatidan oddiy 7 qulay turlariga mos keluvchi yozuvli tugmalar paydo bo'ladi.

So'ngra Chamfer Box (parallelepiped) tugmasi tanlanadi. Buyruq panelining quyi qismida uch yozuv: Creation Method (yaratish usuli), Keybo'rd Entry (klaviaturali kiritish) va Parameters (parametrlar) paydo bo'ladi. Sichqonchanning chap tugmasi bilan Perspective proyeksiyasi oynasini tanlang va tugmani qo'yib yubormasdan, parallelepiped asosini chizish uchun kursorni diagonal bo'yicha tortib boramiz, Parameters (parametrlar) da length (uzunligi) va Width (kengligi) parametrlar miqdorining o'zgarishini kuzating). Asos uzunligi va kengligini o'rnatish uchun sichqon tugmasini qo'yib yuborish mumkin. Parallelepiped balandligini berish uchun sichqoncha korsatgichini yuqorida qo'yib yuborilgan nuqtada kursorni joylashtirish va sichqonchanning chap tugmasini bosib, so'ngra kursorni biror masofa yuqoriga siljiting va yana chap tugmasini bosish kerak bo'ladi. Hozir siz o'lchagan masofa, 450 burchak bilan qirqiluvchi faska kengligiga teng bo'ldi. Faska balandligini shuningdek Fillet (faska) parametri yordamida ham berish mumkin. Faska sirtini siliqlovchi Smooth (silliqlash) rejimini ulagach, natijada, yasalgan parallelepiped ko'rsatilgan ko'rinishga ega bo'lishi kerak.

Biz segmentlar soni birga teng bo'gan parallelepiped hosil qildik. Segmentlar sonini o'zgartirish uchun Lengs Segs (uzunligiga ko'ra segmentlar) va Width Segs (kengligiga ko'ra segmentlar) parametrlarni ko'rsatish mumkin. Segmentlar sonini oshirish ob'ektining turli qobig'ini tahrirlash uchun zarur bo'ladi. Faska chegarasida segmentlar sonini Fillet Segs (faska bo'yicha segmentlar) o'zgaruvchisi yordamida berish mumkin.




Odatdagi BOX ni asos qilib olib va unga biroz segmentlar qo‘shib, hatto uchlarini oddiy siljitish bilan qiziqarli ob’ekt hosil qilish mumkin.



Faskali parallelepiped

EDIT MESH modifikatorining ancha katta darajadagi potentsiali “siqib chiqarish” ya’ni, poligonlarni o‘stirish imkonini beruvchi EXTRUDE buyrug‘ini ozlashtirishi bilan korinib qoladi.



Toroidal tugunni hosil qilish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish zarur:

1 Create (yaratish) buyruqlar panelidagi Geometry (geometriya) ob’ektiga kiramiz, natijada ob’ektga ta’luqli tugmalari ro‘yxatidan Extended Primitives (sozlangan sodda shakllar) tanlanadi va Torus Knot (torondal tugun) tugmasini bosib. Bu bo‘lim yordamida fazoda jismlarning butun bir oilasini siljitish, shaklini, truba kondalang kesimi o‘lchamini o‘zgartirib yasash mumkin.

2 Diametri bo‘yicha cho‘zilgan toroidal tugunni yasash uchun Creation Metod (yaratish usuli) majmuasi o‘ragichini Diametr (Diametr) holatida o‘rnating.


3. Asosidagi egri chiziq aylana shaklini olishi uchun Ease Curve (Asos egri chizig‘i) o‘lchamidagi Circle (aylana) ulagichni o‘rnatish mumkin.

4 Worp Cound (Sinislar soni) ni 3 ga va Warp Heigh (sinislar balandligi)ni bering. Bu qiymatlarning miqdori asos egri chizigi radiusining ulushlarida beriladi.

5. Tugunning boshlang‘ich nuqtasi joylashish kerak bo‘lgan Perspective proyeksiyasi ixtiyoriy oynasining nuqtasida IM ni bosish va asos egri chizig‘ini tortib, kursomi suring. Aylana radiusini shunday tarzda belgilab, IM ni qo‘yib yuboring. Kursorni asos egri chizig‘i markaziga yoki markazidan bir qancha masofaga siljiting va LM ni bosib. Bu bilan tugun trubkasi ko‘ndalang kesimi radiusi berilgan bo‘ladi. Base Curve (Asos egri chizig‘i) bo‘limidagi Radius (Radius) parametri miqdori asos egri chizig aylanasini radiusining Cross Section (kesim) bo‘limidagi Radius (radius) parametri esa - tugun trubkasi kesimi radiusining o‘zgarishini aks ettiradi.

6. Tugma trubkasining ko‘ndalang kesimi shaklini aylanadan Elliptikka o‘zgartiring. Buning uchun, Eleppsning katta va kichik yarim o‘qlari nisbatalarini boshqaruvchi, Cross Section (kesim) bo‘limidagi Eccentricity (eksskptrisitet) miqdori sozlanadi.

Yasalgan toroidal tugun quyidagi rasmda ko‘rsatilgan ko‘rinishga ega bo‘ladi.



Asos egri chizig'i uch o'lchamli tugun shakliga ega bo'lishi uchun Base curve (Asos egri chizig'i) bo'limidagi Knot (tugun) ulagichni o'rnatish kerak.

-Cross Section -

Radius: 118,035 Sides: f12~~

Eccentricity: 1,0

Twist: 10,0

Lumps: 0,0

Lump Height: 0,0

Lump Offset: 10,0

Endi yuqorida yaratilgan ob'ektlarni bo'yash va ulaming sirti uchun kerakli faktura tanlash bilan shug'ullanamiz. Maxsus material Editor (materiallar muhariri) dasturi moduli yordaraida mavjud namunalardan tayyor materialni tanlash yoki materialni mustaqil yaratish mumkin.

Proyeksiyalar oynasida parallelepipedni yasang. Tanlangan materiallarni materiallar muhariri namunalari yacheykalaridan biriga torting va uni Assign Material to Selection (materialni ajratish uchun ko'rsatish) tugmasida bosing. Bo'yalgan parallelepiped quyidagi rasmda ko'rsatilgan.



Materialni ishlatishga misol

Shunday qilib, biz materialni tanlash va ob'ektga qo'llash usullaridan bittasini ko'rdik. Materiallarni yaratish va tahrirlash imkoniyatlari juda ko'p va ijod uchun keng maydon yaratadi.

Yorug'lik manbalarini yaratish

Yaratilgan ob'ektga material qo'yilgach, ularni sifatli korsatish uchun yorug'lik manbalarini kiritish kerak bo'ladi.

Tasvirlar yaratishda yorug'lik hosil qilish - eng murakkab masalalardan biridir. Ayniqsa bu intererlar bilan ishlashda muhimdir.

Sukut saqlanganda, yoki yorug'likning manbalari hali yaratilmaganda, sahnani kkita chekka yoritgichda yoritiladi. Yorug'lik ixtiyoriy yaratilgan manbasi ularni avtomatik ravishda orttiradi.

1. Creat (yaratish) buyruqlar panelidagi Lights (yorug'lik manbasi) tugmasida bosing. Ochilgan buyruqda faqat bitta - Standart (standart) variant bo'ladi. Object Type (ob'ekt turi) menyusida yorug'lik manbalarining har xil turlarini yaratish tugmalari paydo bo'ladi.



(harakatlanish), Pivoted(o‘qni mustahkamlash), Awning(Yuqoridan tushish), Sasement (Tavaqali), Projectted(Loyihalash), Fixed(Mustahkamlash). Ularning asosiy afzalliklari-ochilish imkoniyatlaridir.



Proyeksiya oynasidagi Windows (oyna) ob‘yekti


- Awning (ayvonli); - yuqoriga ko‘tariladi; - ochilmaydi;
- Fixed (mustahkam)
- bir nechta qismlardan tashkil topgan, turli tomonlarga ochiluvchi;
- Projected (loyihalash)
- eng osanlashgan oynalar singari ochiladi;

Pivoted (mustahkamlash) - o‘zining gorizontat o‘qi atrofida aylanuvchi deraza romlari kabi ochiluvchi;

- Silding (harakatlanuvchi) - kitob javonidan ikki yoqqa to‘liq suriladigan, tomonlarga borib


keladigan;

Keyingi guruh ob‘yektlari – Stairs (zinapoya) – arxitektura – loyiha qurilmalari uchun zarur asbob hisoblanadi.



Stairs (Zinapoya) ob‘yekti 3 Ds Max da to‘rt turdagi zinapoyani tuzishi mumkin: L-Type (Ljonli), Straight(to‘g‘ri), Spiral (vintli) va U-Type (U-jonli). Stairs (zinapoya) ob‘yektlari Open (ochiq), Closed (yopiq) hamda Box (asoslangan) lar bo‘lishi mumkin. O‘ng va chap tomonlardagi mavjud panjaralar Hand Rail (panjara) parametri yordamida alohida boshqariladi, uning balandligi Rail Neight (panjara balandligi) va deyarli pog‘onli joylashgan – Rail Path (panjara yo‘li), shuningdek, balandlik – Thickness (qalinlik) – va pog‘onalar kengligi – Depth (chuqurlik). Chulg‘amli zinapoya uchun qo‘shimcha Radius (radius) ko‘rsatiladi, mavjud tiyagich - Center Pole (markaziy tiyagich), jumladan, Layout (joylashish) parametri bunday zinapoda soat strelkasi va unga qarama-qarshi yo‘naltiradi.


AEC Extended guruhiga (konstruksiya, injenerlik va arxitektura ishlari uchun qo‘shimcha ob‘yektlar) Foliage(o‘simlik), Railing (to‘siqlar), Wall(devor) ob‘yektlari kiradi. Railing (to‘siq, panjara) va Wall (devor) ob‘yektlari, xuddi yuqoridagi Door(eshik) va Windows(oyna) arxitekturadagi modellashtirish jarayonidagi kabi muvofiqlashtiriladi. Foliage (o‘simlik) ob‘yekti uch o‘lchovli o‘sinh modeli uchun hizmat qiladi. Uch o‘lchovli modellashtirish flora bilan katta qiyinchilik hisobiga bog‘langan.



Foliage (o‘simlik) ob‘yekti. Masalan, murakkab geometrik modellarni modellashtirish va tuzilgan haqiqiy daraxtni tanlash uchun sifatli matn ham tanlash zarur. Uzoq vaqt mobaynida 3 Ds Max da standart instrumenti bo‘lmagan. Turli qo‘shimcha modellardan foydalanishning o‘sinhini tuzish uchun – Onyx Tree Storm, TreeShop, Druid va boshqalardan foydalanilgan.


Ob‘yektlarni tuzish. Bosh menyudagi Create (tuzish) buyrug‘i yoki buyruq-lar panelidagi bir nomdagi vkladka yordamida 3 Ds Max ning ob‘yektlarini tuzish mumkin. Goh ikkinchi imkoniyatdan foydalaniladi, chunki, u yanada qulayroq bo‘ladi. Ob‘yektni tuzish uchun, quyidagilarni amalga oshirish zarur:

1. Create (tuzish) buyruqlar panelini vkladkaga bering;
2. Zarur ob‘yektlar joylashgan, Geometry(Geometriya) kategoriyasi primitivi uchun kategoriya tanlang;
3. Kerakli ob‘yektlarning joylashishiga qarab, aniq bo‘lgan ro‘yxatdan guruhlarni tanlang. Oddiy primitivlar uchun–bu Standart Primitives (Oddiy primitivlar);
4. Ob‘yektlar nomi tugmachasini bosing;
5. Proyeksiya oynasini xoxlagan joyni bosing va tugmachani qo‘yib yubormang, ob‘yektning razmeri o‘zgarmaguniga qadar sichqoncha ko‘rsatkichini suring, toki siz uchun kerakli ko‘rinishga kelmaguniga qadar.



Keyboard Entry (klaviaturaga kirish) o‘rami. Proyeksiya oynasida ob‘yekt turli ko‘rinishda bo‘lishi mumkin: tekislangan – Smooth+Hihlights (tekislamoq), to‘r ko‘rinishdagi parda – Wireframe (Karkas), tahrir doirasi ko‘rinishda – Bounding Box


(chegaralangan to‘g‘riburchak) va boshqlar. Foydalanuvchiga proyeksiya oynasi uchun kerakligi soddalashtirilgan ob‘yektlar ko‘rinishi emas, balki, ob‘yektlar va poligonlar soni bilan qiyin manzaralarni boshqarish oson bo‘ladi. 3 Ds Max da ishlash uchun Gizmo (Gizmo konteynerlarni katta tashqi o‘lchamlari) tushunchasini ham terminologiyalarda uchratish mumkin. U geometrik ob‘yektlar o‘lchami va kvadrat oraliqlar kabi turlariga ega. Gizmo(Gizmo konteynerlarning katta tashqi o‘lchamlari) hatto atmosfera ta‘siri manzarasini tuzishda – ularni chegaralarini joylashishini aniqlashda (masalan, shar hajmini yonishi) shar va silindr shaklida foydalaniladi. Proyeksiya oynasida ob‘yekt-ning aks ettirilgan variantlarni o‘zgartirishda, proyeksiya oynasini nomlanishi va kontekstli menyuda kerakli rejimini tanlash uchun sichqonning o‘ng tugmasini bosib.




e

Ob‘yektning aks ettirilish rejimini tanlash

Ob‘yektning ajratish. 3 Ds Max da ob‘yektlarni ajratishning bir necha usullari mavjud. Eng oddiyisi – asosiy qurilmalar panelida joylashgan Select Object (ob‘yektning belgilash) qurilmasi ob‘yektning bosishidir. Ob‘yekt oq bo‘ladi, qachonki, siz Wireframe (Karkas) ob‘yektlarini aks ettirish rejimida turgan bo‘lsangiz.




Wireframe (Karkas) rejimida ajratilgan ob'yekt. Wireframe (Karkas) rejimida ishlaganda, yaxshisi ob'yektni aks ettirish uchun oq rangni tanlamagan yaxshi, chunki ob'yektlarni ajratilgan va ajratilmagan ob'yektlar o'rtasidagi farqlanishlar ko'rinmaydi. Smooth + Highlights (tekislangan) rejimida ajratilgan ob'yektning atrofida kvadrat orasida oq rang chiqadi.



Smooth + Highlights (tekislangan) rejimida ob'yektni ajratish.

Bittadan ortiq ob'yektlarni ajratishda Ctrl tugmachasidan foydalanish mumkin. Ctrl tugmachasi ushlab turgan holda siz xoxlagan ob'yektni ajratib tugmachani bosib. Ajaratil-gan ob'yektlarni o'chirish uchun Alt tugmachasini bosib turgan holda siz o'chirib yuborish uchun xoxlagan ob'yektlarni bosib.

Bir necha ob'yektlarni bir vaqtni o'zida tanlashni boshqa yo'li - sohani belgilash. Bu rejimda ob'yektlarni belgilashning bir necha yo'llari mavjud. Rectangular Selection Region (to'g'riburchakli sohalarni belgilash). Bu rejimda ob'yektlarni belgilash uchun sichqonning o'ng tugmachasini ushlagan holda bosib, to'g'riburchakli proyeksiya oynasini chizing. Mazkur to'g'riburchak ichida joylashgan ob'yektlar belgilanadi.



Rectangular Selection Region (to‘g‘riburchakli sohalarni belgilash) rejimida ob‘yektlarni ajratish.

Shuningdek, turli shakllar yakunida ob‘yektlarni ajratish mumkin (masalan, aylana). Ajratilgan ob‘yekt rejimiga bog‘lanib sohalarni ajratishda asosiy panel qurilmalari tugmachalaridan foydalanish kerak. Beshta variantga ajratish mumkin.



Sohaga ajratish tugmachasi. Sohalarga ajratishda tashqi chizilgan tugmachada yordamida


Windows/Crossing (oyna/kesishish) yonida joylashgan tugmachadan foydalanish mumkin. Bundan tashqari tanish bo‘lgan Rectangular Selection Region (to‘g‘riburchakli sohalarni belgilash), bu quyidagilar:

- Circular Selection Region (ajratilgan aylanma soha);
- Fence Sele Region (lassoga ajratish);
- Paint Selection Region (bo‘g‘inlarga ajratish).

Qachonki sohalarga ajratish Crossing (kesishish) rejimiga ulanganda barcha sohalarga ajratilgan holda, shu bilan birga to‘liq yoki qisman to‘g‘ri kelishi mumkin. Agar Window (oyna) rejimiga ulanganda esa ajratilgan sohaga tushgan ob‘yektgina ajratiladi.

Biron bir ko‘rgazma ob‘yektini ajratish uchun menyudagi Edit – Select By – Name (to‘g‘rilashajratish bo‘yicha-nomi) buyrug‘idan foydalanish mumkin.

Bundan keyin oynada barcha ko‘rgazma ob‘yektlari ro‘yxatida Select Objects (Ob‘yekttni tanlash) paydo bo‘ladi.




Select Objects (Ob'yektni tanlash) oynasi. List Types (ro'yxat turi) sohaida oynada aks ettirilgan ob'yektlarni tanlash mumkin, shuningdek, Sort(tanlash) aks ettirish imkoniyatini belgilaydi—Alphabetical (Alfavit ketma-ketligida), By Type (turlar bo'yicha), By Color (ranglar bo'yicha), By Size (o'lchamlar bo'yicha). Har qanday sharoitda ob'yektlarni tanlash oynasidan qulay foydalanish mumkin, agar ko'rinish ko'p ob'yektlardan tashkil topgan bo'lsa. Murakkab ko'rinishlarda gohi-da sichqon yordamida ob'yektlarni ajratish qiyin bo'ladi. Select Objects (ob'yekt-larni tanlash) oynasini chaqirish uchun N yoki asosiy qurilmalar panelidagi Select by Name (nomlari bo'yicha tanlash) rejimidan foydalanish mumkin. Ko'rinishlar(ssena) bilan ishlaganda tasodifan ajratilgan yoki ob'yektdan ajratib chiqarilgan asosan ishtirok etayotgan katta bo'lmagan ob'yektlarga murojbat qilinadi. Beixtiyor ob'yektdan ajratib chiqarilmagan ya'ni siz ishlayotganda Selection Lock Toggle (ajratib o'ralgan) buyrug'idan foydalanish mumkin. Shkala ostida yoki Probel tugmasi yonida joylashgan kerakli ob'yektlarni ajrating va qulf tasviridagi tugmani bosning.


Ob'yektlardagi oddiy amallar

Ob'yektlar bilan ishlaganda asosiy amallar – bu, ko'chirib o'tkazish, katta va kichik shaklga keltirish, aylantirish, tekislar va ko'paytirmoq.

Ajratilgan ob'yektning markazida ob'yekt bilan uzviy bog'liq koordinata tizimini aniqlaydigan uchta koordinata o'qi paydo bo'ladi - X, Y va Z . Bu koordinata o'qi mahalliy ob'yektning koordinata tizimidan tashkil topgan. Mahalliy koordinata tizimi chiqqan o'qdagi nuqta tayanch (Pivot Point) deb ataladi. Tayanch nuqta ba'zan ob'yekt markazidan siljishi, gohida bir-biriga mos kelmasligi mumkin. Masalan, markazga to'g'ri kelgan tayanch nuqta qatlamini qimirlamay turishi kerak, ammo, agar bu ob'yektni Hemisphere(yarim qatlam) ko'rsatkichi bilan o'z-gartirib ob'yektni sozlansa, tayanch nuqta ob'yekt markazining pastki qismida joylashadi. Ob'yektda har qanday oddiy amallarni bajarishda uning joylashishiga qarab uch o'lchovli joylashuvni o'zgartishda bevosita kontekst menyusini chaqi-rish lozim, ya'ni ob'yektda sichqon o'ng tugmachasini bosning. Menyuga tegishli biror amalni tanlash – Move (ko'chirish), Scale (Masshtablashtirish), yoki Rotate (Aylantirish).




Kontekst menyusi. Ko‘chirish. Kontekst menyusidagi Move(ko‘chirish) buyrug‘ini tanlash, bitta koordinata o‘qidagi ob‘yektning koordinata tizimiga sichqon ko‘rsatkichini olib boring. Bu ko‘chirib o‘tkazish boshqa tekislikka olib o‘tishga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim, ya‘ni koordinata o‘qi sariq rangda bir oz yoritib turiladi.



XYZ tekisligiga ob‘yektlarni ko‘chirish

Bunday holatda, ob‘yektning X, Y, Z o‘qi uzunligini yoki XY, YZ, XZ tekisliklariga ko‘chirish mumkin. Ko‘chirish egallagan nuqtalarni Move Transform Type-In (kirish qiymatini ko‘chirish) oynasida qo‘l bilan ko‘rsatish mumkin, ya‘ni, F12 yoki kontekst menyusidagi Move (ko‘chirish) qatori yonidagi to‘g‘ri burchak belgisini bosib. Ajratilgan ob‘yektning ko‘chirish uchun W tugmachasidan ham foydalanish mumkin.

Ko‘chirish. O‘qda o‘rnidagi ob‘yektning koordinata tizimida aylantirishni sxematik aks ettirishda kontekst menyusidagi Rotate (aylantirish) buyrug‘i tanlanadi. Agar har bir yo‘nalishlar bo‘yicha sichqon ko‘rsatkichini surishda, sxematik liniyadagi sariq rang yonadi, demak mazkur yo‘nalishda harakatni amalga oshirish mumkin.




Burilish ob'yekti. Burilish jarayonida proyeksiyasi oynasida raqamlarni aks ettirish uchun har bir o'q uzunligida burilish burchagi aniqlanadi. Ajratilgan ob'yektni aylantirish uchun E tugmachasidan foydalanish mumkin.

Masshtablashtirish. Kontekst menyusidagi Scale (Masshtablashtirish) buyrug'ini tanlang, koordinata o'qidagi ob'yektning koordinat tizimidan sichqon ko'rsatkichini kerakli joyga siljiting. Bunga ko'ra masshtabning o'zgarishi sariq rangdagi o'sha tekislik yoki koordinata o'qiga yo'naltirilgan bo'lishi kerak Shunday ekan, ob'yektni XY, YZ, XZ tekisligidagi X, Y, Z o'qi uzunligida yoki bir vaqtning o'zida barcha yo'nalishlarda masshtablash mumkin.

Masshtablashtirish ob'yekti. Ekrandagi ob'yektning o'z mutanosibligi o'zgargan, o'zgarmaganligiga qaramasdan, masshtablashtiriladigan ob'yektning geometrik o'lchamlariga e'tiborni qarating. Shuning uchun masshtablashtirishga alohida zaruriyatlar shart emas, ushbu ope-rasiya bajarilgandan so'ng ob'yektning qanchalik haqiqiy o'lchamlarga ega ekanligini ko'rib bo'lmaydi.

Ajratilgan ob'yektni masshtablashtirish uchun yana bir R tugmachasidan ham foydalanish mumkin.

Ob'yektni aylantirish - bu jarayonda ob'yektni ba'zan qimirlatish, bir-biriga mutanosib holatida ularni aylantirish mumkin. Masalan, murakkab modellarni tuzishda, yakuniy bosqichida zarur elementlari bilan birga ob'yektning qismlari alohida modellashtiriladi. Chunonchi, bir ob'yektni boshqasiga mutanosib aylantirish, kerak bo'lganda birinchi ob'yektni ajratish, ikkinchi ob'yektni bosish va Tools-Align(Qurilma-aylantirish) buyrug'ini bajarish mumkin. Aylantirish prinsplarini ko'rsatishni muhim hisoblab, ekranda oyna hosil qilish mumkin, masalan, aylantirish sodir bo'lgan uzunlikda koordinata o'qi va ob'yektdagi nuqtaga topshiriq berish lozim.



Align Selection (Ajratilgan ob'yektni aylantirish) oynasi

Murakkab uch o'lchovli ob'yektlarni modellashtirishda, ba'zan kichik elementlarni guruhlash zarur. Buning yakunida doimo murakkab ob'yektlarni boshqarish qulay bo'ladi. Muammo bo'li-shi mumkin qachonki, ob'yekt tarkibidagi mahalliy koordinata tizimi elementlarini guruhla-gandan so'ng ob'yekt markazda joylashmasligi, ya'ni xohlagan joyda bo'lishi mumkin. Hatto, model sirtidan tashqariga chiqib ketishi ham mumkin. Mahalliy koordinat tizimini markazdagi xolatini boshqarishda ob'yektni belgilash, Hierarchy (Iyerarxiya) buyruqlar paneli qo'shimcha buyrug'iga o'tish, Pivot

(tayanch nuqta) buyrug‘ini bosish lozim. Keyin, Affect Pivot Only (faqat tayanch nuqtaga bog‘liq) tugmachasini bosib va aylantirish ko‘rsatkich-laridan Alignment (aylantirish) guruhini sozlab Adjust Pivot (tayanch nuqtani o‘rnatish) svitkasini sozlanadi.

Mavzu: № 15. Macromedia Flash muhitida interfaol animatsiyalar yaratish.

Reja:

1. Flashda interaktiv tugma yaratish
2. Macromedia Flash dasturida audio fayllar bilan ishlash
3. Kompyuter qurilmalari haqida o‘yin tayyorlash.

Flashda interaktiv tugma yaratish

Flash dasturi yordamida interaktiv tugma yaratish uchun dasturni ishga tushiramiz va Layer 1 qatlamida oq fon rangli ishchi oynada ixtiyoriy rangda doira hosil qilamiz va uni belgilab olib ModifyConvert to Symbol-Movie Clip-OK amalini bajaramiz. Natijada obyekt Movie Clip holatiga o‘tadi. Obyektning ustiga sichqonchanning chap tugmasini 2 marotaba bosamiz. Timeline oynasiga o‘tib doira joylashgan Layer 1 ni 10-kadrgacha uzaytiramiz (F5 tugmasi orqali). Doirani belgilab Modify-Convert to Symbol-Button-OK amalini bajaramiz. Properties oynasini faollashtirib <Frame Label> bo‘limiga enter_btn so‘zini kiritamiz. Keyin esa Timeline oynasiga o‘tib Layer 2 ni hosil qilamiz. Ushbu qatlamda “tugma” so‘zini oq rangda hosil qilamiz (so‘z doiraning chap tomoniga joylashadi). So‘zni belgilab Modify-Convert to Symbol-Movie Clip-OK amalini bajaramiz. 1-kadrni belgilab 10-kadrgacha uzaytiramiz, 10-kadrni belgilab F6 tugmasini bosamiz va “tugma” so‘zining rangini qoraga (rang ixtiyoriy tanlanadi) o‘zgartiramiz. 1-kadrni belgilab kontekstli menyuni chaqiramiz va Create Motion Tween ni tanlaymiz. Natijada “tugma” so‘zining rangi avtomatik tarzda oqdan qoraga o‘zgaradigan holatga o‘tadi.


Timeline oynasiga o‘tib Layer 3 ni hosil qilamiz. Ushbu qatlamda 3 ta bo‘sh kadr yaratamiz(1kadr belgilanib F5 tugmasi 2 marotaba bosiladi). 4-kadrga o‘tib F6 tugmasi bosiladi va ishchi oynada “tugma” so‘zining ostiga doiraga qadar chiziq chizamiz. Chiziqni belgilab olib Modify-Convert to Symbol-Movie Clip-OK amalini bajaramiz. Ketma-ket 4-kadrdan boshlab 10-kadrgacha 7 ta kadr yaratamiz. 5-,7- va 9- kadrlardan chiziqni o‘chirib tashlaymiz. Buning uchun kerakli kadrni belgilab Delete tugmasini bosamiz. Natijada chiziq “lippillovchi” holatga keladi. Ishchi oynaning bo‘sh joyiga sichqonchanning chap tugmasini 2 marotaba bosamiz. Natijada Timeline oynasida faqat Layer 1 paydo bo‘ladi. Ishchi sohadagi obyektini belgilab Actions oynasiga o‘tamiz. Actions oynasining ishchi sohasiga quyidagi dastur kodini kiritamiz.

```
onClipEvent (enterFrame) {  
  if (go) {nextFrame();} else { prevFrame(); } }  
onClipEvent (load) { var go; stop();  
  enter_btn.onRollOver = function() { go = true;
```



```
}; enter_btn.onRollOut = function() {go = false;}; }
```

Hosil bo'lgan animatsiyani Ctrl+Enter tugmalarini bosgan holda ko'rishimiz mumkin.




Macromedia Flash dasturida audio fayllar bilan ishlash

Macromedia Flash dasturi mp3, wav, aif va au kengaytmali audio fayllarni qo'llab quvvatlaydi. Audio fayllardan Flash dasturining Button va Movie Clip obyektlarida, animatsiya yaratish jarayonida hamda elektron ta'lim resurslari va o'yinlar ishlab chiqishda foydalanish mumkin. Elektron ta'lim resurslarini yaratishda audio fayllardan foydalanish ta'lim resurslariga bo'lgan qiziqishlarni oshiradi. Foydalanuvchilarning etiborini jalb qiladi. Quyida audio fayllardan foydalanib bir nechta mashqlar bajaramiz.

Misol. Kadrlarga audio fayl joylashtirish.

Flash dasturini ishga tushiramiz. Kerakli bo'lgan audio faylni import amali yordamida dasturga yuklaymiz. File menyusidan Import – Import to library... amalini bajaramiz. Hosil bo'lgan Import to library muloqot oynasidan tegishli faylni belgilab Открыть tugmasini bosamiz. Natijada belgilangan fayl loyiha kutubxonasi (Library) oynasida hosil bo'ladi. Faylni sichqoncha chap tugmasi orqali ushlab ishchi oynaga joylashtiramiz. Natijada joriy kadrlarda tebranishlarni ifodalovchi belgilar paydo bo'ladi.




Hosil bo'lgan loyihani Ctrl+Enter tugmalarini bosish orqali ko'rish mumkin. Faylni kompyuter xotirasiga saqlaymiz Ctrl+S. Faylga nom berib (ovozi1), saqlanish joyini ko'rsatamiz va сохранить tugmasini bosamiz. Faylni animatsiya holatida saqlash uchun Fayl menyusi Export – Export movie buyrug'ini yoki klaviaturadan Ctrl+Alt+Shift+S tugmalarini bosamiz. Faylga nom berib, saqlanish joyini ko'rsatamiz. Fayl turiga Flash Movie (*.swf) ni tanlab сохранить tugmasini bosamiz. Fayl turi sifatida *.gif, *.avi, *.mov, *.eps, *.jpg, ... turlarni tanlash mumkin. Yaratilgan faylni *.exe ko'rinishida ham saqlash mumkin. Buning uchun Fayl menyusining Publish Settings... bo'limi tanlanadi. Ochilgan muloqot oynasining Formats bo'limiga kiramiz. Oynaning


Windows Projector (*.exe) yozuvi oldidagi katakchasiga belgi (bayroqcha) qo'yamiz va Publish tugmasini bosamiz. Natijada fayl saqlangan papkada *.exe fayl kengaytmasidagi fayl paydo bo'ladi. Bizning misolda esa ovoz1.exe fayli yaratiladi.

Misol. Button obyektida audio fayllardan foydalanish.

Flash dasturiga zaruriy audio faylni yuklab olamiz va Button tugmasi yaratamiz. Button yaratish uchun birorta shakl chizib olamiz. Shaklni belgilab kontekstli menyuni chaqiramiz va Convert to Symbol amalini bajaramiz. Hosil bo'lgan oynadan button bandini belgilaymiz, obyektga nom berib (tugma) OK tugmasini bosamiz. Button tayyorlash yuqorida ko'rsatib o'tilgan. Bilamizki buttonda uchta kadr mavjud. Bu uchala kadrda ham ovozli fayllarni joylashtirish mumkin. Uchta kadrda ovozning ijro etilishi xolati turlicha bo'ladi. Ya'ni, Up kadriga faylni joylashtirsak audio fayl doimiy ijro etiladi. Agar Down kadriga joylashtirsak audio fayl tugma bosilganda ijro etiladi. Agarda audio faylni Over kadriga joylashtirsak, sichqoncha tugma ustiga borganda fayl ijro etiladi.



Hosil bo'lgan loyihani Ctrl+Enter tugmalarini bosish orqali ko'rish mumkin. Odatiy musiqa1 fayli ijro etiladi. Ok tugmasi ustiga sichqoncha belgisi chiqsa musiqa2 fayli va Ok tugmasi bosilsa musiqa3 fayli ijro etiladi.



Kompyuter qurilmalari haqida o'yin tayyorlash.

Kompyuterning asosiy va qo'shimcha qurilmalarini topish bo'yicha o'yin tayyorlaymiz. Buning uchun bizga kompyuter qurilmalarining rasmlari va javob to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini bildiruvchi audio fayl kerak bo'ladi. Quyidagicha sahifani tayyorlaymiz:



Har bir qurilma rasmini button obyektiga aylantiramiz. Asosiy qurilmalar tugmalarining Down kadriga javob to'g'ri ekanligini anglatuvchi audio faylni, qo'shimcha tugmalarga esa javob noto'g'ri ekanligini anglatuvchi audio fayllarni joylashtirib chiqamiz.




Hosil bo'lgan loyihani Ctrl+Enter tugmalarini bosish orqali ko'rish mumkin. Agar asosiy qurilmalar tanlansa javob to'g'ri ekanligini bildiruvchi ovoz ijro etiladi. Agar qo'shimcha qurilmalar tanlansa javob noto'g'ri ekanligini bildiruvchi ovoz ijro etiladi.

Bu loyihani kompyuterning qo'shimcha qurilmalari uchun ham tayyorlash mumkin. Bunda faqat audio fayllarning joyi almashadi.


Flashning audio imkoniyatlaridan foydalanib bog'cha tarbiyalanuvchilari uchun ham turli loyihalar tayyorlash mumkin. Masalan mevalar, hayvonlar, ranglar va hokozalarning nomini aytadigan dasturlar yaratish mumkin. Biz quyida mevalar haqida loyiha tayyorlashni aytib o'tamiz.

Mevalar o'yini

Buning uchun bizga turli mevalarning tasvirlari hamda ularning nomini aytuvchi audio fayllar kerak bo'ladi. Barcha kerakli obyektlarni Flashning kutubxonasiga yuklab olamiz. Mevalarning tasvirlarini ishchi oynaga joylashtirib ularni buttonga aylantiramiz. Buttonlarning Down kadriga tegishli audio fayllarni joylashtirib chiqamiz.



Hosil bo'lgan loyihani Ctrl+Enter tugmalarini bosish orqali ko'rish mumkin. Mevalar sichqoncha yordamida chertilsa, ularning nomi aytiladi. Bu loyihani chet tilini o'rgatishda ham qo'llash mumkin. Bunda mevalarning inglizcha nomini aytuvchi audio fayllar kerak bo'ladi.



AMALIY MASHG'ULOTLAR

Mavzu: №1. Kompyuter grafikasi turlari. Kompyuter grafikasining dasturiy ta'minotlari haqida. MAQSAD: Talabalarni kompyuter grafikasi, uning rivojlanishi, kompyuter grafikasining dasturiy ta'minoti, ranglarning sxemalari bilan tanishtirish.

NAZARIY QISM: "Kompyuter grafikasi" informatika sohasida o'rganiladigan ko'pgina fanlar o'quv rejalarining ajralmas qismi bo'lib hisoblanadi. Hoirgi vaqtda kompyuter grafikasi quyidagi:

- "Informatika va axborot texnologiyalari"
- "Informatika va dasturlash"
- "Interaktiv dizayn"
- "Iqtisodiyotda informatsion tizimlar va texnologiyalar"
- "Internet asoslari va E-mail (elektron pochta)"
- "Kompyuter tarmoqlari" va boshqa kurslarning predmeti, mazmuni va tarkibiy qismi hisoblanadi.

Berilgan ma'lumotlarni tahlil qilishda, olingan natijalarni ko'rgazmali tarzda ko'rsatish va taqdimot (prezentasiya) uchun materiallar tayyorlashda, tasvirlarni qayta ishlashda, yangi murakkab kompozitsiyalar yaratishda zamonaviy kompyuter grafikasi keng qo'llaniladi. Yuqoridagi sohalar bo'yicha bilim olish va uni amaliyotga tatbiq qilishda "Kompyuter grafikasi" fani qo'l keladi.

Kursning vazifalari quyidagilardan iborat:

- o'quvchilarda hozirgi zamon kompyuter grafikasi bo'yicha nazariy va amaliy bilim ko'nikmasini paydo qilish;
- o'quvchilarning hozirgi zamon kompyuter grafikasi vositalarini va ularning ishlatilishini o'zlashtirishiga erishish;
- kompyuter grafikasining texnologik tuzilishini va har xil taqdimot materiallarini tayyorlash va namoyish etishni o'rganish;
- kompyuter grafikasi rivojining o'rni va hozirgi zamon holatini bilish;
- hozirgi zamon kompyuter grafikasidan o'qining o'quv sohasi va professional faoliyatida foydalanishni bilish;
- kompyuter grafikasining texnikaviy vositalari va zamonaviy programmalardan foydalanishni

bilish.

Elektron grafikni tuzish va uni tushunish uchun grafika elementlari ma'nosi va ularni turli holatlarda qo'shishni o'rganish muhim hisoblanadi.

Grafik yordamida ifodalanadigan voqeliklarni to'g'ri tushunish uchun uni tashkil etuvchi hamma elementlarining to'plami (shkala, sarlavhalar va boshqalar) mavjud bo'lishi lozim.

Tasvirlashning grafik usuli yoki grafik til — bu fikrni ifodalashning fazoviy tasvirlash yoki shartli ravishda tekislikda aks ettirish usullarining to'plamidir.

Grafik tasvirlashning namunalari — geometrik figuralar, turli xaritalar, iqtisodiy zanal diagrammalari, korxonalarining tashkiliy strukturaviy sxemalari va boshqalar bo'lishi mumkin.

Aqliy tasavvur va qiymatlar to'plamini ifodalovchi chizmalarni tuzish jarayoni grafiklashtirish deyiladi, uning natijasi esa — grafika deyiladi. Grafik shartli ravishda voqelikni yoki qandaydir jarayonni tasvirlaydi. Grafikada qo'llaniladigan hamma belgilar g'oyalarbelgisi bo'lib, uning o'zi yaxlit holatda g'oyalar to'plamini ifodalaydi.

Grafika ikki elementga bo'linadi: grafik qiyofa va eksplikatsiya.

Grafik qiyofa — chizmalar to'plami bo'lib, ular o'zaro bog'lanishlari bilan birgalikda tushuniladi.

Rang palitrasi

Elektron rang palitrasi kompyuter grafikasida qo'llanilishi bo'yicha rassom palitrasiga o'xshash, ya'ni u o'zida ko'p ranglarni saqlaydi.

Elektron palitra tarkibi bir rangni o'ida saqlaydigan yacheykalardan iborat. Palitra aniq bir rang modelini qo'llaydi. Uning ranglari esa bu modul asosida yaratilgan ranglardan iborat bo'ladi.

Internet tarmog'i uchun yaratilayotgan tasvirlarda xavfsiz palitalardan foydalaniladi. Chunki yaratilayotgan grafik ma'lumot minimal hajmda va tarmoqdagi qurilmalarda tasvir o'z aslini yo'qotmasligi zarur. Shuning uchun xavfsiz palitra 216 rangni o'zida saqlaydi.

Rangni inson, miyasida yorug'lik oqimini tahlil qilish natijasida anglaydi.

Yorug'lik oqimi 3 spektral ranglar (Q, Y, K — qizil, yashil, ko'k) kombinatsiyalarining tarqalishidan hosil bo'ladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Kompyuter grafikasining dasturiy taminoti haqida izohlang?
2. Mashina grafikasi nima?
3. Kompyuter grafikasi fanining vazifalari?
4. Kompyuter grafikasining boshqa fanlar bilan bog'liqligi?
5. Rang palitrasi nima?

Mavzu: № 2. Rang modeli. Grafik fayllarining formatlari.

Rang palitrasi

MAQSAD: Talabalarni kompyuter grafikasi modeli, grafik fayllarining formatlari, ranglarning sxemalari bilan tanishtirish.

NAZARIY QISM: Elektron rang palitrasi kompyuter grafikasida qo'llanilishi bo'yicha rassom palitrasiga o'xshash, ya'ni u o'zida ko'p ranglarni saqlaydi.

Elektron palitra tarkibi bir rangni o'zida saqlaydigan yacheyklardan iborat. Palitra aniq bir rang modelini qo'llaydi. Uning ranglari esa bu modul asosida yaratilgan ranglardan iborat bo'ladi.

Internet tarmog'i uchun yaratilayotgan tasvirlarda xavfsiz palitalardan foydalaniladi. Chunki yaratilayotgan grafik ma'lumot minimal hajmda va tarmoqdagi qurilmalarda tasvir o'z aslini yo'qotmasligi zarur. Shuning uchun xavfsiz palitra 216 rangni o'zida saqlaydi.

Rangni inson, miyasida yorug'lik oqimini tahlil qilish natijasida anglaydi.

Yorug'lik oqimi 3 spektral ranglar (Q, Y, K — qizil, yashil, ko'k) kombinatsiyalarining tarqalishidan hosil bo'ladi.

Kompyuter grafikasida rang ma'lumot tushunarligini oshirish uchun vositadir.

Rangni boshqarish sistemalari. Kompyuter grafikasining elementlarini yaratish va qayta ishlashda grafik ma'lumotlarning har xil qurilmalarda asl holatda bo'lishligi talab etiladi. Kompyuter grafikasining qayta ishlash pog'onalarida ranglarning mos tushishini rangni boshqarish sistemalari nazorat qiladi. Bunday tizimlardan biri *CMS (Color Management System)*dir.

Profil. Har bir qurilma o'zining ichki imkoniyatlariga qarab o'z usulida rang chiqaradi. Turli xil qurilmalarda ranglarning mosligini ta'minlash uchun ular o'zining profiliga ega bo'lishi kerak.

Kalibrovka. Har xil platforma, qurilma va dasturlarda rangni bir xilda boshqarish sistemasi mavjud emas. Lekin bu turdagi sistemalarga *CMS* yaqin hisoblanadi. Ilk bor *Solerunc* nomi ostida *CMS* ni *Apple* firmasi operatsion sistemaga kiritdi. U *Macintosh* kompyuterlari sferasida nashrga tayyorlash, nashr qilish va poligrafiyada muvaffaqiyatli xizmat qildi. Windows 95G'98 operatsion sistemalarida *Kodak* firmasining *Color Matchung Module* nomi ostida *CMS* tizimlari ishlatiladi.

Kompyuter grafikasida rangli ruxsat etish tushunchasi qabul qilingan (rang chuqurligi). Monitor ekranida uni hosil qilish uchun rangli informatsiyani kodlashtirish usulidan foydalaniladi. Oq-qora tasvirni aks ettirish uchun ikki bit razryad yetarli. Sakkiz razryadli kodlashtirish 256 turdagi ranglar jilosini aks ettirishga imkoniyat beradi. Ikki bayt (16 bit) 65536 turdagi ranglar jilosini ifodalaydi (bunday rejim — *High Color*). Yigirma to'rt razryadli kodlashtirish usulida 16 777 216 ta rangni ifodalash mumkin.

Amaliy nuqtayi nazardan monitoring rangli ruxsat etish tushunchasi rangli qamrab olishni anglatadi. Bu o'z navbatida chiqarish qurilma (monitor, printer va hokazo)larida ranglar diapazonini hosil qilishni belgilaydi. Rangli modul deb additiv va subtraktiv metodlar yordamida ishlangan ranglar jilosi tarkibiy komponentlarining bo'linish usullariga aytiladi. Kompyuter grafikasida asosan *RGB*, *HSB* va *CMYK* rang modullari qo'llaniladi. Rangli modullar uch o'lchovli koordinatalar sistemasida joylashadi va ranglar fazosini tashkil qilib, Grossman qonunlariga binoan rangni uch o'lchovli fazodagi nuqta sifatida ifodalashi mumkin.

Grossmanning birinchi qonuni. Chiziqli bog'liq bo'lmagan har qanday rangni uchta tashkil etuvchi orqali bir qiymatli ifodalash mumkin. Chiziqli bog'liq bo'lmaslik — bu ixtiyoriy uch rangdan ikkitasini qo'shish orqali uchinchisini hosil qilish imkoniyati mavjud emas.


Grossmanning ikkinchi qonuni. Agar ranglar uzluksiz o'zgarsa, ranglar aralashmasining nurlanishi ham uzluksiz o'zgaradi. Hech qanday rang yo'qki, unga yaqin bo'lgan rangni tanlash imkoniyati mavjud bo'lmasa.

Grossmanning uchinchi qonuni. Ranglar aralashmasining nurlanishi ularning rangiga bog'liq, biroq uning spektr tarkibiga bog'liq emas.

Rang modullari

CIE Lab rang moduli. 1920-yilda *CIE Lab* {Communication Internationale de l'Eclairage — xalqaro komissiya, *L,a,b* — bu sistemada koordinata o'qlarining ifodalanishi) rang fazoviy moduli ishlab chiqildi. Sistema apparatga bog'liq bo'lmaganligi uchun ko'p hollarda qurilmalar orasida ma'lumotni o'tkazish uchun qo'llaniladi. *CIE Lab* modulida ixtiyoriy rang quyidagicha aniqlanadi; yorug'lik (L) va uning xromatik komponentlari: a — parametri yashil rangdan qizil ranggacha o'zgarish diapazonini, b — parametri ko'k rangdan sariq ranggacha o'zgarish diapazonini tashkil qiladi. *CIE Lab* modulida ranglarni qamrab olish imkoniyati texnik qurilmalar (monitor, printer) imkoniyatlaridan yuqori bo'lganligi sababli tasvirni chiqarishdan oldin uni o'zgartirishga to'g'ri keladi. Bu modul rangli fotokimyoviy va poligrafik jarayonlarni bir-biriga bog'lash uchun ishlab chiqilgan. Hozirgi kunda bu modul *Adobe Photoshop* dasturida standart sifatida qabul qilindan.

RGB rang moduli. *RGB* (*Red, Green, Blue* — qizil, yashil, ko'k) rang moduli tasvirni ekranda tahrir qilish nuqtayi na-zaridan kelib chiqqan holda juda qulay va u bir-biriga bog'liq bo'lmagan uchta qiymatdan foydalanadi. Buni uch o'lchamli koordinata sistemasi ko'rinishida ifodalash mumkin. Har bir koordinatalar o'qida 0 dan 255 gacha diapazondagi bitta rang joylashtiriladi. Natijada rangli kub hosil bo'ladi va uning ichida *RGB* modulning barcha ranglari joylashadi. Bu kubning hajmini hisoblash natijasida *RGB* modulning ranglar soni 16 777 216 ta bo'lishi mumkinligini aniqlaymiz, ularni 24 razryadli ranglar platasi yordamida monitorda aks ettirish mumkin. *RGB* ranglar majmuasi bilan ishlangan barcha tasvirlarni xohlagan formatda diskka yozish mumkin. *RGB* ranglar majmuasidagi ayrim ranglar tabiatda uchramaydi. *RGB* rang moduli additiv bo'lib, har qanday rang uch asosiy (qizil, yashil va ko'k) ranglarning turli miqdorlari birikmasidan hosil qilinadi. Bu esa kompyuter grafikasini hosil qilish va qayta ishlashda asos bo'lib, elektron aks ettirish (monitor, televizor) uchun xizmat qiladi. Agar asosiy rangning bir komponentini ikkinchisiga qo'shsak, nurlanishlar yig'indisining yorug'ligi ortadi. *RGB* ranglar majmuasida oq rang uchala ranglarning maksimal aralashmasidan hosil qilinadi, qora rang esa buning aksi o'laroq minimal aralashmasidan hosil qilinadi.



Asosiy ranglaming joylashuvi

Ushbu rang moduli apparat-qurilmalar uchun mo'ljallangan bo'lib, rangli monitorlarda, televizorlarda keng ishlatiladi. Bunda asosiy ranglar qizil, yashil, ko'k ranglar bo'lib, qolganlari shularning qo'shilishidan hosil qilinadi.

HSB rang moduli. *HSB* rang moduli insonning ranglarni maksimal qabul qilish xususiyatini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan. U rassom A.N.Mansellning ranglar aylanasi asosida yaratilgan. Rang uch komponent yordamida ifodalanadi: turi (Hue) — yorug'lik to'lqini uzunligi; to'yintirilganligi (Saturation) — yorug'lik to'lqini chastotasi yoki intensivligi; yoritilganligi (Brigfitness) — yorug'lik to'lqini soni yoki rangning to'q yoki ochligi. Yorug'lik to'lqinining amplitudasi bu yerda ishtirok etmaydi. Umumiy holda *HSB* modulining ixtiyoriy rangi oq va qora bo'yoqlardan aniq foizda qo'shilgan spektral rangdan hosil qilinadi. Bu modul uch o'lchamli koordinatalar sistemasida quyidagicha joylashadi — birinchi o'q konus asosi aylanasi chizig'i, ikkinchi o'q konus diametri bo'lib aylana-ning ixtiyoriy nuqtasini uning markazi bilan tutashtiradi, uchinchi o'q konus balandligi. Bundan foydalanib moduldagi ranglar sonini hisoblash mumkin. Konus asosi bo'lgan aylanani 359 ta sektorga spektral ranglar bo'yicha bo'lamiz, har bir sektor 100 darajali yorug'lik to'lqini chastotasi, 100 darajali yorug'lik to'lqinini saqlaydi. Konus sirtining yuzasini hisoblash formulasidan bitta sektorda 5000 rang hosil bo'ladi, agar uni sektorlar soni 359 ga ko'paytirsak, *HSB* rangli modulidagi 1795 000 ta ranglar soni kelib chiqadi. Rangning qiymati aylana markazidan yo'nalgan vektor sifatida qabul qilinadi. Markazdagi nuqta oq rangga, aylana chegarasining nuqtalari esa spektral ranglarga mos keladi. Vektorning yo'nalishi graduslarda berilib ranglar farqini ko'rsatadi. Vektorning uzunligi ranglar to'qligini ko'rsatadi. Bunda boshlang'ich nuqta qora rangga to'g'ri keladi. *HSB* rang moduli qamrovi barcha mavjud ranglarning qiymatini o'z tarkibiga oladi. Rang yorug'ligining pasayishi uning qorayishini bildiradi. Rangga qancha ko'p miqdorda qora bo'yoq qo'shilgan bo'lsa uning yorug'ligi shuncha past bo'ladi. Rang yorug'ligi hosil qilish spektral rangga aniq foizdagi qora bo'yoqni qo'shish bilan xarakterlanadi.

CMYK rang moduli. *CMYK* rang moduli subtraktiv modulga tegishli bo'lib, u nashrni chop etishga tayyorlashda qo'llaniladi. *CMYK* rang komponentlari sifatida, asosan oq rangdan ayirish natijasida hosil bo'lgan quyidagi ranglar xizmat qiladi:



— havorang (cyan) = oq — qizil = yashil
+ ko‘k; — to‘q qizil {magenta} = oq —
yashil = qizil + ko‘k; — sariq (yellow) =
oq — ko‘k = qizil + yashil.

Bu metod original tasvirni chop etishda ranglarning tabiiy qabul qilinishiga mos keladi. Havorang, to‘q qizil va sariq ranglar qo‘shimcha hisoblanadi, chunki ular asosiy ranglarni to‘ldiradi. Amalda qo‘shimcha ranglarni bir-biriga qo‘shgan bilan qora rangni bermaydi. Shuning uchun rangli modulga yana bir komponent — qora rang kiritilgan. Natijada rangli modul abbreviaturasida to‘rtinchi harf paydo bo‘ldi: *CMYK* (*Cyan, Magenta, Yellow, Black*). Kompyuter tasvirini poligrafik uskunada chop etish uchun ranglarni *CMYK* moduli komponentlariga mos keluvchi tarkiblarga ajratish kerak. Bu jarayon ranglarni ajratish deyiladi. Oqibatda har bir komponentning original to‘rtta tasviri hosil qilinadi.

Mavzu: № 3. CorelDraw dasturi asosiy oynasi bilan tanishish va turli chiziqlar chizish. CorelDraw dasturida yopiq konturlar yaratish va Pick uskunasi bilan ishlash.


MAQSAD: Talabalarda dasturning ishchi muxiti: asosiy menyuni, tuchunchalarni hosil qilish. va turli chiziqlar chizish, dasturda yopiq konturlar yaratish va Pick uskunasi bilan ishlash malaka va ko‘nikma hosil qilish.

NAZARIY QISM: CorelDraw dasturini ishga tushirish uchun avvalo bu dasturning drayvirini windows operatsion sistemasiga joylashtiramiz va quyidagi yo‘l bilan ochamiz:



Belgilangan bandga murojaat qilib, dasturni ishga tushuramiz. ПУСК tugmasidan CorelDRAW Graphics Suite 12 papkasini tanlanlaymi va konteks menyusidan kerakli bo'lgan ishchi fayllarni tanlab foydalanami. Quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

Ishga tushirilgan fayllardan biri bu quyidagi rasmda interfeysi



Навигатор документа
Навигатор

Панель свойств

CorelDRAW dasturida hujjatlarni xotiraga bir-nechta usul bilan saqlash mumkin. Menyuning Fayl (File) va Saqlash (Save) buyrug'i yordamida joriy hujjatni joriy jildga saqlaydi. Bu amal asboblari panelidagi maxsus tugma yordamida ham amalga oshiriladi.

Soxranit kak ... (Save As) buyrug'i esa joriy hujjatni boshqa nom va boshqa jildga va boshqacha formatda saqlash imkoniyatini beradi. Bu amalni bajarilganda va yangi hujjatni xotiraga saqlaganda ekranga Tasvirni saqlash (Save Drawing) ni beradi.


Versiya (Version) ro'yxatidan CorelDRAW dasturining avvalgi variantlaridan birini yoki yangi variantini tanlab hujjatni mos formatda xotirasiga saqlaydi.

Faqat dasturning eski variantlarida hujjatlarni saqlanganda bir nechta parametrlar yo'qolib ketishini esta tutish lozim.



Thumbnail ro'yxatida xotiraga saqlashning bir-nechta variantlarini beradi:

- hujjatlarni o'lchamini bir qancha kichik qilib berish ham mumkin, faqat keyinchalik fayllarni qidirganda qiyinchilik tug'diradi. 1K (mono), 2K (mono), 4K(color), 8K (color) oq-qora yoki rangli tasvirlarni har xil sifatda xotiraga saqlasa bo'ladi. Agarda hech biri tanlanmagan bo'lsa, u holda maksimal sifatli tasvirli hujjat xotiraga saqlanadi.
- Selected only (Faqat tanlangan obyektlar) tanlanganda yangi faylga ajratilgan obyektlar saqlanadi, shu bilan birga boshqa faylga obyektning alohida qismini ham saqlash mumkin.
- ICC profile (ICC profilini joylashtirish) hujjatdagi ranglarni boshqarish. Dastur faqat SRT CDR, TIFF, JPEG, PICT va EPS formatli fayllar bilan ishlaganda ishlaydi.
- No white spaces, special characters (Bosh joy va maxsus belgilarsi) belgisi hujjatni xotiraga saqlaganda bo'sh joy tagini chizish bilan, maxsus belgilarni Web standartidagi belgilar bilan almashtiradi.
- Embed Fonts using TrueDoc (Shriftlarni TrueDocdan foydalanib yozish) hujjatda TrueDoc texnologiyasini foydalangani haqida malumot beriladi.
- Keywords (kalit so'lar) i Notes (Tuchunsha berish) hujjatlarni te topish uchun ularga tushuntirish so'raladi.
- Advanced tugmasi... (Quchimcha) ekranga Save (saqlash) dialog oynasini va Options (parametrlar), parametrlari o'rnatilgan bo'ladi. Save presentation exchange (Boshqa redaktorlar formatlida saqlash) CMX formatda ishlaydigan boshqa redaktorlarda faylni o'chirish. Buni ishga tushirganda faylning o'lchami katta bo'ladi.



- Use current thumbnail (Ispolovat suhestvuyuhuyu miniatyuru) birinchi saqlaganda rastrlangan hujjatni miniature yordamida saqlashni ta'minlaydi. Bu faylni saqlashga mo'ljlanlangan vaqtni ma'lum miqdorida kamaytiradi, ammo xatolikka olib kelishi mumkin, agarda hujjat ko'p qayta ishlangan bo'lsa.
- File optimization maydonida (faylni optimallashtitish) ikki xil turdagi fayllarni saqlaydi, rastr tasvirli (Use bitmap compression) va vector tasvirli (flajok Use graphic object compression) faylning o'lchamini kichik qiladi.
- Textures maydoni (Tekstur no'calivki) va Blend sandextrudes («Poshagovo'y perexod» i «Ekstrudirovaniye») tarkibiga qaraganda bir xil:
 - Save ... with the file (fayl bilan saqlash) fayl o'lchami kata bo'ladi faqat hujjat o'qilganda tez vaqtda ochiladi;
 - Rebuild ... when opening the file (Postroit ... priotkro'tii faylga) — yuqoridagiga teskari faylni o'qishda ko'p vaqt talab etadi, o'lchami kata bo'ladi.

TOPSHIRIQ:

1. CorelDraw grafik muharririni dasturiy taminotini ShKlarga o'rnating.
2. CorelDraw grafik muharririning amaliy ilovalari bilan tanishing.
3. Launch CorelDRAW dasturini ishga tushiring va yangi oyna hosil qiling.
4. CorelDraw grafik muharririni interfeysini tasniflang.
5. CorelDraw dasturining instrumentlar panelidan uch ulchovli (Shape tool) figuralar yarating.
6. Инструментформа yoki F10 uskunasiidan foydalanib, yaratilgan figuralarni bo'laklarga bo'ling.


Mavzu: № 4. CorelDraw dasturida sodda atroflama chiziqlar va to'ldirishlar. CorelDraw dasturida konturlarni siljitish.

MAQSAD: Talabalarda CorelDraw dasturida sodda atroflama chiziqlar va to'ldirishlar, CorelDraw dasturida konturlarni siljitish haqida malaka, ko'nikmasini hosil qilish

NAZARIY QISM:

CorelDraw dasturi ishga tushirilgandan keyin ekranda COREL DRAWga XUSH KILIBSIZ (welcome to Corel DRAW) suzi nomayon bo‘ladi va dasturni ishga tushirishning bir nechta variantlarini tanlashni suraydi: Yangi hujjat (New Graphic), oxirgi ishlangan hujjatni ochish (Open Last Edited), Hujjatni ochish (Open Graphic), tayyor shablonlarni ochish (Template), dastur urgatuvchini ishga tushirish (CorelTUROR), Nima yangilik? (What is New?) Yangi hujjatni yaratish uchun menuning Fayl (File) va Yangi hujjat buyrugi (New) yoki instrumentlar panelidagi maxsus tugma bosiladi. Hujjatni ochish uchun, menuning Fayl (File) va Ochish (Open) buyruqlari yoki instrumentlar panelidagi maxsus tugmalar yordamida amalga oshiriladi.

CorelDRAW dasturida bir vaqtning uzida bir nechta hujjatlar bilan ishlash imkoniyatlari bor, shu bilan birga kerak bo‘lmagan hujjatlarni yopib qo‘ysa ham bo‘ladi. Bu esa menuning Fayl Yopish(Close) buyrugi erdamida amalga oshiriladi.



tushirilgandan keyin ekranda dastur oynasi nomayen bo‘ladi, bu oyna foydalanuvchi interfeysi (user interface) yoki ishchi joyi (workspace) deb ataladi. Interfeys foydalanuvchi va komputer orasidagi mulahotni o‘rnatadi, ishlash uchun kerak bo‘lgan barcha sharoyotni yaratadi.

Shuni nazarda tutish kerakki, interfeys foydalanuvshi tomonidan uzgartilgan bo‘lib uz ko‘rinishidan o‘zgacha bo‘lishi ham mumkin. Foydalanuvchi interfeysi quyidagilardan tashkil topadi: sarlavha, bosh menu, hujjarlarni ko‘rish ushun ishchi oynalar, tasvirlarni redaktorlash ushun bir nechta panellar yigindisidan. Oynaning markazidagi katta bo‘sh joy ishchi joyi deb nomlanib har bir hujjat uchun yangi ochiladi.

Menu satri tagida asboblar satri (Toolbars) joylashgan. Asboblar satrini ekranning hohlagan joyida va har xil ko‘rinishda joylashtirish mumkin. Ekranga kerakli oynalarni joriy qilish uchun menuning Oyna (Window) yordamida amalga oshiriladi va ular ustida quyidagi amallar bajariladi: Asboblar (Toolbars) satriga sichqonchani o‘ng tononi bilan chertib muloqat oynasini paydo etamiz va Parametrlar (Options), Rostlash dan kerakli bo‘lgan asboblar tanlanadi.

CorelDRAW dasturi interfeysini foydalanuvchi uzi hohlaganday qilib rostdash va uni xotiraga saqlash imkoniyati bor. Uning uchun quyidagi amallar bajariladi: Menuning (Tools) dan Optsii... (Options) buyruq tanlanadi va ochilgan dialog oynasidan Interfeys (Workspace)




tanlanadi Yangi... (New)

tugmasi ekranga Yangi interfiysni (New Workspace) chiqaradi. Yangi interfiysni (New Workspace)da interfeysning yangi parametrlarini kiritish uchun foydalaniladi; masalan, Nomi-maydonida-yangi interfeys nomi (Name of new workspace). kiritiladi va yangi interfeysni joriy qilish uchun belgi (Set as current) qoyiladi.

Chizish

Chizgish ekranda ko‘rinib turadi agarda u yoq bo‘lsa menuning Ko‘rish (View) tanlanib Chizgish (Rulers) buyrug'i ishga tushirish kerak bo‘ladi, ekkinchi marta bu amal bajarilsa ekrandan chizgish olib tashlanadi. Chizgishni ekranning hoqlagan joyoga qo‘yish mumkin. Bu uchun <Shift> tugmasi bilan birgalikda sichqoncha bilan olib hoqlagan joyga qoysa bu‘ladi. Agarda <Shift> tugmasi bilan birgalikda chizgishga ekki marta sichqoncha bilan chertilsa avvalgi holiga qaytariladi. Agarda <Shift> tugmasisiz ekki marta chertilsa u holda chizgishning (Rulers) Parametrlari (Options) ekranda nomaion boladi. CorelDRAW dasturidagi chizgish har xil ulchob birliklarida beriladi Ulchov birliklari (Units) qoyidagilar iborat:



24,5 MM teng;

- millimeters (millimetrlar);
- picas; points (pikalar), 1 pika 12 punktga teng;
- points (punktlar), 1 punkt 1/72 engiz dyumiga teng (24,5 MM);
- pixels (pixellar), nisbiy ulchov birlik (absolyut qiymatga ega emas);
- ciceros; didots (tsitsero), 1 tsitsero 12 punktga teng;
- didots (Dido punktlari), 1 Dido punkti 1/72 farang dyumiga teng (27,06 MM);
- feet (futlar), 1 fut 304,8 MM ga teng;
- yards (yardlar), 1 yard 914,4 MM ga teng;
- miles (milar), 1 mil 1609 M ga teng;
- centimeters (santimetrlar);
- meters (metrlar);

- kilometers (kilometrlar).

Hujjatning umumiy ish maydoni 45 x 45 metrga teng. Bu esa dasturdan ko'rgazmalar va katta hajmli obyektlar bilan ishlaganda juda qol keladi.



Rastr grafikasida obyektlar bit kartasidagi to'rda ranga ega bo'lgan nuqtalar (piksellar) erdamida tasvirlanadi. Rastrli tasvirlar bilan ishlash uchun rastr muharriridan foydalanamiz. Rastr tasvirlarni tasvirni rastr ko'rinichiga o'tkazish (Convert to Bitmap) yoli bilan olamiz. Rast tasvirlarni muharrirlaganda piksellar ranglarini da o'zgartirish imkoniyati tugiladi, fahat ranglarni o'zgartirganimizda obyektning formasi uzgarishiga uz tasirini tegizadi. Vektor grafikasi matematik obyektlar ustida tashqi qurilmalarga (monitor,printer) bogliqsiz holda amallar bajaradi.Vektor grafikasida birinch navbatda obyektning formasi uzgaradi rangi esa ekkinchi darajali bo'ladi. Sababi vektor grafikasida rang bilan forma birbiriga bogliq emas bulib, forma birinchi darajali, rang bo'lsa ekkinchi bulib, foxat toliqtiruvch xizmatini bajaradi.

- Objekt Properties oynasida mavjud bo'lgan tugma, bu tugma yordamida obyektlar ichki qismiga fon berish mumkin. Bu tugma bosilgandan so'ng, qo'shimcha tugmalar hosil bo'ladi:

(Uniform fill)-obyektlarga bir xil rang berish imkonini beradi.

(Fountain fill)-obyektlarga ikki turdagi ranglar, va ranglar shtrixovkalarini beradi.

(Pattern fill)-har xil korinishdagi tayyor fonlarni tanlash imkonini beradi.

(Texture fill)- har xil korinishdagi tayyor fonlarni tanlash imkonini beradi. (Postskript fill)-tayyor fonlarni tanlash imkonini beradi. (No fill)-ichki rangni yo'q qiladi.

Oquvchilar Corel Draw dasturida kontur parametrlarini berish va ularni boshqarishning har xil usullarini bilishlari muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun kontur tushunchasiga bog'liq ayrim tushunchalarni yoritib o'tamiz:

Qalinlik-kontur, ya'ni chegara (chegara chizig'i) qalinligi tushunilib, uning o'zgartirishning usullarini yuqori punktda gapirib o'tilgan edi.

Ko'rinish-kontur ko'rinishi, ya'ni chiziq tipi tushuniladi.

Rang-chegara rangi tushuniladi.



Nakonechniklar-chiziq (chegara) oxirgi nuqtalar ko'rinishi tushuniladi. Masalan: -Chegara (chiziq) qalinligini, rangini, tipini tanlash imkonini beradi.

Ya'ni bu buyruq ichida Width-chiziq qalinligini, Color-chiziq rangini, Style-chiziq tipini ko'rinishini tanlash imkonini beradi.

Obyektlarni joylashtirish deganda, biz obyektning holatlarini, ekranda ko'rinish rejimlarni o'rnatishni tushunamiz. SHu tushunchalarning ishlashning bir qancha usullari mavjud bo'lib, biz foydalanuvchi ko'p foydalaniladigan usullardan ayrimlarini ko'rsatib o'tamiz.

Obyekt holatlarini o'rnatish uchun obyekt (obyektlar) belgilanib, belgilangan obyekt ustiga sichqoncha ko'rsatkichi olib borilib o'ng tugma bosiladi. Natijada belgilangan obyektga tegishli qo' shimcha buyruqlar chiqadi.

Bu buyruqlar hammasi alohida vazifa bajaradi. Ulardan ayrimlariga, ya'ni bizga kerakli buyruqlarda to'xtalib o'tamiz. **Group**-belgilangan obyektlarni birlashtiradi, ya'ni bitta obyektga aylantiradi.

o To Front	Shift+PgUp
To Back	Shift+PgDn
o Forward One	Ctrl+PgUp
^ Back One	Ctrl+PgDn
h Front Of...	
Ç Behind...	
% Reverse Order	

(Ungroup- birlashtirishni bekor qiladi)

Lock Objekt-belgilangan obyektни qotirib qo'yadi, ya'ni bu obyekt ustida xech qanday ishlarni bajarib bo'lmaydi.

SMYK-Tabiatda mavjud bo'lgan ranglar majmuasi. quyosh nurlari inson ko'zlari ajrata oladigan barcha ranglarni o'zida mujassamlashtirgan. Quyosh nurlari biror — bir jismga tushganda uning tasiri ostida inson ko'zlari jism shakli va rangini idrok etadi. Misol uchun binolarning o't o'chirish burchaklari osib qo'yilgan o't o'chirgichlar to'q ko'k va zangor ranglar bilan bo'yalgan bo'lishiga

qaramay bizning ko‘zimizga to‘q qizil rangda ko‘rinadi. Ranglarni bir — biriga qo‘shilishi natijasi boshqa ranglar hosil qilinadi:

S — havo rang,

M - binafsha rang,

Y -sariq rang,

K- qora rang,

Bosma mashinalari va bosmaxonalarda tasvirlar yuqorida keltirilgan ranglarning kombinatsiyasidan foydalangan holda to‘la tasvirni ifodalaydi.

RGB — ranglar majmuasida oq rang uchala ranglarning maksimal aralashmasidan hosil qilinadi. Qora rang esa buning aksi o‘laroq olinadi.

CMYK — ranglar majmuasi bilan ishlaganda qora va oq ranglarni hosil qilish uchun buning aksini bajarish lozim. Ya’ni to‘rt rangning minimal qo‘shilishida oq rang hosil bo‘ladi. Qora rang esa alohida kanalda mavjud.

RGB — ranglar majmui keng ko‘lamdagi ranglarni taklif etadi. Lekin ularning ko‘p qismi (ayniqsa yorqinlari) tasvirni chop etganda monitordagi bilan keskin farq qiladi. Shu bois ham ko‘plab mutaxassislar tasvirni chop etishdan avval uni **CMYK**— sistemasiga o‘tkazadilar. Ayrim mutaxassislar esa tasvir bilan **CMYK** — sistemasida ishlashni maslahat beradilar. Ammo bu tasvir bilan ishlash turli qiyinchiliklarni tug‘diradi. Ana shunday qiyinchiliklardan biri kompyuter juda sekin ishlaydi. Bunga asosiy sabab «Adobe PhotoShop» programmasi **RGB** sistemasiga sozlangan bo‘lib, har bir komandani bajarib, uni **RGB** — sistemasidan **CMYK** — sistemasiga almashtirguncha kompyuter qo‘shimcha vaqt talab qiladi. Bundan tashqari skaner va monitor **RGB**— sistemasida ishlashga mo‘ljallangan. Ranglar bilan ishlovchi barcha uskunalar (rangli printerdan tashqari) **RGB** - sistemasida ishlaydi. Shuning uchun yaxshisi tasvirni chop etishdan avval **CMYK** — sistemasiga o‘tkazib olish maqsadga muvofiq. Tasvir ustida barcha amallarni poyoniga yetkazib, menyular satrida **Изображение** - Настройка tarkibidagi **SMUK** komandasini tanlang.


Photoshop dasturining ranglar darchasi va maxsus effektlar darchasidan foydalanib, quyidagi mashqni bajaramiz: misol. 1.

HAMMASI OLTINDAN


Inson yoki biror bir predmetning rasmini oching. So‘ngra uni fondan ajrating (Erase Tool yordamida). Quyida namuna:




CTRL+U ni bosning va Saturationni chap tomonga oxirgacha suring. Rasm oq-qora holatiga keladi:



Pastdagi yordamida Curves bo'limini tanlang va quyidagicha holatga keltirishga harakat qiling:




CTRL+SHIFT+E ni bosning. So'ng CTRL+U ni bosning va pastroqda Colouriseni belgilab Hue=43, Saturation=48, Lightness=13 larni sozlang:




Filter>Blur>Gaussian Blur ga kirib Radiusni 0,2 pixels qilib OKni bosing.



Misol. 2. Bu mashqda asosan ranglar bilan ishlaymiz va ajoyib rangli qalamlar tayyorlaymiz....




1. Mashqni boshlash uchun 500×300 piksel o‘lchamda, oq fonda yangi oyna ochamiz (**Ctrl+N**).



asbobini tanlaymiz va


2. Rectangular Marquee(M) (прямоугольный шатер) - quyidagi rasmda ko'rsatilgan joyni belgilab, rang kodi **#7000a4** ga moslab, yangi layer(qavat) ochamiz (**Ctrl+Alt+Shift+N**) va belgilangan joyni bo'yash uchun menyudan **Edit > Fill** yoki **Alt+Backspace** tugmalarini bosamiz. Bu birinchi qalam shakli hisoblanadi.



Shundan so'ng


Marquee (M) - asbobi orqali quyidagi joyni belgilaymiz va **Dodge (O)** asbobini tanlaymiz (**Brush: 50 px, Mode: Highlights, Exposure: 50%**) va belgilangan joyni bo'yab chiqamiz:

Rectangular




Endi qalam o'ng tomonini ham belgilaymiz va **Burn (Гореть) (O)** asbobi (**Brush: 50 px, Mode: Shadows, Exposure: 40%**) yordamida belgilangan joyni bo'yab chiqamiz:

Ctrl+D tugmalarini bosamiz va menyudan **Layer >(слой) Layer style (стильслой)> Inner Glow (внутреннее свечение)**ni moslaymiz:




Natija:




Keyingi bosqichga o'tamiz...


3. Ushbu qalam shakli chizilgan qavat(layer)ni nusxalaymiz. Nusxalash uchun **Layer (слой) > Duplicate Layer (двойной слой)** buyrug'ini tanlaymiz yoki **Ctrl+J** tugmalarini bosamiz. Yangi hosil bo'lgan layerni **Move (V) (ход)** - asbobi yordamida o'ng tomonga o'tkazamiz va **Image > Adjustments > Hue/Saturation (Ctrl+U)** Natija:




Anashu holatda har bir shaklni nusxalab chiqamiz va har bir shakl rangini yuqorida ko'rsatilgandayo'zgartirib chiqamiz




4. Qalamlar ichidan xohlaganimizni tanlaymiz va **Rectangular Marquee (M)** asbobi yordamida o‘rtadan yuqori qismini belgilaymiz va **Delete** tugmasini bosamiz...




Ctrl+D va **Polygonal Lasso** asbobi yordamida quyidagicha shakl chizamiz:




Elliptical Marquee (краткий шатер) asbobini tanlaymiz va **Alt** tugmasini bosgan holatda yuqorida chizgan shakl ostini o‘chirib chiqamiz:




Qolgan joylarni ham kesib tashlaymiz va Yangi layer ochib ushbu layerni rang kodi **#f0d196** da bo‘yab olamiz:



Yana **Polygonal Lasso** asbobi yordamida quyidagi joyni belgilaymiz va **Dodge (O)** asbobini tanlab, belgilangan joyni bo'yab chiqamiz:




Endi esa o'ng tomonni belgilaymiz va **Burn** asbobi yordamida bo'yab chiqamiz:




5. **Rectangular Marquee (M)** asbobi yordamida qalam uchini belgilaymiz va **Image**



(изображения) > **Adjustments (коррекция)** > **Hue/Saturation (цветовой тон/насыщенность)** yoki **Ctrl+U**:



Natija:




Ctrl+D va Layer > Layer style > Drop Shadow (тень снижения):



Endi oxirgi bosqichga o'tamiz...


6. Horizontal Type (T) asbobini tanlaymiz va matn yozamiz:




Edit > Transform > Rotate 90 CCW



Layer > Layer Style > Drop Shadow (тень снижения):



Natija:



Topshiriqlar:

1. Photoshop dasturi kompyuter grafikasining qaysi turiga kiradi?
2. Photoshop dasturida rang moduli tushunchasi izohlang.
3. Photoshop dasturi va uning imkoniyatlarini o'rganing?
4. Photoshop dasturi yordamida elementar chizmalar tayyorlang?
5. Yuqori dizaynli va chiroyli "Referat" so'zini chizmasini tayyorlang?
6. Photoshop dasturining qatlam tushunchasini batafsil izohlang.
7. Photoshop dasturining qatlam darchasining buyruqlarini o'rganish.

Mavzu: № 10. Adobe Photoshop dasturida matn va konturlar bilan ishlash. Websahifa uchun grafik ma'lumotlar yaratish

ISHNING MAQSADI: Talabalarda grafik ob'ektlarda ranglar va qatlamlar (sloy) bilan ishlashga doir tushunchalarni hosil qilish

NAZARIY QISM:

Tekst uchun maxsus effektlar (СПЕЦИАЛЬНЫЕ ЭФФЕКТЫ ДЛЯ ТЕКСТА)

Eng avvalo quyidagilarni eslab qoling. Agar siz tekstni rakasinimashtabini xajmini va tuzilishini o'zgartirish uchun uni taxrirlanadigan ko'rinishda bajarishingiz kerak va so'ngra tekstga maxsus effektlar qo'shish uchun rasm sifatiga keltirib so'ngra effektlarni qo'lashingiz mumkin. Klaviaturada "V" tugmasi orqali ishga tushiriluvchi **Move** (Siljitish) asbobi orqali tekstni trasformatsiya qilish mumkin.

Show Bounding Box (Показать габаритную рамку) asbobiga bayroqchani oʻrnatib **Layers** (Слой) asbobi orqali kerakli qatlamni belgilang. Ekranda tekst qatlamni aks etadi.

Yakka holda kiritilgan jumla va soʻzlarni quyidagicha oʻzgartirish mumkin: **Layers** (qatlam) oynasiga jumlani kiriting va **Edit** (Правка) menyusidan **Free Transform** (Произвольная трансформация) buyrugʻini tanlang;

□ Sichqoncha bilan tekst oynasini kerakli shaklni olguncha surib boring bu vazifani boshqa asboblarda ham bajarish mumkin.


«Adobe PhotoShop» programmasi tasvirlar ustiga matnlarni kiritish uchun yana bir keng imkoniyatni ochib beradi. Tasvir ustiga matn kiritish uchun asboblarda panelida maxsus "Текст" asbobi mavjud. Bu asbob asosan tasvirga turli matnlarni kiritish uchun xizmat qiladi. "Текст" asbobi tarkibida "Текст-маска", "Вертикальный текст" kabi asboblarda yashiringan. Bu asboblarda aktivlashtirilib, tasvir ustida bir marta bosilishi bilan yangi "Текстовой инструмент" darchasi hosil boʻladi. Bu asboblarda faqat matnlarni tuzish uchun xizmat qiladi. Uning yordamida mavjud matnlarni taqirirlashning iloji yoʻq.

Matnli koʻrinishlar. Qor koʻrinishni harflarda qoʻllash

Avvalambor yangi tasvir hosil qilamiz (Ctrl+N), taxminan 300x300 piksel hajmda boʻlsin. Hajmi juda ham katta boʻlishi shart emas – aks holda qor haqiqiy koʻrinishda boʻlmaydi (bunga oʻzingiz amin boʻlasiz).

Tagrang koʻrinishi sifatida qish fasli rasmini, yoki oddiy havorangni qoʻllash lozim.

Soʻngra, Type (Matn) uskuna yordamida matn yozing. Harflar rangi turli boʻlishi mumkin, biroq, harflar Koʻk rangga yaqin boʻlganda taʼsirchan koʻrinish boʻladi.



Endi esa qor koʻrinishni yaratishni boshlaymiz, uchi ingichka boʻlgan Brush (Moʻyqalam) uskunasi tanlaymiz. Soʻngra, yozuvga yuqoridan qor tushgan oʻrinlarni oq rang bilan koʻrsatamiz. Buning uchun uy tomiga tushgan qor koʻrinishini koʻz oldimizga keltirishimiz lozim. Rasmda oʻz eʼtiborimizni jalb etib ham bajarishimiz mumkin, ammo chizish qobiliyati har bir inson ijodiga bogʻliq. Biroq, qor koʻp boʻlmasligi lozim.

Qor koʻrinishi belgilangandan soʻng, haqiqiy tasvir bilan ishlashni boshlaymiz.

Smudge (Barmoq) uskunasi foydalanamiz. Uning imkoniyati juda keng va xilma-xildir. Ushbu uskuna bilan ishlash koʻrinishi koʻk rangni qogʻozga barmoq

bilan surtilayotganga o'xshaydi, bu esa turli xil bo'shliqlarni birlashtirish, o'zaro oquvchanlikni hosil qilishda kerak bo'ladi.

Demak, Smudge uskunani tanlab, qor ko'rinishi chetlarini harflar ustida og'iriligi bilan qotib qolgan holatini hosil qilamiz. Agar qotish holatini yarata olmasak, uskuna parametrini o'zgartiramiz, ya'ni bosimni oshiramiz (Pressure). Natija rasmda ko'rsatilgan.

Keyigi bosqich hozirgi uskuna bilan amalga oshirilib bunda – qor oqimini hosil qilamiz.


Ushbu ko'rinishni qor erishni boshlaganda, ya'ni eriyotgan qorning atrofida shakllar paydo bo'lish holatidir. Ular juda oson yaratiladi: «barmoq» uskuna bilan qorni vertikal yo'nalishda surtish lozim. E'tiborli bo'ling: chunki uskuna qo'llanilayotganda dag'al ko'rinish berishi mumkin. Rasmdagi qor tushgan o'rinlar aniq ko'rinishda bo'lmasa, muyqalam yordamida to'g'rilab chiqamiz.

Hozircha rasm ko'rinishi qish fasliga unchalik ham o'xshamaydi. Sabab shundaki qor – silliq emas, balki ko'p miktordagi qor parchalaridan iborat. Ushbu holatni ko'rsatib berish lozim bo'ladi. Masalani hal etishda– Add Noise (Notekislik qo'shish) standart filtr: Filter-Noise-Add Noise qo'llaniladi. Filtrni sozlash oynada ko'rsatilgan.

So'nggi amallar quyidagicha bajariladi. Blur (Oquvchanlik) filtr: Filter-Blur-Blurni bir necha marta takror qo'llang va natija kutilgandek bo'ladi. Filtrni qo'llayotganda konturlarning qo'shilishi, ya'ni tasvirda konturlar oqib ketayotganga o'xshaydi.

Mo'yqalam uskuna yordamida va Brushes ranglar majmuasidan Airbrush va Noise parametrlarini o'rnatilib, harflar tagida qor ko'rinish hosil qilindi.



Bajarilayotgan amalni tugadi deb hisoblasak ham bo'ladi, biroq Yana bir kichik elementni – yog'ayotgan qorni qo'shamiz. Buning uchun Brush uskunani tanlang va parametrlar oynasida Load Brushes buyrug'i orqali Assorted mo'yqalam to'plamini yuklaymiz. Unda barcha standart mo'yqalam ko'rinishlar mavjud bo'lib, ular orasida qor parchasi ham bor. Uni belgilab olib, qor parchalarini kerakli o'rinlarda o'rnatib chiqamiz. Natija rasmda ko'rsatilgan.




Photoshop dasturida biror bir matn yozib olamiz:



Yaratilgan tasvirni kontur yo'nalishiga o'zgartirishlar kiritish uchun menyular bandining Oyna menyusidan Стиль Слои buyrug'i orqali Слои (qatlam) oynasi chiqadi:



Параметры наложения () buyrug'idan Стиль Слои orqali KONTUR bandiga murojaat qilinadi:



Контур elementlarini sozlash satri 11 xil shakllari mavjud:

- ◆ Линейный – bir uchi tugun shakli;
- ◆ Конус – konus shakli;
- ◆ Перевернутый конус – yon sirtli konus shakli;
- ◆ Глубокая выемка – chuqur joylashish shakli;
- ◆ Мелкая выемка – kichkina churuq shakli;
- ◆ По Гауссу –
- ◆ Полукруг – yarim doira shaklida joylashish shakli;
- ◆ Кольцо – aylana shaklli;
- ◆ Двойное кольцо – ikki tomonlama aylana shakli;
- ◆ Волнистый уклон – to'liqin yo'nalishida qiyshatirish shakli;
- ◆ Скругленные ступени – pog'onama-pog'ona chiqish shakli;
- ◆ Пила 1 – qirra ko'rinishidagi shakl;

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR:

1. Photoshop dasturining vazifalari nimadan iborat?
2. Photoshop dasturi tasvirlar ustida matnlar kiritish uchun nimalarga ahamiyat berish kerak?
3. Matnga rang tanlash qanday amalga oshiriladi?
4. Photoshop dasturining <<Tekst>> bandining funksiyalarini izohlang?
5. Photoshop dasturining kontur tushunchasi haqida ma`lumot bering?
6. Kontur elementlari nechta va ularni vazifalari qanday?

4- modul. 3DS MAX. 3 o'Ichamli texnologiyalar

Mavzu: № 11. Macromedia Flash muhitida interfaol animatsiya yaratish

ISHNING MAQSADI: Talabalarda Macromedia Flash muhitida interfaol animatsiya yaratishga doir tushunchalarni hosil qilish

NAZARIY QISM:

Natijada obyekt Movie Clip holatiga o'tadi. Obyektning ustiga sichqonchanning chap tugmasini 2 marotaba bosamiz. Timeline oynasiga o'tib doira joylashgan Layer 1 ni 10-kadrgacha uzaytiramiz (F5 tugmasi orqali). Doirani belgilab Modify-Convert to Symbol-Button-OK amalini bajaramiz. Properties oynasini faollashtirib <Frame Label> bo'limiga enter_btn so'zini kiritamiz. Keyin esa Timeline oynasiga o'tib Layer 2 ni hosil qilamiz. Ushbu qatlamda "tugma" so'zini oq rangda hosil qilamiz (so'z doiraning chap tomoniga joylashadi). So'zni belgilab Modify-Convert to Symbol-Movie Clip-OK amalini bajaramiz. 1-kadrni belgilab 10-kadrgacha uzaytiramiz, 10-kadrni belgilab F6 tugmasini bosamiz va "tugma" so'zining rangini qoraga (rang ixtiyoriy tanlanadi) o'zgartiramiz. 1-kadrni belgilab kontekstli menyuni chaqiramiz va Create Motion Tween ni tanlaymiz. Natijada "tugma" so'zining rangi avtomatik tarzda oqdan qoraga o'zgaradigan holatga o'tadi.

Timeline oynasiga o'tib Layer 3 ni hosil qilamiz. Ushbu qatlamda 3 ta bo'sh kadr yaratamiz(1-kadr belgilanib F5 tugmasi 2 marotaba bosiladi). 4-kadrga o'tib F6 tugmasi bosiladi va ishchi oynada "tugma" so'zining ostiga doiraga qadar chiziq chizamiz. Chiziqni belgilab olib


Modify-Convert to Symbol-Movie Clip-OK amalini bajaramiz. Ketma-ket 4-kadrdan boshlab 10-kadrgacha 7 ta kadr yaratamiz. 5-,7- va 9- kadrlardan chiziqni o'chirib tashlaymiz. Buning uchun kerakli kadrni belgilab Delete tugmasini bosamiz. Natijada chiziq "lippillovchi" holatga keladi. Ishchi oynaning bo'sh joyiga sichqonchanning chap tugmasini 2 marotaba bosamiz. Natijada Timeline oynasida faqat Layer 1 paydo bo'ladi. Ishchi sohadagi obyektni belgilab Actions oynasiga o'tamiz. Actions oynasining ishchi sohasiga quyidagi dastur kodini kiritamiz.

```

onClipEvent (enterFrame) {
if (go) {nextFrame();} else { prevFrame(); } }
onClipEvent (load) { var go; stop();
enter_btn.onRollOver = function() { go =
true; }; enter_btn.onRollOut = function() {go
= false; }; }

```

Hosil bo‘lgan animatsiyani Ctrl+Enter tugmalarini bosgan holda ko‘rishimiz mumkin.




Macromedia Flash dasturida audio fayllar bilan ishlash

Macromedia Flash dasturi mp3, wav, aif va au kengaytmali audio fayllarni qo‘llab quvvatlaydi. Audio fayllardan Flash dasturining Button va Movie Clip obyektlarida, animatsiya yaratish jarayonida hamda elektron ta‘lim resurslari va o‘yinlar ishlab chiqishda foydalanish mumkin. Elektron ta‘lim resurslarini yaratishda audio fayllardan foydalanish ta‘lim resurslariga bo‘lgan qiziqishlarni oshiradi. Foydalanuvchilarning etiborini jalb qiladi. Quyida audio fayllardan foydalanib bir nechta mashqlar bajaramiz.

Misol. Kadrlarga audio fayl joylashtirish.

Flash dasturini ishga tushiramiz. Kerakli bo‘lgan audio faylni import amali yordamida dasturga yuklaymiz. File menyusidan Import – Import to library... amalini bajaramiz. Hosil bo‘lgan Import to library muloqot oynasidan tegishli faylni belgilab Открыть tugmasini bosamiz. Natijada belgilangan fayl loyiha kutubxonasi (Library) oynasida hosil bo‘ladi. Faylni sichqoncha chap tugmasi orqali ushlab ishchi oynaga joylashtiramiz. Natijada joriy kadrlarda tebranishlarni ifodalovchi belgilar paydo bo‘ladi.




Hosil bo‘lgan loyihani Ctrl+Enter tugmalarini bosish orqali ko‘rish mumkin. Faylni kompyuter xotirasiga saqlaymiz Ctrl+S. Faylga nom berib (ovoz1), saqlanish joyini ko‘rsatamiz va сохранить tugmasini bosamiz. Faylni animatsiya


holatida saqlash uchun Fayl menyusi Export – Export movie buyrug‘ini yoki klaviaturadan Ctrl+Alt+Shift+S tugmalarini bosamiz. Faylga nom berib, saqlanish joyini ko‘rsatamiz. Fayl turiga Flash Movie (*.swf) ni tanlab сохранить tugmasini bosamiz. Fayl turi sifatiga *.gif, *.avi, *.mov, *.eps, *.jpg, ... turlarni tanlash mumkin. Yaratilgan faylni *.exe ko‘rinishida ham saqlash mumkin. Buning uchun Fayl menyusining Publish Settings... bo‘limi tanlanadi. Ochilgan muloqot oynasining Formats bo‘limiga kiramiz. Oynaning Windows Projector (*.exe) yozuvi oldidagi katakchasi belgi (bayroqcha) qo‘yamiz va Publish tugmasini bosamiz. Natijada fayl saqlangan papkada *.exe fayl kengaytmasidagi fayl paydo bo‘ladi. Bizning misolda esa ovozl.exe fayli yaratiladi.

Misol. Button obyektida audio fayllardan foydalanish.

Flash dasturiga zaruriy audio faylni yuklab olamiz va Button tugmasi yaratamiz. Button yaratish uchun birorta shakl chizib olamiz. Shaklni belgilab kontekstli menyuni chaqiramiz va Convert to Symbol amalini bajaramiz. Hosil bo‘lgan oynadan button bandini belgilaymiz, obyektga nom berib (tugma) OK tugmasini bosamiz. Button tayyorlash yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan. Bilamizki buttonda uchta kadr mavjud. Bu uchala kadrda ham ovozli fayllarni joylashtirish mumkin. Uchta kadrda ovozning ijro etilishi xolati turlicha bo‘ladi. Ya‘ni, Up kadriga faylni joylashtirsak audio fayl doimiy ijro etiladi. Agar Down kadriga joylashtirsak audio fayl tugma bosilganda ijro etiladi. Agarda audio faylni Over kadriga joylashtirsak, sichqoncha tugma ustiga borganda fayl ijro etiladi.



Hosil bo‘lgan loyihani Ctrl+Enter tugmalarini bosish orqali ko‘rish mumkin. Odatiy musiqa1 fayli ijro etiladi. Ok tugmasi ustiga sichqoncha belgisi chiqsa musiqa2 fayli va Ok tugmasi bosilsa musiqa3 fayli ijro etiladi.



Kompyuter qurilmalari haqida o‘yin tayyorlash.

Kompyuterning asosiy va qo'shimcha qurilmalarini topish bo'yicha o'yin tayyorlaymiz. Buning uchun bizga kompyuter qurilmalarining rasmlari va javob to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini bildiruvchi audio fayl kerak bo'ladi. Quyidagicha sahifani tayyorlaymiz:



Har bir qurilma rasmini button obyektiga aylantiramiz. Asosiy qurilmalar tugmalarining Down kadriga javob to'g'ri ekanligini anglatuvchi audio faylni, qo'shimcha tugmalarga esa javob noto'g'ri ekanligini anglatuvchi audio fayllarni joylashtirib chiqamiz.



Hosil bo'lgan loyihani Ctrl+Enter tugmalarini bosish orqali ko'rish mumkin. Agar asosiy qurilmalar tanlansa javob to'g'ri ekanligini bildiruvchi ovoz ijro etiladi. Agar qo'shimcha qurilmalar tanlansa javob noto'g'ri ekanligini bildiruvchi ovoz ijro etiladi.


Bu loyihani kompyuterning qo'shimcha qurilmalari uchun ham tayyorlash mumkin. Bunda faqat audio fayllarning joyi almashadi.

Flashning audio imkoniyatlaridan foydalanib bog'cha tarbiyalanuvchilari uchun ham turli loyihalar tayyorlash mumkin. Masalan mevalar, hayvonlar, ranglar va hokozalarning nomini aytadigan dasturlar yaratish mumkin. Biz quyida mevalar haqida loyiha tayyorlashni aytib o'tamiz.

Mevalar o'yini

Buning uchun bizga turli mevalarning tasvirlari hamda ularning nomini aytuvchi audio fayllar kerak bo'ladi. Barcha kerakli obyektlarni Flashning kutubxonasiga yuklab olamiz. Mevalarning tasvirlarini ishchi oynaga joylashtirib

ularni buttonga aylantiramiz. Buttonlarning Down kadriga tegishli audio fayllarni joylashtirib chiqamiz.



Hosil bo'lgan loyihani Ctrl+Enter tugmalarini bosish orqali ko'rish mumkin. Mevalar sichqoncha yordamida chertilsa, ularning nomi aytiladi. Bu loyihani chet tilini o'rgatishda ham qo'llash mumkin. Bunda mevalarning inglizcha nomini aytuvchi audio fayllar kerak bo'ladi.



Mavzu: № 12. 3DS-MAX dasturi boshqaruv elementlari bilan ishlash va turli ob'ektlar va jarayonlarni modellashtirish.

ISHNING MAQSADI: Talabalarda 3DS-MAX dasturi boshqaruv elementlari bilan ishlash va turli ob'ektlar va jarayonlarni modellashtirishga doir tushunchalarni hosil qilish

NAZARIY QISM:

3D Studio MAX uch o'lchovli modellashtirish va ko'rgazmali namoyish qilishning (vizualizasiya) yangicha bosqichi hisoblanadi. Bu dastur yordamida yuqori sifatli animasiya va uch o'lchovli modellarni professional darajada yaratish mumkin. Bunda siz ikki o'lchovli va uch o'lchovli ob'ektlarni qo'llashingiz mumkin. Bu dastur yordamida yuqori sifatli multiplikasion filmlar, ma'lum fanlar bo'yicha ko'rgazmali dasturlar tuzish mumkin.

3D Studio MAX da ob'ektlarni qurish maydoni (viewport)da yaratasiz. Buning uchun siz kerakli asbobni tanlab, kursorni qurish maydoniga keltirganingizda kursor shakli o'zgaradi.


Sichqoncha yordamida ob'yektning o'lchovlarini berasiz.

Yaratilgan ob'ektlarda kino effektlar yaratish uchun maxsus kamera va yoritgich asboblarni qo'llashingiz mumkin. Ob'yekt sirti uchun turli material tanlashingiz mumkin, ya'ni unga masalan shaffof yoki g'adir-budir sirt berishingiz mumkin bo'ladi. Qurish maydonida yaratilgan ob'ektlarni

harakatlantirib, kichik animasiya hosil qilish mumkin. Buning uchun {Animasiya} tugmasini bosib, kadrlarni o'zgartirgan holda ob'yektni harakatlantirish bilan oxirgi kadrda kelinadi. So'ngra animasiya panelidan {Play} tugmasi bosiladi. Natijada kadrlar almashinib, animasiya hosil bo'ladi. Bu yaratilgan animasiyani fayl ko'rinishida komp'yuter xotirasida saqlash va istalgan video tasvirlarni o'qiy oladigan dastur yordamida o'qishimiz mumkin. Fayl *.avi kengaytmali formatda saqlanadi. Foydalanuvchi interfeysi haqida ma'lumot

Birinchi navbatda siz 3 Ds Max dasturini ishga tushirganda uning asosiy ekraniga ko'zingiz tushishi mumkin. Agar siz yangi foydalanuvchi interfeysini bilmaydigan bo'lsangiz, unda dastlab qurilmalarini ko'rib chiqishingiz hamda ular bilan atroflicha tanishishingiz lozim.

Siz interfeysning dastur elementlardan tashkil topganligini, ya'ni, bir xil turdagi buyruqlarni guruhlanganligini ko'ring va ishonch hosil qiling. Masalan, o'z vaqtida ob'yektlar holatini sozlash va boshqarishni amalga oshirish tugmachasi jamlanmasi yordamida animasiyani amalga oshirish jarayonini boshqarish vositasi. Dastur ekranini shartli tarzda beshta asosiy elementlarga ajratish mumkin:



Main menu (Bosh menyu). Dastur ekranining yuqori qismda joylashgan va bu menyu 3


Ds Max dasturiga asosiy buyruqlar bilan murojaat qilishni ta'minlaydi. Barcha buyruqlar menyusi toifalar bo'yicha birlashtirilgan. Dastur ishga tushirilganidan so'ng 3Ds Max grafik redaktorning ishchi oynasi ochiladi. Bosh menu quyidagi meny bandlaridan iboratdir File (Файл), Edit (Правка)-tahrirlash, Tools (Сервис), Group, Views, Great (Создать)-yaratish, Modifiers, Animation, GrafEditor, Rendering (Визуализация)-vizuallash, Customize, MAXScript, Help(Помощь)-yordam.

□ Main Toolbar (Qurilmalar bosh paneli). Odatda u bosh menyu ostida joylashadi, ammo "suzuvchi" panel ko'rinishida aks ettirilishi yoki ekranning boshqa joyida joylashishi ham mumkin. Toifalar bo'yicha ajratilgan, to'plam bilan birga qurilmalar tarkibida joylashgan yoki yakka bo'lishi mumkin. Dastur amallari va qo'llanuvchi buyruqlar tezkor murojaatlar tugmachasidan tashkil topadi.

□ Viewports (proyeksiya ekrani) ekranning markazida joylashgan va uning katta qismini egallaydi. To‘rtta ajratilgan ko‘rinishda devor proyeksiyasi - yuqori Tor (yuqori), yonbosh Left (chap), to‘g‘risidan yo‘naltirilgan Front (ro‘parasidan) va kelajakda rivojlanishni ko‘zda tutadigan Perspective (istiqbolli).

□ Command Panel (buyruqlar paneli). Odatda ekran proyeksiyasining o‘ng tomonida joylashgan. Bu panel oltita to‘plamdan tashkil topgan va devor ob‘yektlarini modifikatsiyalash va tashkil etish bo‘yicha amallarning bajarilishini ta‘minlaydi. Har bir to‘plam ob‘yektlarni sozlovchi sivatkadan tashkil topgan.


□ Lower Interface Bar (Interfeysning quyi qatori) Dastur oynasining quyi qismida joylashgan. Turli maydon va tugmachalardan tashkil topgan, uning tarkibiga maydonning aks etish holati va ma‘lumotnoma (spravochnik) kiradi, shu bilan birga animatsiyalarni qayta tiklash va boshqaruv oynasi proyeksiyasi uchun tugmalar to‘plami ham mavjud.



3Ds Max dasturi oynasi

Dastlab, ishni 3Ds Max dasturini atroflicha o‘rganib chiqishdan boshlasak, avval dastur yordamida ob‘yekt ko‘rinishda asosiy maqbul ishlarni amalga oshirish: sodda primitivlarini tuzish, ob‘yektlarni belgilash, ularning bir-biriga o‘zaro tekislash, proyeksiya oynasidagi aks etish holati va joylashishi, ularni o‘zgartirish, ma‘lum masshtabga keltirish, o‘zgartirish va aylantirish mumkin.

Bu oddiy amallar 3Ds Max dasturining keyingi asosiy faoliyatiga xizmat qiladi. Haqiqiy hayotda juda ko‘p ob‘yektlar o‘zida oddiy uch o‘lchovli qo‘llanmalar amallarini o‘zida aks ettirgan. Masalan, stol parallelepipeddan tashkil topgan, stol lampasi esa – silindr va yarim shakldan, avtomobil balloni esa – boshqa yuqoridagilarga o‘xshamagan shakllardan tashkil topgan. Katta va kichik darajadagi barcha ko‘rgazmalarda amalda uch o‘lchovli virtual joylashuv shartlari qo‘llanilib kelinmoqda. 3 Ds Max dasturi standart ob‘yektlari o‘zida “qurilish materiallar”ini tashkil etgani uchun ular yordamida turli ko‘rinishlar tashkil etishga ko‘maklashadi.



3D MAX dasturida ob`ektlar tushunchalari

Geometrik ob`ektlar. Geometrik ob`ektlarni ko`rishda juda kuchli va keng tarqalgan 3D paket Discreet kompaniyasi 3D Studio Max dasturini tanlab uning misolida ob`ektlarning asosiy turlari va modellashtirish texnologiyasini ko`rib o`tamiz. Bu dastur yordamida geometrik ob`ektlarning quyidagi turlari qurilishi mumkin.


Splayn chiziqlar (Spline Curves) - boshqa sirt yoki shakllarni ko`rishda ishlatiladigan va shu tartibda qurilgan (Beze yoki Nurbs) chiziqlar. Ularni harakat troyektoriyalarini ifodalash uchun ham ishlatish mumkin.




Chiziq, muloqot chiziqlari.

Masalan, Beze chiziqlari uchun, xususiy holda, boshlang`ich shakl va chiziqlar to`plami aniqlangan bo`lib (masalan, tekst, aylana, ellips) ular keyinchalik aniq shakllar ko`rishda ishlatilishi mumkin.

Poligonal ob`ektlar (polugonal objects) - bular o`zgarib turuvchi parametrlar bilan ifodalanuvchi (masalan uzunlik, radius) poligonal boshlang`ich shakllar (polygonal primitives) yoki polugonal turlardir (polugonal meshes). Poligonal turlar juft-jufti bilan uchlarni tutashtiruvchi qirralar sifatida aniqlanadi. Boshlang`ich shakllar (primitiv) ni ishlatish dizaynerga (dasturga ham) ob`ekt shaklini o`zgartirishni ancha osonlashtiradi. Shunda 3D - boshlang`ich (primitiv) shakllarni (masalan sfera yoki silindr) namoyish etishda, ularning shakli qirralar yordamida berilgan aniqlikda almashtiriladi. Poligonal d ob`ekt sirti tekis yoqlardan iborat bo`lgani uchun, ularga namoyish silliqligini berishda turli silliqlash algoritmlari foydalaniladi. Bu texnologiya asosan 3D o`yinlarni va virtual borliqni yaratishda keng qo`llanadi.



Poligonal ob`ektlar.




Beze sirti.

Beze sirlari (Bezier patches) - bu Beze cho`qqilarining joylashishi bilan silliq sirlardir. Bu cho`qqilar sirtga urinma vektorlar (tangent) uchlarida joylashgan qo`shimcha boshqaruvchi nuqtalar (control points) yordamida sirtning egriligini aniqlaydi.

Bu sirtlar hisoblash tizimi uchun ma`lum qiyinchiliklarni tug`dirishga qaramay, ular yordamida murakkab egri chiziqli ob`ektlarni modellashtirish mumkin.

NURBS sirtlar - bir jinsli bo`lmagan egri chiziqli sirtlarni modellashtirishda ishlatiladigan eng universal va samarali vositadir. Bunday sirtlar maxsus to`rt o`lchovli bir jinsli fazoda ifodalanadi. Unda har bir boshqaruvchi cho`qqi, uchta X, Y, Z koordinatadan tashqari qo`shimcha vazn (weight) tavsifiga ham ega. Cho`qqining o`rni va nisbiy vaznini o`zgartirish orqali ob`ekt shaklini aniq boshqarish mumkin.



NURBS sirti.

Murakkab ob`ektlar (compound objects) - oldindan tayyorlab qo`yilgan ikki yoki undan ko`p shakllardan tuziladi. Qanday jism qurilishiga qarab oldindan tuzilgan shakllar chiziq yoki sirt bo`lishi mumkin.

Dinamik ob`ektlar (dynamic objects) - ularga qo`yilgan tashqi kuchlar ta`sirida harakatga keluvchi ob`ektlar: prujina va amortizatorlar. Ular ob`ekt

harakati dinamikasini modellashtirishda ishlatiladi. Boshqa dasturlarda geometrik ob`ektlarni qurish va muharrirlashning shunga o`xshash yoki ulardan farq qiluvchi usullari qo`llaniladi.

LABORATORIYA MASHG'ULOTLARI

LABORATORIYA MASHG'ULOT № 1

Mavzu: CorelDraw dasturi bilan tanishish.

ISHNING MAQSADI: Kompyuter grafikasining dasturiy ta`minoti haqida va CorelDraw grafik muhitda ishlashda ko`nikma va malakalar hosil qilish.

TOPSHIRIQ:

1. Mashina grafikasi nima?
2. Kompyuter grafikasi fanining vazifalari?
3. Kompyuter grafikasining boshqa fanlar bilan bog`liqligi?
4. Tasvirlashning grafik tili nima?
5. Grafika nechta elementga bo`linadi?
6. Grafik qiyofa nima?
7. CorelDraw dasturini zamonaviy SHK larda sozlash jarayoni qanday?
8. CorelDraw grafik muhitini interfiysini ko`rsating?

LABORATORIYA MASHG'ULOT № 2

Mavzu: CorelDrawda to`g`ri va egri chiziqlar chizish.

ISHNING MAQSADI: CorelDraw grafik muhitini o`rganib, yangi oynada instrumentlar qatorini o`rganish.

TOPSHIRIQ:

1. Kompyuter grafikasi necha turga bo`linadi?
2. Kompyuter grafikasi turlarining bir-biridan farqi nimada?
3. Kompyuter grafikasining qanday turkumlari mavjud?
4. Kompyuter grafikasini qaysi sohalarda qo`llash mumkin?
5. CorelDraw dasturini boshqaruv panelida ishlash.

6. Instrumentlar qatoridan foydalanib to'g'ri va egri chiziq hosil qilish.

LABORATORIYA MASHG'ULOT № 3

Mavzu: CorelDrawda yopiq konturlar yaratish.

ISHNING MAQSADI: CorelDraw dasturining chap tomonida joylashgan uskunalar panelidan foydalanish va yopiq konturlar bilan ishlashga o'rgatish.

TOPSHIRIQ: 1. CorelDRAW dasturida

kontur nima?

2. COREL DRAW dasturida kontur ranglarini taqdim qiling?

3. COREL DRAW dasturida grafik ko'rinishlarni loyihalash

4. CorelDraw dasturida bosh paneli buyruqlari oyna yuzida hosil qiling?

5. COREL DRAW dasturida tasvirlar ustida ishlash.

6. Yopiq konturlar ichida geometrik figuralar yarating?

LABORATORIYA MASHG'ULOT № 4

Mavzu: CorelDrawda Pick (ko'rsatgich) uskunasi bilan ishlash.

ISHNING MAQSADI: Xossalar asboblari qatoridagi (Rgoreggu Var) maydonlar va tugmalar to'plami, ishlatilayotgan asbob yoki belgilangan ob'jekt turi haqida ko'nik va malakaga ega bo'lish.

TOPSHIRIQ:

1. COREL DRAW dasturida qanday ishlar bajariladi.

2. Fayl bo'limiga nimalar kiradi. 3. Dastur asboblari paneli haqida ma'lumot bering.

4. Ranglar palitrasi qayerda joylashgan va qanday ishlatiladi.

5. Holat satri bandining vazifasi nima.

6. Svoystva (Property Bar) vositalari satrini izohlang.

7. CorelDraw dasturida DOKERni vazifasi.

8. Doker tipidagi panel buyrug'larini izohlang.

LABORATORIYA MASHG'ULOT № 5

Mavzu: CorelDrawda sodda atroflama chiziqlar va to'ldirishlar.

ISHNING MAQSADI: CorelDraw dasturida hujjat oynasida bir qancha amallarni bajarishni o'rganish.

TOPSHIRIQ:

1. CorelDraw dasturida yangi oyna qanday yuklanadi.

2. CorelDraw dasturida hujjat oynasidan foydalanish jarayoni.

3. CorelDrawda chizish buyrug'i qanday amalga oshiriladi.
4. Dasturda kvadrat chizish uchun qaysi standart tugma bosiladi.
5. To'g'ri to'rtburchak asbobi yordamida nimalar chizish mumkin.
6. Yaratilgan hujjatlarni xotiraga qanday saqlash jarayoni haqida ma'lumot bering.

LABORATORIYA MASHG'ULOT № 6

Mavzu: CorelDrawda konturlarni siljitish.

ISHNING MAQSADI: Talabalarda konturlarni siljitish bilan ishlashga o'rgatish.

TOPSHIRIQ:

1. CorelDraw dasturining instrumentlar bandida joylashgan konturlari haqida ma'lumot bering.
2. Geometrik figuralar hosil qiling va shu figuralarni ПЕРЕТИКАНИЕ instrumenti orqali birlashtiring.
3. CorelDraw dasturida yaratilgan ob'ektlarni belgilang, ko'rsatgich instrumenti yordamida ko'rinishini o'zgartiring.
4. Yaratilgan ob'yektlar konturini rang konturi orqali ranglang.
5. Авторисование instrumenti yordamida turli xil ko'rinishdagi geometrik figuralar yarating.
6. CorelDraw dasturida bajarilgan amallarni kompyuter xotirasiga saqlang.

LABORATORIYA MASHG'ULOT № 7

Mavzu: CorelDrawda ob'ektni biror burchakka burish amali

ISHNING MAQSADI: Talabalarda ob'ektni biror burchakka burish amali bilan ishlashga o'rgatish.

TOPSHIRIQ:

1. CorelDraw grafik muharririda oddiy forma (простые формы) instrumenti foydalanib, turli xil ob'ektlar yarating.
2. Yaratilgan ob'yektlarni ko'rsatgich instrumenti yordamida gorizantal va vertikal holatlarga o'tkazilsin.
3. CorelDraw dasturida yaratilgan ob'ektlarga shakli matn yaratish (Artistik text) instrumentidan foydalanib matnlar yarating.
4. Vertikal uskunalar panelida joylashgan yulduz va ko'pburchak shakllar chizish yordamida tasvirlar yarating.
5. CorelDraw grafik muharririning elektron qalam (свободная рука) instrumenti yordamida ob'yektlarga ishlov bering.

LABORATORIYA MASHG‘ULOT № 8

Mavzu: CorelDrawda polygon uskunasi bilan ishlash.

ISHNING MAQSADI: Talabalarda Polygon instrumenti bilan ishlashga o‘rgatish.

TOPSHIRIQ:

1. CorelDraw dasturi polygon instrumenti haqida ma`lumot bering.
2. CorelDraw dasturi polygon oynasini yuklang.
3. CorelDraw dasturi turli xildagi poylgon (ko‘pburchak)lar yarating.
4. CorelDraw dasturi polygon instrumenti yordamida ko‘pburchak uchlari ko‘paytiring.
5. Poylgon instrumenti yordamida yaratilgan ko‘pburchaklarni gradientlar va rang to‘ldirish sohasini qisman to‘ldirish instrumentlarini birgalikda ishlatish.
6. Poylgon instrumenti yordamida yaratilgan obyektlarni ustma-ust hosil qiling.

LABORATORIYA MASHG‘ULOT № 9

Mavzu: CorelDrawda qatlamlar bilan ishlash.

ISHNING MAQSADI: Talabalarda ob’ektlarni o‘ziga nisbatan simmetrik akslantirish bilan ishlashga o‘rgatish.

TOPSHIRIQLAR:

1. Corel draw dasturini ishga tushiring.
2. Corel draw dasturida yaratilgan obyektlarni vektorli grafikdan rastri grafikaga aylantiring
3. Yaratilgan tasvirni o‘ziga nisbatan akslantiring.
4. Matnni formatlash (Format Text) bo‘limining vazifasi.
5. Shrift garniturasini deb nimaga aytiladi.
6. Coreldrawda matnlarga intervallarni qo‘yish imkoniyatini izohlang.
7. CorelDrawda qatlamlar qanday hosil qilinadi.

LABORATORIYA MASHG‘ULOT № 10

Mavzu: CorelDrawda Beze uskunasi bilan ishlash.

ISHNING MAQSADI: Talabalarda beze uskunasi bilan ishlashga o‘rgatish.

TOPSHIRIQ:

1. CorelDraw dasturida obyektlar yaratilib, Beze uskunasiidan foydalanib obyektlarni o'zgartiring.
2. CorelDraw dasturida vertikal instrumentlar bandidan maxsus effektlardan foydalanib turli xil obyektlar yarating.
3. CorelDraw dasturida polygon (ko'pburchaklar) uchlarini o'zgartirish.

LABORATORIYA MASHG'ULOT № 11

Mavzu: CorelDrawda ob'ektlarni import va eksport qilish.

ISHNING MAQSADI: Talabalarda CorelDrawda ob'ektlarni import va eksport qilishni o'rgatish.

TOPSHIRIQ:

1. CorelDraw dasturini ishga tushiring.
2. CorelDraw dasturining imkoniyatlari haqida ma'lumot bering.
3. CorelDraw dasturining interfeysi haqida ma'lumot bering.
4. CorelDraw dasturining menyular satri haqida ma'lumot bering.
5. CorelDraw dasturining xossalar paneli haqida ma'lumot bering.
6. CorelDraw dasturining uskunalar paneli haqida ma'lumot bering.
7. CorelDraw dasturida yangi fayl yarating.
8. CorelDraw dasturida oldin yaratilgan faylni oching.
9. CorelDraw dasturida yaratilgan faylni saqlang.
10. CorelDraw dasturida import va export amalini bajaring.
11. CorelDraw dasturida yaratilgan faylni jpg, gif va png fayl kengaytmalarida saqlang.
12. CorelDraw dasturida chop qilish amalini bajaring.
13. CorelDraw dasturining chiziq chizuvchi uskunalari haqida ma'lumot bering.
14. Chiziq chizuvchi uskunalar yordamida turli shakllar yarating.
15. Yaratilgan tasvirlarni xotiraga saqlang.

LABORATORIYA MASHG'ULOT № 12

Mavzu: CorelDraw da matn va konturlar bilan ishlash.

ISHNING MAQSADI: Talabalarda CorelDrawda matn va konturlar bilan ishlashni o'rgatish.

TOPSHIRIQ:

1. Corel draw dasturini ishga tushiring.
2. Matnni formatlash (Format Text) bo'limining vazifasi.
3. Shrift garniturasini deb nimaga aytiladi.

4. Coreldrawda matnlarga intervallarni qo'yish imkoniyatini izohlang.

LABORATORIYA MASHG'ULOT № 13

Mavzu: CorelDraw da Shape (figura) uskunasi bilan ishlash.

ISHNING MAQSADI: Talabalarda CorelDrawda Shape (figura) uskunasi bilan ishlashni o'rgatish.

TOPSHIRIQ:

1. CorelDraw dasturida



-

dasturida



-

2. CorelDraw dasturida



-

dasturida



-

3. CorelDraw dasturida



- ...

dasturida

4. CorelDraw dasturida



dasturida

5. CorelDraw dasturida



-

dasturida



-

6. CorelDraw dasturida - ...



- ...

7. CorelDraw dasturida - ...

8. CorelDraw dasturida

9. CorelDraw dasturida

10. CorelDraw dasturida

11. CorelDraw dasturining ishchi sahifasi fondini qaysi menyu buyruqlar orqali amalga oshiriladi?

CorelDraw dasturida yaratilgan obyektlarga gradient hosil qilish qanday instrument orqali bajariladi

LABORATORIYA MASHG'ULOT № 14

Mavzu: CorelDrawda ob'ektlarni o'ziga nisbatan simmetrik akslantirish.

ISHNING MAQSADI: Talabalarda CorelDrawda ob'ektlarni o'ziga nisbatan simmetrik akslantirish bilan ishlashni o'rgatish.

TOPSHIRIQ:

1. Coreldraw dasturini ishga tushiring.
2. Coreldraw dasturida yaratilgan obyektlarni vektorli grafikdan rastri grafikaga aylantiring
3. Yaratilgan tasvirni o'ziga nisbatan akslantiring.
4. Matnni formatlash (Format Text) bo'limining vazifasi.
5. Shrift garniturasini deb nimaga aytiladi.
6. Coreldrawda matnlarga intervallarni qo'yish imkoniyatini izohlang.
7. Sarlovha ((Artistic Text) matnni abzats matnga (Paragraph Text) o'tkazish haqida ma'lumot bering.

LABORATORIYA MASHG'ULOT № 15

Mavzu: CorelDrawda maxsus effektlar yaratish.

ISHNING MAQSADI: Talabalarda CorelDrawda maxsus effektlar yaratish bilan ishlashni o'rgatish.

TOPSHIRIQ:

1. CorelDraw dasturining uskunalari paneli haqida ma'lumot bering.
2. CorelDraw dasturida yangi fayl yarating.
3. CorelDraw dasturida oldin yaratilgan faylni oching.
4. CorelDraw dasturida yaratilgan faylni saqlang.
5. CorelDraw dasturida yaratilgan faylni jpg, gif va png fayl kengaytmalarida saqlang.
6. CorelDraw dasturida chop qilish amalini bajaring.
7. CorelDraw dasturining chiziq chizuvchi uskunalari haqida ma'lumot bering.
8. Chiziq chizuvchi uskunalari yordamida turli shakllar yarating.
9. Yaratilgan tasvirlarni xotiraga saqlang.

LABORATORIYA MASHG'ULOT № 16, 17

Mavzu: Adobe Photoshop dasturi bilan tanishish. Adobe Photoshop dasturining ishchi muhiti bilan tanishish.

ISHNING MAQSADI: Adobe Photoshop dasturi bilan ishlashni o'rgatish.

Nazariy qism

«Adobe Photoshop» Windows muhitida ishlovchi Macintosh va IBM PC kompyuterlari uchun mo'ljallangan elektron ko'rinishdagi foto tasvirlarni

taxrirllovchi programmadir. «Adobe Photoshop» programmasi Adobe System, Inc kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilgan bo‘lib, ishlatishdagi alohida qulayliklari bilan mashxur.

«Adobe Photoshop» tasvir taxrirlagichi yordamida fotosuratlariga qo‘shimchalar kiritish, fotosuratdagi dog‘larni o‘chirish va eski rasmlarni qayta ishlash va tiklash, rasmlarga matn kiritish, qo‘shimcha maxsus effektlar bilan boyitish, bir fotosuratdagi elementlarni ikkinchi fotosuratga olib o‘tish, suratdagi ranglarni o‘zgartirish, almashtirish mumkin. «Adobe Photoshop» imkoniyatlari keng qamrovli bo‘lib, u gazeta va jurnallarni turli-tuman rasmlar bilan boyitishda juda katta qulayliklar yaratadi.

«Adobe Photoshop» ayniqsa jurlanistlarning, rassomlarning ijodiy imkoniyatlarini to‘la amalga oshirishlarida yordam beradi. Jurnalistika va bevosita matbuot yoki nashriyot sohasiga aloqador bo‘lgan shaxslarning mazkur programma bilan ishlashni bilishi ular uchun qo‘shimcha imkoniyatlarni yaratib beradi.

«Adobe Photoshop» tasvir tahrirlagichi juda murakkab programmadir. Foydalanuvchilar uning asosiy imkoniyatlaridagina foydalanadiladilar xolos.

Photoshop CS dasturning asosiy ish oynasi va tushunchalari.

Bosh oynaning elementlari.

Demak, Adobe Photoshop CS dasturini o‘rnatdingiz va ruyxatdan samarali o‘tib, birinchi marta uni ishga tushirdingiz. Ekranda dasturning asosiy oynasi hosil bo‘ladi. Oynaning markazida asosiy ish bajariladigan hujjat o‘rni mavjud bo‘lib, unda grafik fayl ishga tushiriladi.

Ushbu interfeys Adobe ning barcha dasturlari uchun standart hisoblanadi va Photoshop da interfeysdan foydalangandan so‘ng esa, shu firmaning boshqa dasturlarini o‘rganishda olingan ko‘nikmalarni qo‘llash mumkin.

Photoshop dasturidan birinchi marta foydalanayotgan bo‘lsangiz, boshqa dasturlar bilan ham ishlay olmaysiz va natijada uni o‘rganish mushkul ko‘rinadi. Aslida hecham qiyin emas – balki bir necha vaqt o‘tgandan so‘ng Photoshop muhitida ishlashni o‘rganib olasiz.

Dasturning asosiy oyna tarkibini ko‘rib o‘tamiz.


➤ **Menyu satri.** Barcha ilovalar uchun standart element hisoblanadi. Unda butun dunyo bo‘ylab qabul qilingan standartlar mavjud bo‘lib, Photoshop ham bundan mustasno emas, balki u ham File (fayl) bilan boshlanib Help (yordamchi) da tugaydi.

➤ **Uskunalar paneli.** Dasturning ushbu elementi boshqa barcha buyruqlarga nisbatan ko‘pincha qo‘llaniladi. Unda uskunalar joylashgan bo‘lib, barcha asosiy amallar ular yordamida bajariladi. Ko‘pchilik uskunalarda strelka belgisi ko‘rsatilganligiga e‘tibor bering. Bu esa o‘z navbatida, uning tagida qo‘shimcha uskunalar paneli joylashganligini bildiradi. Uni ochish uchun uskuna tugmasini sichqoncha bilan belgilab ma‘lum vaqt bosib turish lozim. Ushbu paneldan biron uskuna tugmasi belgilanganda, asosiy panelda hosil bo‘ladi. Bu usul panel hajmini qisqartirish maqsadida bajariladi.

➤ **Parametrlar paneli.** Bu yerda barcha o'zgartirilishi mumkin bo'lgan uskunalarning parametrlari ko'rsatiladi.

➤ **Panellar.** Kichik hajmdagi oyna bo'lib, unda boshqaruv elementlari guruhlangan va ular maxsus funksiyalarni bajaradi.

➤ **O'rnatmalar.** O'zgarish holda ular uch ko'rinishda bo'ladi: Browser, Tool Presets, Layer Comps. Ular ko'pincha qo'llaniladigan funksiyalarni yuklash uchun mo'ljallangan. Lekin o'rnatma sifatida xohlagan panelni qo'llash mumkin, buning uchun panelni o'rnatmalar ro'yxatiga ko'chirishning o'zi kifoya.



Asosiy tushunchalar va iboralar.

➤ **Piksel** – rastrli (rangli chizilgan) ikki o'lchovli grafikada tasvirni o'lchash birligi. Tasvir tarkibidagi nuqtalar bo'lib, nuqtalar birin-ketin o'rnatilib butun tasvirni hosil qiladi.

➤ **Ruxsat etilgan qiymat**– bir birlik uzunlikda nuqtalar soni. Tasvirning asosiy parametrlaridan biri bo'lib, qanchalik qiymat ko'rsatgichi yuqori bo'lsa, shunchalik tasvir sifati va fayl hajmi oshadi. Odatda, bir santimetrda 72 piksel qiymati o'rtacha hisoblanadi, ammo haqiqatda sifatli natijaga erishish uchun, masalan poligrafiyada, qiymat sezilarli daraja yuqori bo'lishi lozim.

➤ **Ranglar modellari.** RGB modeli. Rang modeli piksel rangi bilan aniqlanadi. Faqat RGB modelini ko'rib o'tamiz – chunki, hozirgi kunda eng ommabop va qulay bo'lib, asosan rangni monitorga uzatish uchun mo'ljallangan. Agar uni soddaroq izohlasak, har bir piksel uch xil rangdan tarkib topgan: Red, Green, Blue. Barcha qo'llaniladigan ranglar majmuasi har bir kanal yorqinlik darajasiga ega bo'lganligi sabab hosil qilinadi. Ular 0 dan 255.0 gacha mavjud bo'lib– eng minimal yorqinlik Ushbu rangning pikselda bo'lmasligi bilan izohlanadi, eng maksimali - 255. Ya'ni R0G0B0 ko'rinishda izohlangan piksel qora rangni, R255G255B255 – esa oppoq rangni bildiradi.

➤ **Qavat.** Photoshop dasturi turli qavatlar bilan ishlashga imkon beradi. Kompyuter grafikasida qavat tushunchasi nimani anglatishini bilsangiz, u holda bir nechta yupqa shisha qoplamalarida chizilgan turli ob'ektlarni ko'z oldingizga

keltiring. Agar ularni bir-biri ustiga joylashtirsak yangi tasvir hosil qilinadi. Ko'p qavatli rasm ham xuddi shu usulda yaratiladi. Qavatlar yuztagacha bo'lishi mumkin, ammo odatda buncha ko'p qo'llanilmaydi. Biroq, odatda 10-15 qavatdan iborat tasvir hosil qilinadi.

➤ **Ajratish.** Ajratilgan qism bilan ishlash– bu Photoshop da ishlashning muhim amali bo'lib, uning yordamida ko'p imkoniyatlar yaratiladi. Ajratilgan qism – bu muharrirlashtiriluvchi sohani foydalanuvchi ko'rsatadi. Ajratilgan qism «harakatlanuvchi chumolilar» ko'rinishda ko'rsatiladi, ya'ni harakatlanuvchi uzuq-uzuq chiziqlar bilan belgilanadi.

➤ **Qo'shimcha kanal,** yoki alfa-kanal, ranglar kanaliga bog'liq bo'lmasdan, haqiqiy ajratish shaklidir (aniqrog'i, uni ko'rsatish va saqlash), unda ajratilgan piksellar oq rangda, qora rangda esa – ajratilmagan, qo'l rangda – qisman ajratilgan piksellar ko'rsatiladi. Ammo dastur darajasida barcha belgilanishlar alfa –kanal hisoblanadi.

Piksellarni o'rnatish rejimi. Barcha uskuna bilan ishlash amali – bu mavjud piksellar ustiga yangilarini o'rnatish funksiyasini bildiradi. Oddiy rejimda mavjud piksel yangisi bilan o'zgartiriladi. Biroq boshqa variantlar ham mavjud bo'lishi mumkin.

TOPSHIRIQLAR:

1. Qanday kompyuter grafikasi turlarini bilasiz?
2. Adobe Photoshop dasturini kompyuterga o'rnatish?
3. Adobe Photoshop dasturini ishga tushiring?
4. Photoshop dasturi va uning imkoniyatlarini o'rganing.
5. Photoshop dasturi interfeysi, uskunalar majmuasini yoriting.
6. Photoshop dasturining sahifa parametri bandini tushuntiring.
7. Photoshop dasturining asosiy menyular bandining vazifasini izohlang.
8. Photoshop dasturi ishchi oynasining chap sohasida qanday darchalar mavjud.
9. Photoshop dasturida rang modelini izohlang.
10. Photoshop dasturi yordamida elementar chizmalar tayyorlang.



































































LABORATORIYA MASHG'ULOT № 18, 19

Mavzu: Adobe Photoshop dasturining xossalar paneli, ranglar palitrasi, holat qatori. Hujjatlarni ochish va hujjat oynasini boshqarish. Tasvir masshtabi. Chizg'ichlar va uladan foydalanish

Ishning maqsadi: Talabalarga Adobe Photoshop dasturining xossalar paneli, ranglar palitrasi, holat qatori bilan ishlashni o'rgatish.

Adobe Photoshop dasturining eng asosiy qismlaridan biri bu instrumentlar panelidir. Deyarli barcha ishlar shu panelda mavjud instrumentlar orqali amalga oshiriladi. Odatda, bu panel dastur ishga tushgandan so'ng ekranning chap tomonida hosil bo'ladi. Quyida Adobe Photoshop dasturini o'rganayotgan

foydalanuvchilar uchun instrumentlar panelining ingliz va rus tillaridagi ko'rinishlarini keltirib o'tilgan.

<ul style="list-style-type: none"> ■  Инструмент "Прямоугольная область" M ○  Инструмент "Овальная область" M ==>  Инструмент "Область (горизонтальная строка)" ⋮  Инструмент "Область (вертикальная строка)" 	<ul style="list-style-type: none"> ■  Rectangular Marquee Tool M ○  Elliptical Marquee Tool M ==>  Single Row Marquee Tool ⋮  Single Column Marquee Tool
<ul style="list-style-type: none">  Инструмент "Лассо" L ■  Инструмент "Прямолинейное лассо" L  Инструмент "Магнитное лассо" L 	<ul style="list-style-type: none">  Lasso Tool L ■  Polygonal Lasso Tool L  Magnetic Lasso Tool L
<ul style="list-style-type: none"> ■  Инструмент "Рамка" C  Инструмент «Кадрирование перспективы» C  Инструмент "Раскройка" C  Инструмент "Выделение фрагмента" C 	<ul style="list-style-type: none"> ■  Crop Tool C  Perspective Crop Tool C  Slice Tool C  Slice Select Tool C
<ul style="list-style-type: none"> ■  Инструмент "Точечная восстанавливающая кисть" J  Инструмент "Восстанавливающая кисть" J  Заплата J  Инструмент «Перемещение с учетом содержимого» J  Инструмент "Красные глаза" J 	<ul style="list-style-type: none"> ■  Spot Healing Brush Tool J  Healing Brush Tool J  Patch Tool J  Content-Aware Move Tool J  Red Eye Tool J
<ul style="list-style-type: none"> ■  Инструмент "Штамп" S  Инструмент "Узорный штамп" S 	<ul style="list-style-type: none"> ■  Clone Stamp Tool S  Pattern Stamp Tool S
<ul style="list-style-type: none"> ■  Инструмент "Ластик" E  Инструмент "Фоновый ластик" E  Инструмент "Волшебный ластик" E 	<ul style="list-style-type: none"> ■  Eraser Tool E  Background Eraser Tool E  Magic Eraser Tool E
<ul style="list-style-type: none"> ■  Инструмент "Размытие"  Инструмент "Резкость"  Инструмент "Палец" 	<ul style="list-style-type: none"> ■  Blur Tool  Sharpen Tool  Smudge Tool
<ul style="list-style-type: none"> ■  Инструмент "Перо" P  Инструмент "Свободное перо" P  Инструмент "Перо+" (добавить опорную точку)  Инструмент "Перо-" (удалить опорную точку)  Инструмент "Угол" 	<ul style="list-style-type: none"> ■  Pen Tool P  Freeform Pen Tool P  Add Anchor Point Tool  Delete Anchor Point Tool  Convert Point Tool
<ul style="list-style-type: none"> ■  Инструмент "Выделение контура" A  Инструмент "Стрелка" A 	<ul style="list-style-type: none"> ■  Path Selection Tool A  Direct Selection Tool A
<ul style="list-style-type: none"> ■  Инструмент "Рука" H  Инструмент "Поворот вида" R 	<ul style="list-style-type: none"> ■  Hand Tool H  Rotate View Tool R

■ Инструмент "Перемещение"	V	■ Move Tool	V
■ Инструмент "Быстрое выделение"	W	■ Quick Selection Tool	W
■ Инструмент "Волшебная палочка"	W	■ Magic Wand Tool	W
■ Инструмент "Пипетка"	I	■ Eyedropper Tool	I
■ Инструмент «Пипетка 3D-материала»	I	■ 3D Material Eyedropper Tool	I
■ Инструмент "Цветовой эталон"	I	■ Color Sampler Tool	I
■ Инструмент "Линейка"	I	■ Ruler Tool	I
■ Инструмент "Комментарий"	I	■ Note Tool	I
■ Инструмент "Счетчик"	I	■ Count Tool	I
■ Инструмент "Кисть"	B	■ Brush Tool	B
■ Инструмент "Карандаш"	B	■ Pencil Tool	B
■ Инструмент "Замена цвета"	B	■ Color Replacement Tool	B
■ Инструмент «Микс-кисть»	B	■ Mixer Brush Tool	B
■ Инструмент "Архивная кисть"	Y	■ History Brush Tool	Y
■ Инструмент "Архивная художественная кисть"	Y	■ Art History Brush Tool	Y
■ Инструмент "Градиент"	G	■ Gradient Tool	G
■ Инструмент "Заливка"	G	■ Paint Bucket Tool	G
■ Инструмент «Выбор 3D-материала»	G	■ 3D Material Drop Tool	G
■ Инструмент "Осветлитель"	O	■ Dodge Tool	O
■ Инструмент "Затемнитель"	O	■ Burn Tool	O
■ Инструмент "Губка"	O	■ Sponge Tool	O
■ Инструмент "Горизонтальный текст"	T	■ Horizontal Type Tool	T
■ Инструмент "Вертикальный текст"	T	■ Vertical Type Tool	T
■ Инструмент "Горизонтальный текст-маска"	T	■ Horizontal Type Mask Tool	T
■ Инструмент "Вертикальный текст-маска"	T	■ Vertical Type Mask Tool	T
■ Инструмент "Прямоугольник"	U	■ Rectangle Tool	U
■ Инструмент "Прямоугольник со скругленными углами"	U	■ Rounded Rectangle Tool	U
■ Инструмент "Эллипс"	U	■ Ellipse Tool	U
■ Инструмент "Многоугольник"	U	■ Polygon Tool	U
■ Инструмент "Линия"	U	■ Line Tool	U
■ Инструмент "Произвольная фигура"	U	■ Custom Shape Tool	U
■ Инструмент "Масштаб"	Z	■ Zoom Tool	Z

LABORATORIYA MASHG'ULOT № 20

Mavzu: Adobe Photoshop dasturida fayllar, ranglar va qatlamlar bilan ishlash.

Ishning maqsadi: Talabalarga Adobe Photoshop dasturida fayllar, ranglar va qatlamlar bilan ishlashni o'rgatish.

Nazariy qism

«Adobe Photoshop» programmasi asboblari panelida ranglar bilan ishlash uchun toʻrtta asbob ajratilgan.


◆ **Основной цвет.** Ushbu asbobda qanday rang koʻrsatilgan boʻlsa "Ковш", "Линия", "Карандаш", "Кист", "Аэрограф" va shuningdek, Alt tugmasi bilan birgalikda qoʻllanganda "Палете" asboblari uchun oʻsha rang asosiy hisoblanadi. **Основной цвет** asbobidagi rang "Пипетка" ushbu asbob ustida kursorni ikki marta ketma-ket bosish orqali oʻzgartiriladi.

◆ **Цвет фона** Koʻrsatilgan rang "Ластик" asbobi bilan ishlaganda qoʻllaniladi. **Цвет фона** asbobidagi rang **Основной цвет** asbobida rangni oʻzgartirish uchun qanday amal bajarilgan boʻlsa bunda ham quddi oʻsha amalga rioya qilish lozim. Yoki " Пипетка " asbobi bilan Alt tugmasi birgalikda bosish orqali almashtirish mumkin.

◆ **Переключение цветов.** Kursorni ushbu tugmacha ustida bir marta bosish orqali asosiy rang va fon ranggi oʻrin almashadi.

◆ **Стандартный цвет.** Kursorni ushbu tugmacha ustida bir marta bosish orqali asosiy rang va fon ranggi standart ranglar - qora va oq rangga almashtiradi.

Ranglarni tanlashda «Adobe Photoshop» programmasida Color darchasidan ham foydalanish mumkin.



RGB — moduli tasvirni ekranda taqirish nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda juda qulay va u 24 razryadli ranglar platasi yordamida deyarli barcha 16 million ranglarni monitorda aks ettiradi. RGB ranglar majmuasi bilan ishlangan barcha tasvirlarni xohlagan formatda diskka yozish mumkin. **RGB** — ranglar majmuasidagi ayrim ranglar umuman tabiatda uchramaydi.

СМЯК-Tabiatda mavjud boʻlgan ranglar majmuasi. quyosh nurlari inson koʻzlari ajrata oladigan barcha ranglarni oʻzida mujassamlashtirgan. Quyosh nurlari biror — bir jismga tushganda uning tasiri ostida inson koʻzlari jism shakli va rangini idrok etadi. Misol uchun binolarning oʻt oʻchirish burchaklari osib qoʻyilgan oʻt oʻchirgichlar toʻq koʻk va zangor ranglar bilan boʻyalgan boʻlishiga qaramay bizning koʻzimizga toʻq qizil rangda koʻrinadi. Ranglarni bir — biriga qoʻshilishi natijasi boshqa ranglar hosil qilinadi:

S — havo rang,

M - binafsha rang,

Y -sariq rang,

K- qora rang,

Bosma mashinalari va bosmaxonalarda tasvirlar yuqorida keltirilgan ranglarning kombinatsiyasidan foydalangan holda toʻla tasvirni ifodalaydi.

RGB — ranglar majmuasida oq rang uchala ranglarning maksimal aralashmasidan hosil qilinadi. Qora rang esa buning aksi o‘laroq olinadi.

CMYK — ranglar majmuasi bilan ishlaganda qora va oq ranglarni hosil qilish uchun buning aksini bajarish lozim. Ya’ni to‘rt rangning minimal qo‘shilishida oq rang hosil bo‘ladi. Qora rang esa alohida kanalda mavjud.


RGB — ranglar majmui keng ko‘lamdagi ranglarni taklif etadi. Lekin ularning ko‘p qismi (ayniqsa yorqinlari) tasvirni chop etganda monitordagi bilan keskin farq qiladi. Shu bois ham ko‘plab mutaxassislar tasvirni chop etishdan avval uni **CMYK**— sistemasiga o‘tkazadilar. Ayrim mutaxassislar esa tasvir bilan **CMYK** — sistemasida ishlashni maslahat beradilar. Ammo bu tasvir bilan ishlash turli qiyinchiliklarni tug‘diradi. Ana shunday qiyinchiliklardan biri kompyuter juda sekin ishlaydi. Bunga asosiy sabab «Adobe Photoshop» programmasi **RGB** sistemasiga sozlangan bo‘lib, har bir komandani bajarib, uni **RGB** — sistemasidan **CMYK** — sistemasiga almashtirguncha kompyuter qo‘shimcha vaqt talab qiladi. Bundan tashqari skaner va monitor **RGB**— sistemasida ishlashga mo‘ljallangan. Ranglar bilan ishlovchi barcha uskunalar (rangli printerdan tashqari) **RGB** - sistemasida ishlaydi. Shuning uchun yaxshisi tasvirni chop etishdan avval **CMYK** — sistemasiga o‘tkazib olish maqsadga muvofiq. Tasvir ustida barcha amallarni poyoniga yetkazib, menyular satrida **Изображение - Настройка** tarkibidagi **SMUK** komandasini tanlang.

Photoshop dasturining ranglar darchasi va maxsus effektlar darchasidan foydalanib, quyidagi mashqni bajaramiz: Misol. Hammasi oltindan


Inson yoki biror bir predmetning rasmini oching. So‘ngra uni fondan ajrating (Erase Tool yordamida). Quyida namuna:




CTRL+U ni bosib va Saturationni chap tomonga oxirgacha suring. Rasm oq-qora holatiga keladi:



Pastdagi yordamida Curves bo‘limini tanlang va quyidagicha holatga keltirishga harakat qiling:




CTRL+SHIFT+E ni bosing. So‘ng CTRL+U ni bosing va pastroqda Colouriseni belgilab Hue=43, Saturation=48, Lightness=13 larni sozlang:




Filter>Blur>Gaussian Blur ga kirib Radiusni 0,2 pixels qilib OKni bosing.





Misol. 2. Bu mashqda asosan ranglar bilan ishlaymiz va ajoyib rangli qalamlar tayyorlaymiz....





2. Mashqni boshlash uchun 500×300 piksel o'lchamda, oq fonda yangi oyna ochamiz (**Ctrl+N**).




2. **Rectangular Marquee(M)** (прямоугольный шатер) -  asbobini tanlaymiz va quyidagi rasmda ko'rsatilgan joyi belgilab, rang kodi **#7000a4** ga moslab, yangi layer(qavat) ochamiz (**Ctrl+Alt+Shift+N**) va belgilangan joyi bo'yash uchun menyudan Edit > Fill yoki Alt+Backspace tugmalarini bosamiz. Bu birinchi qalam shakli hisoblanadi.




Shundan so‘ng **Rectangular Marquee (M)** -  asbobi orqali quyidagi joyni belgilaymiz va **Dodge (O)** asbobini tanlaymiz (**Brush: 50 px, Mode: Highlights, Exposure: 50%**) va belgilangan joyni bo‘yab chiqamiz:




Endi qalam o‘ng tomonini ham belgilaymiz va **Burn (Гореть) (O)** asbobi (**Brush: 50 px, Mode: Shadows, Exposure: 40%**) yordamida belgilangan joyni bo‘yab chiqamiz:



Ctrl+D tugmalarini bosamiz va menyudan **Layer >(слой) Layer style (стильслой) > Inner Glow (внутреннее свечение)**ni moslaymiz:




Natija:




Keyingi bosqichga o‘tamiz...

3. Ushbu qalam shakli chizilgan qavat(layer)ni nusxalaymiz. Nusxalash uchun **Layer (слой) > Duplicate Layer (двойной слой)** buyrug‘ini tanlaymiz yoki **Ctrl+J** tugmalarini bosamiz. Yangi hosil bo‘lgan layerni **Move (V) (ход)** -

asbobi yordamida o'ng tomonga o'tkazamiz va **Image > Adjustments > Hue/Saturation (Ctrl+U)** Natija:




Anashu holatda har bir shaklni nusxalab chiqamiz va har bir shakl rangini yuqorida ko'rsatilgandayo'zgartirib chiqamiz




4. Qalamlar ichidan xohlaganimizni tanlaymiz va **Rectangular Marquee (M)** asbobi yordamida


o'rtadan yuqori qismini belgilaymiz va **Delete** tugmasini bosamiz...




Ctrl+D va **Polygonal Lasso** asbobi yordamida quyidagicha shakl chizamiz:



Elliptical Marquee (краткий шатер) asbobini tanlaymiz va **Alt** tugmasini bosgan holatda yuqorida chizgan shakl ostini o'chirib chiqamiz:



Qolgan joylarni ham kesib tashlaymiz va Yangi layer ochib ushbu layerni rang kodi **#f0d196** da bo'yab olamiz:



Yana **Polygonal Lasso** asbobi yordamida quyidagi joyini belgilaymiz va **Dodge (O)** asbobini tanlab, belgilangan joyini bo'yab chiqamiz:




Endi esa o'ng tomonni belgilaymiz va **Burn** asbobi yordamida bo'yab chiqamiz:




5. **Rectangular Marquee (M)** asbobi yordamida qalam uchini belgilaymiz va **Image**


(избражения) > **Adjustments (коррекция)** > **Hue/Saturation (цветовой тон/насыщенность)** yoki **Ctrl+U**:



Natija:



Ctrl+D va **Layer > Layer style > Drop Shadow (тень снижения):**



Endi oxirgi bosqichga o'tamiz...


6. Horizontal Type (T) asbobini tanlaymiz va matn yozamiz:




Edit > Transform > Rotate 90 CCW



Layer > Layer Style > Drop Shadow (тень снижения):



Natija:



Topshiriqlar:

8. Photoshop dasturi kompyuter grafikasining qaysi turiga kiradi?
9. Photoshop dasturida rang moduli tushunchasi izohlang.
10. Photoshop dasturi va uning imkoniyatlarini o'rganing?
11. Photoshop dasturi yordamida elementar chizmalar tayyorlang?
12. Yuqori dizaynli va chiroyli "Referat" so'zini chizmasini tayyorlang?
13. Photoshop dasturining qatlam tushunchasini batafsil izohlang.
14. Photoshop dasturining qatlam darchasining buyruqlarini o'rganish.

LABORATORIYA MASHG'ULOT № 21

Mavzu: Adobe Photoshop dasturida maxsus effektlar yaratish.

Ishning maqsadi: Talabalarga Adobe Photoshop dasturida maxsus effektlar yaratishni o'rgatish.


Nazariy qism

Avtomobil Farasini Yoqish


1. Dasturni ishga tushiramiz va avtomobil rasmini olamiz.




2. Endi ana shu background layerimizni nusxalaymiz. (Ctrl+J)




3. Moshinamiz o'ng va chap faralariga ketma-ket ravishda lens flare qo'shamiz. Filter > Render > Lens flare




4. Image Readyga o'tamiz. Ctrl+Shift+M. Layer1 dagi ko'zchani olib tashlaymiz.



Background layerni tanlab, Animation oynasiga tushamiz va Duplicate current framestugmasini bosamiz.



5. Layer 1 ga o'tamiz va undagi ko'zchani o'z o'rniga keltiramiz va Animation oynasiga tushib, Duplicate current frames tugmasini bosamiz. Layer1 dagi ko'zchani olib tashlaymiz va Background layerni tanlab, Animation oynasiga tushamiz va Duplicate current framestugmasini bosamiz va layer1dagi ko'zchani o'z joyiga qo'yamiz. Animation oynasiga tushib xuddi quyidagi rasmda ko'rsatilganidek animatsiyamiz davomiyligini belgilaymiz




File > Save optimized as.gif formatda saqlaymiz.

YORUG'LIK EFFEKTI

Avvalo yangi oyna ochamiz (File > New yoki Ctrl+N).


Ushbu qavat (layer) uchun Gradient Overlay va Pattern Overlayni moslaymiz, buning uchun Layer > Layer Style > Gradient Overlay bandini tanlaymiz yoki ushbu qavat ustiga sichqonchamiz chap tugmasini ikki marta bosamiz va Gradient Overlay, Pattern overlaybandlarini quyidagi rasmda ko'rsatilgandek moslab chiqamiz.



2. Endi esa [chashkaga quyilgan kofe](#) rasmini ushbu oynamizning quyida ko'rsatilgan joyiga joylaymiz. Yoki xohlagan boshqa rasmni joylashimiz ham mumkin.




3. Uskunar orasidan Ellipse Tool (U)ni tanlaymiz va yangi qavat (layer) ochib, quyida ko'rsatilganday ellips chizamiz va menyudan Filter > Blur > Gaussian Blur bandini tanlab Radiusni 30pxga moslab OK tugmasini bosamiz.




4. Yangi guruh ochamiz, buning uchun menyudan Layer > New > Group bandini tanlaymiz, guruhni “Yorug‘lik effekti” deb nomlaymiz va Blend Modeni Color Dodgega o‘zgartirib OK tugmasini bosamiz. Endi boyagi ellips chizilgan va “Blur” effekti berilgan qavatni ushbu guruhga joylaymiz.



5. “Yorug‘lik effekti ” nomli guruh ichida yangi qavat ochamiz va uskunalar orasidan Brush Tool (B) ni tanlaymiz va klaviaturamizdan F5 tugmasini bosish orqali Brush oynasini ochib, quyida ko‘rsatilganday moslab chiqamiz.





6. Endi bir qancha shakllar chizamiz va ushbu qavat uchun Layer > Layer Style > Outer Glow bandini moslaymiz



7. Endi rasmda tutun effekti tasvirlaymiz, buning uchun yangi qavat ochamiz (Ctrl+Alt+Shift+N), Blend Modeni Color Dodgega o'zgartiramiz. Uskunalar orasidan Lasso Tool (L)ni tanlaymiz va boshqaruv panelidan Radiusni 40 pixelga moslab quyidagicha shakl chizamiz. Endi Filter > Render > Clouds bandini tanlaymiz va chiroyli holatdagi tutun kelib chiqquncha Ctrl+F tugmalarini bosishda davom etamiz.

Uskunalar orasidan Type tool (T) ni tanlab, matn yozamiz va Layer > Layer Style > Outer Glow va quyida ko'rsatilgan boshqa bandlarni ham moslab chiqamiz:





Natija:



Ushbu darsdagi jarayonlardan ko‘rinib turibdiki, agar siz Photoshopning Layer Style bandidan qanday foydalanish haqida yaxshi bilimga ega bo‘lsangiz va Brush Optionsni ham yaxshi bilsangiz, hech qiynalmasdan ajoyib effektlar tayyorlay olasiz. Qolgan ishlar sizning fantaziyangizga bog‘liq.

Topshiriqlar

1. Photoshop dasturini ishga tushiring.
2. Photoshop dasturida <<Tekst>> instrumenti orqali matn yarating va <<Обводка>> buyrug‘i orqali ishlov bering.
3. Photoshop dasturida tabiiy xodisa ko‘rinishlarini hosil qiling. (tuman, qor ko‘rinishi, kuz fasli)
4. Photoshop dasturida turli xil ko‘rinishdagi figuralar yarating va <<Параметры наложения>> (tasvir o‘lchamini sozlash) ishchi oynasi orqali ishlov bering.
5. Photoshop dasturi sahifa parametrini 500x300 o‘lchamga mo‘ljallab, <<Наложение градиента>> (2 ta yoki 3ta ranglarni ko‘rsatuvchi) buyrug‘ini ishga tushirib bir nechta qatlamlar yarating.

6. Photoshop dasturida tasvirga ichki va tashqi soyalar yarating.
7. Photoshop dasturida bulutli osmon tasvirini hosil qiling.
8. Photoshop dasturida turli tugmalar tasvirini hosil qiling.
9. Photoshop dasturida avtomobil faralarini yoqing.

LABORATORIYA MASHG‘ULOT № 22

Mavzu: Adobe Photoshop dasturida matn va konturlar bilan ishlash.

Ishning maqsadi: Talabalarga Adobe Photoshop dasturida matn va konturlar bilan ishlashni o‘rgatish.

Nazariy qism

Yurakchali Matn

Bugungi mashqda asosan Layer Styles bilan ishlaymiz va ular yordamida yurakchali matn tuzishni o‘rganamiz.



1. Adobe Photoshop dasturini ishga tushiramiz va yangi oyna ochamiz (Ctrl+N). Men 1000×500 piksel o‘lchamini tanladim. Hozir matnimizni orqa foni uchun birorta chiroyli abstrakt rasmini olamiz. Bunda bizga “Google Images” as qotadi yoki men tanlagan [mana bu abstrakt](#)ni olsangiz ham bo‘laveradi.



2. Bu mashqimizni judayam oson qismi. “Horizontal Type” (T) asbobini tanlab, oq rangda matn yozamiz.



Yuqoridagi rasmda men Arial Black (220 pt, Smooth)da matn yozdim. E'tibor bergan bo'lsangiz "I" bilan "Y" o'rtasida joy tashlab ketdim, sababi keyinroq bu yerga biz yurakcha joylaymiz.

3. Hozir hammamiz mashqda bizga kerak bo'lgan qolip (andaza) tayyorlab olamiz. Buning uchun [mana bu rasmni](#) yuklab olamiz yoki "Google" dan boshqa chiroyliroq rasm topamiz.

Ushbu rasmni ham Photoshopda ochamiz va Edit > Define Pattern va OK.

Endi bu oynani yopamiz va matn yozilgan oynaga o'tamiz.

4. Layers oynasidan opacity 0% ga o'zgartiramiz va Layer > Layer style:

Styles

Blending Options: Custom

- Drop Shadow
- Inner Shadow
- Outer Glow
- Inner Glow
- Bevel and Emboss
- Contour
- Texture
- Satin
- Color Overlay
- Gradient Overlay
- Pattern Overlay
- Stroke

Styles

Blending Options: Custom

- Drop Shadow
- Inner Shadow
- Outer Glow
- Inner Glow
- Bevel and Emboss
- Contour
- Texture
- Satin
- Color Overlay
- Gradient Overlay
- Pattern Overlay
- Stroke

Styles

Blending Options: Custom

- Drop Shadow
- Inner Shadow
- Outer Glow
- Inner Glow
- Bevel and Emboss
- Contour
- Texture
- Satin
- Color Overlay
- Gradient Overlay
- Pattern Overlay
- Stroke

Drop Shadow

Structure

Blend Mode: Multiply

Opacity: 88 %

Angle: 120 ° Use Global Light

Distance: 15 px

Spread: 21 %

Size: 16 px

Quality

Contour: Anti-aliased

Noise: 0 %

Layer Knocks Out Drop Shadow

Inner Shadow

Structure

Blend Mode: Multiply #012d54

Opacity: 45 %

Angle: 108 ° Use Global Light

Distance: 7 px

Choke: 0 %

Size: 7 px

Quality

Contour: Anti-aliased

Noise: 0 %

Outer Glow

Structure

Blend Mode: Screen

Opacity: 75 %

Noise: 0 %

Elements

Technique: Softer

Spread: 0 %

Size: 21 px

Quality

Contour: Anti-aliased

Range: 50 %

Jitter: 0 %

OK

Reset

New Style...

Preview

OK

Reset

New Style...



Preview


OK



Reset



New Style...

Preview











5. Bu bosqichda matnimizdagi “I” va “Y” harflari orasiga yurakcha shaklini chizamiz. “Custom Shape” (Shif+U) asbobini tanlab, shakllar ichidan quyidagi shaklni tanlaymiz.




Endi esa matn orasiga xohlagan rangda yurakcha chizamiz.



6. Ushbu qavat(layer) uchun opacity 0% gacha o'zgartiramiz va matn yozilgan qavatga o'tib, sichqonchamiz o'ng tugmasini ushbu qavat ustiga bosamiz va Copy Layer Style buyrug'ini tanlaymiz.




Endi esa yurakchali qavatga o'tib sichqonchamiz o'ng tugmasini bosamizda Paste Layer style buyrug'ini tanlaymiz.



Shundan keyin quyidagicha natija chiqadi.



7. Yurakchali qavatni tanlab, Color Overlayni moslaymiz.





8. Nihoyat oxirgi bosqich:

Yangi qavat(layer) ochamiz va Brush(B) asbobini tanlab mo'yqalamlardan Assortedni tanlab ular ichidan yulduzchalisini tanlaymiz va 80 pikselga moslab, oq rangda quyidagi ko'rsatilgan joyga chizamiz va natija tayyor.

Topshiriqlar

1. Photoshop dasturini ishga tushiring.
2. Photoshop dasturida web sayt uchun matnli tugmalar yarating.
3. Photoshop dasturida "mustaqil ish" so'ziga <<Обводка>> va <<наложение цвет>> buyrug'i orqali ishlov bering.
4. Photoshop dasturida shaxsiy vizitkangizni tayyorlang.
5. Photoshop dasturida matn ustiga yog'ayotgan qorni tasvirlang.
6. Photoshop dasturida tayyorlagan tasvirlarni kompyuter xotirasida saqlang.
7. Photoshop dasturida metallik tugma tayyorlar.
8. Photoshop dasturida harakatli matn tayyorlang.
9. Photoshop dasturida nurli matn effektini hosil qiling.
10. Photoshop dasturida muzli matn effektini hosil qiling.
11. Photoshop dasturida sohil tasviriga matn joylashtiring.
12. Photoshop dasturida soyali matn effektini hosil qiling.
13. Photoshop dasturida xromli matn effektini hosil qiling.
14. Photoshop dasturida turli dasturlarning piktogrammalarini hosil qiling.

LABORATORIYA MASHG'ULOT № 23

Mavzu: Adobe Photoshop dasturida web-sahifa uchun grafik ma'lumotlar yaratish.

Ishning maqsadi: Talabalarga Adobe Photoshop dasturida web-sahifa uchun grafik ma'lumotlar yaratishni o'rgatish.

Nazariy qism


Websayt Uchun Ajoyib Yaltiroq Menyu

Bugungi mashqimizda, Photoshop dasturida websayt uchun ajoyib, yaltiroq menyu qanday tayyorlanishini o'rganamiz.

Darsimizni boshladik...




1. Dastlab 700 x 200 pixel o'lchamda yangi oyna ochamiz.




2. Asboblar qatoridan "Rectangular Marquee" asbobini tanlaymiz va quyidagicha shakl chizib, qora rangda bo'yab olamiz.



3. Edit > Transform > Perspective va quyidagicha moslaymiz:



4. "Add layer mask" buyrug'ini bajarish uchun quyida ko'rsatilgan tugmani bosamiz:



5. "Gradient" asbobini quyidagicha moslaymiz:




6. Gradient chiziq chizamiz:




7. "Rounded Rectangle" asbobini tanlaymiz va quyidagicha shakl chizib, qora rangda bo'yab olamiz.




8. “Gradient overlay”ni moslaymiz:




9. “Rectangular Marquee” asbobini tanlab quyidagicha moslaymiz:



10. Tugmacha shaklini chizgan qavat ustiga Ctrl+sichqonchamiz chap tugmasini bosamiz (Ctrl+Click) va quyidagicha shakl chizamiz.



11. Select > Feather:



12. Yangi qavat ochamiz va bu qavatni oq rangda bo‘yab olamiz.



13. “Rounded rectangle” asbobi yordamida quyidagicha shakl chizib olamiz va “make selection” buyrug‘ini tanlaymiz:



14. “Gradient” (G) tanlaymiz va quyidagicha moslaymiz:





15. Gradient chiziq chizamiz:




16. “Elliptical Marquee” asbobini tanlaymiz va quyidagicha shakl chizamiz hamda ushbu shakl chizilgan qavatimizni #084564 rangda bo‘yab olamiz.



17. Layer > Layer style:



18. “Rectangular Marquee” asbobini tanlaymiz va quyidagicha moslaymiz:




19. Aylana chizilgan qavat ustiga Ctrl+Sichqoncha chap tugmasini bosamiz va quyidagicha shakl chizamiz:



20. Yangi qavat ochamiz va bu qavatni #04cae7 rangida bo‘yab olamiz.



21. Yana aylana chizilgan qavatni Ctrl+Sichqoncha chap tugmalarini bosgan holatda belgilab olamiz va quyidagicha shakl chizamiz:



22. “Gradient”ni quyidagicha moslaymiz.



23. Gradient chiziq chizamiz.




24. Tugmacha shaklini hosil qilgan barcha qavatlarni Ctrl+E tugmalarini bosib, birlashtiramiz va bu qavatlarni bir necha marta nusxalaymiz (CTRL+E).



25. Barcha nusxalangan qavatlarni yana birlashtiramiz va yana bir marta nusxalaymiz va pastga olib o‘tamiz



26. “Add layer mask” buyrug‘ini tanlaymiz:



27. “Gradient”ni quyidagicha moslaymiz:



28. Gradient chiziq chizamiz va menyu quyidagicha holatga keladi:



29. “Horizontal Type tool”ni tanlaymiz va matn yozamiz va menyu ham tayyor:



Adobe Photoshop dasturida juda ham chiroyli va 3D ko‘rinishga ega bo‘lgan ajoyib belgichalar tayyorlashni o‘rganamiz.

Bu esa, tayyor belgichalar.....




© GRAFIKA.UZ

Bunday belgichalar tayyorlash qiyin deb o‘ylaysizmi? Yo‘q juda ham oson, ishonmasangiz mashqni kuzatib, bir pasda o‘rganib olishingiz mumkin.


Demak boshladik....

1.500×300 pikselda yangi oyna ochamiz (Ctrl+N). Orqa fonni oq rangda bo‘yab olamiz (Color pickerdan oq rangni tanlab, Alt+Backspace tugmalarini bosing).


2.Yangi layer (qavat) ochamiz (Ctrl+Alt+Shift+N) va Asboblardan Ellipse (Shift+U)ni tanlaymiz va quyida ko‘rsatilganday aylana chizamiz.




3.Blending Optionsni moslaymiz, Layer > Layer style >Gradient Overlay:



Stroke:




Endi bizda mana bunday natija hosil bo'ladi:




Davom etamiz...

4. Elliptical Marquee M asbobini olamiz va quyidagi ko‘rinishda shakl chizamiz:




Yangi layer ochamiz (Ctrl+alt+Shift+N) va Gradient G asbobini tanlaymiz va ranglarni moslaymiz.




Endi chiziq ichidan pastga qarab Gradient chizamiz:


5. Tezda aylana shakli chizilgan layer (qavat) ustiga Ctrl+Sichqonchamiz chap tugmasini bosamiz va Ctrl+Shift+I tugmalarini bosamiz va Delete tugmasini bosish orqali aylananadan tashqaridagi gradientni o‘chiramiz.



Belgilangan joyni o‘z holiga qaytarish uchun Ctrl+D tugmalarini bosamiz. Ellipse asbobini tanlaymiz va color pickerdan #5ebf1a rangni moslab, dastlabki aylanadan kichikroq aylana chizamiz.



6. Ushbu layer ustiga sichqonchamiz chap tugmasini ikki marta bosamiz yoki Layer > Layer style > Inner Glow :



Stroke:



Natija:



Qalay chiqdi, chiroylimi?

Lekin hali tayyor bo'lgani yo'q....

7. Menyudan Layer > Rasterize > Shape buyrug'ini tanlaymiz va Elliptical Marquee M asbobini tanlaymiz va quyidagicha shakl chizamiz va Dodge O asbobini tanlab moslaymiz:

(Brush: 100 px, Range: Shadows Exposure: 20%)

Ushbu asbob yordamida yashil aylanamiz pastki qismini ozroq bo'yab chiqamiz.



8. Aylanamiz yuqori qismini belgilash uchun Ctrl+Shift+I tugmalarini bosamiz.

Yana Dodge O asbobini tanlaymiz va aylanamiz yuqori qismini bo'yab chiqamiz.



9.Endi Burn (Shift+U) asbobini tanlaymiz (Brush: 100px, Range : Midtones, Exposure: 30%) Aylanamiz o'rtasini ozroq bo'yab chiqamiz:



Belgilangan joyni o'z holatiga qaytarish uchun Ctrl+D tugmalarini bosamiz.

Navbatdagi bosqichga o'tamiz.


10.Ushbu bosqichda belgichamiz rasmini chizamiz, buning uchun bizga Custom Shape

(Shift+U) asbobi kerak bo'ladi

Demak ushbu asbobni tanlaymiz va shakllar ichidan quyidagi shaklni tanlab, oq randga chizamiz.



11.Endi ushbu shaklga ozroq soya qo'shamiz, demak shakl chizilgan layerni tanlab, Layer > Layer style > Drop shadow:



Natija:



12. Ushbu bosqichni diqqat bilan kuzatamiz, chunki sal xato qilsak natija chiqmay qolishi mumkin.

Layers oynasiga o'tamiz va bu yerdan oq belgi chizilgan qavat (layer) va background qavat(layer)dan boshqa barcha qavatlarni Ctrl+Sichqonchamiz chap tugmasini bosgan holatda belgilab chiqamiz (faqat layerni belgilaymiz, shaklni emas) va belgilangan qavatlar(layers) ni birlashtirish uchun Ctrl+E tugmalarini bosamiz, keyin esa oq belgi chizilgan qavatni belgilab yana Ctrl+E tugmasini bosamiz va bizda bor- yo'g'I ikki dona qavat(layer) qoladi bulardan biri orqa fon(background) qavat va yuqorida bir nechta qavatlar birlashishidan hosil bo'lgan qavat.


Demak ushbu qavatni tanlaymiz va Edit > Transform > Distort va moslaymiz:



13. Endi ushbu qavat(layer)ni tanlaymiz va nusxalaymiz(nusxalash uchun Ctrl+J tugmalarini bosamiz).



Original layerni tanlaymiz va Menyudan Layer > Layer style > Color Overlay:



Mana buni natija desa bo'ladi



Lekin hali ham belgichamiz tayyor bo‘lgani yoq’.


Oxirgi bosqichga o‘tamiz.

14. Bu bosqichda belgicha soyasini tasvirlaymiz.


Background layerga o‘tamiz va ushbu layer ustidan yangi layer ochamiz (Ctrl+Alt+Shift+N) Elliptical Marquee M asbobini tanlab quyidagicha shakl chizamiz va qora rangda bo‘yab olamiz. (X, D harflarini o‘ynab ranglarni oq va qoraga o‘zgartirish mumkin, qora rang tanlangach Alt+Backspace tugmalarini bosamiz).



15. Menyudan Select > Deselect yoki Ctrl+D tugmalarini bosamiz va Filter > Blur > Gaussian Blur:



Filter > Blur > Motion Blur:



Natija quyidagicha bo‘ladi:



Ana shu holatda har xil rangdagi belgichalar tayyorlash mumkin:



Topshiriqlar

1. Photoshop dasturini ishga tushiring.
2. Photoshop dasturida web sayt uchun turli tugmalar yarating.
3. Photoshop dasturida veb sayt uchun fon tayyorlang.
4. Photoshop dasturida veb sayt uchun turli belgilar tayyorlang.
5. Photoshop dasturida metallik tugma tayyorlar.

6. Photoshop dasturida harakatli reklama bannerini tayyorlang.
7. Photoshop dasturida harakatli yer shari tasvirini tayyorlang.
8. Photoshop dasturida oddiy biznes sayt tasvirini tayyorlang.
9. Photoshop dasturida agentlik kompaniyasi uchun veb sayt tasvirini tayyorlang.
10. Photoshop dasturida kvadratlarga bo'lingan rasmni hosil qiling.
11. Photoshop dasturida turli dasturlarning piktogrammalarini hosil qiling.

LABORATORIYA MASHG'ULOT № 24

Mavzu: Adobe Photoshop dasturida uch o'lchamli tasvirlar yaratish.

Ishning maqsadi: Talabalarga Adobe Photoshop dasturida uch o'lchamli tasvirlar yaratishni o'rgatish.

Nazariy qism

Adobe Photoshop dasturining 3D menyusi uch o'lchamli tasvirlar bilan ishlash uchun mo'ljallangan.

Menu tarkibidagi bo'limlar bilan tanishib chiqamiz. □ Создать 3D-слой из файла... - fayldan 3D qatlam yaratish.


- Экспортировать 3D-слой ... - 3D qatlamni eksport qilish.
- Новая 3D-экструзия из выделенного слоя – Tanlangan qatlamdan yangi 3D ko'rinish.
- Новая 3D-экструзия из выделенного контура - Tanlangan konturdan yangi 3D ko'rinish.
- Новая 3D-экструзия из текущего выделенного фрагмента – Tanlangan joriy fragmentdan yangi 3D ko'rinish.
- Новая сетка из слоя – qatlamdan yangi shakl yaratish.
- Добавить ограничения из – cheklash o'rnatish.
- Показать/скрыть многоугольники – ko'pburchaklarni ko'rsatish/yashirish.
- Привязать объект к плоскости основания – obyektни tekislik asosiga bog'lash.
- Разделить экструзию – ko'rinishni bo'lish.
- Слияние 3D-слоев – 3D qatlamlarni birlashtirish.
- Новая мозаичная картинка из слоя – qatlamdan yangi naqshli rasm.
- Угловое выцветание... - burchak rangi.
- Раскрасить на целевой текстуре – to'liq teksturani bo'yash.
- Повторно параметризовать UV... UV xususiyatni qayta ko'rsatish.
- Создать наложение картины – tasvir ko'rinishini yaratish.
- Выбрать закрашиваемые области – bo'yalgan qatlamni tanlash.
- Создать рабочий контур из 3D-слоя – 3D qatlamdan ishchi kontur yaratish.
- Эскиз текущей кистью – joriy kist eskizi.

- Рендеринг – ko‘rsatish.
- Получать дополнительное содержимое...- qo‘shimcha ma’lumotlar olish.

Adobe Photoshop dasturida uch o‘lchamli tasvirlar yaratish.


Uch o‘lchamli tasvirlarni o‘qitish jarayonida ularni tasvirlashda va o‘quvchilarning shakllarni tasavvur qilishida muammolar yuzaga keladi. Chunki bunday tasvirlar (masalan, konus, piramida, silindr, sfera, kub ...) ni doska tasvirlashda biroz qiyinchilik yuzaga keladi. Bunday muammolarni yechishda Adobe Photoshop dasturi bizga qo‘l keladi.

Adobe Photoshop CS6 dasturida uch o‘lchamli tasvirlar yaratish uchun dasturning 3D menyusidan Новая сетка из слоя bo‘limini tanlaymiz. Bo‘limning Набор сетки bandidan kerakli shaklni tanlaymiz. Ro‘yxatda konus, kub, silindr, piramida, xalqa, sfera va boshqa shakllar mavjud.




1-mashq. Harakatlanuvchi konus tasvirini hosil qilish.

Buning uchun Adobe Photoshop dasturini ishga tushiramiz va 500×500 o‘lchamda yangi fayl yaratamiz. Dasturning 3D menyusidan Новая сетка из слоя - Набор сетки – Конус buyrug‘ini bajaramiz. Natijada ishchi oynada konus tasviri hosil bo‘ladi.




Konusning xususiyatlarini o‘zgartirish uchun. Okno menyusining 3D bandini tanlaymiz. Shaklning rangini o‘zgartirish uchun ochilgan 3D darchasining Материал bandiga tegishli o‘zgartirishlar kiritamiz. Bilamizki konusning ikkita yuzasi mavjud uning asosi va ustki qismi. Shunga mos ravishda

Материал_конуса bandida konusning ustki qismi rangini va Материал_снизу bandida esa konusning asosi rangini o'zgartirish mumkin. Rang sifatida palitradan ixtiyoriy rangni tanlash yoki tayyor teksturalardan foydalanish mumkin. Masalan,




Konusni x, y, z o'qlari bo'yicha burish mumkin. Bu imkoniyatdan foydalanib aylanib turuvchi konus tasvirini yaratamiz.

Buning uchun F7 tugmani bosamiz. Natijada qatlam oynasi faollashadi. Qatlam oynasida Слой 1 nomli qatlam joylashgan. Ushbu qatlamni nusxalaymiz. Buning uchun Слой 1 qatlami ustida sichqonchani o'ng tugmasini bosamiz va Создать дубликат слоя... buyrug'ini bajaramiz. Natijada bizda ikkita bir xil qatlam paydo bo'ladi. Ikkinchi qatlamni sichqoncha bilan tanlab konusni y o'qi bo'ylab biroz aylantiramiz. Ikkinchi qatlamni yana nusxalaymiz. Hosil bo'lgan uchinchi qatlamni tanlab yana konusni y o'qi bo'ylab biroz aylantiramiz. Uchinchi qatlamni yana nusxalaymiz. Hosil bo'lgan to'rtinchi qatlamni tanlab yana konusni y o'qi bo'ylab biroz aylantiramiz. Bu ketma-ketlikni konus to'liq bir marta aylanib chiqqunga qadar takrorlaymiz. Ushbu misolda y o'qi bo'yicha har safar 40 gradusdan buramiz. Natijada 9 ta qatlam hosil bo'ladi. Keyingi bosqich tayyor bo'lgan qatlamlardan foydalanib animatsiya hosil qilamiz. Buning uchun Окно menyusidan Шкала времени bandini tanlaymiz. Шкала времени darchasida yaratilgan qatlamlar soniga mos holda kadrlar yaratib olamiz. Birinchi kadrni tanlab Слой oynasidan birinchi qatlamni ko'rsatamiz yani qatlam oldidagi katakchaga belgi qo'yamiz.




Ikkinchi kadrni tanlab ikkinchi qatlamni ko'rsatamiz. Uchinchi kadrda uchinchi qatlamni... Bu ketma-ketlikni to'qqizinchi kadr gacha davom ettiramiz. Kadrlarni tayyorlab bo'lgach ularning vaqtini sozlab chiqamiz. Buning uchun kadr ostidagi kadrni namoyish qilish vaqti bo'limidan 0,2 sec. ni tanlab chiqamiz. Takrorlanish sonini sozlash uchun Выбор параметров цикла bo'limiga Постоянно ni moslab qo'yamiz. Natijada animatsiya doimiy namoyish etiladi. Tayyor bo'lgan animatsiyani ko'rish uchun "play" tugmasini bosamiz. To'xtatish uchun "stop" tugmasini bosamiz.



Faylni kompyuter xotirasiga saqlaymiz. Ctrl+S tugmalarini bosamiz va faylga nom berib saqlanish joyini ko'rsatamiz. Animatsiya holatida saqlash uchun Alt+Ctrl+Shift+S tugmalarini bosamiz.

2-mashq. Harakatlanuvchi silindr tasvirini hosil qilish.


Photoshop dasturini ishga tushiramiz va 400×400 o'lchamda ishchi oyna yaratamiz. Dasturning 3D menyusining Новая сетка из слоя bo'limidan Цилиндр bandini tanlaymiz. Natijada ishchi oynada silindr tasviri hosil bo'ladi. Окно menyusining 3D bandini tanlaymiz. Shaklning rangini o'zgartirish uchun ochilgan 3D darchasining Материал bandiga tegishli o'zgartirishlar kiritamiz. Bilamizki silindrning uchta yuzasi mavjud uning ikkita asosi va yon sirti. Shunga mos ravishda Материал_сверху bandida silindrning ustki asosi rangini, Материал_снизу bandida silindrning ostki asosi rangini va Материал_цилиндр bandida silindrning yon sirti rangini o'zgartirish mumkin. Rang sifatida palitradan ixtiyoriy rangni tanlash yoki tayyor teksturalardan foydalanish mumkin. Masalan,




Silindr x, y, z o'qlari bo'yicha burish mumkin. Silindrni x=0, y=-30, z=30 holatda joylashtiramiz. Bu imkoniyatdan foydalanib aylanib turuvchi silindr tasvirini yaratamiz.

Buning uchun F7 tugmani bosamiz. Natijada qatlam oynasi faollashadi. Qatlam oynasida Слой 1 nomli qatlam joylashgan. Ushbu qatlamni nusxalaymiz. Buning uchun Слой 1 qatlamini ustida sichqonchani o'ng tugmasini bosamiz va Создать дубликат слоя... buyrug'ini bajaramiz. Natijada bizda ikkita bir xil qatlam paydo bo'ladi. Ikkinchi qatlamni sichqoncha bilan tanlab silindrni x o'qi bo'ylab 20 gradusga buramiz. Ikkinchi qatlamni yana nusxalaymiz. Hosil bo'lgan uchinchi qatlamni tanlab yana silindrni x o'qi bo'ylab 40 gradusga buramiz. Uchinchi qatlamni yana nusxalaymiz. Hosil bo'lgan to'rtinchi qatlamni tanlab yana silindrni x o'qi bo'ylab 60 gradusga buramiz. Bu ketma-ketlikni silindr to'liq bir marta aylanib chiqqunga qadar takrorlaymiz. Ushbu misolda x o'qi bo'yicha har safar 20 gradusdan buramiz. Natijada 18 ta qatlam hosil bo'ladi. Keyingi bosqich tayyor

bo‘lgan qatlamlardan foydalanib animatsiya hosil qilish. Buning uchun Окно menyusidan Шкала времени bandini tanlaymiz. Шкала времени darchasida yaratilgan qatlamlar soniga mos holda kadrlar yaratib olamiz. Birinchi kadrni tanlab Слой oynasidan birinchi qatlamni ko‘rsatamiz yani qatlam oldidagi katakchaga belgi qo‘yamiz.




Ikkinchi kadrni tanlab ikkinchi qatlamni ko‘rsatamiz. Uchinchi kadrda uchinchi qatlamni... Bu ketma-ketlikni o‘n sakkizinchi kadr gacha davom ettiramiz. Kadrlarni tayyorlab bo‘lgach ularning vaqtini sozlab chiqamiz. Buning uchun kadr ostidagi kadrni namoyish qilish vaqti bo‘limidan 0,2 sec. ni tanlab chiqamiz. Takrorlanish sonini sozlash uchun Выбор параметров цикла bo‘limiga Постоянно ni moslab qo‘yamiz. Natijada animatsiya doimiy namoyish etiladi. Tayyor bo‘lgan animatsiyani ko‘rish uchun “play” tugmasini bosamiz. To‘xtatish uchun “stop” tugmasini bosamiz.



Faylni kompyuter xotirasiga saqlaymiz. Ctrl+S tugmalarini bosamiz va faylga nom berib saqlanish joyini ko‘rsatamiz. Animatsiya holatida saqlash uchun Alt+Ctrl+Shift+S tugmalarini bosamiz.

3-mashq. Harakatlanuvchi piramida tasvirini hosil qilish.


Photoshop dasturini ishga tushiramiz va 400×400 o‘lchamda ishchi oyna yaratamiz. Dasturning 3D menyusining Новая сетка из слоя bo‘limidan Пирамида bandini tanlaymiz. Natijada ishchi oynada asosi kvadrat bo‘lgan piramida tasviri hosil bo‘ladi. Окно menyusining 3D bandini tanlaymiz. Shaklning rangini o‘zgartirish uchun ochilgan 3D darchasining Материал bandiga tegishli o‘zgartirishlar kiritamiz. Bilamizki to‘rtburchakli piramidaning beshta yuzasi mavjud uning bitta asosi va to‘rtta yon sirti. Shunga mos ravishda Материал_спереди, Материал_снизу, Материал_сзади, Материал_слева va Материал_справа bandlarida piramidaning rangini o‘zgartirish mumkin. Rang sifatida palitradan ixtiyoriy rangni tanlash yoki tayyor teksturalardan foydalanish mumkin. Masalan,



Piramidani x , y , z o'qlari bo'yicha burish mumkin. Silindrni $x=0$, $y=0$, $z=0$ holatda joylashtiramiz. Bu imkoniyatdan foydalanib aylanib turuvchi silindr tasvirini yaratamiz.

Buning uchun F7 tugmani bosamiz. Natijada qatlam oynasi faollashadi. Qatlam oynasida Слой 1 nomli qatlam joylashgan. Ushbu qatlamni nusxalaymiz. Buning uchun Слой 1 qatlamni ustida sichqonchani o'ng tugmasini bosamiz va Создать дубликат слоя... buyrug'ini bajaramiz. Natijada bizda ikkita bir xil qatlam paydo bo'ladi. Ikkinchi qatlamni sichqoncha bilan tanlab piramidani z o'qi bo'ylab 20 gradusga buramiz. Ikkinchi qatlamni yana nusxalaymiz.

Hosil bo'lgan uchinchi qatlamni tanlab yana piramidani z o'qi bo'ylab 40 gradusga buramiz. Uchinchi qatlamni yana nusxalaymiz. Hosil bo'lgan to'rtinchi qatlamni tanlab yana piramidani z o'qi bo'ylab 60 gradusga buramiz. Bu ketma-ketlikni piramida to'liq bir marta aylanib chiqqunga qadar takrorlaymiz. Ushbu misolda z o'qi bo'yicha har safar 20 gradusdan buramiz. Natijada 18 ta qatlam hosil bo'ladi. Keyingi bosqich tayyor bo'lgan qatlamlardan foydalanib animatsiya hosil qilish. Buning uchun Окно menyusidan Шкала времени bandini tanlaymiz. Шкала времени darchasida yaratilgan qatlamlar soniga mos holda kadrlar yaratib olamiz. Birinchi kadrni tanlab Слой oynasidan birinchi qatlamni ko'rsatamiz yani qatlam oldidagi katakchaga belgi qo'yamiz. Ikkinchi kadrni tanlab ikkinchi qatlamni ko'rsatamiz. Uchinchi kadrga uchinchi qatlamni... Bu ketma-ketlikni o'n sakkizinchi kadr gacha davom ettiramiz. Kadrlarni tayyorlab bo'lgach ularning vaqtini sozlab chiqamiz. Buning uchun kadr ostidagi kadrni namoyish qilish vaqti bo'limidan 0,2 sec. ni tanlab chiqamiz. Takrorlanish sonini sozlash uchun Выбор параметров цикла bo'limiga Постоянно ni moslab qo'yamiz. Natijada animatsiya doimiy namoyish etiladi. Tayyor bo'lgan animatsiyani ko'rish uchun "play" tugmasini bosamiz. To'xtatish uchun "stop" tugmasini bosamiz.



Faylni kompyuter xotirasiga saqlaymiz. Ctrl+S tugmalarini bosamiz va faylga nom berib saqlanish joyini ko'rsatamiz. Animatsiya holatida saqlash uchun Alt+Ctrl+Shift+S tugmalarini bosamiz.

Topshiriqlar

1. Photoshop dasturini ishga tushiring.
2. Photoshop dasturining 3D menyusi bndlari vazifalarini izohlang.
3. Photoshop dasturida turli uch o‘lchamli shakllar tasvirini hosil qiling.
4. Hosil qilingan tasvirlarni qayta tahrirlang.
5. Hosil qilingan tasvirlarga turli ranglar bering.
6. Stereometriya kursi uchun turli ko‘rgazmali plakatlar tayyorlang.

LABORATORIYA MASHG‘ULOT № 25

Mavzu: Adobe Flash muhitida interfaol animasiyalar yaratish

Ishning maqsadi: Talabalarga Adobe Flash muhitida interfaol animasiyalar yaratishni o‘rgatish.

Nazariy qism

Flash dasturi yordamida interaktiv tugma yaratish uchun dasturni ishga tushiramiz va Layer 1 qatlamida oq fon rangli ishchi oynada ihtiyoriy rangda doira hosil qilamiz va uni belgilab olib Modify-Convert to Symbol-Movie Clip-OK amalini bajaramiz. Natijada obyekt Movie Clip holatiga o‘tadi. Obyektning ustiga sichqonchanning chap tugmasini 2 marotaba bosamiz. Timeline oynasiga o‘tib doira joylashgan Layer 1 ni 10-kadrgacha uzaytiramiz (F5 tugmasi orqali). Doirani belgilab Modify-Convert to Symbol-Button-OK amalini bajaramiz. Properties oynasini faollashtirib <Frame Label> bo‘limiga enter_btn so‘zini kiritamiz. Keyin esa Timeline oynasiga o‘tib Layer 2 ni hosil qilamiz. Ushbu qatlamda “tugma” so‘zini oq rangda hosil qilamiz (so‘z doiraning chap tomoniga joylashadi). So‘zni belgilab Modify-Convert to Symbol-Movie Clip-OK amalini bajaramiz. 1-kadri belgilab 10-kadrgacha uzaytiramiz, 10kadri belgilab F6 tugmasini bosamiz va “tugma” so‘zining rangini qoraga (rang ihtiyoriy tanlanadi) o‘zgartiramiz. 1-kadri belgilab kontekstli menyuni chaqiramiz va Create Motion Tween ni tanlaymiz. Natijada “tugma” so‘zining rangi avtomatik tarzda oqdan qoraga o‘zgaradigan holatga o‘tadi.

Timeline oynasiga o‘tib Layer 3 ni hosil qilamiz. Ushbu qatlamda 3 ta bo‘sh kadr yaratamiz (1-kadr belgilanib F5 tugmasi 2 marotaba bosiladi). 4-kadrga o‘tib F6 tugmasi bosiladi va ishchi oynada “tugma” so‘zining ostiga doiraga qadar chiziq chizamiz. Chiziqni belgilab olib Modify-Convert to Symbol-Movie Clip-OK amalini bajaramiz. Ketma-ket 4-kadrdan boshlab 10-kadrgacha 7 ta kadr yaratamiz. 5-,7- va 9- kadrlardan chiziqni o‘chirib tashlaymiz. Buning uchun kerakli kadri belgilab Delete tugmasini bosamiz. Natijada chiziq “lippillovchi” holatga keladi. Ishchi oynaning bo‘sh joyiga sichqonchanning chap tugmasini 2 marotaba bosamiz. Natijada Timeline oynasida faqat Layer 1 paydo bo‘ladi. Ishchi sohadagi obyektни belgilab Actions oynasiga o‘tamiz. Actions oynasining ishchi sohasiga quyidagi dastur kodini kiritamiz.

```

onClipEvent (enterFrame) {
if (go) {nextFrame();} else { prevFrame(); }
} onClipEvent (load) { var go; stop();
enter_btn.onRollOver = function() { go =
true; }; enter_btn.onRollOut = function()
{go = false; }; }

```

Hosil bo'lgan animatsiyani Ctrl+Enter tugmalarini bosgan holda ko'rishimiz mumkin.




Macromedia Flash dasturida audio fayllar bilan ishlash

Macromedia Flash dasturi mp3, wav, aif va au kengaytmali audio fayllarni qo'llab quvvatlaydi. Audio fayllardan Flash dasturining Button va Movie Clip obyektlarida, animatsiya yaratish jarayonida hamda elektron ta'lim resurslari va o'yinlar ishlab chiqishda foydalanish mumkin. Elektron ta'lim resurslarini yaratishda audio fayllardan foydalanish ta'lim resurslariga bo'lgan qiziqishlarni oshiradi. Foydalanuvchilarning etiborini jalb qiladi. Quyida audio fayllardan foydalanib bir nechta mashqlar bajaramiz.

Misol. Kadrlarga audio fayl joylashtirish.

Flash dasturini ishga tushiramiz. Kerakli bo'lgan audio faylni import amali yordamida dasturga yuklaymiz. File menyusidan Import – Import to library... amalini bajaramiz. Hosil bo'lgan Import to library muloqot oynasidan tegishli faylni belgilab Открыть tugmasini bosamiz. Natijada belgilangan fayl loyiha kutubxonasi (Library) oynasida hosil bo'ladi. Faylni sichqoncha chap tugmasi orqali ushlab ishchi oynaga joylashtiramiz. Natijada joriy kadrlarda tebranishlarni ifodalovchi belgilar paydo bo'ladi.




Hosil bo'lgan loyihani Ctrl+Enter tugmalarini bosish orqali ko'rish mumkin. Faylni kompyuter xotirasiga saqlaymiz Ctrl+S. Faylga nom berib (ovoz1), saqlanish joyini ko'rsatamiz va сохранить tugmasini bosamiz. Faylni animatsiya holatida saqlash uchun Fayl menyusi Export – Export movie

buyrug‘ini yoki klaviaturadan Ctrl+Alt+Shift+S tugmalarini bosamiz. Faylga nom berib, saqlanish joyini ko‘rsatamiz. Fayl turiga Flash Movie (*.swf) ni tanlab сохранить tugmasini bosamiz. Fayl turi sifatifa *.gif, *.avi, *.mov, *.eps, *.jpg, ... turlarni tanlash mumkin. Yaratilgan faylni *.exe ko‘rinishida ham saqlash mumkin. Buning uchun Fayl menyusining Publish Settings... bo‘limi tanlanadi. Ochilgan muloqot oynasining Formats bo‘limiga kiramiz. Oynaning Windows Projector (*.exe) yozuvi oldidagi katakchasiga belgi (bayroqcha) qo‘yamiz va Publish tugmasini bosamiz. Natijada fayl saqlangan papkada *.exe fayl kengaytmasidagi fayl paydo bo‘ladi. Bizning misolda esa ovoz1.exe fayli yaratiladi.

Misol. Button obyektida audio fayllardan foydalanish.

Flash dasturiga zaruriy audio faylni yuklab olamiz va Button tugmasi yaratamiz. Button yaratish uchun birorta shakl chizib olamiz. Shaklni belgilab kontekstli menyuni chaqiramiz va Convert to Symbol amalini bajaramiz. Hosil bo‘lgan oynadan button bandini belgilaymiz, obyektga nom berib (tugma) OK tugmasini bosamiz. Button tayyorlash yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan. Bilamizki buttonda uchta kadr mavjud. Bu uchala kadrda ham ovozli fayllarni joylashtish mumkin. Uchta kadrda ovozning ijro etilishi xolati turlicha bo‘ladi. Ya‘ni, Up kadriga faylni joylashtirsak audio fayl doimiy ijro etiladi. Agar Down kadriga joylashtirsak audio fayl tugma bosilganda ijro etiladi. Agarda audio faylni Over kadriga joylashtirsak, sichqoncha tugma ustiga borganda fayl ijro etiladi.



Hosil bo‘lgan loyihani Ctrl+Enter tugmalarini bosish orqali ko‘rish mumkin. Odatiy muzika1 fayli ijro etiladi. Ok tugmasi ustiga sichqoncha belgisi chiqsa muzika2 fayli va Ok tugmasi bosilsa muzika3 fayli ijro etiladi.



Misol. Kompyuter qurilmalari haqida o‘yin tayyorlash.

Kompyuterning asosiy va qo‘shimcha qurilmalarini topish bo‘yicha o‘yin tayyorlaymiz. Buning uchun bizga kompyuter qurilmalarining rasmlari va javob to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini bildiruvchi audio fayl kerak bo‘ladi. Quyidagicha sahifani tayyorlaymiz:



Har bir qurilma rasmini button obyektiga aylantiramiz. Asosiy qurilmalar tugmalarining Down kadriga javob to‘g‘ri ekanligini anglatuvchi audio faylni, qo‘shimcha tugmalarga esa javob noto‘g‘ri ekanligini anglatuvchi audio fayllarni joylashtirib chiqamiz.



Hosil bo‘lgan loyihani Ctrl+Enter tugmalarini bosish orqali ko‘rish mumkin. Agar asosiy qurilmalar tanlansa javob to‘g‘ri ekanligini bildiruvchi ovoz ijro etiladi. Agar qo‘shimcha qurilmalar tanlansa javob noto‘g‘ri ekanligini bildiruvchi ovoz ijro etiladi.


Bu loyihani kompyuterning qo‘shimcha qurilmalari uchun ham tayyorlash mumkin. Bunda faqat audio fayllarning joyi almashadi.

Flashning audio imkoniyatlaridan foydalanib bog‘cha tarbiyalanuvchilari uchun ham turli loyihalar tayyorlash mumkin. Masalan mevalar, hayvonlar, ranglar va hokozalarning nomini aytadigan dasturlar yaratish mumkin. Biz quyida mevalar haqida loyiha tayyorlashni aytib o‘tamiz.

Misol. Mevalar o‘yini.

Buning uchun bizga turli mevalarning tasvirlari hamda ularning nomini aytuvchi audio fayllar kerak bo‘ladi. Barcha kerakli obyektlarni Flashning kutubxonasiga yuklab olamiz. Mevalarning tasvirlarini ishchi oynaga joylashtirib

ularni buttonga aylantiramiz. Buttonlarning Down kadriga tegishli audio fayllarni joylashtirib chiqamiz.



Hosil bo'lgan loyihani Ctrl+Enter tugmalarini bosish orqali ko'rish mumkin. Mevalar sichqoncha yordamida chertilsa, ularning nomi aytiladi.

1. Flash dasturini ishga tushiring.
2. Flash dasturining interfeysi haqida ma'lumot bering.
3. Flash dasturida open va import amalini bajaring.
4. Yangi sahifa yaratish amali haqida ma'lumot bering.
5. Yangi Flash hujjat hosil qiling.
6. Shablon asosida yangi Flash hujjat hosil qiling.
7. Shablon asosida Presentations hujjat hosil qiling.
8. Ishchi sahifa xususiyatlarini o'zgartiring.
9. Uskunalar panelidan foydalanib turli shakllar tasvirini hosil qiling.
10. Animatsiya yaratishning Shape usuli haqida ma'lumot bering.
11. Animatsiya yaratishning Motion Tween usuli haqida ma'lumot bering.
12. Animatsiya yaratishning Motion Guide usuli haqida ma'lumot bering.
13. Bir joyda sakrab turgan to'p animatsiyasini hosil qiling.
14. O'lchamlari katta va kichik bo'ladigan shar animatsiyasini hosil qiling.
15. Shape usulida turli animatsiyalar hosil qiling.
16. Belgilangan trayektoriya bo'ylab harakatlanuvchi obyekt animatsiyasini hosil qiling.
17. Quyosh atrofida aylanuvchi sayyoralar animatsiyasini hosil qiling.
18. Aylana mavzusi bo'yicha animatsiya hosil qiling.
19. Uchburchak mavzusi bo'yicha animatsiya hosil qiling.
20. Kesma mavzusi bo'yicha animatsiya hosil qiling.

LABORATORIYA MASHG'ULOT № 26

Mavzu: 3DS-MAX dasturi boshqaruv elementlari bilan ishlash.

Ishning maqsadi: Talabalarga 3DS-MAX dasturi boshqaruv elementlari bilan ishlashni o'rgatish.

Nazariy qism

3D Studio MAX dasturi haqida tushuncha

3D Studio MAX uch o'lchovli modellashtirish va ko'rgazmali namoyish qilishning (vizualizasiya) yangicha bosqichi hisoblanadi. Bu dastur yordamida yuqori sifatli animasiya va uch o'lchovli modellarni professional darajada yaratish mumkin. Bunda siz ikki o'lchovli va uch o'lchovli ob'yektlarni qo'llashingiz mumkin. Bu dastur yordamida yuqori sifatli multiplikasion filmlar, ma'lum fanlar bo'yicha ko'rgazmali dasturlar tuzish mumkin.


3D Studio MAX da ob'yektlarni qurish maydoni (viewport)da yaratasiz. Buning uchun siz kerakli asbobni tanlab, kursorni qurish maydoniga keltirganingizda kursor shakli o'zgaradi.

Sichqoncha yordamida ob'yektning o'lchovlarini berasiz.

Yaratilgan ob'yektlarda kino effektlar yaratish uchun maxsus kamera va yoritgich asboblarini qo'llashingiz mumkin. Ob'yekt sirti uchun turli material tanlashingiz mumkin, ya'ni unga masalan shaffof yoki g'adir-budir sirt berishingiz mumkin bo'ladi. Qurish maydonida yaratilgan ob'yektlarni harakatlantirib, kichik animasiya hosil qilish mumkin. Buning uchun {Animasiya} tugmasini bosib, kadrlarni o'zgartirgan holda ob'yektni harakatlantirish bilan oxirgi kadrda kelinadi. So'ngra animasiya panelidan {Play} tugmasi bosiladi. Natijada kadrlar almashinib, animasiya hosil bo'ladi. Bu yaratilgan animasiyani fayl ko'rinishida komp'yuter xotirasida saqlash va istalgan video tasvirlarni o'qiy oladigan dastur yordamida o'qishimiz mumkin. Fayl *.avi kengaytmali formatda saqlanadi. Foydalanuvchi interfeysi haqida ma'lumot

Birinchi navbatda siz 3 Ds Max dasturini ishga tushirganda uning asosiy ekraniga ko'zingiz tushishi mumkin. Agar siz yangi foydalanuvchi interfeysini bilmaydigan bo'lsangiz, unda dastlab qurilmalarini ko'rib chiqishingiz hamda ular bilan atroflicha tanishishingiz lozim.

Siz interfeysning dastur elementlardan tashkil topganligini, ya'ni, bir xil turdagi buyruqlarni guruhlanganligini ko'ring va ishonch hosil qiling. Masalan, o'z vaqtida ob'yektlar holatini sozlash va boshqarishni amalga oshirish tugmachasi jamlanmasi yordamida animasiyani amalga oshirish jarayonini boshqarish vositasi. Dastur ekranini shartli tarzdi beshta asosiy elementlarga ajratish mumkin:




Main menu (Bosh menyu). Dastur ekranining yuqori qismda joylashgan va bu menyu 3 Ds Max dasturiga asosiy buyruqlar bilan murojaat qilishni ta'minlaydi. Barcha buyruqlar menyusi toifalar bo'yicha birlashtirilgan. Dastur ishga tushirilganidan so'ng 3Ds Max grafik redaktorning ishchi oynasi ochiladi. Bosh menu quyidagi meny bandlaridan iboratdir File (Файл), Edit (Правка)-tahrirlash, Tools (Сервис), Group, Views, Great (Создать)-yaratish, Modifiers, Animation, GrafEditor, Rendering (Визуализация)-vizuallash, Customize, MAXScript, Help(Помощь)-yordam.

□ Main Toolbar (Qurilmalar bosh paneli). Odatda u bosh menyu ostida joylashadi, ammo "suzuvchi" panel ko'rinishida aks ettirilishi yoki ekranning boshqa joyida joylashishi ham mumkin. Toifalar bo'yicha ajratilgan, to'plam bilan birga qurilmalar tarkibida joylashgan yoki yakka bo'lishi mumkin. Dastur amallari va qo'llanuvchi buyruqlar tezkor murojaatlar tugmachasidan tashkil topadi.

□ Viewports (proyeksiya ekrani) ekranning markazida joylashgan va uning katta qismini egallaydi. To'rtta ajratilgan ko'rinishda devor proyeksiyasi - yuqori Tor (yuqori), yonbosh Left (chap), to'g'risidan yo'naltirilgan Front (ro'parasidan) va kelajakda rivojlanishni ko'zda tutadigan Perspective (istiqbolli).

□ Command Panel (buyruqlar paneli). Odatda ekran proyeksiyasining o'ng tomonida joylashgan. Bu panel oltita to'plamdan tashkil topgan va devor ob'ektlarini modifikasiyalash va tashkil etish bo'yicha amallarning bajarilishini ta'minlaydi. Har bir to'plam ob'ektlarni sozlovchi sivatkadan tashkil topgan.


□ Lower Interface Bar (Interfeysning quyi qatori) Dastur oynasining quyi qismida joylashgan. Turli maydon va tugmachalardan tashkil topgan, uning tarkibiga maydonning aks etish holati va ma'lumotnoma (spravochnik) kiradi, shu bilan birga animasiyalarni qayta tiklash va boshqaruv oynasi proyeksiyasi uchun tugmalar to'plami ham mavjud.



3Ds Max dasturi oynasi

Dastlab, ishni 3Ds Max dasturini atroflicha o‘rganib chiqishdan boshlasak, avval dastur yordamida ob‘yekt ko‘rinishda asosiy maqbul ishlarni amalga oshirish: sodda primitivlarini tuzish, ob‘yektlarni belgilash, ularning bir-biriga o‘zaro tekislash, proyeksiya oynasidagi aks etish holati va joylashishi, ularni o‘zgartirish, ma‘lum masshtabga keltirish, o‘zgartirish va aylantirish mumkin.

Bu oddiy amallar 3Ds Max dasturining keyingi asosiy faoliyatiga xizmat qiladi. Haqiqiy hayotda juda ko‘p ob‘yektlar o‘zida oddiy uch o‘lchovli qo‘llanmalar amallarini o‘zida aks ettirgan. Masalan, stol parallelepipeddan tashkil topgan, stol lampasi esa – silindr va yarim shakldan, avtomobil balloni esa – boshqa yuqoridagilarga o‘xshamagan shakllardan tashkil topgan. Katta va kichik darajadagi barcha ko‘rgazmalarda amalda uch o‘lchovli virtual joylashuv shartlari qo‘llanilib kelinmoqda. 3 Ds Max dasturi standart ob‘yektlari o‘zida “qurilish materiallar”ini tashkil etgani uchun ular yordamida turli ko‘rinishlar tashkil etishga ko‘maklashadi.



Topshiriqlar 1-

topshiriq.

3DS MAX dasturi interfeysi uchun zarur bo‘lgan asosiy elementlarni aytib bering.

Dasturning ishchi sohasi qanday tashkil etilgan?

Programma interfeysi o‘rnatish oynasini qanday chaqirish mumkin?

3DS MAX da interfeysning qanday komponentalarini o‘rnatish mumkin?

Ixtiyoriy buyruqlarni klavishlar brikmasi yordamida qanday tayinlash mumkinligini tushuntiring.

Foydalanuvchining uskunalar paneli qanday yaratiladi?

Foydalanuvchining menyusi qanday yaratiladi?

Ishning bajarilish tartibi.

2-topshiriq. 3DS MAX interfeysi bilan tanishish.

3DS MAX dasturini ishga tushiring. Barcha yuqorida keltirilgan asosiy interfeysi elementlarini diqqat bilan ko'rib chiqing. E'tiboringizni qaratgan bo'lsangiz monitorning ruxsat doirasi 1280x1024 dan kichik bo'lganda bosh uskunalar paneli ko'rinmasdan qolmoqda. Uni ko'rish uchun quyidagilarni bajaring:

Sichqoncha tugmachasini panel sohasiga keltiring—sichqoncha ko'rsatgichi ko'l ko'rinishiga o'tishi kerak – va chap tugmachasini bosib, keyin, uni qo'yib yubormasdan ko'rsatgichni chapga siljiting – panel tashqariga ko'chadi va ko'rina boshlaydi; 3- topshiriq.

3D Studio MAX dasturi haqida tushunchalar bering.

4-topshiriq

Foydalanuvchi interfeysi haqida ma'lumot bering.

5-topshiriq

- Main menu (Bosh menyu)
- Main Toolbar (Qurilmalar bosh paneli).
- Viewports (proyeksiya ekrani)
- Command Panel (buyruqlar paneli).
- Lower Interface Bar (Interfeysning quyi qatori)

LABORATORIYA MASHG'ULOT № 27

Mavzu: 3DS-MAX dasturida ob'ektlar ustida bajariladigan operatsiyalar va buyruqlar bilan tanishish.

Ishning maqsadi: Talabalarni 3DS-MAX dasturida ob'ektlar ustida bajariladigan operatsiyalar va buyruqlar bilan tanishtirish.

Nazariy qism

3D MAX dasturida ob'ektlar tushunchalari

Geometrik ob'ektlar. Geometrik ob'ektlarni ko'rishda juda kuchli va keng tarqalgan 3D paket Discreet kompaniyasi 3D Studio Max dasturini tanlab uning misolida ob'ektlarning asosiy turlari va modellashtirish texnologiyasini ko'rib o'tamiz. Bu dastur yordamida geometrik ob'ektlarning quyidagi turlari qurilishi mumkin.


Splayn chiziqlar (Spline Curves) - boshqa sirt yoki shakllarni ko'rishda ishlatiladigan va shu tartibda qurilgan (Beze yoki Nurbs) chiziqlar. Ularni harakat troyektoriyalarini ifodalash uchun ham ishlatish mumkin.



Chiziq, muloqot chiziqlari.

Masalan, Beze chiziqlari uchun, xususiy holda, boshlang'ich shakl va chiziqlar to'plami aniqlangan bo'lib (masalan, tekst, aylana, ellips) ular keyinchalik aniq shakllar ko'rishda ishlatilishi mumkin.

Poligonal ob'ektlar (polugonal objects) - bular o'zgarib turuvchi parametrlar bilan ifodalanuvchi (masalan uzunlik, radius) poligonal boshlang'ich shakllar (polygonal primitives) yoki polugonal turlardir (polugonal meshes). Poligonal turlar juft-jufti bilan uchlarni tutashtiruvchi qirralar sifatida aniqlanadi. Boshlang'ich shakllar (primitiv) ni ishlatish dizaynerga (dasturga ham) ob'ekt shaklini o'zgartirishni ancha osonlashtiradi. Shunda 3D - boshlang'ich (primitiv) shakllarni (masalan sfera yoki silindr) namoyish etishda, ularning shakli qirralar yordamida berilgan aniqlikda almashtiriladi. Poligonal d ob'ekt sirti tekis yoqlardan iborat bo'lgani uchun, ularga namoyish silliqligini berishda turli silliqlash algoritmlari foydalaniladi. Bu texnologiya asosan 3D o'yinlarni va virtual borliqni yaratishda keng qo'llanadi.



Poligonal ob'ektlar.




Beze sirti.

Beze sirlari (Bezier patches) - bu Beze cho'qqilarining joylashishi bilan silliq sirtlardir. Bu cho'qqilar sirtga urinma vektorlar (tangent) uchlarida

joylashgan qo‘shimcha boshqaruvchi nuqtalar (control points) yordamida sirtning egriligini aniqlaydi.

Bu sirtlar hisoblash tizimi uchun ma’lum qiyinchiliklarni tug‘dirishiga qaramay, ular yordamida murakkab egri chiziqli ob’ektlarni modellashtirish mumkin.

NURBS sirtlar - bir jinsli bo‘lmagan egri chiziqli sirtlarni modellashtirishda ishlatiladigan eng universal va samarali vositadir. Bunday sirtlar maxsus to‘rt o‘lchovli bir jinsli fazoda ifodalanadi. Unda har bir boshqaruvchi cho‘qqi, uchta X, Y, Z koordinatadan tashqari qo‘shimcha vazn (weight) tavsifiga ham ega. Cho‘qqining o‘rni va nisbiy vaznini o‘zgartirish orqali ob’ekt shaklini aniq boshqarish mumkin.



NURBS sirti.

Murakkab ob’ektlar (compound objects) - oldindan tayyorlab qo‘yilgan ikki yoki undan ko‘p shakllardan tuziladi. Qanday jism qurilishiga qarab oldindan tuzilgan shakllar chiziq yoki sirt bo‘lishi mumkin.

Dinamik ob’ektlar (dynamic objects) - ularga qo‘yilgan tashqi kuchlar ta’sirida harakatga keluvchi ob’ektlar: prujina va amortizatorlar. Ular ob’ekt harakati dinamikasini modellashtirishda ishlatiladi. Boshqa dasturlarda geometrik ob’ektlarni qurish va muharrirlashning shunga o‘xshash yoki ulardan farq qiluvchi usullari qo‘llaniladi.

Topshiriqlar

Quyidagilar haqida ma’lumot bering 1-topshiriq.

3D MAX dasturida ob’ektlar tushunchalari:

- Geometrik ob’ektlar
- Splayn chiziqlar
- Poligonal ob’ektlar
- Beze sirtlari
- NURBS sirtlar

2-topshiriq

3D MAX dasturida ob’ektlar tushunchalari:

- Murakkab ob’ektlar
- Dinamik ob’ektlar

3-topshiriq

3D MAX dasturida ob’ektlar tushunchalari:

- Nogeometrik ob'ektlar
- Yoritish manbai
- Kameralar

4-topshiriq

3D Studio Max dasturida ob'ektlar yaratish:

- Geometry (Geometriya)
- Shapes (Shakllar)
- Lights (Yug'lik manbai)
- Camers (Kameralar)
- Helpers (Yordamchi ob'ektlar)
- Space Wars (deformasiya hajmlari)
- Systems (qo'shimcha qurilmalar).

LABORATORIYA MASHG'ULOT № 28

Mavzu: 3DS-MAX dasturida turli ob'ektlar va jarayonlarni modellashtirish. Ishning maqsadi: Talabalarga 3DS-MAX dasturida turli ob'ektlar va jarayonlarni modellashtirishni o'rgatish.

Nazariy qism

3ds Max atrofimizni qamrab olgan real dunyo va fantastik ob'ektlarning turli tuman Shakl va murakkablikdagi uch o'lchamli kompyuter modellarini yaratish uchun keng ko'lamli vositalar bilan qurollangan bo'lib, ular o'z ichiga quyidagi texnik va mexanizmlarni qo'llaydi:

- mashq maydonlarini modellashtirishga Editable meSh (редактируемая Поверхность) va Editable poly (редактируемый полигон) kirib — bu modellashtirishning eng keng tarqalgan usuli hisoblanadi. Murakkab modellar va quyi mashq maydonlari modellarini yaratish uchun qo'llaniladi.

- qoida bo'yicha murakkab ob'ektlarni modellashtirish Editable poly da navbatdagi Shakl o'zgartirish bilan kechib, «Box» ob'ektlarini parametrik qurish bilan bo'shlanadi. SHuning uchun ham modellashtirish usuli «Box modeling» deb nomlash umum qabul qilingan; bir jinsli bo'lmagan V-splaynlar (NURBS) asosida modellashtirish (Shuni ta'kidlash kerakki, 3ds Maxda NURBS-modellashtirish Shunchalik soddaki bunday usuldan deyarli hech kim foydalanmaydi);

- «сеток кусков» asosida modellashtirish yoki qoplam Безье (Editable patch) — aylanish tanasini modellashtirish uchun mos keladi; standart parametrik ob'ektlar (primitivlar) va modifikatorlar ichki kutubxonasini qo'llagan holda modellashtirish.

- Splaynlar (Spline) asosida modellashtirish navbatdagi galda Surface modifikatorini qo'llash bilan – avvalgi NURBS analogi, qulay, faqat murakkab kesishuvchi Shakllar bilan ob'ektlarni yaratish uchun mo'ljallangan. Qaysiki poligonal modellashtirish usullarida yaratish qiyinroq. Modellashtirish metodlari

bir-biri bilan qo‘shilib, aralashib ketadi. Standart ob’ektlar asosida modellashtirish. Qoida bo‘yicha asosiy modellashtirish usuli hisoblanadi va murakkab tuzilmali ob’ektlarni yaratish uchun tayanch nuqta bo‘lib xizmat qiladi. Chunki tarkibiy ob’ektning elementar qismlari sifatida birg‘birlari bilan bog‘langan primitivlar qo‘llagan holda. «Чайник» (Teapot) standart ob’ekti bu to‘plamga kiradi. U materiallarni va sahna yoritgichlarini sinovdan o‘tkazish uchun qo‘llanilib, undan tashqari allaqachon uch o‘lchamli grafikaning o‘ziga xos simvoliga aylangan.

Particle Systems

Particle Systems (Система частиц) — bu kichik o‘lchamli ob’ektlar majmui bo‘lib, qator parametrlar bo‘yicha bo‘shqariladi. Sahnaning turli holatlardagi zarur qismi bo‘lib xizmat qiladigan elementlar borki ularni modellashtirish talab qilinadi. Ular yomg‘ir, qor, tutun, olov, yulduzli osmon, fontanning sochilishi, uchqun va bo‘shqalar. Dasturning 8-versiyasidan bo‘shlab turli xil namoyishlaydigan holatlar parchalarining 7 asosiy manbalari:

PF Source (Источник Particle Flow) — voqea-hodisalarning ichki Particle Flow tizimida ta’sirga javob qaytaruvchi va programmashtirishga imkon beruvchi zarralar oqimi. Zarralarning bunday oqimi nimani kerak bo‘lsa o‘shani o‘xshatib yasash imkonini beradi. Fontan sochilishidan tortib toki raketalar dvigatellaridagi tutun izigacha modellashtirish imkonini beradi;

Spray (Брызги) — yomg‘ir tomchisiga o‘xshash suv uchquni effektining soddalashgan varianti. Zarra shaklini, ularning o‘lchami va tuShish xarakterlarini sozlash uchun bir qancha parametrlarga ega;

Super Spray (Супер брызги) — zarralarning standart tizimlari bilan ta‘biyoslaganda sezilarli darajada takomillashtirilgan. O‘zida tomchining yaratilishi, harakati va shakli uchun ko‘plab parametrlarga ega. Zarralarga turli hil ob’ektlar shaklini berish mumkin. Ya’ni zarur shaklni hosil qilish uchun suv tomchilari kabi o‘zaro bog‘lanish imkonini beradi;

Snow (Снег) — tuShayotgan qorning oddiy effektini yaratadi va zarra shaklini, o‘lchamini va tuShish xarakterlarini sozlash uchun ko‘plab parametrlarga ega;

Blizzard (Метель) — bu Snow (снег) parchasining takomillashgan versiyasi. Parchalarga turli ob’ektlar shaklini berish mumkin;

Particle Array yoki Particle Array (Массив частиц) — har qanday tipdagi parchani modellashtirish uchun mo‘ljallangan. SHuningdek portlash imitatsiyasi effektlarini takomillashtirish uchun ham qo‘llaniladi;

Particle Cloud yoki Particle Cloud (Облака частиц) — statik bulutlar yaratish va uch o‘lchamli yulduzlar maydoniga o‘xshatib yasash uchun qo‘llash mumkin.

Undan tashqari baliqlar tudasini yoki quShlar uyumini yaratishda ham foydalanish mumkin. Qismlarga turli xil ob’ektlar shaklini berish mumkin;

Reactor

3ds Max o‘z ichiga fizik hisoblashdagi hatolik aniqlash mexanizmi Reactor ni olib, u Havok kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan. Reactor qattiq tanalarni,

yumShoq tanalarni, gazlamalarni og'irlik kuchi va boShqa ta'sirlarni hisobga olgan holda modellashtirish imkonini beradi. 2012 (14) versiyasidan boShlab Reactor ro'yxatdan chiqarilib uning o'rniga MassFX moduli o'rnatilgan.

Hair&Fur

Dasturning 7.5 versiyasidan boShlab 3ds Maxda Hair&Fur (sochlar va yunglarni) moduli qo'Shilgan bo'lib, sochlarni, yunglarni, o't-o'lanlarni, xivchinlarni modellashtirish imkonini beradi.

Modellashtirish

3DS MAXning asosiy ob'ektlari

Bizni atrofimizni qamrab olgan dunyoni soddagina uch o'lchamli sahna deb tasavvur qilish mumkin. Undan tashqari kitobning so'ngida biz 3D Studio Max muhiti uchun tijorat mahsulotlari bilan qisqacha tanishamiz. Ular yordamida yuqori darajada ishlash faqatgina sizning fantaziyangizga bog'liq. Shunday qilib, avval aytib o'tilganidek boSh mohiyat 3DS

MAX muhitining asosiy mezonlarini aniqlanishi - «Harakatda uch o'lchamli».

Uch o'lchamli sahnaning ob'ektlarini yaratish, sozlash va tahrirlash.

Quyida 3DS MAXda yaratiladigan ob'ektlarning umumiy guruhlar ro'yxati keltirilgan:

Primitives (Примитивы) - o'zida geometrik tanani namoyon qilgan bazaviy ob'ektlar. Bu ko'rinish ikkita asosiy to'plamdan tarkib topgan - Standard (Стандартного) va Extended (Расширенного). Bu tipdagi ob'ektlarning asosiy afzalligi - parametrlarning minimal to'plami.

Patch Grids (Лоскутные Сетки) – tekislikka oid ob'ektlar Patch (Поверхности Лоскута) va Vertices (Решетки Управляющих Вершин)lardan tarkib topgan.

Splines (Двумерные сплайны) va NURBS-Curves (Двумерные NURBS-Кривые) - bazaviy ikki o'lchamli Shapes (Формы) 3DS MAXning yordamchi ob'ekti hisoblanadi.

NURBS-Surfaces (Трёхмерные NURBS-Поверхности) - uch o'lchamli splaynlar ko'rinishida tavsiflanadigan murakkab uch o'lchamli ob'ektlar.

Particle Systems (Системы Частиц) - protsedurali ob'ektlar, ko'plab real jarayonlarni (qor, yong'ir, gontan, tutun, uchqun va boShqalar) o'xshatish uchun yaratiladigan fazoviy hudud hisoblanadi.

Compounds (Составные объекты) - matematik, mantiqiy va boShqa algoritmlar qo'llanilgan murakkab ob'ektlarni tuzilmasini ishlab chiqish. Bunday ob'ektlarni yaratish uchun 3 DS MAXda yanada oddiy ikki va uch o'lchamli primitivlar to'plami zarur bo'ladi. 3DS MAX muhitida ob'ektlarni yaratish va tahrirlash imkoniyatlarini ko'rib chiqishga o'tamiz.

Ob'ektlarni yaratish primitivlari

Tiplari bo'yicha guruhlangan barcha ob'ektlar Create (Создать) paneli tugmalari yordamida olinadi. Tiplardan ixtiyoriy biriga o'tish uchun tegishli tugmacha ustida sichqoncha chap tugmasini bosish kerak. Tiplar ro'yxati o'z ichiga quyidagilarni oladi [23]:

- Geometry (Геометрия) - geometriya;
- Shapes (Двумерные Формы) - ikki o'lchamli Shakllar;
- Lights (Источники Света) - yorug'lik manbalari;
- Cameras (Камеры) - kameralar;
- Helpers (Служебные объекты) - xizmatchi ob'ektlar;
- Space Warps (Деформаторы Пространства) - fazoviy
- deformatoirlar; Systems (Системы) - tizimlar;

Har bir ob'ektlar guruhi ob'ektlar to'plamidan faqat bittasi bilan ishlash imkonini beradigan guruh ostining ochiladigan ro'uxati mavjud. Guruhostilar ro'uxatining har bir elementi Object Type (Тип объекта)da berilgan. Ulardan ayrimlarini o'zgartirish mumkinki, navbatdagi barcha bu tipdagi ob'ektlar yangi parametrlarni qo'llagan holda yaratiladi.

Name (Имени) va Color (Цвета)larni berish uchun viritish uchun matn maydoni va ranglar namunasi aks etgan tugmalar.

Yaratiladigan ob'ektning tipiga bog'liq ravishda, bu ro'uxat u yoki bu hisoblagichlar to'plamidan tarkib topadi. Barcha o'lchamlar berilgandan keyin ob'ekt Create (Создать) tugmasi yordamida yaratiladi

Ob'ektlarni tahrirlash

3DS MAX muhitida sahna ob'ektlari parametrlarini o'zgartirish uchun Modify (Редактировать) paneli xizmat qiladi. O'zgartiriladigan ob'ekt belgilangandan keyin bu panelda parametrlar guruhi paydo bo'ladi:

Ob'ekt nomidagi matn maydoni va namuna rangli maydon.

Modifier List (Список модификаторов) ro'uxati va ob'ektlar strukturasi o'zgartirish uskunalarining sozlanadigan to'plami relefli tugmalar ko'rinishida taqdim qilingan.

BoShqa qo'llash uchun mumkin bo'lgan modifikatorlar ro'uxatdan olinadi.

Tugma-modifikatorlar to'plamini panelning pastki o'ng burchagida joylashgan Configure Modifier Sets (Настроить Набор Модификаторов) tugmasi yordamida olish mumkin. Shaxsiy to'plamni yaratishni Configure Modifier Sets muloqot oynasi yordamida amalga oshirish mumkin. Zarur tugmalar soni Total Buttons (Число Кнопок) hisoblagichida ko'rsatiladi. Kerakli modifikatorlar tarkibi chapda joylashgan ro'uxatdan sichqoncha chap tugmasi yordamida ko'chirib o'tkaziladi.

Kerak emasini olib tashlash esa teskari ko'chirib o'tkazish orqali amalga oshiriladi. Yaratilgan to'plamni saqlash kerak. Save (Сохранить) tugmasini bosish va ishni tugallash uchun OK (Да).

Modifier Stack (Стек Модификаторов) maydoni – barcha daraja modifikatorlari ro'uxati bo'lib, belgilangan ob'ektga o'rnatiladi.

Standard Primitives (Стандартные Примитивы) guruhidan ayrim ob'ektlarni yarating. Ko'riladigan ob'ektlardan birinchisi - Sphere (Сфера).

1. Buning uchun Create (Создать) panelini qo'llagan holda, Geometry (Геометрия) tugmasi yordamida asosiy tipdagi ob'ektlar ro'uxatini chaqirish va undan Standard Primitives

(Стандартные Прimitives) guruhini tanlash kerak.

2. Box (Коробка)

Box (Коробки) ob'ektini yaratish qirralar proportsiyalarini belgilashdan bo'shlanadi. Ya'ni bu Kub bo'ladimi yoki Parallelepiped. Bu tiplardan birini tanlash Creation Method (Способ Создания) svitkasidagi Cube / Box qayta ulagich orqali amalga o'shadi.

Uchta hisoblagich Length Segs (Число Сегментов по Длине), Width Segs (Число Сегментов по Глубине) va Height Segs (Число Сегментов по Высоте) tegishli o'lcham bo'yicha va keyinchalik deformatsiyaning silliqiligini ko'rishga imkon beradi yoki detallashtirish darajasi bo'yicha segmentlar soniga javob beradi.

Chiziqli o'lchamlar esa reguliruyutsya schetchikami Length (Длина), Width (Глубина) va Height (Высота) hisblagichlari orqali va sichqoncha yordamidagi an'anaviy yo'l bilan

o'lchamini o'zgartirish mumkin. Bu jarayon yuqorida keltirilgan edi. Yanada mustahkamlash uchun uni takrorlab o'tamiz. 1. Shunday qilib, Box tugmasini tanlangandan va Box (Параллелепипед)ni yaratish usuli ko'rsatilgandan keyin, Top (Вид Сверху) tasviriy oynaga ko'rsatkichni olib kelish kerak. Sichqoncha chap tugmasini bosib, kerakli to'g'ri to'rtburchakgacha cho'zish talab qilinadi. Bunda Length (Длина) va Width (Глубина) hisoblagichlarini o'zgarishini nazorat qilgan holda sichqoncha chap tugmasini qo'yib yuborish talab qilinadi. Agar to'g'ri to'rtburchak emas balki kvadrat chizish kerak bo'lsa u holda barcha jarayon «Ctrl» tugmasi bosilgan holda amalga o'shiriladi. Kerakli o'lcham hosil bo'lganda sichqoncha chap tugmasi qo'yib yuboriladi. Keyinchalik uning o'zgartirilishi Height (Высоту) belgilaydi va Shu nomdagi hisoblagichda aks etadi. Ishni to'xtatish uchun yana sichqoncha chap tugmasi bosiladi.

2. Cube (Куб) yaratish usuli tanlanganda esa barcha uchta o'lchamli hisoblagichlar qulflanadi va sinxron ravishda o'zgartiriladi. Ob'ektni yaratish Sphere (Сферы) ni yaratishga o'xshash amalga o'shadi.

3. Modify (Редактировать) paneliga o'tib, siz yaratilgan ob'ektni parametrlarini qo'shimcha o'zgartirishingiz mumkin. Shunga e'tiboringizni qaratingki uchta o'lchamni qulflanishi Cube (Куб) turidagi qutini yaratishda tahrirlash jarayonida qulf ochiladi va har bir parametr alohida o'zgartiriladi.

1. Shunday qilib, Box tugmasini tanlangandan va Box (Параллелепипед)ni yaratish usuli ko'rsatilgandan keyin, Top (Вид Сверху) tasviriy oynaga ko'rsatkichni olib kelish kerak. Sichqoncha chap tugmasini bosib, kerakli to'g'ri to'rtburchakgacha cho'zish talab qilinadi. Bunda Length (Длина) va Width (Глубина) hisoblagichlarini o'zgarishini nazorat qilgan holda sichqoncha chap tugmasini qo'yib yuborish talab qilinadi. Agar to'g'ri to'rtburchak emas balki kvadrat chizish kerak bo'lsa u holda barcha jarayon «Ctrl» tugmasi bosilgan holda amalga o'shiriladi. Kerakli o'lcham hosil bo'lganda sichqoncha chap tugmasi qo'yib yuboriladi. Keyinchalik uning o'zgartirilishi Height (Высоту) belgilaydi va Shu nomdagi hisoblagichda aks etadi. Ishni to'xtatish uchun yana sichqoncha chap tugmasi bosiladi.

2. Cube (Куб) yaratish usuli tanlanganda esa barcha uchta o'lchamli hisoblagichlar qulflanadi va sinxron ravishda o'zgartiriladi. Ob'ektni yaratish Sphere (Сферы) ni yaratishga o'xshash amalga oshadi.

3. Modify (Редактировать) paneliga o'tib, siz yaratilgan ob'ektni parametrlarini qo'shimcha o'zgartirishingiz mumkin. Shunga e'tiboringizni qaratingki uchta o'lchamni qulflanishi Cube (Куб) turidagi qutini yaratishda tahrirlash jarayonida qulf ochiladi va har bir parametr alohida o'zgartiriladi. Ob'ektni o'zgartirish. Mavjud ob'ektlar bilan navbatdagi ishni bajarish uchun oynakda ularni joylashtiramiz. Buning uchun siljitish amalidan foydalanamiz [19]:

1. Sichqonni chap tugmasini Select and Move (Ajratmoq va siljitmoq) tugmasida bosning.

2. Kursorni Per-spective (Перспектива) oynagidagi tugun ustiga joylashtiring. Sichqonni chap tugmasi ni bosib, uni bosib turgan va mos holda toroidal tugunni siljiting. Siljishni to'xtatish uchun sichqon tugmasini bo'shating. Toroidal tugunni siljitishda ishlatilgan buyruq Shaklni istalgan yo'nalishda siljitish imkoniyatiga ega. So'ng siljitish erkinligini koordinata o'qlari bo'yicha chegaralovchi buyruqlarning bo'shqa bir guruhidan foydalanamiz.

3. Sichqonni chap tugmasini X (X o'qi bo'yicha siljitish) tugmasida bosning.

Kursorni Tor (Ustki ko'rinish) oynagiga joylashtiring. sichqonni chap tugmasi ni bosib, uni qo'yib yubormagan holda tugunni X o'qi bo'yicha siljiting.

4. Sichqonni chap tugmasini Y (Y o'qi bo'yicha siljitish) tugmasida bosning. Tugunni bo'shqa tugun ichida siljiting.

5. Sichqonni chap tugmasini XY (Ozod siljitish) tugmasida bosning va ob'ektlarni Perspective (Перспектива) oynagida siljiting. Agarda yaratgan ob'ektlaringiz haddan ziyod katta yoki kichik bo'lib chiqqan bo'lsa, ularni mashtabga soling.

6. Sichqonni chap tugmasini Select and Scale (Ajratmoq va uskunalari panelini teng mashtablashtirmoq) tugmasida bosning.

7. Kursorni toroidal tugun ustiga joylashtiring, sichqonni chap tugmasini bosning va uni qo'yib yubormagan holda kursorni pastga torting. Ob'ektning o'lchamlari global koordinatalar tizimining uchala o'qi bo'yicha teng miqdorda kichrayadi.

8. Kursorni toroidal tugun ustiga joylashtiring, sichqonni chap tugmasi ni bosning va uni qo'yib yubormagan holda kursorni yuqoriga torting. Bu holda ob'ektning o'lchamlari proporsional ravishda kattalashadi.

Topshiriqlar

1. Kompyuterli modellashtirish vositalari haqida ma'lumot bering.
2. Quyidagilar haqida ma'lumot bering:
 - Editable mesh
 - Editable poly

- Box modeling
 - V-splaynlar
 - Editable patch
 - Splaynlar
 - Primitives
 - Patch Grids
 - Splines
 - NURBS-Surfaces
 - Particle Systems
 - Compounds
3. Ob'ektlarni yaratish primitivlari haqida ma'lumot bering
- Geometry (Геометрия) - geometriya;
 - Shapes (Двумерные объекты) - ikki o'lchamli shakllar;
 - Lights (Источники Света) - yorug'lik manbalari;
 - Cameras (Камеры) - kameralar;
 - Helpers (Служебные объекты) - xizmatchi ob'ektlar;
 - Space Warps (Деформаторы Пространства) - fazoviy deformatoirlar;
 - Systems (Системы) - tizimlar;


LABORATORIYA MASHG'ULOT № 29

Mavzu: 3DS-MAX dasturida yoritgichlar va kameralarni o'rnatish.

Ishning maqsadi: Talabalarga 3DS-MAX dasturida yoritgichlar va kameralarni o'rnatishni o'rgatish.


Nazariy qism

Yoritish manbai (light objects) tashqi va ichki yoritishni ifodalashda ishlatiladi. Turli algoritmlar yorug'lik tarqatuvchi turli manbalarni yaratadi: bir nuqtadan barcha tomonga tarqaluvchi nur; projektordagi chiquvchi fokuslangan yorug'lik; yo'naltirilgan manbadan chiquvchi yo'naltirilgan nur. Bunda manbalardan chiquvchi nur turli rangda bo'lishi, ma'lum masofadan keyin pasayishi shuningdek ob'ektlarning soyalarini hosil qilishi mumkin.



Yoritishni tashkil etish

Kameralar (cameras) - kadr tekisligida ob'ekt aksini to'liq nazorat qilish imkonini beradi. Uning eng asosiy tavsifi, ko'rish maydonini aniqlovchi kamera ob'ektivining foks masofasidir. Bu ikki parametr o'zaro bog'liq va mos ravishda gradus va millimetrlarda o'lchanadi. Yana bir muhim tavsif bu qirqim tekisligidir. U sahna qismining ko'rinish masofasini aniqlaydi. Fazoni bukuvchilar (space warps) ob'ektlarga tashqi kuchlar ta'sirini ifodalaydi, bu - ma'lum ob'ektlarga ta'sir ko'rsatuvchi kuchlar maydoni deformatsiyasi, yoki ob'ekt bo'laklarini sochib yuboruvchi zarbdor to'lqinlarni keltirish mumkin.



Tana a'zolariga ajratildi Materiallar sirtning namoyishi xususiyatlarini, ya'ni sirtning sahna yoritilganligi bilan munosabatini aniqlaydi.

Sirtlarning quyidagi xususiyatlari materiallarning yorug'lik bilan munosabatini aniqlaydi:

- rang (color);
- shaffoflik (transparency);
- sillilik (shiness)
- nurning sinish koeffisenti (refractive index)

Rang va shaffoflik nur sochilishni aniqlaydi. Sinish koeffisenti va sillilik yordaraida sirtan shu'lalar va nurlari oynaviy qaynatish aniqlanadi.

Material rangini tanlashda quyidagilarni hisobga olish kerak:

- Materialni aniq rangini aniqlash.
- Rangning to'qlik darajasi.
- Rangning yorug'lik darajasi.

Namoyish paytida fotorealistik sifatni olish uchun material xususiyatlarini juda aniq berish kerak. Shu maqsadda grafik dasturlarda turli fikr xususiyatli materiallar andoza (shablon) lari ishlatiladi. Andozalardan foydalanish dizayner ishini keskin osonlashtiradi. Sirt yuzasiga har xil bezaklarni (uzor) tushirish uchun dasturlarda teksturali xaritalar (dekorativ bezak — maps) ishlatiladi. (Masalan devorga terilgan g'isht, timsoh terisidan tayyorlangan buyum) . Oldindan tayyorlangan teksturalar har xil turdagi fayllarda (HMP, TIF, JPG, EPS,..) saqlanishi yoki ularni tez qurish qoidalari ko'rinishida saqlanishi mumkin.

3D Studio Max dasturida ob'yektlar yaratish

Ob'yekt toifalari. 3 Ds max dasturi yordamida ob'yektni bir necha toifalarga ajratish mumkin:

- Geometry (Geometriya)
- Shapes (Shakllar)
- Lights (Yolg'lik manbai)
- Camers (Kameralar)
- Helpers (Yordamchi ob'yektlar)
- Space Wars (deformatsiya hajmlari)
- Systems (qo'shimcha qurilmalar)

3D-MAX dasturi orqali standart sodda geometrik shakllarni ixtiyoriysini qurish mumkin. Biz quyida misol tariqasida parallelepipedning panjarali (karkasli) qurilishini ko'rib o'tamiz.


Buning uchun Create (yaratish) buyruqlar panelidagi Geometry (geometriya) ob'ektiga kiramiz, natijada ob'ektga ta'lluqli tugmalari ro'yxatidan Extended Primitives (sozlangan sodda shakllar) tanlanadi va Object Type (ob'ekt turi) Compound Objects - article Systems Patch Grids MURBS Surfaces Dynamics Objects ro'yxatidan oddiy 7 qulay turlariga mos keluvchi yozuvli tugmalar paydo bo'ladi.

So'ngra Chamfer Box (parallelepiped) tugmasi tanlanadi. Buyruq panelining quyi qismida uch yozuv: Creation Method (yaratish usuli), Keybo'rd Entry (klaviaturali kiritish) va Parameters (parametrlar) paydo bo'ladi. Sichqonchani chap tugmasi bilan Perspective proyeksiyasi oynasini tanlang va tugmani qo'yib yubormasdan, parallelepiped asosini chizish uchun kursorni diagonal bo'yicha tortib boramiz, Parameters (parametrlar) da length (uzunligi) va Width (kengligi) parametrlar miqdorining o'zgarishini kuzating). Asos uzunligi va kengligini o'rnatish uchun sichqon tugmasini qo'yib yuborish mumkin. Parallelepiped balandligini berish uchun sichqoncha korsatgichini yuqorida qo'yib yuborilgan nuqtada kursorni joylashtirish va sichqonchani chap tugmasini bosib, so'ngra kursorni biror masofa yuqoriga siljiting va yana chap tugmasini bosish kerak bo'ladi. Hozir siz o'lchagan masofa, 450 burchak bilan qirqiluvchi faska kengligiga teng bo'ldi. Faska balandligini shuningdek Fillet (faska) parametri yordamida ham berish mumkin. Faska sirtini siliqlovchi Smooth (silliqlash) rejimini ulagach, natijada, yasalgan parallelepiped ko'rsatilgan ko'rinishga ega bo'lishi kerak.

Biz segmentlar soni birga teng bo‘gan parallelepiped hosil qildik. Segmentlar sonini o‘zgartirish uchun Lengs Segs (uzunligiga ko‘ra segmentlar) va Width Segs (kengligiga ko‘ra segmentlar) parametrlarni ko‘rsatish mumkin. Segmentlar sonini oshirish ob‘ektining turli qobig‘ini tahrirlash uchun zarur bo‘ladi. Faska chegarasida segmentlar sonini Fillet Segs (faska bo‘yicha segmentlar) o‘zgaruvchisi yordamida berish mumkin.



Odatdagi BOX ni asos qilib olib va unga biroz segmentlar qo‘shib, hatto uchlarini oddiy siljitish bilan qiziqarli ob‘ekt hosil qilish mumkin.



Faskali parallelepiped

EDIT MESH modifikatorining ancha katta darajadagi potentsiali “siqib chiqarish” ya’ni, poligonlarni o‘stirish imkonini beruvchi EXTRUDE buyrug‘ini ozlashtirishi bilan korinib qoladi.

Uch o‘lchamli sahnani Modellashtirish, Animatsiya va Vizualashtirish Dastur bilan ishlash natijasida statik sahnalar yaratiladi. Bunday sahnalar belgilangan geometrik ob'ektlar to‘plamidan tarkib topadi. Bunday ob'ektlar uch o‘lchamli hisoblanadi, ya’ni uchta koordinata bo‘yicha tavsiflanadi. Sodda qilib bu koordinatalarni Uzunlik, Kenglik va Balandlik deb nomlash mumkin. To‘rtinchi o‘lcham esa - Vaqt bo‘lib, faqat dinamik sahnalarda yoki Animatsiya (yoki jonlantirish) ishtirok etgan sahnalarda ishtirok etadi. Statik sahnaga yanada yaqqol misol sifatida arxitektura ob'ektlarining uch o‘lchamli modelini, dinamik sahna sifatida esa - avtomobil dvigatelining ishlash demonstratsiyasini aytish mumkin.

Har qanday sahna standart algoritmlarni qo‘llash orqali Shakllantiriladi:

- Geometriyani yaratish.
- Yorug‘lik manbalarini, tasvirga olish kameralarini va
- materiallarni sozlash. Animatsiyani sozlash.
- Vizualashtirish.

Pirovard natijada, uch o‘lchamli statik sahna ustida yakuniy ish «kartinka» - grafikli tasvir fayli paydo bo‘ladi. Dinamik sahna so‘ngida esa «kartinka»lar to‘plami yoki animatsion ketma-ketlik, ya’ni har bir kadr o‘zgarishni aks ettirib, sahnaning ob'ektlari bilan ro‘y beradi. Vizualizatsiya natijasida ular qog‘ozga, plyonkaga, tolaga ko‘chirilishi yoki videolentaga CDdisk yoki boShqalarga yozilishi mumkin. Uch o‘lchamli sahnani yaratish, sozlash va vizualashtirish ishlash bo‘yicha algoritmnining asosiy bo‘limlariga qisqacha to‘xtalib o‘tamiz.

Geometriyani yoki Modellashtirishni yaratish Bu ishning asosiy bosqichlaridan biri bo'lib, 3DS Max muhitining uskunalari va asosiy buyruqlarga oid muhim bilim va ko'nikmalar talablari bilan tavsiflanadi. Unda jismning fizik hususiyatlari yoki o'zaro bog'liqligi (bu tuShuncha o'xShatib ishlash xolos) emas balki aynan jismning haqiqiy geometriyasini hisobga olish kerak. Sahnani modellashtirish bo'yicha ishlarni o'zlashtirish, ishonch hosil qilish mumkin, boShlang'ich bilimlar hajmi endigina ish boShlagan har qanday foydalanuvchilar eslab qolishi uchun mo'ljallangan va so'nggi natijaga yetarlicha tez erishish mumkin.

Yorug'lik manbai, suratga olish kameralari, materiallar Navbatdagi bosqich, sahnaning vizual xususiyatlarini sozlash bilan yakullanadi. Asosiy va yordamchi yoritilganlikning yorug'lik va tovushi, yorug'lik refleksi manbalarining mavjudligi, soyalarning chuqurligi va o'ta ravshaligi va boShqa ko'plab parametrlar maxsus xizmatchi ob'ektlar - yorug'lik manbalari yordamida beriladi. Tasvirga olish kameralari esa kadrning kengligini boShqaradi, burchakdan ko'rish va burilishlar va boshqalar.

«Редактора Материалов»ning ko'p sonli parametrlari fotohaqqoniylik sahnasini yaratish va sozlashda cheksiz imkoniyatlarni berib, haqiqiy dunyoning tabiiyligi tasviriga yaqinlashtiradi.

Animatsiya

Dinamik sahnalarni modellashtirishda harakatni boShqarishning juda kuchli mexanizmi, alohida ob'ektlarda qanday bo'lsa, butun potoklar va guruhda ham shunday bo'lib, haqiqiy ishonchlilikgacha erishish imkonini berib, modellashtirilgan immitatsiyani video kamera yordamida olingan haqiqiy tasvir kadriga yaqinlashtirish mumkin. Sekinlatish va tezlatish, sikllar va burilishlar, singari bunday parametrlar, vaqt oraliqlarini masShtablash va boShqa animatsiyani boShqarishning boShqa imkoniyatlari foydalanuvchi uchun uddaburon uskuna beradi.

Vizuallashtirish

Yakuniy bosqich, parametrlarni sozlash bilan tugallanadi: olinadigan tasvir sifatini bir maromda borishi, generatsiya qilinadigan kadrlarning formati va tipi, maxsus effektlarni qo'Shish (kamera linzasidagi nur, uning qaytishi va Shu'lalar, ravShanlikning tarqalib ketishi, tez harakatdagi noaniqlik, tuman va ko'plab boShqalar). Har bir kadrning hisobda aldash jarayoni sahnaning murakkabligiga, foydalanilgan materiallar va Shubxasiz hisoblash ro'y beradigan kompyuterga ham to'g'ridan-to'g'ri bog'liq.

LABORATORIYA MASHG'ULOT № 30


Mavzu: 3DS-MAX dasturida vizuallashtirish va maxsus effektlar o'rnatish.

Ishning maqsadi: Talabalarga 3DS-MAX dasturida vizuallashtirish va maxsus effektlar o'rnatishni o'rgatish.

Nazariy qism

LCD Monitorni modellashtirish

LCD monitorni modelini quramiz. 3ds max ni TOP oynasini ishga tushuramiz, parametrlari bilan BOX ni yaratamiz, huddi. Klaviaturada “S” klavishini bosib. Bu klavish faollashtiradi 3ds lar (nuqtalarga bog‘liq, doimiy holatda ekrandagi to‘liqinni nuqtalarga bog‘liqligi o‘rnatilgan).




Biz taxrirlanayotgan maydonda o‘zimizni BOX ni yaratamiz. Buning uchun undan ajratishni yechmasdan, unga sichqonchani o‘ng tugmasini bosamiz, undan so‘ng Convert to Editable Poly.

Klaviaturada “S” klavishini bosamiz, bu Angle Snap ni faollashtiradi (burchaklarga bog‘liq). «Edge» chegarasi pog‘onasida tahrirni tanlaymiz, Slice Plane tugmasini bosamiz


(«Edit Geometry» o‘ramida), so‘ng «Left» oyna proeksiyasida, chizmani 90° ga buramiz, Tizmani kerakli joyga o‘rnatgach «Slice» tugmasini bosamiz, «Edit Geometry» to‘plamida ham shunday. O‘ramlarni faoliyatini to‘xtatish uchun avval «A», so‘ng «S», klavishlarini bosamiz.

Tahrirlashni maydonlar darajasidagini tanlaymiz, endigina yaratilgan maydonni tanlaymiz, «Extrude» tugmasi yonidagi kvadratni bosamiz va belgini kiritamiz, masalan, 75.





Ajratishni maydondan olmay «Left» oynasiga o‘tamiz va klaviaturadagi «Select and Move» ni faollashtiruvchi «W» tugmasini bosib va biroz o‘ngga o‘tkazib. Maydon bilan ishlashni davom ettiramiz. Yana «Extrude» tugmasi

yonidagi kvadratni bosamiz. Paydo bo‘lgan oynada 5 ga teng bo‘lgan bekgini kiritamiz va «Apply» ni 3 marta bosim. Sizda rasmda nima bo‘lsa, shu chiqishi kerak.




«Window/Crossing Selection»  tugmasini bosim, (bunday ko‘rinishga kelishi

kerak ) , qovurg‘a darajasiga tahrirlashni faollashtiring va uchta markaziy qovurg‘ani ajrating. Song «Tor» proeksiyasi oynasida o‘ngga o‘tkazing.



«Vertex» cho‘qqilari darajasida tahrirlashni faollashtiring, ikkita markaziy nuqtani tanlang va ularni (rasmdagidek) ichkariga suring.



«Window/Crossing Selection» tugmasini faol bo‘lmagan holatga o‘tkazing (u bunday

ko‘rinishda bo‘lishi kerak ).


«Edge», qovurg‘asi darajasida tahrirlashni tanlang va klaviaturada «Ctrl» tugmasini bosib turgan holda (rasmda ko‘rsatilganidek) ichki qovurg‘alarni tanlab, ularni «Remove» funksiyasi yordamida o‘chiring. «Remove» funksiyasi «DELETE», va «BACKSPACE» tugmalari bilan bir hil emas, uni biror qovurg‘a (yoki nuqta) tanlanib, sichqonchani o‘ng tugmasini bosib, ro‘yhatdan

«Remove» ni tanlab faollashtirish mumkin.


Maydonlar darajasidagi tahrirlashni tanlang so‘ng, kelib chiqqan maydonni tanlab, unga 5 belgili «Extrude» ni qo‘llang. «Left» proyeksiyasi oynasiga o‘tib, «Remove» funksiyasi yordamida, paydo bo‘lgan qovurg‘ani o‘chiring. So‘ng «Vertex» cho‘qqilari darajasida tahrirlashni tanlang. Qovurg‘alar o‘chirilgachbizga mutlaqo kerak bo‘lmagan Z nuqta qoladi. So‘ng ekranni yasashga o‘tamiz.

Maydonlar darajasidagi tahrirlashni faollashtiring va biz hozirgina nuqtalarni o‘chirgan maydonni ajrating. «Bevel» tugmasi qarshisidagi kichik kvadratni bosib, 1-yo‘lda 5 ga teng belgini, 2- yo‘lda 60 ga teng belgini o‘rnating va «OK» tugmasini bosib.

«Left» proyeksiyasi oynasidagi paydo bo‘lgan maydonni biroz o‘ngga suring (X o‘qi bo‘ylab).




Bizning modelimiz hozirgi monitordan ko‘ra ko‘proq televizorga o‘xshaydi. Shuning uchun «Front» proyeksiyasi oynasiga o‘tib, maydonni mashtablang. Sizda rasmdagidek nimadir paydo bo‘lishi kerak. Mashtablamay o‘zingiz xohlagandek qilishingiz ham mumkin.




Displayimizni yo‘g‘onroq qilishimiz kerak, buning uchun «Extrude» tugmasi yonidagi kvadratni bosib va 10 ga teng belgini kiriting. Ajratishni


olmay maydonni, «Insert» tugmasi yonidagi kichik kvadratni bosing va 10 ga teng belgini kiriting.




«Bevel» tugmasi yonidagi kichik kvadratni bosing. 2 ta yo‘lda “-5” belgisini kiriting.




So‘ng ayrim mayday ishlarni najratamiz. «Left» proyeksiyasi oynasida o‘ng, qovurg‘alar darajasidagi tahrirlashni faollashtiring va rasmda ko‘rsatilganidek qovurg‘alarni ajrating. «Select and Rotate» tugmasini faollashtiring va displayni buring.



Displayni Y o'qi bo'ylab biroz tepaga ko'taring. «Window/Crossing Selection» tugmasi haqida unutmang .

Keling ba'zi uchlaridan halos bo'lamiz. «Perspective» proyeksiyasi oynasiga o'ting va rasmda ko'rsatilganidek boshlanishdagi qovurg'ani tanlang. «Chamfer» tugmasi yonidagi kichik kvadratni bosning. Paydo bo'lgan oynaga 6 belgisini kiriting va «OK» ni bosning. Displayning orqa qismidagi qovurg'a bilan ham huddi shu ishni takrorlang, faqat 4 ga teng belgini kiriting. Biz ko'zlagan maqsadga erishdik monitor tayyor.



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

«Ro'yxatga olindi»
№ BD 5112100 2.02
2016 - yil «25» 08



- Oliv va o'rta maxsus ta'lim
vazirligi

2016 - yil «25» 08

KOMPYUTER GRAFIKASI

FAN DASTURI

Bilim sohasi:	100000 – Gumanitar
Ta'lim sohasi:	110000 – Pedagogika
Ta'lim yo'nalishi:	5112100 – Mehnat ta'limi

Toshkent – 2016

O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2016-yil "15" 08 dagi 355"-sonli buyrug'ining 2 -ilovasi bilan fan dasturi ro'yxati tasdiqlangan.

Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2016- yil "8" 08 dagi "3" - sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar:

Tursunov S.Q. - "Informatika o'qitish metodikasi" kafedrası dosenti, pedagogika fanlari nomzodi

Umarova U.B. - "Informatika o'qitish metodikasi" kafedrası o'qituvchisi

Taqrizchilar:

Zakirova F.M. - Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Kasb ta'limi fakulteti dekani, pedagogika fanlari doktori, professor

N.S.Xodjayev - Toshkent axborot texnologiyalari kasb-hunar kolleji dotsenti, t.f.n.

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti o'quv - uslubiy Kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2016 - yil "14" 04 * dagi 10 -sonli majlis bayonnomasi).

Fanning dolzarbligi

«Kompyuter grafikasi» fanini o'qitishdan maqsad - informatika o'qituvchisining kasbiy sohasida egallashi lozim bo'lgan bilimlar va amalda qo'llash uchun ko'nikma va makalalarni shakllantirish va rivojlantirishdan iborat. Unda har bir kasb egasining faoliyati kerak bo'lgan tayanch nazariy va amaliy ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Mazkur fan dasturi bakalavriat yo'nalishi: 5112100 – Mehnat ta'limi yo'nalishida o'qiladigan «Kompyuter grafikasi» o'quv fani bo'yicha tuzilgan bo'lib, bo'lajak fan o'qituvchisi egallashi kerak bo'lgan qo'yidagi bilimlar va ko'nikmalar majmuini o'z ichiga oladi: kompyuter grafikasi haqida tushuncha. Kompyuter grafikasi turlari: vektorli, rastri, fraktal. Grafik axborotlar bilan ishlash texnologiyasi. Grafik axborotlarni kiritishning maxsus vositalari. Grafik axborotlarni kiritish, tahrirlash va chiqarishning dasturiy vositalari: CorelDrawe, PhotoShop, 3DS-MAX. Tasvirlarga ishlov berish; Grafik ma'lumotlarni aks ettirish; Adobe Photoshop grafik muharriri yordamida Web-sahifada grafik ma'lumotlarni aks ettirish. Ranglar palitrasi. Animatsiya va bannerlarni aks ettirish va ularga qo'yiladigan talablar. Adobe Flash muhitida interfaol animatsiyalar yaratish. Ma'lumotlarni aks ettirishda ularning o'lchamini optimallashtirish; 3DS-MAX dasturi boshqaruv elementlari bilan ishlash. Ob'ektlar ustida bajariladigan operatsiyalar va buyruqlar. Turli ob'ektlar va jarayonlarni modellashtirish. Yoritgichlar va kameralarni o'rnatish va ular bilan ishlash. Materiallar va ular bilan ishlash. Teksturali kartalar va ular bilan ishlash. Animatsiya hosil qilish. Vizuallashtirish va maxsus effektlar. 3DS MAXda klaviaturaning qo'llanilishi.

Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi, uslubiy jihatidan uzviyligi va ketma-ketligi

«Kompyuter grafikasi» fani mazmunning nazariy va amaliy xulosalariga tayanadi. Bu fan ixtisoslik fanlariga kirib, 2,3-semestrlarda o'qitiladi. Dasturni amalga oshirish o'quv rejasidagi rejalashtirilgan informatika, umumiy psixologiya va umumiy pedagogika fanlaridan olingan nazariy va amaliy bilimlarga tayanadi.

Fanning ilm fan va ishlab chiqarishdagi o'rni

«Kompyuter grafikasi» fani insonlarda axborot muhitida ma'lum bir dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qilishi bilan bir qatorda, uning axboriy madaniyatni egallashida asosiy rol o'ynaydi. Bugungi «Axborot» asrida yoshlarning kompyuter savodxonligini oshiribgina qolmay, balki grafik ma'lumotlar bilan ishlash imkoniyatlarini oshiradi. Umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik

litsey va kasb – hunar kollejlarda «Informatika» mutahassislaridagi fanlarni o'qitish uchun kadrlarni tayyorlab beradi.

Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar hamda o'quv mashg'ulotlarini loyihalash

«Kompyuter grafikasi» fanini o'qitish jarayoni auditoriya mashg'ulotlari va mustaqil ta'lim ko'rinishida olib borilishi bilan birga o'qitishning ilg'or va zamonaviy axborot-kommunikatsiyaviy texnologiyalarini, xususan, multimedia va dasturiy vositalar, internet texnologiyalari va yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tadbiiq qilishni nazarda tutgan.

O'quv soatlarining miqdori, tayanch tushunchalar majmuasining hajmi hamda talabalarning psixologik xususiyatlari har bir professor-o'qituvchidan mavzuni bayon etishda yuksak e'tibor va sabr-toqatni talab qiladi. Talaba o'qish faoliyatining samaradorligi o'quv-me'yoriy hujjatlar, adabiyotlar bilan ta'minlanganligiga bog'liq, ayni chog'da ta'lim jarayonida o'qituvchining qanday usul, metod, texnologiyalardan samarali foydalanishi masalasi ham muhim rol o'ynaydi. Fanning o'qitilishida yangi pedagogik va axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish ko'zda tutiladi. Nazariy ma'lumotlar amaliyot va ko'rgazmalilik bilan mustaxkamlangandagina, chuqur bilimga ega bo'lish mumkin. Shuning uchun dasturda amaliy-laboratoriya ishlari katta e'tibor qaratilgan. Talabalarning o'quv fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi axborot-kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalarini tadbiiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashda ta'lim jarayonini optimallashtirish uchun omil bo'ladigan pedagogik texnologiyalardan "Fikrlar xujumi", "Klaster" metodi, "Bumerang", "Skorobey", "Tarozi", "Yelpig'ich" texnologiyasi va boshqalardan foydalaniladi.

Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, elektron materiallar, tarqatma materiallar, virtual kartochkalar foydalaniladi. Nazariy ma'lumotlar amaliyot va ko'rgazmalilik bilan mustahkamlashi kerak. Amaliy-laboratoriya ishlari kompyuter yordamida o'tkaziladi.

«Kompyuter grafikasi» fan modulining dasturi (module syllabus)

O'quv kursining to'liq nomi	Kompyuter grafikasi
Semestr va o'quv kursining davomiyligi	2,3- semestr
O'quv kursining statusi	Matematik va tabiiy-ilmiy fanlar bloki
Dastlabki tayyorgarlik:	Umumiy o'rta ta'lim maktabi, akademik litsey va kasb-hunar kollejaridagi Matematika, Informatika fanlaridan o'zlashtirilgan bilimlarga asoslanadi.

Fanning predmeti va mazmuni: -talabalarga matematika fanining nazariy asoslarini va amaliy tadbirlarini o'rgatish hamda ularni amalda tatbiq etish ko'nikmasini hosil qilishning nazariy va amaliy tomonlarini o'rganishga yo'naltirilgan.

Fanni o'qitishdan maqsad- informatika o'qituvchisining kasbiy sohasida egallashi lozim bo'lgan bilimlar va amalda qo'llash uchun ko'nikma va makalalarni shakllantirish va rivojlantirishdan iborat. Unda har bir kasb egasining faoliyati kerak bo'lgan tayanch nazariy va amaliy ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Fanning o'qitishning vazifasi -

- zamonaviy axborot texnologiyalari orqali olinayotgan ma'lumotlarning qanday hosil qilinishi va ulardan foydalanish haqida ma'lumotlarni berish;
- kompyuter grafikasi haqida ma'lumotlarni berish;
- rastri va vektorli kompyuter grafikasining imkoniyatlarini ochib berish;
- CorelDraw dasturida ishlash imkoniyatlarini va unda bezash ishlarini o'rgatish;
- Adobe Photoshop dasturida ishlash imkoniyatlarini va unda bezash ishlarini o'rgatish.
- Adobe Flash muhitida interfaol animasiyalar yaratish.
- 3DS-MAX dasturi boshqaruv elementlari bilan ishlash. Ob'ektlar ustida bajariladigan operatsiyalar va buyruqlar. Turli ob'ektlar va jarayonlarni modellashtirish. Yoritgichlar va kameralarni o'rnatish va ular bilan ishlash. Materiallar va ular bilan ishlash. Teksturani kartalar va ular bilan ishlash. Animatsiya hosil qilish. Vizualashtirish va maxsus effektlar. 3DS MAXda klaviaturaning qo'llanilishi

"Kompyuter grafikasi" o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- kompyuter grafikasi va turlari, grafik axborotlar bilan ishlash texnologiyasi, grafik axborotlarni kiritish, rang modeli va uning turlari, tahrirlash va chiqarishning dasturiy vositalari, internetda dizayn, Web - saytlarni hosil qiluvchi dasturlar va dasturlash tillari, saytda ma'lumotlarni joylashtirish arxitekturasi, saytni testlash va baholashga doir **bilimga;**

- rastri, fraktal, vektorli, grafik axborotlar bilan ishlash texnologiyasini, grafik axborotlarni kiritishning maxsus vositalari, tasvirlarga ishlov berish, 3DS-MAX dasturi boshqaruv elementlari bilan ishlash, ob'ektlar ustida bajariladigan operatsiyalar va buyruqlar bilan ishlash, turli ob'ektlar va jarayonlarni modellashtirish, yoritgichlar va kameralarni o'rnatish va ular bilan ishlash, materiallar va ular bilan ishlash, teksturali kartalar va ular bilan ishlash, animatsiya hosil qilish, vizualashtirish va maxsus effektlar o'rnatish, 3DS Maxda klaviaturadan foydalanish **ko'nikmasiga;**

- grafik axborotlar bilan ishlash, grafik axborotlarni kiritish, tahrirlash va

chiqarishning dasturiy vositalari bilan ishlash, 3DS-MAX dasturi boshqaruv elementlari bilan ishlash, ob'ektlar ustida bajariladigan operatsiyalar va buyruqlar bilan ishlash, turli ob'ektlar va jarayonlarni modellashtirish, yoritgichlar va kameralarni o'rnatish va ular bilan ishlash, materiallar va ular bilan ishlash, teksturali kartalar va ular bilan ishlash, animatsiya hosil qilish, vizuallashtirish va maxsus effektlar o'rnatish, 3DS Maxda klaviaturadan foydalanish malakasiga ega bo'lishi lozim.	
Ta'lim berish va o'qitish metodlari:	Ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya mashg'ulotlar, mustaqil ishlar
Mustaqil ishlar	Referatlar, dokladlar va keyslar va h.k
Talabalarining bilimlarini baholash usullari, mezonlari va tartibi:	
JN va ON ballari ishchi dasturda beriladi	
Baholash usullari	Yozma ishlar, og'zaki so'rov va h.k.
Fan bo'yicha talabalar bilimini nazorat qilish va baholash mezonlari	
Ball	Talabalar bilim darajasi
86-100	talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim: kompyuter grafikasi, uning turlari, kompyuter grafikasining dasturiy ta'minoti, ranglar sxemalari, rang modellari, grafik fayllarining formatlari va ularning xossalari, grafik axborotlar bilan ishlash texnologiyasi, grafik axborotlarni kiritish, tahrirlash va chiqarishning dasturiy vositalari, CorelDraw dasturida ishlash texnologiyasi, CorelDraw dasturining imkoniyatlaridan foydalanish yo'llari, boshqarish paneli, xossalari paneli, ranglar palitrasi, holat qatori, kontekstli menyu, dokerlar, ma'lumotlar va hujjat oynalari, hujjatlar bilan bajariladigan amallar, grafik ob'ektlarda ranglar va qatlamlar, ob'ektlar menedjeri yordamida yaratilgan qatlamlar va ulardagi shakllar, CorelDraw dasturida instrumentlar yordamida maxsus effektlar yaratish, ob'ektlarni import va eksport qilish, CorelDraw grafik muharririda matn va konturlar bilan ishlash, Adobe Photoshop dasturining asosiy tushunchalari, dasturning ishchi muhitida ishlay olish, hujjatni aks ettirish tartiblari, fayllarni saqlash, grafik ob'ektlarda ranglar va qatlamlar bilan ishlash, Adobe Photoshop dasturida instrumentlar yordamida maxsus effektlar yaratishning yo'llari, Adobe Photoshop grafik muharririda matn va konturlar bilan ishlashda qo'llaniladigan tushunchalar, Adobe Photoshop grafik muharriri yordamida web-sahifada grafik ma'lumotlarni aks ettirish, ranglar palitrasi, animatsiya va bannerlarni aks ettirish, Flash dasturida oddiy, interfaol, multimediali, niqobli animatsiyalar yaratish, 3DS-MAX dasturi boshqaruv elementlari bilan ishlash, ob'ektlar ustida bajariladigan operatsiyalar va buyruqlar bilan ishlash, turli ob'ektlar va jarayonlarni modellashtirish, yoritgichlar va kameralarni o'rnatish va ular bilan ishlash, vizuallashtirish va maxsus

	<p>effektlar o'rnatish, 3DS MAXda klaviaturadan foydalanish haqidagi nazariy bilimlarga ega bo'lishi; ushbu nazariy bilimlarni amalda qo'llay olish ko'nikma va malakalariga ega bo'lishi;</p>
71-85	<p>talabning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:</p> <p>kompyuter grafikasi, uning turlari, kompyuter grafikasining dasturiy ta'minoti, ranglar sxemalari, rang modellari, grafik fayllarining formatlari va ularning xossalari, grafik axborotlar bilan ishlash texnologiyasi, grafik axborotlarni kiritish, tahrirlash va chiqarishning dasturiy vositalar, CorelDraw dasturida ishlash texnologiyasi, CorelDraw dasturining imkoniyatlaridan foydalanish yo'llari, boshqarish paneli, xossalar paneli, ranglar palitrasi, holat qatori, kontekstli menyu, dokerlar, ma'lumotlar va hujjat oynalari, hujjatlar bilan bajariladigan amallar, grafik ob'ektlarda ranglar va qatlamlar, ob'ektlar menedjeri yordamida yaratilgan qatlamlar va ulardagi shakllar, CorelDraw dasturida instrumentlar yordamida maxsus effektlar yaratish, ob'ektlarni import va eksport qilish, CorelDraw grafik muharririda mata va konturlar bilan ishlash, Adobe Photoshop dasturining asosiy tushunchalari, dasturning ishchi muhitida ishlay olish, hujjatni aks ettirish tartiblari, fayllarni saqlash, grafik ob'ektlarda ranglar va qatlamlar bilan ishlash, Adobe Photoshop dasturida instrumentlar yordamida maxsus effektlar yaratishning yo'llari, Adobe Photoshop grafik muharriri yordamida web-sahifada grafik ma'lumotlarni aks ettirish, ranglar palitrasi, animasiya va bannerlarni aks ettirish</p> <p>Flash dasturida oddiy, interfaol animasiyalar yaratish, 3DS-MAX dasturi boshqaruv elementlari bilan ishlash, ob'ektlar ustida bajariladigan operatsiyalar va buyruqlar bilan ishlash, turli ob'ektlar va jarayonlarni modellashtirish, yoritgichlar o'rnatish va ular bilan ishlash haqidagi nazariy bilimlarga ega bo'lishi; ushbu nazariy bilimlarni amalda qo'llay olishi, kasbiy sohalarda fanning amaliy imkoniyatlaridan foydalana olishi;</p>
55-70	<p>uchun talabning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:</p> <p>Kompyuter grafikasi, uning turlari, kompyuter grafikasining dasturiy ta'minoti, ranglar sxemalari, rang modellari, grafik fayllarining formatlari va ularning xossalari, grafik axborotlar bilan ishlash texnologiyasi, grafik axborotlarni kiritish, tahrirlash va chiqarishning dasturiy vositalar, CorelDraw dasturida ishlash texnologiyasi, CorelDraw dasturining imkoniyatlaridan foydalanish yo'llari, Adobe Photoshop dasturining asosiy tushunchalari, dasturning ishchi muhitida ishlay olish, hujjatni aks ettirish tartiblari, fayllarni saqlash, grafik ob'ektlarda ranglar</p>

	va qatlamlar (sloy) bilan ishlash, Flash dasturida oddiy animasiyalar yaratish, 3DS-MAX dasturi boshqaruv elementlari bilan ishlash haqidagi nazariy bilimlarga ega bo'lishi, ushbu nazariy bilimlarni amalda qo'llay olishi;
0-54	- talaba tassavvurga ega emas; - talaba dasturiy materiallarni bilmaydi.

Asosiy qism

Fanning nazariy mashg'ulotlari mazmuni

1-modul. Kompyuter grafikasi asoslari

Kompyuter grafikasi haqida tushuncha. Kompyuter grafikasi turlari: vektorli, rastri, fraktal. Kompyuter grafikasining rivojlanishi. Kompyuter grafikasining dasturiy ta'minotlari haqida. Ranglarning sxemalari. Rang modellari: RGB, HSB, CMYK, HSL. Grafik fayllarining formatlari va ularning xossalari: BMP, WMF, GIF, PNG, TGA, GPEG, TIFF, PSD, CDR. Nuqtali, fraktal va vektorli grafika tushunchalari. Grafik axborotlar bilan ishlash texnologiyasi. Grafik axborotlarni kiritishning maxsus vositalari. Grafik axborotlarni kiritish, taxrirlash va chiqarishning dasturiy vositalari: Paint, 3DS-MAX, CorelDrawe, PhotoShop va boshqalar. Tasvirlarga ishlov berish.

2-modul. CorelDraw dasturida ishlash texnologiyasi

CorelDraw Graphics Suite X5 versiyasining dasturiy paketidagi komponentlari. CorelDraw dasturining yaratuvchilari Windows tizimi uchun quyidagi minimal talablari. Dasturning ishchi muxiti: asosiy menyu, instrumentlar paneli, Ranglar palitrası, saxifalar xisoblagichi, hujjat oynasi, chop etish soxasi. Insturmentlar panelida quyidagi insturmentlar.

CorelDraw dasturining o'ziga xos xususiyatlari va uning imkoniyatlaridan foydalanish yo'llari. Boshqarish paneli. Xossalar paneli. Ranglar palitrası. holat qatori. Kontekstli menyu. Dockerlar. CorelDraw dasturi ko'rinishini moslashtirish, ma'lumotlar va hujjat oynalari, hujjatlar bilan bajariladigan amallar. Hujjat oynasi. hujjatlarni ochish va hujjat oynasini boshqarish. Tasvir masshtabi. ChizQichlar va uladan foydalanish. hujjatni aks ettirish tartiblari. CorelDraw dasturida fayllarni saqlash.

Grafik ob'ektlarda ranglar va qatlamlar (sloy) tushunchasi. CorelDrawda qo'llanuvchi rang modellari (RGB, CMYK, Lab, HSB modellari). Qatlamlar bilan ishlash: Ob'ektlar menedjeri yordamida yaratilgan qatlamlar va ulardagi shakllar, Yangi qatlamlar yaratuvchi instrument, qatlamlar xossalaridan foydalanish,

qatlamlarning joyini almashtirish va ularni avtomatik tarzda barcha sahifalarda aks ettirishini ta'minlash.

CorelDraw dasturida instrumentlar yordamida maxsus effektlar yaratishni yo'llari. Polygon instrumenti. Beze instrumentlari bilan ishlash. CorelDraw dasturi yordamida talabalarning ob'ektlarni import va eksport qilish amallarini bajarish. CorelDraw dasturida kattaliklarning (ob'ektlarning) to'rt tipini import qilish. Ob'ektlarning import va eksporti 3 yo'l bilan amalga oshirish. Import jarayonida «qirqish» dan foydalanish. Nuqtali tasvirlarni vektorli tasvirlarga o'tkazish. CorelDraw grafik muharririda matn va konturlar bilan ishlashda qo'llaniladigan tushunchalar, CorelDraw-dagi ikki xildagi matnli ob'ektlari: G Artistic Text (figurali matn) va Paragraph Text (Oddiy matn). Kegl tushunchasi. Kerning tushunchasi. Interlinary tushunchasi. Simvollar orasidagi masofa. Shape (figura) instrumenti. Konturlarni siljitish. Ob'ektlarni o'ziga nisbatan simmetrik akslantirish.

3-modul. Adobe Photoshop dasturida ishlash texnologiyasi

Adobe Photoshop dasturining asosiy tushunchalari. Dasturning ishchi muxiti.

Dasturning ishchi muxiti: asosiy menyu, instrumentlar paneli, Ranglar palitrası, saxifalar xisoblagichi, hujjat oynasi, chop etish soxasi. Instrumentlar panelida quyidagi instrumentlar. Xossalar paneli. Ranglar palitrası. holat qatori. Kontekstli menyu. hujjatlarni ochish Tasvir masshtabi. ChizQichlar va ulardan foydalanish. hujjatni aks ettirish tartiblari. Fayllarni saqlash. Grafik ob'ektlarda ranglar va qatlamlar (sloy) bilan ishlash. Adobe Photoshop dasturida instrumentlar yordamida maxsus effektlar yaratishni yo'llari. Adobe Photoshop grafik muharririda matn va konturlar bilan ishlashda qo'llaniladigan tushunchalar. Adobe Photoshop grafik muharriri yordamida Web-sahifada grafik ma'lumotlarni aks ettirish. Ranglar palitrası. Animasiya va bannerlarni aks ettirish va ularga qo'yiladigan talablar.

4-modul. 3DS MAX. 3 o'lchamli texnologiyalari

3DS-MAX dasturi boshqaruv elementlari bilan ishlash, ob'ektlar ustida bajariladigan operatsiyalar va buyruqlar bilan ishlash, turli ob'ektlar va jarayonlarni modellashtirish, yoritgichlar va kameralarni o'rnatish va ular bilan ishlash, materiallar va ular bilan ishlash, teksturali kartalar va ular bilan ishlash, animatsiya hosil qilish, vizuallashtirish va maxsus effektlar o'rnatish, 3DS Maxda klaviaturadan foydalanish.

Macromedia Flash muhitida interfaol animasiyalar yaratish. Ma'lumotlarni aks ettirishda ularning o'lchamini optimallashtirish.

Amaliy mashg'ulotlar

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiya

Fan bo'yicha rejalashtirilgan amaliy mashg'ulotlar davomida nazariy bilimlar mustahkamlanadi. Amaliy mashg'ulotlarda tadbirlar keng qo'llanilayotgan asosiy matematik usullarni o'rgatishga e'tiborni kuchaytirish lozim. Ma'lum sabablariga ko'ra ma'ruzaga kirmagan va murakkab bo'lgan tushunchalarni amaliy mashg'ulotlarda ko'rib o'tish maqsadga muvofiqdir. Amaliy mashg'ulotlarda talabalar muayyan masala bo'yicha mavjud bo'lgan yoki mustaqil tarzda kichik ishchi guruhlari yordamida hosil qilingan algoritmlarni muhokama qiladilar. Mazkur mavzularga oid test masalalar tuzib, ular asosida tuzilgan dasturlar majmuasini tuzadilar va kompyuterda olingan natijalarni birgalikda tahlil qiladilar.

Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda quyidagi didaktik taomiyllarga amal qilinadi:

- amaliy mashg'ulotlarining maqsadini aniq belgilab olish;
- o'qituvchining innovatsion pedagogik faoliyati bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish imkoniyatlariga talabalarda qiziqish uyg'otish;
- talabada natijani mustaqil ravishda qo'lga kiritish imkoniyatni ta'minlash;
- talabani nazariy-metodik jihatdan tayyorlash;
- amaliy mashg'ulotlarda nafaqat aniq mavzu bo'yicha bilimlarni yakunlash, balki talabalarni tarbiyalash manbai hamdir.

Amaliy mashg'ulotlarning tahminiy tavsiya etiladigan mavzulari:

1. CorelDraw dasturi asosiy oynasi bilan tanishish.
2. CorelDraw dasturida turli chiziqlar chizish.
3. CorelDraw dasturida yopiq konturlar yaratish.
4. CorelDraw dasturida Pick (ko'rsatgich) instrumenti bilan ishlash.
5. CorelDraw dasturida sodda atroflama chiziqlar va to'ldirishlar.
6. CorelDraw dasturida konturlarni siljitish.
7. CorelDraw dasturida ob'ektni biror burchakka burish amali.
8. CorelDraw dasturida Polygon instrumenti bilan ishlash.
9. CorelDraw dasturida qatlamlar bilan ishlash.
10. CorelDraw dasturida Beze instrumenti bilan ishlash.
11. CorelDraw dasturida ob'ektlarni import va eksport qilish.
12. CorelDraw dasturida mata va konturlar bilan ishlash.
13. CorelDraw dasturida Shape (figura) instrumenti bilan ishlash.
14. CorelDraw dasturida ob'ektlarni o'ziga nisbatan simmetrik akslantirish.
15. Adobe Photoshop dastururi bilan tanishish.
16. Adobe Photoshop dasturining ishchi muxiti bilan ishlash.

17. Adobe Photoshop dasturning xossalar paneli, ranglar palitrasi, holat qatori. Kontekstli menyu bilan ishlash.
18. Adobe Photoshop Dasturning xujjatlarni ochish, Tasvir masshtabi. Chizg'ichlar va ulardan foydalanish. Xujjatni aks ettirish tartiblari. fayllarni saqlash.
19. Adobe Photoshop Dasturning Grafik ob'ektlarda ranglar va qatlamlar (sloy) bilan ishlash.
20. Adobe Photoshop dasturida instrumentlar yordamida maxsus effektlar yaratishni yo'llari.
21. Adobe Photoshop grafik muharririda matn va konturlar bilan ishlashda qo'llaniladigan tushunchalar.
22. Adobe Photoshop grafik muharriri yordamida Web-sahifada grafik ma'lumotlarni aks ettirish.
23. Adobe Flash muhitida interfaol animasiyalar yaratish
24. 3DS-MAX dasturi boshqaruv elementlari bilan ishlash
25. 3DS-MAX dasturida ob'ektlar ustida bajariladigan operatsiyalar va buyruqlar bilan ishlash.
26. 3DS-MAX dasturida turli ob'ektlar va jarayonlarni modellashtirish
27. 3DS-MAX dasturida yoritgichlar va kameralarni o'rnatish
28. 3DS-MAX dasturida vizuallashtirish va maxsus effektlar o'rnatish
29. 3DS MAX dasturida klaviaturaning imkoniyatlaridan foydalanish

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar asosiy ma'ruza mavzulari bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalarini amaliy masalalarga dasturlar tuzish orqali bilimlarini yanada boyitadilar. Shuningdek, darslik va o'quv qo'llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustaxkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish, ilmiy maqolalar va tezislarni chop etish orqali talabalar bilimini oshirish, masalalarning dasturini tuzish, mavzular bo'yicha ko'rgazmali qurollar tayyorlash va boshqalar tavsiya etiladi.

Laboratoriya mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Laboratoriya mashg'ulotlarida talabalar kompyuter yordamida grafik ma'lumotlarni hosil qilish va amalda uning natijalarini ko'rib, ularni tahlil qiladi va xulosalar chiqaradilar.

Laboratoriya mashg'ulotlari uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. CorelDraw dasturi bilan tanishish.

2. To'g'ri va egri chiziqlar chizish.
3. Yopiq konturlar yaratish.
4. Pick (ko'rsatgich) instrumenti bilan ishlash.
5. Sodda atroflama chiziqlar va to'ldirishlar.
6. Konturlarni siljitish.
7. Ob'ektni biror burchakka burish amali.
8. Polygon instrumenti bilan ishlash.
9. Qatlamlar bilan ishlash.
10. Beze instrumenti bilan ishlash.
11. Ob'ektlarni import va eksport qilish.
12. Matn va konturlar bilan ishlash
13. Shape (figura) instrumenti bilan ishlash.
14. Ob'ektlarni o'ziga nisbatan simmetrik akslantirish.
15. Adobe Photoshop dastururi bilan tanishish.
16. Adobe Photoshop dasturning ishchi muxiti bilan ishlash.
17. Adobe Photoshop dasturning xossalar paneli, ranglar palitrasi, holat qatori. Kontekstli menyu bilan ishlash.
18. Adobe Photoshop Dasturning xujjatlarni ochish, Tasvir masshtabi. Chizg'ichlar va ulardan foydalanish. Xujjatni aks ettirish tartiblari. fayllarni saqlash.
19. Adobe Photoshop Dasturning Grafik ob'ektlarda ranglar va qatlamlar (sloy) bilan ishlash.
20. Adobe Photoshop dasturida instrumentlar yordamida maxsus effektlar yaratishni yo'llari.
21. Adobe Photoshop grafik muharririda matn va konturlar bilan ishlashda qo'llaniladigan tushunchalar.
22. Adobe Photoshop grafik muharriri yordamida Web-sahifada grafik ma'lumotlarni aks ettirish.
23. Macromedia Flash muhitida interfaol animasiyalar yaratish
24. 3DS-MAX dasturi boshqaruv elementlari bilan ishlash
25. Ob'ektlar ustida bajariladigan operatsiyalar va buyruqlar bilan ishlash
26. Turli ob'ektlar va jarayonlarni modellashtirish
27. Yoritgichlar va kameralarni o'rnatish va ular bilan ishlash
28. Vizualashtirish va maxsus effektlar o'rnatish
29. 3DS Maxda klaviaturadan foydalanish

Kurs ishini tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar

Fan bo'yicha kurs ishi o'quv rejada ko'zda tutilmagan.

Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni

Talaba mustaqil ta'limni tayyorlashda fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- ma'ruzalar qismini mustaqil o'zlashtirish;
- elektron darsliklar va o'quv qo'llanmalar, avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi va nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni o'rganish;
- talabani o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularni chuqur o'rganish;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari;
- masofaviy ta'lim.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ta'lim mavzulari:

1. Grafik axborotlar bilan ishlash texnologiyasi.
2. Grafik axborotlarni kiritishning maxsus vositalari.
3. Grafik axborotlarni kiritish, taxrirlash va chiqarishning dasturiy vositalari: CorelDrawe, PhotoShop, 3D-MAX va boshqalar bilan ishlash.
4. 3D texnologiyalar
5. 3DS-MAX dasturi boshqaruv elementlari bilan ishlash
6. Ob'ektlar ustida bajariladigan operatsiyalar va buyruqlar bilan ishlash
7. Turli ob'ektlar va jarayonlarni modellashtirish
8. Yoritgichlar va kameralarni o'rnatish va ular bilan ishlash
9. Vizualashtirish va maxsus effektlar o'rnatish
10. 3DS Maxda klaviaturadan foydalanish

Dasturning informatsion-uslubiy ta'minoti

Fanni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy usullari, pedagogic va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan. Jumladan

- jihozlar va uskunalar, moslamalar: elektron doska-Hitachi, LCD-monitor, elektron ko'rsatgich (ukazka);
- video-audio uskunalar: video va audiomagnitofon, mikrofon, kolonkalar;
- kompyuter va multimediali vositalar: kompyuter, Dell tipidagi proyektor, DVD-diskovod, Web-kamera, video-ko'z (glazok).

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati
Asosiy adabiyotlar:

1. John M. Blain The Complete Guide to 3D Computer Graphics: Computer Modeling & Animation. A K Peters/CRC Press. USA, 2016. 550-p.
2. M.Aripov, M.Muhammadiyev. Informatika, Informatson texnologiyalar. Darslik, T.: TDYuL, 2004 y.
3. M.Mamarajabov, S.Tursunov. Kompyuter grafikasi va Web-dizayn. Darslik, T.: "Cho'pon", 2013 y.
4. U.Yuldashev, M.Mamarajabov, S.Tursunov. Pedagogik Web-dizayn. O'quv qo'llanma. T.: "Voriz", 2013 y.
5. P.Xamdamov va boshqalar. Ta'limda axborot texnologiyalari. Usulubiy qo'llanma. Toshkent, "Uzbekiston milliy ensiklopediyasi", 2010 y.
6. M.Aripov, M.Fayziyeva, S.Dottayev. Web texnologiyalar. O'quv qo'llanma. T.: "Faylasuflar jamiyati", 2013 y.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Петров. CorelDraw 9: Справочник. – Москва: Бином, 2000 г.
2. Миронов Д. CorelDraw 9: Учебный курс. Москва, 2000 г.
3. Макарова Н.В. и др. Информатика – М.: Финансы и статистика, 1997 г.
4. Аripov M. Internet va elektron pochta asoslari. - T.; 2000 y.
5. Компьютерные сети. Учебный курс: официальное пособие Microsoft для самостоятельной подготовки. Пер.с англ. 2 изд. –М.: «Русская редакция», 1999 г.
6. М.Бурлаков. CorelDraw 12. Москва, "ВНУ-Петербург", 2004 г.
7. С.В.Лебедев Web-дизайн. Учеб.пос., Москва, ЗАО "Издательский дом Альянс пресс", 2004 г.
8. С.В.Бондаренко, Бондаренко М. 3DS max 7. Москва, "Издательский дом Питер", 2006 г.

Internet saytlari

1. www.ziyounet.uz – Axborot ta'lim portali
2. www.edu.uz – Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi portali
3. www.idpu.uz – Nizomiy nomidagi TDPU rasmiy sayti
4. [http:// corel.Deamiart.ru/](http://corel.Deamiart.ru/).
5. www.amazon.com
6. <http://www.ctc.msiu.ru/materials/Book1,2/index1.html>
7. http://www.ctc.msiu.ru/materials/CS_Book/A5_book.tgz
8. <http://www.ifmo.ru/docs/case/>

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

«AXBOROT TEXNOLOGIYALARI» KAFEDRASI



KOMPYUTER GRAFIKASI
fani bo'yicha
ISHCHI O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 100000 – Gumanitar soha
Ta'lim sohasi: 110000 – Pedagogika
Ta'lim yo`nalishi: 5112100 – Mehnat ta'limi

Bosqich: II

Umumiy o'quv soati: 198.

Shu jumladan: Ma'ruza - 30

Amaliyot mashg'uloti - 24


Laboratoriya mashg'uloti – 60

Mustaqil ta'lim – 84

Guliston – 2018

Fanning ishchi o'quv dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida ishlab chiqilgan va O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan namunaviy o'quv dasturi hamda o'quv rejasiga muvofiq ishlab chiqildi.

Tuzuvchi: Islikov S.X. – GulDU, “Axborot texnologiyalari”
kafedra o'qituvchisi




Taqrizchi: Allayorov S.P. - GulDU, “Axborot texnologiyalari”
kafedra dotsenti, texnika fanlari nomzodi



Fanning ishchi o'quv dasturi “Axborot texnologiyalari” kafedrasining 2017 yil 27 avgustdagi 1-sonli yig'ilishida muhokama qilindi va Fizika-matematika fakulteti Ilmiy – metodik Kengashida ko'rib chiqish uchun tavsiya qilindi.

Kafedra mudiri:  dots. Abduraximov D.B.

Fanning ishchi o'quv dasturi Fizika-matematika fakulteti Ilmiy – metodik Kengashining 2018 yil 28 avgust 1-sonli yig'ilishi qarori bilan tasdiqlandi.

Fakultet Ilmiy – metodik Kengashi raisi  dots. Toshtemirov D.

Fanning ishchi o'quv dasturi Guliston davlat universiteti o'quv-metodik Kengashining 2018 yil 29 avgust 1-sonli majlisida muhokama etildi va maqullandi.

I. KIRISH

Mazkur ishchi o'quv fan dasturi bakalavriat yo'nalishi 5112100 – Mehnat ta'limi yo'nalishida o'qiladigan “Kompyuter grafikasi” o'quv fani bo'yicha tuzilgan bo'lib, bo'lajak fan o'qituvchisi egallashi kerak bo'lgan qo'yidagi bilimlar va ko'nikmalar majmuini o'z ichiga oladi:

- Kompyuter grafikasi haqida tushuncha. Kompyuter grafikasi turlari: vektorli, rastri, fraktal, CD-grafika. Kompyuter grafikasining rivojlanishi. Kompyuter grafikasining dasturiy ta'minotlari haqida. Ranglarning sxemalari. Rang modellari: RGB, HSB, CMYK, HSL. Grafik fayllarining formatlari va ularning xossalari: BMP, WMF, GIF, PNG, TGA, GPEG, TIFF, PSD, CDR. Nuqtali, fraktal va vektorli grafika tushunchalari. Grafik axborotlar bilan ishlash texnologiyasi.
- CorelDraw dasturida ishlash texnologiyasi. CorelDraw dasturining o'ziga xos xususiyatlari va uning imkoniyatlaridan foydalanish yo'llari. Boshqarish paneli. Xossalar paneli. Ranglar palitrasi. holat qatori. CorelDraw dasturida instrumentlar yordamida maxsus effektlar yaratishni yo'llari. Polygon instrumenti. Beze instrumentlari bilan ishlash. CorelDraw dasturi yordamida talabalarning ob'ektlarni import va eksport qilish amallarini bajarish.
- Adobe Photoshop dasturida ishlash texnologiyasi. Adobe Photoshop dasturining asosiy tushunchalari. Dasturning ishchi muxiti. Grafik ob'ektlarda ranglar va qatlamlar (sloy) bilan ishlash. Adobe Photoshop dasturida instrumentlar yordamida maxsus effektlar yaratishni yo'llari. Adobe Photoshop grafik muharririda matn va konturlar bilan ishlashda qo'llaniladigan tushunchalar. Adobe Photoshop grafik muharriri yordamida Web-sahifada grafik ma'lumotlarni aks ettirish. Ranglar palitrasi. Animasiya va bannerlarni aks ettirish va ularga qo'yiladigan talablar.

1.1. Fanning maqsadi va vazifalari

“Kompyuter grafikasi” fanini o'qitishdan **maqsad**- informatika o'qituvchisining kasbiy sohasida egallashi lozim bo'lgan bilimlar va amalda qo'llash uchun ko'nikma va makalalarni shakllantirish va rivojlantirishdan iborat. Unda har bir kasb egasining faoliyati kerak bo'lgan tayanch nazariy va amaliy ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Fanni o'qitishdagi **vazifalar**:

- zamonaviy axborot texnologiyalari orqali olinayotgan ma'lumotlarning qanday xosil qilinishi va ulardan foydalanish haqida ma'lumotlarni berish;
- kompyuter grafikasi haqida ma'lumotlarni berish;
- rastri va vektorli kompyuter grafikasining imkoniyatlarini ochib berish;
- CorelDraw dasturida ishlash imkoniyatlarini va unda bezash ishlarini o'rgatish;

- Adobe Photoshop dasturida ishlash imkoniyatlarini va unda bezash ishlarini o'rgatish.

1.2. Fanni o'zlashtirishga qo'yiladigan talablar

“Kompyuter grafikasi” o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- zamonaviy axborot texnologiyalari haqida, kompyuter grafikasi turlari haqida, CorelDraw va Adobe Photoshop dasturlari interfeysi va dasturning o'ziga xos xususiyatlari, xujjatlar va xujjatlar bilan bajariladigan amallar, internetda dizayn asoslari, http teglari, Web - saytlarni hosil qiluvchi dasturlar va dasturlash tillari haqida ma'lumotlar,. Dinamik saytlar xakida, . WEB serverlar, Saytni testlash va baholash asoslari haqida **bilishi kerak**.

- zamonaviy axborot texnologiyalar imkoniyatlarini; kompyuter garfikasi turlari va ularning imkoniyatlarini; vektorli va rastrli kompyuter grafikasi; CorelDraw va Adobe Photoshop dasturlarida ishni tashkil qilish usullarini, tasvirlarni hosil qiluvchi dasturlarda ishlashni **ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak**.

- CorelDraw va Adobe Photoshop dasturlarida ishlash; CorelDraw va Adobe Photoshop dasturlarida tasvirlar hosil qilish: CorelDraw va Adobe Photoshop dasturlarining oynasi bilan ishlash ishlarini bajarish **malakalariga ega bo'lish kerak**.

1.3. Fanning boshqa fanlar bilan bog'liqligi.

“Kompyuter grafikasi” fani asosiy kasbiy fanlaridan biri hisoblanib, 3-4-5-semestrda o'qitiladi. Dasturni amalga oshirish o'quv rejasidagi rejalashtirilgan nazariy informatika, ma'lumotlar bazasi va ularni boshqarish tizimlari, fizika, psixologiya va pedagogika fanlaridan olingan nazariy va amaliy bilimlarga tayanadi.

1.4. Fanning hajmi

№	Mashg'ulot turi	Ajratilgan soat	Semestr	
			III	
1	Nazariy (ma'ruza)	30	30	
2	Amaliy mashg'ulot	24	24	
3	Laboratoriya mashg'uloti	60	60	
4	Mustaqil ta'lim	84	84	
JAMI:		198	198	

II. Asosiy qism

2.1. Nazariy mashg'ulotlar mavzulari maqsadi va ularga ajratilgan soatlar

№	Nazariy mashg'ulot mavzulari	Mashg'ulot maqsadi	Ajratilgan soat
1.	Kompyuter grafikasi haqida tushuncha. Kompyuter grafikasi turlari.	Talabalarga kompyuter grafikasi, vektorli, rastri, fraktal, cd-grafika kompyuter grafikasi turlari, kompyuter grafikasining rivojlanishi, kompyuter grafikasining dasturiy ta'minotlari haqida bilim berish	2
2.	Kompyuter grafikasining dasturiy ta'minotlari haqida. Ranglarning sxemalari. Rang modellari: RGB, HSB, CMYK, HSL.	Talabalarga kompyuter grafikasining dasturiy ta'minotlari. ranglarning sxemalari, rang modellari: RGB, HSB, CMYK, HSL, grafik fayllarining formatlari va ularning xossalari: BMP, WMF, GIF, PNG, TGA, GPEG, TIFF, PSD, CDR, nuqtali, fraktal va vektorli grafika haqida bilim berish	2
3.	Grafik axborotlar bilan ishlash texnologiyasi.	Talabalarni grafik axborotlarni kiritishning maxsus vositalari, grafik axborotlarni kiritish, taxrirlash va chiqarishning dasturiy vositalari: paint, cd-max, coreldrawe, photoshop va boshqalar bilan tanishtirish	2
4.	CorelDraw dasturiy paketi komponentlari. Dasturning ishchi muxiti.	Talabalarga CorelDraw Graphics Suite X5 versiyasining dasturiy paketidagi komponentlari, CorelDraw dasturining yaratuvchilari Windows tizimi uchun minimal talablari, dasturning ishchi muxiti: asosiy menyu, instrumentlar paneli, ranglar palitrasi, sahifalar xisoblagichi, hujjat oynasi, chop etish sohasi, instrumentlar paneli to'g'risida bilim berish.	2
5.	Xossalar paneli. Ranglar palitrasi. Holat qatori. Kontekstli menyu. Dokerlar.	Talabalarda boshqarish paneli, xossalar paneli, ranglar palitrasi, holat qatori, kontekstli menyu, dokerlarga doir tushunchalarni hosil qilish.	2
6.	CorelDraw dasturi ko'rinishini moslashtirish, ma'lumotlar va hujjat oynalari, hujjatlar bilan bajariladigan amallar.	Talabalarda CorelDraw dasturi ko'rinishini moslashtirish, ma'lumotlar va hujjat oynalari, hujjatlar bilan bajariladigan amallar, hujjat oynasi, hujjatlarni ochish va hujjat oynasini boshqarish, tasvir masshtabi,	2

		chizg'ichlar va ulardan foydalanish, hujjatni aks ettirish tartiblari, CorelDraw dasturida fayllarni saqlash.to'g'risida bilim berish.	
7.	Grafik ob'ektlarda ranglar va qatlamlar (sloy) tushunchasi. CorelDrawda qo'llanuvchi rang modellari.	Talabalarda yangi qatlam yaratuvchi instrument, qatlamlar xossalaridan foydalanish, qatlamlarning joyini almashtirish va ularni avtomatik tarzda barcha sahifalarda aks ettirishini ta'minlash, CorelDrawda qo'llanuvchi RGB, CMYK, Lab, HSB rang modellari, qatlamlar bilan ishlash: ob'ektlar menedjeri yordamida yaratilgan qatlamlar va ulardagi shakllar to'g'risida tushunchalar hosil qilish.	2
8.	CorelDraw dasturida instrumentlar yordamida maxsus effektlar yaratishnig yo'llari.Polygon va Beze instrumentlari	Talabalarda CorelDraw dasturida instrumentlar yordamida maxsus effektlar yaratishnig yo'llari, Polygon va Beze instrumentlari to'g'risida tushunchalar hosil qilish.	2
9.	CorelDraw dasturida kattaliklarni(ob'ektlarni) import va eksport qilish.	Talabalarda CorelDraw dasturida kattaliklarning (ob'ektlarning) to'rt tipini import qilish, ob'ektlarning import va eksporti 3 yo'l bilan amalga oshirish, import jarayonida «qirqish» dan foydalanish, nuqtali tasvirlarni vektorli tasvirlarga o'tkazish to'g'risida tushunchalar hosil qilish.	2
10.	CorelDrawda ikki turdagi matnli ob'ektlar: G Artistic Text (figurali matn) va Paragraph Text (Oddiy matn).	Talabalarda CorelDraw-dagi ikki xildagi matnli ob'ektlari: G Artistic Text (figurali matn) va Paragraph Text (Oddiy matn), kegl tushunchasi, kerning tushunchasi, interlinyaj tushunchasi, simvollar orasidagi masofa, shape(figura) instrumenti, konturlarni siljitish, ob'ektlarni o'ziga nisbatan simmetrik akslantirish to'g'risida bilim hosil qilishga doir bilim hosil qilish.	2
11.	Adobe Photoshop dasturining asosiy tushunchalari. Dasturning ishchi	Talabalarda Adobe Photoshop dasturining asosiy tushunchalari, dasturning ishchi muxiti, dasturning ishchi muxiti: asosiy menyu,	2

	muxiti.	instrumentlar paneli, ranglar palitrasi, saxifalar xisoblagichi, hujjat oynasi, chop etish sohasiga doir bilim hosil qilish.	
12.	Adobe Photoshop dasturida instrumentlar paneli, xossalar paneli. Ranglar palitrasi. Holat qatori. Kontekstli menyu.	Talabalarda instrumentlar paneli, xossalar paneli, ranglar palitrasi, holat qatori, kontekstli menyu, hujjatlarni ochish tasvir masshtabi, chizg'ichlar va ulardan foydalanish, hujjatni aks ettirish tartiblari, fayllarni saqlashga doir bilim hosil qilish.	2
13.	Grafik ob'ektlarda ranglar va qatlamlar (sloy) bilan ishlash. Adobe Photoshop dasturida instrumentlar yordamida maxsus effektlar yaratishni yo'llari.	Talabalarda grafik ob'ektlarda ranglar va qatlamlar (sloy) bilan ishlash, instrumentlar yordamida maxsus effektlar yaratishni yo'llariga doir bilim hosil qilish.	2
14.	Adobe Photoshop grafik muharririda matn va konturlar bilan ishlashda qo'llaniladigan tushunchalar.	Talabalarda Adobe Photoshop grafik muharririda matn va konturlar bilan ishlashda qo'llaniladigan tushunchalarga doir bilim hosil qilish.	2
15.	Adobe Photoshop grafik muharriri yordamida Web-sahifada grafik ma'lumotlarni aks ettirish.	Talabalarda Adobe Photoshop grafik muharriri yordamida Web-sahifada grafik ma'lumotlarni aks ettirishga doir bilim hosil qilish	2
		jami:	30

2.2. Amaliy mashg'ulotlari mavzulari maqsadi va ularga ajratilgan soatlar

№	Amaliy mashg'ulot mavzulari	Mashg'ulot maqsadi	Ajrati l-gan soat
1.	Kompyuter grafikasi, uning rivojlanishi. Kompyuter grafikasining dasturiy ta'minotlari haqida. Ranglarning sxemalari.	Talabalarni kompyuter grafikasi, uning rivojlanishi. kompyuter grafikasining dasturiy ta'minoti, ranglarning sxemalari bilan tanishtirish.	2
2.	CorelDraw dasturining ishchi muxiti: asosiy menyu,	Talabalarda dasturning ishchi muxiti: asosiy menyu, instrumentlar paneli,	2

	instrumentlar paneli, ranglar palitrasi, saxifalar xisoblagichi, hujjat oynasi, chop etish sohasi, instrumentlar paneli.	ranglar palitrasi, saxifalar xisoblagichi, hujjat oynasi, chop etish sohasi, instrumentlar paneli ga doir tushunchalarni hosil qilish.	
3.	CorelDraw dasturining xossalar paneli. Ranglar palitrasi. Holat qatori. Kontekstli menyu. Dockerlar.	Talabalarni xossalar paneli, ranglar palitrasi, holat qatori, kontekstli menyu, dockerlar bilan tanishtirish.	2
4.	CorelDraw dasturi yordamida ob'ektlarni import va eksport qilish amallari	Talabalarni CorelDraw dasturi yordamida ob'ektlarni import va eksport qilish amallari bilan tanishtirish.	2
5.	Polygon va Beze instrumentlari bilan ishlash.	Talabalarni Polygon va Beze instrumentlari bilan ishlashga o'rgatish.	2
6.	CorelDraw grafik muharririda matn va konturlar bilan ishlash	Talabalarda CorelDraw grafik muharririda matn va konturlar bilan ishlashga doir tushunchalarni hosil qilish.	2
7.	Corel Draw dasturi interfeysini sozlash. Turli uskunalari bilan tasvirlar yaratish.	Talabalarda "Forma", "Krivaya Beze", "Pryamougolnik", "Oval", "Mnogougolnik", "Abris" uskunalarini va ularning xususiyatlarini o'zgartirish, sahifalarni masshtablashtirishga doir tushunchalarni hosil qilish.	2
8.	Egri chiziqlar yordamida tasvirlar hosil qilish	Talabalarni Egri chiziqlar yordamida tasvirlar hosil qilishga o'rgatish	2
9.	Hajmga ega tasvirlar yaratish "Peretekaniya" uskunasi bilan ishlash. Matnlar bilan ishlash.	Talabalarda hajmga ega tasvirlar yaratishni, "Peretekaniya" va matnlar bilan ishlash ko'nikma va malakalarni hosil qilish	2
10.	Adobe Photoshop dasturining instrumentlar paneli	Talabalarda Adobe Photoshop dasturining instrumentlar paneliga doir tushunchalarni hosil qilish.	2
11.	Adobe Photoshop dasturida grafik ob'ektlarda ranglar va qatlamlar (sloy) bilan ishlash.	Talabalarda grafik ob'ektlarda ranglar va qatlamlar (sloy) bilan ishlashga doir tushunchalarni hosil qilish.	2
12.	Adobe Photoshop dasturida filtrlar bilan ishlash.	Talabalarda Adobe Photoshop dasturida filtrlar bilan ishlashga doir tushunchalarni hosil qilish.	2
		jami:	24

2.3. Laboratoriya mashg'ulotlari mavzulari maqsadi va ularga ajratilgan soatlar

№	Laboratoriya mashg'uloti mavzulari	Mashg'ulot maqsadi	Ajratilgan soat
1.	CorelDraw dasturi bilan tanishish.	Talabalarni CorelDraw dasturi bilan tanishtirish	2
2.	CorelDraw dasturida to'g'ri va egri chiziqlar yordamida tasvirlar yaratish.	Talabalarda coreldraw dasturida to'g'ri va egri chiziqlar yordamida tasvirlar yaratish ko'nikma va malakalarni shakllantirish	2
3.	Ob'ektlar bilan ishlash asoslari.	Talabalarda ob'ektlarni o'chrish, ko'chirish, aylantirish, burish, masshtablashtirish, akslantirish, amallarni qaytarish konikma va malakalarini shakllantirish	2
4.	Sodda geometrik figuralar va turli bo'yoq (zalivka)lar yordamida tasvirlar yaratish.	Talabalarda turli bo'yoq (zalivka)lar yordamida tasvirlar yaratish konikma va malakalarini shakllantirish	2
5.	Egri chiziqlar yordamida tasvirlar hosil qilish	Talabalarda egri chiziqlar yordamida tasvirlar hosil qilish konikma va malakalarini shakllantirish	2
6.	Ob'ektlarni tartiblash va birlashtirish.	Talabalarda ob'ektlarni tartiblash va birlashtirish malaka va ko'nikmalarini shakllantirish	2
7.	CorelDraw dasturi yopiq konturlar yordamida tasvirlar yaratish.	Talabalarda CorelDraw dasturi yopiq konturlar yordamida tasvirlar yaratish ko'nikma va malakalarni shakllantirish	2
8.	CorelDraw dasturi yopiq konturlar yordamida tasvirlar yaratish.	Talabalarda yopiq konturlar bilan ishlashga o'rgatish.	2
9.	CorelDraw dasturi Pick (ko'rsatgich) instrumenti yordamida tasvirlar yaratish.	Talabalarda Pick (ko'rsatgich) instrumenti bilan ishlash ko'nikma va malakalarni shakllantirish	2
10.	CorelDraw dasturi sodda atroflama chiziqlar va to'ldirishlar yordamida tasvirlar yaratish.	Talabalarni sodda atroflama chiziqlar va to'ldirishlar bilan ishlashga o'rgatish.	2
11.	CorelDraw dasturi konturlarni siljitish yordamida tasvirlar	Talabalarni konturlarni siljitish bilan ishlashga o'rgatish.	2

	yaratish.		
12.	CorelDraw dasturi ob'ektni biror burchakka burish amali yordamida tasvirlar yaratish.	Talabalarni ob'ektni biror burchakka burish amali bilan ishlashga o'rgatish.	2
13.	CorelDraw dasturi Polygon instrumenti yordamida tasvirlar yaratish.	Talabalarni Polygon instrumenti bilan ishlashga o'rgatish.	2
14.	CorelDraw dasturi qatlamlar bilan ishlash.	Talabalarni qatlamlar bilan ishlashga o'rgatish.	2
15.	CorelDraw dasturi qatlamlar bilan ishlash.	Talabalarni qatlamlar bilan ishlashga o'rgatish.	2
16.	CorelDraw dasturi Beze instrumenti bilan ishlash.	Talabalarda Beze instrumenti bilan ishlash ko'nikma va malakalarni shakllantirish	2
